

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

“OZIQ – OVQAT TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI



“TEXNIK KIMYOVIY NAZORAT” FANIDAN

**O'quv-uslubiy majmua**

**Bilim sohasi**

**300000 -Ishlab chiqarish - texnik soha**

**Ta'lif sohasi**

**320000 -Ishlab chiqarish texnologiyalari**

**Ta'lif yo'naliishi**

**5321000 – Oziq-ovqat texnologiyasi(go'sht-sut mahsulotlari texnologiyasi  
bo'yicha)**

Guliston– 2017

**Davlatov R.M., Uzaydullaev A.O. "Texnik-kimyoviy nazorat" fanidan pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua . - Guliston, 2017. - 160 b.**

“Texnik kimyoviy nazorat” fanidan mazkur o’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti “Ozik -ovqat texnologiyalari” kafedrasi “Go’sht va sut mahsulotlari texnologiyasi” yo’nalishi bo'yicha ta'lim oladigan (5321000 – «Oziq-ovqat texnologiyasi» mutaxassisligi bo'yicha bakalavriatura talabalari uchun foydalanishga mo'ljallangan.

O’quv-uslubiy majmua ishchi o’quv rejasi asosida to’plangan bo’lib, “Texnik kimyoviy nazorat” fani “Go’sht va sut mahsulotlari texnologiyasi” mutaxassisligida ta’lim oluvchi bakalavriatura talabalari uchun 3-4 kurs II semestrda o’qitiladi.

O’quv-metodik majmua Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 21.08.2015 yil tasdiqlangan “Texnik kimyoviy nazorat” fani namunaviy dasturi ( № BD-5321000 — 4.03.— 16.07.2015 yil) talablari asosida tayyorlanib, unda zamonaviy pedtexnologiya tizimiga suyangan holda ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifati, asosan unga ishlatilayotgan xom ashyo sifatiga bog’liqligi, shuningdek u qanday hayvon go’shtidan, zotidan, jinsidan, yoshidan ekanligi ham muhim rol o’ynashi bayon qilingan. O’quv-uslubiy majmua Guliston davlat universiteti Ilmiy kengashi tomonidan ( - bayonnoma 2017 yil) ko’rib chiqilgan va o’quv jarayonida qo’llashga tavsiya etilgan.

Taqrizchi:

texnika fanlari nomzodi Sattorov K. (GulDU)

## MUNDARIJA

Kirish.....
Texnik-kimyoviy nazorat fani sillabusi.....
Nazariy materiallar (ma’ruzalar kursi ).....
Amaliy ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko’rsatmalar.....
Laboratoriya mashg’ulotlari.....
Mustaqil ta’lim buyicha materiallar.....
Glossariy.....
Test savollari.....

### **Ilovalar:**

Fan dasturi.....
Ishchi fan dasturi.....
Ingliz va rus tilidagi xorijiy o’quv materiallari (elektron shaklda).....
Taqdimotlar va multimedya vositalari (elektron shaklda).....
Qo’shimcha didaktik materiallar.....

## **Kirish**

Go'sht va sut tayyorlash hamda ularni qayta ishlab tayyorlangan mahsulotlar kishilarning kundalik hayotida juda katta ahamiyatga ega. Insonlarning ratsional ovqatlanishida ularning o'rnini bosadigan mahsulotlar yo'q. Binobarin, go'sht, sut va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (taomlarga) bo'lgan talab, ehtiyoj kun sayin ortib bormoqda.

Ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarilayotgan tayyor mahsulot turlari faqatgina xom-ashyo sifatiga bog'liq bo'lmasdan, balki ularning ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlariga, shu jarayonlarning to'g'ri bajarilishiga, sanitar va gigiena normalarining bajarilishiga bevosita bog'liq.

Ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlarning buzilishi oqibatida yaroqli xom-ashyo mahsulotlaridan sifati yomon va past ko'rsatkichlarga ega tayyor mahsulotlar olish mumkin. Masalan, sanitar – gigiena normalarining buzilishi oqibatida, ishlab chiqarish korxonalarida texnologik yo'riqnomalarning buzilishi oqibatida, go'sht issiq havo haroratida uzoq vaqt ushlab qolinsa, undan tayyorlanadigan konserva yoki kolbasa mahsulotlarining sifati keskin ravishda buzilishi mumkin. Buning oqibatida xom-ashyo sifati qabul qilingan vaqtida sifatli bo'lGANI bilan oxirgi natija, tayyor mahsulot ko'rsatkichlari past navlarga baholanishi mumkin. Bunday hollarning oldini olish uchun korxonada xom-ashyo va tayyor mahsulot sifatini nazorat qiluvchi nazorat bo'limi tashkil etiladi.

Bunday bo'limning asosiy vazifalaridan biri, korxonada ishlab chiqrilayotgan xom-ashyo va tayyor mahsulotlar standart talablariga javob berishini ta'minlashdan iborat. Har bir sifat ko'rsatkichlari bo'yicha nazorat olib borish amalga oshiriladi.

O'quv-uslubiy majmua quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. "Texnik kimyoviy nazorat"
- fani sillabusi fani sillabusi.
2. Nazariy materiallar (ma'ruzalar kursi)
3. Amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish buyicha uslubiy ko'rsatmalar.
4. Talaba mustaqil ishlari buyicha materiallar (mustaqil ish topshiriqlari)
5. Nazorat savollari va testlar.
6. Glossariy.
7. Informatsion-uslubiy ta'minot.

Ilovalar:

1. Na'munaviy va ishchi o'quv dasturlar.
2. Ingliz va rus tilidagi xorijiy o'quv materiallari (elektron shaklda).
3. Taqdimotlar va multimedya vositalari (elektron shaklda)
4. Qo'shimcha didaktik materiallar

Mazkur o'quv-o'slubiy majmua "Texnik kimyoviy nazorat" kursidan Vazirlikning 2017 yil 1 mart 107-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim o'quv rejalarini fanlarining yangi o'quv majmualariini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatma" asosida yaratilgan dastlabki o'quv-uslubiy majmualardan biri bo'lganligi sababli, unda ba'zi juz'iy kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin. Shunga ko'ra majmua haqidagi fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblariga muallif oldindan o'z minnatdorchiligini bildiradi

O'quv-uslubiy majmua zamonaviy pedtexnologiya talablariga mos ravishda ishlanib, unda o'quv maqsadlari, nazorat savollari va mustaqil ish topshiriqlari keltirilgan.

Manzilimiz: 120100. Guliston shahri, 4- mavze, Universitet Bosh binosi,  
2-qavat «Oziq-ovqat texnologiyalari» kafedrasи

« Texnik kimyoviy nazorat » fanining  
2017-2018 o'quv yili uchun mo'ljallangan  
**SILLABUSI**

<b>Fanning qisqacha tavsifi</b>			
OTMning nomi va joylashgan manzili:	Guliston davlat universiteti		Guliston sh. 4-mavze
Kafedra:	Oziq-ovqat texnologiyalari		“Tabiiy fanlar” fakulteti tarkibida
Ta'lim sohasi va yo'nalishi:	Go'sht-sut texnologiyalari		3-kURS UCHUN
Fanni (kursni) olib boradigan o'qituvchi to'g'risida ma'lumot:	Davlatov Rasul		
Dars vaqt va joyi:	Texnik-kimyoviy nazorat fani o'quv xonasi	Kursning davomiyligi:	04.09.2016 - 16.02.2017
Individual grafik asosida ishslash vaqt:	seshanba va payshanba kunlari 16.00 dan 17.20 gacha		
Fanga ajratilgan soatlar	Auditoriya soatlari		Mustaqil ta'lif: 64
Fanning boshqa fanlar bilan bog'liqligi (prerekvizitlari):	Ma'ruza: 28 Laboratoriya: 50 Amaliy: 14		
	“Texnik kimyoviy nazorat” fani mutaxassislik fanlari blokida o'qtiladi. Bu dasturni amalda bajarish uchun talabalar o'quv rejasida rejalshtirilgan umumkasbiy fanlardan va bundan tashqari “Ixtisoslikka kirish”, «Kimyo», «Fizika», «Biokimyo», «Biotehnologiya», «Mikrobiologiya», «Issiqlik tehnikasi», «Oziq-ovqat sanoati apparatlari va jarayonlari», “Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari”, “Oziq-ovqat kimyosi”, «Go'sht-sut, konservalangan mahsulotlar texnologiyasining nazariy asoslari», «GS korxonalarining hom ashyo va materiallari» fanlaridan etarlicha ma'lumotlarga ega bo'lishlari lozim.		

<b>Fanning mazmuni</b>	
Fanning dolzarbligi va qisqacha mazmuni:	“Texnik kimyoviy nazorat”fanining maqsadi shuki, avvalo talaba ongiga qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, nazorat usullarini amaliyatda qo'llash, ularning sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolishdan iborat.
Talabalar uchun talablar	Vazifasi esa talabalarga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sifatini oshirish va buzilishdan saqlab qolish, assortimentini kengaytirish yo'llarini o'rgatishdir. - universitet o'quv binosi va auditoriyalarida talabaga xos kiyinish madaniyatiga rioya qilish (engil-elpi kiyinish, ortiqcha taqinchoqlar taqish qat'ian man etiladi); - o'qituvchiga, uning faniga va guruhdoshlarga nisbatan hurmat bilan

	<p>munosabatda bo'lish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- universitet ichki tartib-intizom qoidalariga rioya qilish;</li> <li>- uyali telefonni o'quv binosi va dars davomida o'chirish;</li> <li>- berilgan uy vazifasi va mustaqil ish topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;</li> <li>- ko'chirmachilikka (plagiatlikka) yo'l qo'ymaslik;</li> <li>- darslarga to'liq (majburiy) qatnashish, qoldirilgan darslarni (Nizom talablariga ko'ra)</li> </ul> <p>o'z vaqtida qayta o'zlashtirish;</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- darslarga oldindan tayyorlanib kelish va unda faol ishtirok etish;</li> <li>- darsga kechikib kelmaslik, o'qituvchidan so'ng dars xonasiga kirish mumkin emas;</li> <li>- ma'ruza, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari uchun alohida daftар тутish va ularda mustaqil ish mavzulari materiallarining mavjudligi va ularning baholangan bo'lishi;</li> <li>- reyting jadvalida belgilangan (ON, JN) topshiriqlarni o'z vaqtida bajarib borish;</li> <li>- reyting ballaridan norozi bo'lgan taqdirda, ball e'lon qilingan vaqt dan boshlab 1 kun</li> </ul> <p>mobaynida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish.</p>
Elektron pochta orqali munosabatlar tartibi	<p>Professor-o'qituvchi va talaba o'rtaсидаги aloqa elektron pochta orqali ham amalga oshirilishi mumkin, telefon orqali baho masalasi muhokama qilinmaydi, baholash faqatgina universitet hududida, ajratilgan xonalarda va dars davomida amalga oshiriladi.</p> <p>Elektron pochtani ochish vaqtি soat 08.00 dan 18.00 gacha</p>

#### Fanda o'tiladigan mavzular va ular bo'yicha mashg'ulot turlariga ajratilgan soatlarning taqsimoti

t/r	Fanning bo'limi va mavzusi, ma'ruza mazmuni	Soatlar		
		Jami	Ma'ruza	Amaliy
1	Kirish. Fanning maqsadi va vazifalari.	4	2	2
2	Go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida nazoratni tashkil etissh	4	2	2
3	Go'sht sifatini aniqlash, ularning kategoriya va navlarga bo'linishi	4	2	2
4	Go'sht sifatini aniqlash usuli	4	2	2
5	Go'sht tarkibini bakterioskopik usul bilan aniqlash	4	2	2
6	Sovutish yo'li bilan go'shtga ishlov berish	4	2	2
7	Kolbasa mahsulotlarining sifat nazorati	4	2	2
8	Go'shtli konserva mahsulotlarining sifat nazorati	4	2	2
9	Sut ishlab chiqarish jarayonida texnik-kimyoviy nazorat o'rni	4	2	2

10	Sutning kimyoviy tarkibi	4	2	2
11	Sut oqsili, qandi, mineral tuzlari, vitaminlar, kislotalar va uning xossalari	4	2	2
12	Sutni analiz qilish	4	2	2
13	Sutni separatorlash va qaymoklar tayyorlash sifatini nazorat qilish	4	2	2
14	Sutning ivish davomiyligini sut ivituvchi fermentlar orqali tekshirish	4	2	2
	Ja'mi	56	28	14

Talabalar bilimini baholash tizimi:

Nazorat turi	Reyting baholashlar											Jami
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
JB(laboratoriya mashlari	2	2	2	2	3	2	2	2	2	3	2	24
Mustaqil ta'lim			4		4		4			4		16
OB						9					9	18
Mustaqil ta'lim				3		3		3			3	12
YaB												30
Jami												100

Talabaning mustaqil mashg'ulotlarini o'zlashtirish darajasi quyidagi mezon asosida aniqlanadi

Baholash ko'rsat-kichi	Baholash mezonlari
A'lo, 86-100%	Laboratoriya ishini mavzusining nazariy asoslari bo'yicha har tomonlama chuqur va mukammal bilimga ega. Laboratoriya ishlarini ijodiy va ilmiy yondoshgan xolda nazariy bilimlar asosida tushintira oladi. Hisoblash algoritmlar va dasturlarini mustaqil ravishda tuza oladi va tushinadi. Hisoblash tajribalarini kirish qiymatlarining har xil qiymatlarda o'tkaza oladi. Olgan natijalarini mustaqil tahlil qila oladi. Hisobot to'liq rasmiylashtirilgan. Olingan natijalar tahlili mantiqan to'g'ri va aniq.
Yaxshi, 71-85%	Laboratoriya ishini mavzusi nazariy asoslari bo'yicha bilimga ega. Laboratoriya ishlarini tushinadi. Hisoblash algoritmlar va dasturlarini tushinadi. Hisoblash tajribalarini o'qituvchi yordamida o'tkazib, olgan natijalarini tushintira oladi. Hisobot yaxshi rasmiylashtirilgan. Olingan natijalar tahlili to'g'ri.
Qoniqarli, 55-70%	Laboratoriya ishini mavzusi nazariy asoslari bo'yicha bilimi to'liq emas. Laboratoriya ishlarini tushinadi. Hisoblash algoritmlar va dasturlarini tushintirishda qiynaladi. Hisoblash tajribalarini o'qituvchi yordamida o'tkaza oladi. Hisobot rasmiylashtirishda va olingan natijalar tahlil qilishda kamchiliklar mavjud.
Qoniqar-siz 0-54%	Laboratoriya ishini mavzusi nazariy asoslari bo'yicha bilimi juda kam. Hisoblash algoritmlar va dasturlari mavjud, lekin tushintira olmaydi. Hisoblash tajribalarini o'tkaza olmaydi. Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarni tushintirib bera olmaydi.

### **OB ni baholash mezonlari.**

OB uchun 30% ajratilgan. OB ma’ruza mashg’ulotlari materiallari bo'yicha 3 ta savolli yozma ish ko'rinishida o'tkaziladi. Bir semestrda 2 ta OB o'tkaziladi, unga jami 9 ball ajratiladi. «Yozma ish» ni baholashda jadvalda berilgan baholash omillaridan foydalaniladi.

Baholanishi	Baholash omillari	umumiyl ball
Har bir savol uchun alohida baholanadi	1. Javobning to'g'riliqi va to'liqligi	4
«Yozma ish» bo'yicha umumiyl baholanadi	2. Javob berishda ijodiy yondashish	2
	3. Javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik	2
	4. Ish hajmi	0,5
	5. Husnixat	0,5
Jami		9

### **YaB savoli namunalari va baholash mezonlari.**

YaB dars jadvalida belgilangan oxirgi haftadagi darsda o'tkaziladi.

YaB yozma ish asosida o'tkaziladi. YaB da 3 ta savoldan iborat variant beriladi. Fanga jami 30% ajratilgan bo'lsa, Yozma ishni baholash omillari 3 – jadvalda keltirilgan.

Baholanishi	Baholash omillari	umumiyl ball
Har bir savol uchun alohida baholanadi	1. Javobning to'g'riliqi va to'liqligi	22
«Yozma ish» bo'yicha umumiyl baholanadi	2.Javob berishda ijodiy yondoshish	5
	3. Javobni yoritishda tayanch tushunchalardan foydalanganlik	1
	4. Ish hajmi	1
	5. Husnixat	1
Jami		30

### **INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOT**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. “Техно-кимёвий назорат” уқув-услубий мажмуа. ТКТИ-2014й. [Электрон нусха]
2. Журавская Н.К. Технохимический контроль производства мяса и мясопродуктов. Учебник. -М.:1986.
3. Г.Н. Крусь. Технология молока и молочных продуктов. Учебник. Москва«КолосС», 2007.
4. Butikov L.P. Go'sht-sanoat asosida. Darslik. -T.:2001.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ismoilov T.A., Fatxullayev A., Raximjonov M.A., Muxitdinova M.U. Go'sht-sut biokimyosi. Darslik. Toshkent “Cho'lpon” nashriyoti, 2014. – 256 b.
2. T.H.Ikromov «Chorvachilik mahsulotlarini qaytaishlash texnologiyasi». O'quv qo'llanma. T. «O'qituvchi» 1997.
3. Ismoilov T.A. Sut mahsulotlari ishlabchilarish texnologiyasi va texnikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, TKTIBosmaxonasi, 2013. – 300 b.
4. Choriyev A.J, Dodayev Q.O. Konserva ishlab chiqarishda texnik-kimyoviy nazorat. OTM bakalavriatura talabalari uchun o'quv qo'llanma. TKTI, 2014. –122b.
5. Fatxullaev A.A. Texnik-kimyoviy nazorat.Ma'ruzalar matni. TKTI, 2007.
6. Fatxullaev A.A., Ismoilov T.A. Texnik-kimyoviynazorat. Amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma. TKTI, 2007.

## MA'RUZALAR KURSI

### 1- MAVZU: GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SANOATIDA NAZORATNI O'RNI

**Reja:**

*Ishlab chiqarish jarayonida texnik-kimyoviy nazorat o'rni  
Go'sht ishlab chiqarishning spetsifik xususiyatlari  
Xom-ashyoning turli – tumanligi va xom-ashyoga tashqi muhit ta'siri  
Hayvonlarning holati va ularning sanitari ko'rinishini nazorat qilish  
Sut va sut mahsulotlarining texnik-kimyoviy nazorati*

**Tayanch so'zlar:** *veterinar; sanitari; gigienik; organoleptik; etiltirish; normalizatsiyalash; gomogenizatsiyalash; achitish; quyish.*

Texnik-kimyoviy iazorat - bu korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishda ularni standart talabiga (bo'yicha) asoslanganligini, texnikaviy sharoitlarini, texnologik reglamentini va instruktsiyaga asoslanganligini ta'minlovchi nazoratdir. Texnik-kimyoviy nazorat funktsiyasiga quyidagilar kiradi:

- a) kelayotgan xom-ashyoning sifatini, qo'llaniladigan idishlarni (tara), materiallarni joylanishini nazorat kiladi;
- b) tayyor mahsulot sifatini, asboblarni (tara) joylashishini, markalar qo'yilishini va mahsulotni korhonadan chiqarish tartibini nazorat qiladi;
- v) ketgan xom-ashyo xarajati va tayyor bo'lган mahsulot miqdorining nazorati. (rasxod i vixod);
- g) uskuna, apparat va idishlarni yuvib dezinfektsiyalash sifatini, rejimlarini, hamda ishlab chiqarishda (sanitarno-gigienik) tozalik xolatini nazorati;
- d) ishlab chiqarilayotgan sut va sut mahsulotlariga ishlov berish texnologik jarayonlarii nazorati;
- j) tekshirishlar (analiz) uchun foydalilaniladigan reaktivlarni va ularni saklash tartibini nazorati;
- z) KIP xolatini nazorat qilish.

Ishlab chiqarish tsexlarining tozalik (sanitarno-gigienik) xolatini baholashda quyidagilarga asoslanadi: ularning texnologik va mikrobiologik sifatini nazoratiga, apparat, inventar va idishlarning yuvilish sifatiga, hamda korxonaning va ishchilarning ish joylarini tozalik xolatlarini kuzatishga asoslanib baholanadi.

Go'sht ishlab chiqarish o'ziga xos spetsifik xususiyatlarga ega soha bo'lganligi uchun unga qat'iy talablar qo'yiladi. Bunday xususiyatlardan biri xom-ashyoning turli – tumanligidandir. Qoramol yoki boshqa turdag'i hayvonlarni so'yish va ularni ozuqaviy yaroqlilagini faqat veterinar nazorat orqali aniqlab olinadi. SHuning uchun veterinar nazorat go'sht ishlab chiqarish korxonalaridagi asosiy bo'limlardan biri ekanligi ma'lum.

**Sut va sut mahsulotlarining texnik-kimyoiy nazorati**

Mahsulotlarning nomi	xaro rati	kislot alilik	qayn ash dar-si	org-k baxo	zichli gi	SOm o	mdj	fos fatozl ik	bosi mi	namli gi	og'ir- ligi
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
<b>Sut 3,2% Sut 2,5%</b>											
saqlash jarayonida	+	+									
normalizatsiyalash jarayonida		+									
to'ldirilgan idishlarda	+	+	+	+	+	+	+	+			
paster-ya va sovutish	+										
quyish boshlanishida									+		+
kuyish jarayonida	+	+		+							+
<b>Kefir 2,5%</b>											
sut normal oldin			+					+			
normal jarayonida								+			
paster jarayonida	+										
gomogen jarayonida									+		
achitishdan oldin		+			+	+	+				
achitish davomida		+						+			
achitishdan keyin		+						+			
skvash jarayoni	+	+									
etiltirish jarayoni	+	+		+							
quyish boshlanishi								+			+
quyish jarayonida	+	+		+				+			+
<b>Prostokvasha 3,2%</b>											
sut norm boshlanishdan oldin			+					+			
normal jarayoni								+			
paster va sovutish	+										
gomogen jarayoni								+			
zakvaskalashdan oldin			+		+	+	+				
quyishdan oldin	+	+		+				+			
quyish jarayonida	+	+									
skvash jarayonida	+	+									
skvash tugashida		+									
<b>Tvorog 9%</b>											
sut norm oldin			+					+			
normal davomida								+			
paster va sovugish	+										
jarayoni											
zakvaskada	+							+			
skvash jarayoni	+	+									
qayta ishlash jar		+		+				+	+		+
sovutishda	+										
qadoqlashda	+	+			+						+
<b>Smetana 20%</b>											
slivkani normal			+					+			
paster va sovutish	+									+	
gomogen zakvskada		+						+			

sliv zakvaskalash		+					+				
skvash jarayonida	+	+									
etiltirish jarayoni	+	+									
etiltirishda		+		+			+				
quyish boshlanish	+	+		+			+	+			+
quyish davomida	+	+		+			+	+			+
<b>Slivka 8%</b>											
separatordan oldin sut	+	+			+		+				
sutni separator davomida	+										
yog'sizlantiril. sut separator yo'l							+				
slivkani nazorati		+					+				
sliv paster oldin			+								
paster va sovutish											
gomogenizatsiyalash									+		
sliv saqlashda	+	+					+				
quyish oldidan							+				+
quyish jarayonida	+	+		+			+				+
<b>Atsidofil sut</b>											
<b>3,2%</b>											
norm. oldin sut			+				+				
normal jarayon							+				
paster va sovutish	+										
gomogenizatsiyalash							+				
achitishdan oldin	+				+	+	+				
achitish oxirida	+			+			+				
quyilish oldidan							+				+
quyilish jarayoni	+	+		+			+				
<b>Smetana 10% yog'</b>											
separatorlashdan oldingi sut	+	+			+		+				
separatorlash jarayonidagi sut	+										
separatorlash jarayon.yog'sizl.sut							+				
slivkalarda		+					+				
sliv.paster.oldin			+								
paster va sovutish jarayonida sliv.	+	+		+			+	+			
gomogen jarayonida									+		

Bundan tashqari xom-ashyoning tashqi muhit ta'siri ostida, birinchi navbatda mikroorganizmlar va havo harorati oshishi bilan ularning sifatini o'zgarishi muhim ahamiyatga ega.

Bu erda korxonalarda qat'iy sanitarnazoratini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Yana bir muhim omillardan biri ishlab chiqarilayotgan xom-ashyo va tayyor mahsulotlar kimyoviy tarkibi murakkab bo'lganligi, shu bilan birga ularning assortimentlari turli tuman bo'lganligi sababli ular ko'p turdag'i nazariy metodlar bilan aniqlanadi.

Go'sht ishlab chiqarish korxonalarida ishlab chiqarish nazorati quyidagilarni o'z ichiga oladi; Veterinar ekspertiza – uning asosiy vazifalaridan biri ishlab chiqarishga yaroqli bo'lgan xom-ashyoni ajratib olish va kasallik bilan zararlangan, inson hayoti uchun havfli bo'lgan xom-ashyo turlarini qayta ishlashga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bu holat ishlab chiqarishga keltirilayotgan turli hayvonlarning holatini va ularning sanitar ko'rinishini nazorat qilishdan iborat.

Sanitar nazorat—korxonalarda aniq sanitar va gigienik rejimlarga rivoja qilishni talab etadi.

Sanitar nazorat funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- a) Xom ashyo, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulotlar, uskunalar va ishlab chiqarish xonalarining sanitar nazorati.
- b) Ishlab chiqarishdagi ishchi va hizmatchi xodimlarning sanitar talablariga rivoja qilishlarini nazorat qilish.

Ishlab chiqarishda texnik nazorat: Bu ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning standart talablariga javob beradigan, texnologik ko'rsatmalarga rivoja qiladigan xom-ashyo, tayyor mahsulotga qo'yilgan texnik sharoitlarni bajarilishini ta'minlovchi nazorat turi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish texnik nazorat metodlari tayyor mahsulot turlariga va hususiyatlariga qarab bir necha hildan iborat.

Bulardan biri: texnik-kimyoviy nazorat yoki kimyoviy, fizik-kimyoviy analiz usullari bilan nazorat qilish. Bu metod orqali ishlab chiqarilayotgan xom-ashyo tayyor mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari aniqlab boriladi va standart normalariga va texnologik jarayonlar ishi to'g'ri olib borilganini tekshirib boriladi..

Organoleptik ko'rsatkichlar yordamida mahsulot sifatiga baho berish, degustatsiya – tayyor mahsulotning tashqi ko'rinishi, hidi va mazasini aniqlash demakdir. Ba'zi bir hollarda organoleptik ko'rsatkichlar bilan mahsulot sifatiga baho berish kifoya qiladi. Brakeraj yoki xom-ashyo va tayyor mahsulot sifatini baholash, shuningdek mahsulotning tashqi ko'rinishiga qarab uni sortirovkalash, navlarga ajratish va braklarga ajratish.

Ishlab chiqarishda nazoratni tashkil etish asoslari: Go'shtni qayta ishlab chiqarish korxonalarida butun nazorat funksiyalarini, ishlab chiqarishni veterinar nazorat qilish bo'limi zimmasiga yuklatiladi. Korxonalarda bunday bo'limlar o'z faoliyatları davomida korxonada ishlab chiqarilayotgan xom ashyo va tayyor mahsulot standart talablariga javob berishini ta'minlanishini nazorat qilib boradi.

### Nazorat savollar

1. Veterinar nazorat nima?
2. Sanitar nazorat nima?
3. Texnik nazorat nima?
4. Sutni normilizatsiyalash jarayonida qanday tekshirishlar o'tkaziladi?
5. Slivkani saqlashda qanday tekshirishlar olib boriladi?
6. Kefirni achitish jarayonida qanday tekshirishlar o'tkaziladi?

## 2-MAVZU: OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINING SIFATI

### Reja:

*Oziq-ovqat mahsulotlarini sifat ko'rsatgichlari.*

*Mahsulotlarning defektlari.*

*Oziq-ovqat mahsulotlarining foydasi va energetik qiymati.*

*Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlash uslublari.*

*Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini nazorat qilish turlari.*

**Tayanch so'zlar:** *sifat; xom-ashyo sifati; tayyor mahsulot sifati; aniqlik ko'rsatgichi; kompleks ko'rsatgich; integral ko'rsatgich; bazis ko'rsatgich; nisbiy ko'rsatgich; optimal ko'rsatgich; maqsadga muvofiq ko'rsatgich; saqlanuvchanlik ko'rsatgichi; estetik ko'rsatgich; tashiluvchanlik ko'rsatgichi; ekologik ko'rsatgichi; xavfsizlik ko'rsatgichi; standart; nuqson; ozuqaviy qiymat.*

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifati iste'mol xususiyatlari yig'indisi bo'lib, halq xo'jaligi va axolining muayyan extiyojlarini qondirishi orqali belgilanadi. Mahsulot sifati uning bir qator hossalarining majmui hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifati tabiiy xarakterga ega bo'lgan ob'ektiv omillar ta'sirida shakillanadi. SHu sababli mamlakatimizning turli tumanlarida etishtirilgan mahsulotning sifatini tabaqaqlashtirib baholash maqsadga muvofiq.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarrining ayrim xossalari uning sifatini oshirsa, ayrimlari esa aksincha salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, meva tarkibida uglevod miqdorining oshishi ijobiy baholansa, uning pestitsid va nitrat tuzlarini toplash xossasi salbiy hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotining sifatini belgilashda uning iste'mol qimmatini belgilaydigan turli tabiiy xossalari hisobga olinadi. Masalan, mevalarning sifatiga baho berilganda uning tashqi ko'rinishi (o'lchamlari, rangi, shakli, ta'mi, to'kimalarining ko'rinishi kabi bir qator ko'rsatgichlar), texnik qiymati (tashishga va qayta ishlashga moyilligi, zararlanishga chidamliligi va boshqalar) va iste'mol qiymati (oziq-ovqat, energetik va biologik) e'tiborga olinadi.

Iste'mol qimmati kishilarni oziqlantirish maqsadida ishlab chiqiladi. Mahsulotlarning oziq-ovqatlik qimmati uning ximiyaviy tarkibidagi oziq moddalar miqdori bilan belgilanadi. Energetik qimmati esa uni hazm qilingandan keyingi ajralib chiqaradigan issiqlik energiyasi bilan anylanadi. Mahsulotning biologik qimmatini uning ximiyaviy tarkibidagi oqsilning qimmati belgilaydi.

Mahsulot sifatining shakllanishiga turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Asosiy omil geografik omil bo'lib, bunga mahsulot etishtiriladigan tabiiy hududning (tuproq va iqlim sharoiti) xususiyatlari kiradi. Texnologik omillar - dehqonchilik madaniyatni va mahsulot etishtirish texnologiyasi ham ma'lum darajada mahsulotning sifatini shakllantiradi. Biologik omillar - yangi nav va gibridlarni joriy qilish ham mahsulot sifatini shakllantirishda ahamiyatga ega. SHu bilan birga, mahsulotning sifati tayyorlash punkti, material - texnika bazasining taraqqiyot darajasi va uni qabul qilish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyasiga ham chambarchas bog'liq.

Sifatli etishtirilgan mahsulot uni tashish, saqlash va qayta ishlash mobaynida dastlabki xossalari yo'qotib sifatsiz mahsulotga aylanishi mumkin.

Etishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari mahsulot etishtirilgan sharoitga, saqlash va boshqa o'tkaziladigan qo'shimcha tadbirlarga qarab turlicha bo'ladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifat ko'rsatkichlariga qarab asosan 3 guruhga bo'linadi:

1. Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha foydalanishi lozim bo'lgan soha talabiga to'liq javob beradigan mahsulotlar.
2. Sifat ko'rasatkichlari bo'yicha foydalanishi lozim bo'lgan soha talabiga to'liq javob bermaydigan, ammo boshqa sohada foydalanish mumkin bo'lgan mahsulotlar.
3. Foydalanishga yaroqsiz bo'lgan mahsulotlar.

Ayrim paytda mahsulotning sifat ko'rsatkichlari turli omillar ta'sirida o'zgarsa (qizish, chirish) xatto zaharli bo'lib hisoblanadi. SHuning uchun ham qishloq xo'jalik mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini to'g'ri baholash uchun standartlash sistemasi qabul qilingan.

Ovqat mahsulotlarining sifatini miqdoriy jihatdan aniqlashda ikkita ko'rsatkich bilan belgilanadi:

- aniqlovchi ko'rsatgich
- integral ko'rsatgich

Aniqlovchi ko'rsatgich deganda mahsulotning sifatini belgilab beruvchi hamma ko'rsatgichlar nazarda tutiladi. Bu ko'rsatgichlarda odatda mahsulot sifatini ball asosida aniqlanganda foydalaniladi.

Mahsulot sifatining integral ko'rsatgichi birmuncha mavxumroq bo'lib, uni aniqlash uchun mahsulotdan foydalanish natijasida yoki iste'mol qilish natijasida olingan foyda yig'indisini uni yaratishga, ekspluatatsiya qilishga yoki foydalanishga sarf bo'ladi umumiylar harajatlarga bo'lgan nisbati olinadi. Mavxum deyishimizning sababi shundaki, oziq-ovqat mahsulotlari uchun integral ko'rsatgichni aniqlash onson narsa emas. CHunki har vaqt ham iste'mol qilingan ovqatning ahamiyatini miqdoriy ravishda ko'rsatish mumkin emas. SHuning uchun ham ba'zan mahsulotning integral ko'rsatgichini aniqlash uchun, uning sifatini boshqa mahsulotlarga nisbatan farq qilishini ko'rsatadigan mavqelik koeffitsienti belgilanadi.

Ba'zan tovarlarning sifatini solishtirma aniqlashda mahsulotning «bazis ko'rsatgichi» va uning «nisbatan ko'rsatgichi» degan tushunchalar orqali shu mahsulotning sifatiga solishtirma baho beriladi.

Mahsulotning bazis sifat ko'rsatgichi deganda, shu mahsulotga oid bo'lgan hamma ko'rsatgichlar tushuniladi va solishtirishda shu ko'rsatgichlar asos bo'lib hizmat qiladi.

Mahsulotning nisbatan sifat ko'rsatgichi deganda baholanayotgan mahsulotni sifatini bazis ko'rsatgichga nisbatan bo'lgan sifati tushuniladi.

Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini aniqlashda texnik nazorat katta ahamiyatga ega. Bu nazorat orqali mahsulotni texnik talablarga qay darajada javob berishini aniqlaniladi.

YAroqli deb topilgan mahsulot me'yoriy texnik xujjatlardagi talablarni hammasiga to'liq javob berishi kerak. Mahsulotni joriy qilingan talablarga javob bermagan har-bir ko'rsatgichi shu mahsulotning defekti hisoblanadi va agar mahsulotda bittagina defekt topilsa ham bunday mahsulot «defekt mahsulot» deyiladi.

Standart ko'rsatgichlarga asoslangan holda defektlar bir necha ko'rinishlarda shakllanadi:

a n i q, ya sh i r i n g a n, o' t a a n i q, s e z i l a r l i,

k a m a h a m i y a t l i, b a r t a r a f q i l i n a d i g a n, b a r t a r a f q i l i n m a y d i g a n.

Aniq defekt - aniqlash uchun me'yoriy xujjatlarida uni aniqlash qoidalari, uslublari va vositalari keltiriladi. Aniq defekt, odatda ko'zga ko'rinarli bo'lib, taxminiy aniqlaniladi.

YAshirin defekt - aniqlash uchun me'yoriy xujjatlarida uni aniqlash qoidalari, uslublari va vositalari keltirilmagan. Ular mahsulotni sifatini buzganliklari bilan namoyon bo'ladir.

O'ta aniq defekt - bunday sifat o'zgarish yuzaga kelganda mahsulotni ishlatib bo'lmaydi va zararli hisoblanadi (konservalardagi bombaj).

Sezilarli defekt - bunday defekt mahsulotni maqsadga muvofiq qo'llashga yoki uni saqlashga ta'sir ko'rsatadi, lekin u o'ta aniq defektdagi kabi mahsulotni yaroqsiz holga keltirmaydi ( mahsulotni mexanik shikastlanishi, deformatsiyalanishi va h.)

Kam ahamiyatli defekt - mahsulotning qo'llanilishiga va saqlanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan: meva va sabzavotlar yuzasidagi sezilarsiz qirilishlar, kattaligi, shakli va rangini me'yoriy ko'rsatgichdan farqlanishi va xokazo.

Bartaraq qilinadigan defekt - bartaraq qilish texnik jixatdan onson va iqtisodiy jihatdan samaradorli bo'lgan sifat ko'rsatgichlar kiradi. Masalan: metall bankalarning ustki qismini engil zanglashi.

Bartaraq qilinmaydigan defekt - yuzaga kelgan o'zgarishlarni bartaraq qilib bo'lmaydi yoki iste'molga yaroqsiz bo'ladi. Masalan: shisha bankalarni sinishi va xokazolar.

Oziq-ovqat mahulotlarini sifatini shakllanishiga bir necha xil omillar ta'sir qiladi, ular ta'sirida sifat yuzaga keladi, ularni guruxlab o'rganish uchun qulaylatib ikki qismga bo'lamiz:


- tashqi muhit omillari

- ishlab chiqarishdagi omillar

Oziq-ovqat mahulotlarini sifatini shakllanish jarayoni unga me'yoriy texnik xujjatlarini tayyorlashdan boshlanadi. Oziq-ovqat mahulotlariga bo'lgan eng katta talab - ular bezzar bo'lishi shart. Hozirgi vaqtida oziq-ovqat mahulotlarini assortiment qatori kengayib yangilanib bormoqda. Mahalliy va noan'anaviy xomashyolar asosida yangi xil tayyor mahulotlar yaratilmoqda, turli xil o'rnini bosuvchi qo'shimcha moddalar ishlatilmoqda va natijada qimmatbaho xomashyolar tejamlanmoqda.

Tayyor mahsulotning sifatini shakllanishida uni tayyorlash uchun qo'llanilgan xomashyoning ko'rinishi va sifati ahamiyatga ega bo'lib, uning tarkibi va texnologik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi.

Quyidagi sxemada biz oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rib chiqamiz.



Bir turdag'i qishloq xo'jalik mahsulotlari irsiyat va o'zgaruvchanlik qonuniyatlariga bog'langan holda bir-biridan keskin farq qiladi. Mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari tashqi muhit ta'sirida o'zgaradi. Bu esa ularni bir korxonadan ikkinchi korxonaga topshirishda noqulayliklar tug'diradi.

Asosiy sifat ko'rsatkichlarini belgilab olish, ya'ni malum bir etalonni qabul qilish qayta ishslash sanoatida ham muhim ahamiyatga ega. SHu sababli mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini baholash uchun konditsiyalar sistemasi qabul qilingan.

Qishloq ho'jaligida 4 ta konditsiya qo'llaniladi: tayyorlash, urug'lik, sanoat va eksport konditsiyalar.

Davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotishda masulotlarning sifat me'yorlari tayyorlash konditsiyasida beriladi. Tayyorlash konditsiyasi bazis va chegaralangan konditsiyalarga ajratiladi.

Bazis konditsiya mahsulotning sifatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu konditsiyada qabul qilingan mahsulotning sifat ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lib, uning tovarboplik, oziq-ovqatlik, texnik qimmati yuqori bo'ladi. SHu sababli, qishloq xo'jalik mahsulotlarini hisoblashda bazis konditsiya ko'rsatkichlaridan foydalilanadi.

Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari me'yorlari bazis konditsiyaga teng bo'lган taqdirda, uning og'irligidan chegirilmay, fizik massasi yorliqqa yoziladi.

Bazis konditsiya ko'rsatkichlari butun mamlakatimiz xududidagi etishtirilgan barcha mahsulotlar uchun bir-xil yoki turli regionlar uchun har-xil bo'lishi mumkin.

CHegaralangan konditsiya mahsulot sifatini belgilaydigan eng past ko'rsatkich bo'lib, davlatga sotishda ruxsat etiladi. Agar mahsulotning sifat ko'rsatkichlaridan biri chegaralangan konditsiyadan yuqori bo'lsa, etishtirilgan mahsulotni davlatga topshirishga ruxsat etilmaydi.

Agarda mahsulot chegaralangan konditsiyaning talabiga biror bir ko'rsatkichi bo'yicha javob bermasa davlat tayyorlov tashkilotlari uni jumxuriyat yoki ittifoq ahamiyatidagi rahbar idoralarning ruhsatsiz qabul qilish imkoniyatiga ega emasdir. Qabul qilingan taqdirda ham shu mahsulotni konditsion me'yorga keltirish uchun qilinadigan barcha harajatlar shu mahsulotning fizik og'irligini kamaytirish hisobidan yoki to'lanadigan haqqi hisobidan ushlab qolinishi lozim.

CHegaralangan konditsiya mamlakatimizning turli regionlarida turli qabul qilingan. Bunda zonaning tabiiy sharoiti hisobga olinadi.

Mahsulotning sifat ko'rsatkichi bazis konditsiyadan yuqori, chegaralangan konditsiya doirasida bo'lsa, masulotning fizik og'irligidan ma'lum og'irlik chegirib qolinadi.

Sanoat konditsiyasida mahsulotlarga sanoat tarmog'i talab qiladigan sifat ko'rsatkichlari belgilangan. Sanoat konditsiyasi asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashda qo'llaniladi.

Urug'lik konditsiyasida urug'ning ekish va nav sifati davlat standartida beriladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining urug'i nav tozaligi bo'yicha kategoriyalarga va urug'ning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha klasslarga ajratiladi.

Qishloq xo'jaligini yuqori konditsiyali urug'lar bilan ta'minlash muhim xo'jalik va iqtisodiy ahamiyatga ega. Xo'jaliklarni konditsion urug'lar bilan ta'minlanishi ularning sarfini kamaytirib, hosildorlik va masulot sifatining yaxshilanishiga olib keladi. Urug'ning sifat ko'rsatkichlari ko'rsatilgan me'yordan past bo'lган taqdirda uning sotish bahosidan chegirib qolinadi yoki urug' konditsiyasi, ya'ni ekishga yaroqsiz hisoblanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga jahon bozorida qo'yiladigan talablar eksport konditsiyasida o'z ifodasini topadi. Eksport qilinuvchi barcha mahsulotlar ushbu standartlarda ko'rsatilgan konditsiyalarga javob berishi lozim. Mahsulotni eksport qilish ana shu mahsulotning sifatli ekanligidan dalolat beradi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga texnologik, fiziologik va estetik talablar qo'yiladi. SHu sababli mahsulotning sifatini ma'lum bir ko'rsatkich bo'yicha baholanishi uncha to'g'ri bo'lmaydi. Mahsulotning sifati kompleks baholanishi lozim. Masalan, chigitli paxtaning sifati tolaning pishiqligi, tolaning uzelish kuchi, pishganligi, rangi, tashqi ko'rinishi, elastikligi, namligi, ifloslanganligi hamda kasallik va zararkunandalar bilan zararlanishi kabi ko'rsatkichlarning yig'indisidan aniqlanadi.

Mahsulotni ishlatish maqsadiga ko'ra uning sifatiga qo'yiladigan talablar ham o'zgaradi. Masalan, oziq-ovqatga ishlatiladigan arpaga yoki urug'lik arpaga bo'lgan talablar bir-biriga mos kelmaydi. Har-bir maqsadda ishlatiladigan arpaning sifat ko'rsatkichlari bir-biridan farq qiladi.

Mahsulotning sifat ko'rsatkichi uning ma'lum bir xossasining miqdor jihatdan xarakteristikasi hisoblanadi va ma'lum sharoitda sifatini belgilaydi. Sifat ko'rsatkichlari ma'lum birliklarda ifodalanadi va standartlarda yakka yoki kompleks tartibda o'z aksini topadi.

Mahsulotning namligi, iflosligi, unuvchanligi, ma'lum ximiyaviy va organik moddalarining miqdori (oqsil, kraxmall, uglevod va boshqalar), texnologik, ergonomik, estetik, iqtisodiy va boshqa ko'rsatkichlari uning bir ko'rsatkichli sifat belgisi hisoblanadi.

Mahsulotning tovar sorti kompleks ko'rsatkich bo'lib, uning bir qator xossalari o'z ichiga oladi. Masalan, paxtaning tovar sorti tolaning uzelish kuchi, tashqi ko'rinishi, pishiqligi, pishganligi, iflosligi, namligi va boshqa bir qator xossalari o'z ichiga oladi.

Mahsulotning sifatini iqtisodiy jixatdan baholaydigan ko'rsatkich - integral ko'rsatkichdir. Integral ko'rsatkich mahsulotning foydali tomonlarining yig'indisini uni yaratish, ekspluatatsiya va iste'mol qilish uchun sarf bo'lgan xarajatga nisbati orqali ifodalanadi. Bu esa mahsulot sifatining rentabelligini, ya'ni sarf qilingan so'mga tushadigan foydani belgilaydi.

Standartlarda qishloq xo'jalik mahsulotlari sifat ko'rsatkichlarining majmuasini hisobga olgan holda tovar sortlarga va klasslarga ajratiladi.

Mahsulotning tovar sorti ma'lum sifat ko'rsatkichlari turlari bo'yicha mahsulotlarning gradatsiyasi hisoblanadi.

Mahsulotning klassi mahsulot yoki xom-ashyolarning sifak guruxidir. Masalan, don mahsulotlari texnologik ko'rsatkichlar bo'yicha guruxlarga - klassga bo'lindi.

Mahsulotlar saqlanuvchanligiga qarab ham guruxlarga ajratiladi. Uzoq vaqt saqlanadigan va qisqa vaqt saqlanadigan mahsulotlar bo'ladi. Mahsulotlar saqlanishi davrida miqdor va sifat jihatdan ma'lum darajada o'zgarmasligi lozim. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining qayta ishlashga moyilligi ko'rsatkichlari qayta ishlash sanoatida kam xarajat hamda maksimal tayyor mahsulot berish bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligida nazorat ob'ekti asosan mahsulot yoki xom ashyo hisoblanadi. Mahsulot sifatini boshqarish uchun uni ob'ektiv baholash lozim. CHunonchi, mahsulot sifatini baholash uni ishlatish sohasini ham belgilaydi.

Mahsulot sifatni nazorat qilish uning miqdor va sifat xossalari xarakteristika berish bo'lib, bunda ma'lum turdag'i o'lchash asbob uskunalaridan va turli usullardan foydalaniladi. U ishlab chiqarish va ekspluatatsiya davrida nazorat qilinadi. Mahsulot sifatini ishlab chiqarish mobaynida nazorat qilishda mutaxassislar asosiy rolni o'ynaydilar. Ular mahsulotni sifatli etishtirishni, o'z vaqtida yig'ishtirib topshirishni ta'minlashlari lozim. SHu bilan birga, ularni qayta ishlashni ham to'g'ri tashkil qilish lozim.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati ularni davlatga yoki iste'molchiga topshirishda nazorat qilinadi. Bu jarayon mahsulot qabal qilish punktlarida amaldagi standart va sinash usullari yordamida amalga oshiriladi. Mahsulotlarni qabal qilishda qabal qilingan mahsulotlarning sifatini tekshirishda inspeksion nazorat o'rnatiladi. Bunda tayyorlash punkti tomonidan mahsulotlar qabal qilinishi standartdan to'g'ri foydalanish, sinash usullarining standartga to'g'ri kelishi mahsulotlarning saqlanishi, sortlarga ajratilishi, joylashtirilishi, belgilanishi tekshirilishi kerak.

Mahsulotning sifatini nazorat qilishda qo'llaniladigan o'lchash vositalariga qarab nazorat turlari quyidagilarga bo'lindi: o'lchash, organoleptik qayd, hisoblash, sotsiologik va ekspert.

O'1ch a sh u s u 1 i. Mahsulot sifatini o'lchab nazorat qilish ma'lum bir o'lchash asbob uskunalarini yordamida amalga oshiriladi. O'lchash usullari qo'llaniladigan usulning asosiga qarab ximiyaviy, fizik, biologik, mexanik, mikroskopik, fizika-ximiyaviy, texnologik va fiziologik bo'lishi mumkin.

Mahsulot sifatini x i m i ya v i y usulda aniqlashda uning ximiyaviy tarkibining asosiy moddalarini aniqlanadi. Masalan, oqsil, uglevod, yog', kraxmall, vitaminlar va boshqalarning miqdori aniqlanishi mumkin.

Mahsulotlarning sifatini ximiyaviy usulda aniqlash ob'ektiv usul bo'lib, mahsulot sifatini birmuncha aniq belgilaydi. Mahsulotning ximiyaviy tarkibini aniqlashda organik, anorganik, analitik va kolloid ximiyada qo'llanilayotgan aniqlashda usullaridan foydalaniladi.

Mahsulotlarning sifatini *fizika* usulda aniqlash mahsulotning fizik xossalari asoslangan. Mahsulotning fizik xossalari uning elastikligi, to'quvchanligi, namligi, issiqlik xossalari va boshqalar kiradi. Mahsulotlarning fizik xossalari aniqlashda dielektrik, refraktometrik, polyarimetrik va reologik usullardan foydalaniladi. Dielektrik usulda mahsulotning namligi aniqlanadi. Refraktometrik usulda mahsulotning sifati, uning asosiy ximiyaviy moddalarini aniqlashda foydalaniladi. Polyarimetrik usul moddalarning optik xissasini, reologik usul mahsulotlarning struktura va mexanik xossalari aniqlashga asoslangan.

Masalan, mahsulotning o'lchamlari, shakli, katta-kichikligi, hajmi, elastikligi, bir-xilligi, xajm og'irligi va boshqa ko'rsatkichlar.

Mahsulotlarning sifatini aniqlashda qo'llaniladigan xromotografiya, konduktometrik eritmaning tok o'tkazuvchanligi, potentsiometrik (potentsiometr yordamida eritmadi vodorod ionlarini aniqlash), kalorimetrik, sektroskopik, lyuminestsent usullar *fiziko-ximiyaviy* usulga kiradi.

*Biology* usulda urug'larning uchuvchanligi, ulardagi zaharli moddalar, mikroorganizmlar, kasallik hamda zararkunandalar bilan zararlanishi aniqlanadi.

*Fizikal oziq* moddalarning ozuqvayilik qimmati, kaloriyasi va biologik qimmati aniqlanadi.

Paxta, zig'ir va kanop tolasining pishiqligini, ulardagi ayrim zararli mikroorganizmlar va mahsulotning zararlanish darajasini *mikroskopik usulda* aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarning texnologik xossalari va qimmati texnologik usulda aniqlanadi. Mahsulotning texnologik xossalari uning sifati bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan.

*Organoleptik* usul oddiy bo'lib, mahsus asbob-uskunalar talab qilmaydi. SHu bilan birga usulning bir qator kamchiliklari ham bor. Bu usulda mahsulot sifatini aniqlashda sifat ko'rsatkichlari nisbiy xarakterga ega bo'lib, u to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'linmaydi.

Organoleptik usulda mahsulotning sifatini aniqlashda mahsulot partiyasi ko'zdan kechiriladi va shundan keyin idishlar ochilib masulotning ahvoli, ko'rinishi, katta-kichikligi, rangi va tusi, hidi, hushbo'yligi, ta'mi kabilar aniqlanadi. Mahsulotni organoleptik baholashda joyning yorug'ligi, mahsulotni tekshiruvchilar soni va sinovchining malakasi kabi omillar katta ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulotning sifatini organoleptik usulda aniqlashda etalonlardan va standart namunalardan foydalaniladi. Etalon va standart namunalar har yili davlat standarti talabiga muvofiq tuziladi.

**Hisoblash usuli.** Mahsulotning sifati bu usulda nazariy va empirik ko'rsatkichlarni mahsulot sifatini ko'rsatkichlari bilan bog'lanishi orqali amalga oshiriladi. Hisoblash usulidan mahsulotni loyihalashtirishda foydalaniladi. Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'lanish ham shu usulda aniqlanadi.

**Qayd qilish usuli.** Mahsulotni muntazam ravishda kuzatish, hodisalarni, buyumlarni va harakatlarni hisobga olish qayd qilish usulining asosi hisoblanadi. Masalan, mahsulotning qaytarilishida ulardagi nuqsonlarning soni va hajmi hisobga olinadi. Mahsulot sifatini baholashda mana shunday axborotlarga e'tibor beriladi.

**Sotsiologik usul** -iste'molchilarining mahsulot sifatiga bergen baholarini yig'ish va bildirilgan fikrlarni taxlil qilish asosida uning sifatiga baho berish usulidir. Bunda iste'molchilarga anketalar tarqatiladi, fikrlari so'rab olinadi, mahsus konferentsiya, yig'ilishlar, degustatsiya, ko'rgazmalar o'tkaziladi.

**Ekspert usuli.** Mahsulotning sifat ko'rsatkichlari mutaxassis ekspertlarning qaroriga asosan aniqlanadi. Ko'pincha mahsulotning sifatini ob'ektiv usullarda aniqlash qiyin bo'lgan taqdirda ekspert usulidan foydalaniladi. Bu usul ko'pincha mahsulotning sifati organoleptik usulda aniqlangan vaqtida kerak bo'ladi.

Mahsulot sifatini ekspert usulda aniqlashda mutaxassislardan iborat ekspert komissiyasi tuziladi va ushbu komissiyaning umumiylar qarori bilan mahsulot sifatiga baho beriladi. Mahsulot sifatini aniqlashda mahsulot partiyasidan o'rtacha namuna olinadi.

O'rtacha namuna mahsulot partiyasining hamma massasini xarakterlay olishi lozim.

Mahsulot partiyasining ma'lum joylaridan dastlabki namunalar olingach, ulardan o'rtacha

namuna hosil qilinadi. Namuna olish qoidalari tegishli standartlarda ko'rsatiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. *Sifatni belgilashda va ko'rsatishda qo'llaniladigan iboralar?*
2. *Mahsulotning sifat ko'rsatgichlari va uni boshqarish.*
3. *Mahsulotdagi nuqsonlarni farqlash va sinflari.*
4. *Mahsulotni ozuqaviy va energetik qiymati.*

## **3-MAVZU: OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI FIZIK XUSUSIYATLARI**

### **Reja:**

1. *Meva-sabzavotlarni fizik xossalari va ularni saqlash xamda qayta ishlashdagi axamiyati.*
2. *Meva va sabzavotlarni nafas olish jarayoni.*
3. *Xom-ashyoning shakli, kattaligi va boshqa ko'rsatgichlari haqida tushuncha.*

### **Tayanch so'zlar:**

*agregat xolat, fizik xususiyatlar; shakil, kattalik; zichlik; to'qimaning kengayishi; xo'jayrani suv bug'latishi; terlashi; erkin suv; xo'jayra tarkibidagi suv.*

Oziq-ovqat mahsulotlarini sifatini to'liq baholash uchun ularning kimyoviy tarkibini bilish kamlik qiladi. Buning uchun ularni fizik xususiyatlarini bilish ham darkor. Mahsulotlarning fizik xususiyatlariga ularning shakli, kattaligi, zichligi, strukturaviy mexanik xususiyati, teplofizik, elektrofizik, optik sorbtsiyalash va boshqa xususiyatlari kiradi.

Mahsulotning bu xususiyatlariga juda ko'p omillar ta'sir qiladi: agregat holati va tuxilishi, suvning bog'langan shakli, harorati va bosimi, ishlab chiqarish texnologiyasi va xokazolar.

Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida uning fizik xususiyati katta ahamiyatga ega, shunga qarab ularni tashiladi, saqlanadi, sifatini aniqlashda fizik,xususiyatiga qarab tavsif beriladi.

Mahsulotlarni sifatini aniqlashda ularning shakli katta ahamiyatga ega, Masalan non mahsulotlari, konditer mahsulotlari yoki pishloqni olsak, ularning tashqi ko'rinishiga qaraboq ishlatilgan xom ashyoning sifatini aniqlash mumkin, texnologik jarayonni to'g'ri qo'llanganligi haqida ma'lumot olish mumkin.

Sabzavot-mevalarda esa ularning shakli, shu xom-ashyoni botanik turini va navini bildiradi.

Mahsulotlarning kattaligi ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar uchun va etishtirilgan meva-sabzavotlar uchun ham me'yoranadi. Masalan: kartoshkaning kech pishar navlari standart bo'yicha 20-30 ml atrofida bo'lishi kerak.

Mahsulotning muhim ahamiyatga ega bo'lgan fizik ko'rsatkichlaridan biri, bu uning zichligidir.

Z i ch l i k - mahsulotning hajm birligidagi massasini miqdori. Zichlikni quyidagi formula orqali aniqlanadi.  $R = m/V$ .

$R$  - mahsulot zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;

$m$  - massa, kg;

$V$  - mahsulotning hajmi;

Mahsulot zichligiga harorat va bosim ta'sir qiladi. Harorat ko'tarilsa zichlik kamayadi (to'qimaning kengayishi hisobiga). Zichlik mahsulot tarkibidagi quruq moddalar kontsentratsiyasiga ham bog'liq.

Zichlik ko'rsatkichi sutning sifatini, tuzlamalardagi tuz miqdorini, siroplprdp, ekstraktlarda quruq modda miqdorini aniqlashda va boshqa hollarda ishlatiladi.

Kartoshkaning zichligini aniqlash orqali uning tarkibidagi kraxmall miqdori aniqlanadi. Etilgan tomatlarda, olmada yoki boshqa mevalarda zichlikning yuqori bo'lishi, ularni qayta ishlaganda olinadigan mahsulotni chiqishi yuqori bo'lishidan darak beradi (pyure, pasta va h.k.)

Meva va sabzavotlarni saqlash jarayonida ularning fizik xossalari bilish, saqlashda bu xossalardan ilmiy asosda foydalanish muhim hisoblanadi. Meva va sabzavotlarning fizik xossalari ularni yig'ib-terib olishda, tashishda hamda saqlashda katta ahamiyatga ega.

Meva va sabzavotlarning fizik xossalariaga yana ularning suv bug'latishi, terlashi, issiqlik xossalari, mexanik pishiqligi, to'kiluvchanligi, o'z-o'zidan srotlarga ajralishi, g'ovakligi va boshqalar kiradi.

Saqlash jarayonida mahsulotlar suvni ko'p miqdorda bug'latadi, terlaydi va natijada so'lib qoladi. Bug'lanish miqdori mevaning turi, navi, morfologik tuzilishi hamda uning ximiyaviy tarkibiga bog'liq. Po'sti yupqa, po'stining mum g'ubori sidirilib ketgan, xujayra tarkibida oqsil va kolloid moddalar kam bo'lган, suvni saqlab qolish xususiyati past bo'lган meva va sabzavotlar suvni tez bug'latadi va so'liydi. So'ligan mevalar tez buziladi va uzoq saqlanmaydi.

Havoning harorati baland, namligi past bo'lib, uning ombordagi harakati tez bo'lsa, bug'lanish tezligi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Mayda mevalar yirik mevalarga qaraganda nisbatan suvni tez yo'qotadi.

Bug'lanish tezligi mevadagi suvning miqdoriga ham bog'liq. Agar meva terishdan oldin sug'orilsa, terilgan mevalar sersuv bo'lib, saqlash davrining boshida tarkibidagi suvni tez bug'latib so'lib qoladi. Ko'pincha ularda achchiq mog'or hosil bo'ladi, danakli mevalarning danagi yorilib ketadi. Terilishidan oldin uzoq vaqt suv ichmagan mevalar ham saqlash vaqtida suvni tez bug'latadi va so'lib qoladi.

### **Meva, sabzavot va kartoshka nam yo'qotshining yo'l qo'yiladigan me'yorlari**

Mahsulotlar	Saqlash muddati	Nam yo'qotilishi			
		saqlash davri mobaynida	o'rtacha 1 oy mobaynida	eng noqulay 1 oy mobaynida	
Oy	kg/t	%	kg/t	%	%
Kartoshka	9	51,0	5,10	5,70	0,57
Lavlagi	10	61,5	6,15	6,15	0,62
Sabzi, sholg'om	10	79,5	7,95	7,95	0,80
					1,65

Bug'lanish mevalarda suvning taqsimlanishaiga bog'liq. Masalan, nokda suvning ko'p qismi xujayra oralig'idan joylashgan bo'ladi, shu sababli u suvni tez bug'latadi.

Mevalar saqlanishning dastlabki kunlarida suvni juda tez bug'latadi, bunda mevalar tarkibidagi erkin suvdan xalos bo'ladi. So'ngra bug'lanish pasayadi, meva etilishi bilan bug'lanish kuchayadi.

Meva va sabzavotlar idishga joylashgan yoki to'kma holda qalin qilib va ustidan havo o'tishi uchun ochiq joy qoldirmay joylanganda ular terlay boshlaydi. YAmik yoki uyum o'rtasidagi harorat, odatda ombor haroratidan yuqori bo'ladi. SHu sababli yuqori qavatdagi yoki yon tomondagi mevalar terlaydi. Bunda ular tez buziladi. Ularning sirtidagi namlik mikroorganizmlarning rivojlanishiga qulay sharoit tug'diradi.

Meva va sabzavotlarni saqlash uchun sun'iy usulda - sovutgichlarda va tabiiy usulda ventilyatsiya - tashqi havo yordamida muzdatiladi. Meva va sabzavotlarning muzlashi - 0,5 dan - 3<sup>0</sup>S gacha yuz beradi. Mevalarning muzlash harorati ular tarkibidagi suvning miqdoriga bog'liq.

Mevalar qanchalik tez sovutsilsa, mikroorganizmlarning rivojlanishi va bioximiyaviy jarayonlar sekinlashadi, natijada mahsulotning saqlanish muddati uzayadi va nobudgarchilik kamayadi. Muzlatishda meva va sabzavotlar tarkibidagi suv turli muddatlarda muzlaydi. Avvalo erkin suv, ya'ni xujayra oralig'idagi suv, keyin esa xujayra tarkibidagi suv muzlaydi. Kichik idishlardagi va to'kma qilib joylangan mevalar, hajmi kichik mevalar odatda tez muzlaydi.

Ko'pincha qattiq muzlatish natijasida, xujayralarning suvsizlanib qolishi, oqsillar va plazmaning hamda boshqa kolloid moddalarning qaytarilmaydigan kaogulyatsiyasi natijasida mevalar nobud bo'ladi. Mexanik shikastlangan mevalar ularning sovuqdan nobud bo'lishini kuchaytiradi.

Meva va sabzavotlarning issiqlik xossalari xam ularni saqlashda muxim axamiyatga ega. Ular issiqlikni va xaroratni yomon o'tkazishi bilan xarakterlanadi. SHu sababli hamda g'ovakligi katta bo'lganligi uchun ular juda sekinlik bilan soviydi va isiydi.

Meva va sabzavotlarning issiqlik va harorat o'tkazuvchanligi yomon bo'lganligi uchun omborlarda o'z-o'zidan qizish jarayoni paydo bo'ladi va natijada saqlanayotgan mahsulotning bir qismi yo'qotiladi.

Ombordagi havoning harorati, namligi meva va sabzavotlarni saqlashda ularning issiqlik ajratib chiqarish tezligiga bog'liq. Meva va sabzavotlarning issiqlik ajratib chiqarish xususiyati nafas olish tezligiga bog'liq, u ajralib chiqadigan karbonat angidrid miqdoriga qarab hisobga olinadi.

Meva va sabzavotlarning tarkibida suv ko'p bo'lganligi sababli ularning issiqlik sig'imi baland. Odatda meva va sabzavotlarning issiqlik sig'imi hisoblashda undagi suvning miqdori hisobga olinadi. Masalan, pomidorning tarkibida 86% suv bo'lsa, uning issiqlik sig'imi 860 kkal/t 0S ga teng bo'ladi.

Meva va sabzavotlarning issiqlik sig'imi va undan ajralib chiqqan issiqlik miqdorini bilgan holda ombordagi mahsulotning harorati qanchalik oshganligini hisoblash mumkin. Masalan, kartoshka saqlanadigan omborda issiqlik ajralib chiqishi 15<sup>0</sup>S da sutkasig 570 kkal/t ga teng bo'ladi. Issiqlik sig'imi esa agar tunganakda 85% suv bo'lsa, 850 kkal/t 0S bo'ladi. Bunda kartoshka uyumida haroratning oshishi sutkasiga 570:850=0,67 0S ni tashkil qiladi.

Meva va sabzavotlar haroratining oshishini aniqlash orqali biz qaysi vaqtida shamollatish zarurligini bilishimiz mumkin. Aks holda haroratning oshishi issiqlik ajralib chiqishi va nafas olish jarayonini tezlashtiradi. Oqibatda o'z-o'zidan qizish jarayoni avj olib ketadi. SHu bilan birga bunda mikroorganizmlarning rivojlanishi ham tezlashadi.

### Nazorat savollar:

1. Meva-sabzavotlarni fizik xossalari va ularni saqlash xamda qayta ishlashdagi axamiyati.
2. Meva va sabzavotlarni nafas olish xususiyati.
3. Xom-ashyoning shakli, kattaligi va boshqa ko'rsatgichlari haqida tushuncha.

## 4-MAVZU: OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI FIZIK XUSUSIYATLARI VA ORGANIZM UCHUN AXAMIYATI

### Reja:

*Meva-sabzavotlarning mexanik pishiqligi, uyumi, o'z-o'zidan saralanishi.*

*Mahsulotlarning g'ovakligi, reologik xususiyati, deformatsiyalanishi, qattiqligi, elastikligi va boshalar.*

**Tayanch so'zlar:** *mexanik pishiqlik; strukturaviy mexanik xususiyat; deformatsiyalanish; qattiqlik, taranglik; elastiklik; plastiklik; qovushqoqlik; ilashqoqlik; tiksotropiya; adgeziya.*

## *Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuaviy, biologik va energetik qiymati.*

Meva va sabzavotlarni omborlarga joylashtirishda ularning mexanik pishiqligi asosiy ko'rsatgich hisoblanadi.

*Meva va sabzavotlarning mexanik pishiqligi* deganda ularning bir  $\text{sm}^2$  iga ta'sir ko'rsatganda solishtirma qarshiligi tushuniladi va  $\text{kg/sm}^2$  bilan o'lchanadi. Meva va sabzavotlarning solishtirma qarshiligi ularning bir qator hossalariga, strukturasining pishiqligiga, qattiqligiga, og'irligiga va o'lchamlariga bog'liq. Masalan, kartoshkaning solishtirma qarshiligi 17 dan 25  $\text{kg/sm}^2$  gacha bo'ladi.

*To'kiluvchanlik xususiyati* ham meva va sabzavotlarni saqlashda ma'lum ahamiyat kasb etadi. Ular turli hil shaklda va o'lchamda bo'lganligi uchun ularning to'kiluvchanligi past bo'ladi.

Mahsulotlarni fizik ko'rsatgichlaridan yana biri ularni **uyum** hosil qilishidir.

Kartoshka va boshqa sabzavotlarni uyum qilib saqlashda ularning tabiiy qiyaligi 40 - 45 $^0$  oralig'ida bo'ladi. Omborlarga joylashda burchagining qiyaligi 40 - 50 $^0$  dan ortiq bo'lgandagiga ular sirpanib tushadi. Odatda meva va sabzavotlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishda transport lentalarining nishablik burchagini sirpanish burchagidan kichik qilib joylashtirilishi lozim.

Meva va sabzavot omborlarini mexanizm yordamida to'ldirishda o'z-o'zidan saralanish kuzatiladi. Bunda mahsulotning kattalari uyumning o'tasiga, kichik o'lchamlaridagilar esa uyum atrofiga to'planadi. Bundau to'dalanish ular orasidan havo o'tishi va uyum orasida havo almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mahsulotlarni o'z-o'zidan saralanishining oldini olish uchun ularni o'lchamlariga qarab sortlarga ajratish va kalibrovka o'tkazish muhim hisoblanadi. Bunda mahsulotlarni tuproq, qum va boshqa iflosliklardan ham tozalash lozim.

Saqlash davomida mahsulotlar orasida havoning almashinuvi ularning g'ovakligiga bog'liq. Meva va sabzavotlarning 1  $\text{m}^3$  uyumidagi teshiklarning miqdori ularning g'ovakligi deb yuritiladi. Odatda g'ovaklik 30 dan 50 foizgacha bo'ladi.

Uyum orasida havo almashinishida mahsulotlar orasidagi teshiklarning o'lchami ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, kartoshka bilan bug'doyning g'ovakligi bir -xil, ya'ni 40% ga yaqin. Lekin kartoshka uyumi orasida havoning almashinuvi bug'doymikiga qaraganda ancha engil.

*O'z-o'zidan saralanish hodisasi* tufayli meva va sabzavotlar uyumining turli qismlarida g'ovaklik turlicha bo'ladi.

Meva va sabzavotlarning g'ovakligi ularning o'lchamlariga bog'liq. Masalan, lavlagining g'ovakligi 50 - 55, sabziniki 51 - 53, kartoshkaniki esa 37 - 55% bo'ladi.

Mahsulotning fizik xususiyatlaridan yana biri, ulardagi *strukturaviy-mexanik xususiyatdir* yoki uni mahsulotning reologik xususiyati deyiladi. Mahsulotning reologik xususiyati uning sifatiga, tuzilishiga va strukturasiga bog'liq bo'lib, shu mahsulotning tashqi energetik ta'siriga qarshilik ko'rsata olish qobiliyatini ko'rsatadi.

Mahsulotning bu xususiyati ularni tashish va saqlash sharoitini aniqlashda katta ahamiyatga ega.

*Mahsulotning pishiqligi* ham fizik xususiyatlaridan biridir. Pishiqlik deganda mahsulotni deformatsiyalanishga va mexanik parchalanishga chidamliligi tushuniladi.

*Deformatsiyalanish* - tashshqi kuch ta'sirida mahsulotning shakli va kattaligini buzilishidir.

Mahsulotning pishiqligi muhim ko'rsatgichlardan biri bo'lib, u mahsulotni maydalashda, ezishda, to'g'rashda muhim ahamiyatga ega.

Mahsulotga oid bo'lган fizik ko'rsatgichlardan biri uning qattiqlik xususiyatidir.

*Qattiqlik* - mahsulotning ichki qismiga biron-bir qattiq jismni kirishiga to'sqinlik ko'rsatish xususiyatini ifodasidir.

Mevalarni, sabzavotlarni, dukkakli donlarni va boshqa ko'pchilik mahsulotlarni sifatini aniqlashda albatta ularning qattiqlik ko'rsatgichi aniqlanadi. Mahsulotning bu ko'rsatgichi ularni

yig'ib olish vaqtida, navlarga ajratishda, qadoqlashda, tashishda, saqlashda va qayta ishlashda katta ahamiyatga ega. Ko'pchilik meva va sabzasotlar uchun bu ko'rsatgich ularning etilish darajasini ham bildiradi.

Mahsulotlarni yana bir fizik ko'rsatgichi, bu uning *tarangligidir*.

Taranglik deb, mahsulotni o'z shakli yoki hajmini, unga ta'sir qilayotgan kuchni, undan ajratgan zamon, o'z hajmi yoki shaklini tiklay olish qobiliyatini aytildi.

*Mahsulotning elastikligi* ham uning fizik xususiyatini ko'rsatadi. Elastiklik deganda mahsulotni shakli yoki hajmini unga deformatsiyalovchi kuch ta'siridan asta-sekin o'z holiga qaytish xususiyati tushuniladi. Bu xususiyat mahsulotni sifatini, yangiligini aniqlashda va tashish, saqlash sharoitlarini belgilashda inobatga olinadi.

*Plastiklik* xususiyati, mahsulotga tashqi kuch ta'sir ettirilganda qaytmas deformatsiyaga uchrashligini bildiradi.

*Qovushqoqlik* - suyuq mahsulotlarga hos bo'lib, suyuq massaning bir qismini, tashqi kuch ta'sirida, ikkinchi qismiga qiyinlik bilan ko'chishini ifodalovchi iboradir.

Qovushqoqlikka teskari bo'lган xususiyatni *oquvchanlik* deyiladi.

Mahsulotni qovushqoqlik xususiyatiga harorat, bosim, namlik yoki yog'lilik, quruq modda kontsentratsiyasi va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi.

*Ilashqoqlik*- xususiyati ham mahsulotlarga hos bo'lib bu ko'rsatgich mahsulotga yuk qo'yilsa beto'xtov deformatsiyalanishini anglatadi. Ushbu xususiyat ham befarq qaraydigan ko'rsatgich bo'lmay, mahsulotni saqlashda va unga ishlov berishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mahsulotlarga xos bo'lган yana bir fizik xususiyat - *tiksotropiyadir*. Bu xususiyat dispers sistema holatidagi mahsulotlarga xos bo'lib, ular yuzasiga mexanik kuch ta'sir ettirilsa, ma'lum vaqt o'tgach, ular o'z yuza birligini qayta tiklaydi (povidlo, asal va x.k.)

YAna bir xususiyat, yopishqoqlik alomati bo'lib, uni *adgeziya* deyiladi.

*Adgeziya* deganda, mahsulot yuzasi bilan u joylashgan idish yuzasi o'rtasidagi bog'liqlikning kuchliligi tushuniladi.

Mahsulotning bu xususiyati uning plastiklik, qovushqoqlik xususiyatlari bilan bog'lanib ketgan. Ushbu xususiyat pishloq, sarig'yog', go'sht qiymasi, povidlo, marmelad, djem va boqa mahsulotlarda ochiq kuzatiladi.

Mahsulotlarga xos bo'lган yana bir qancha fizik xususiyatlar mavjud bo'lib ( teplofizik, elektrofizik, optik, sorbtsiyalash kabi xususiyatlar), ular bilan biz mahsus kurslarda batafsil tanishamiz.

SHunday qilib meva va sabzavotlarning bir qator fizik xossalrini ko'rib chiqdik. Ularning yig'indisi mahsulotning issiqlik va fizik sistemasini tashkil qiladi. Bunda havo haroratining oshishi va mahsulotning nomlanishi kuzatiladi. SHu sababli mahsulotni saqlashdagi asosiy vazifa uning o'z-o'zidan qizi ketishi va terlashining oldini oladigan hamma chora tadbirlarni ko'rish hisoblanadi. Bunda omborlarni sun'iy sovutish, aktiv shamollatish va mahsulotni idishlarga solib saqlash tadbirlari muhim ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat mahsulotlari o'zlarining oddiy va murakkab bo'lган kompleks xususiyatlari bilan tavsiflanadi, bu xususiyatlariga kimyoviy, fizik, texnologik, fiziologik va hokazolar kiradi. SHu xususiyatlar yig'indisi oziq-ovqat mahsulotlarini insonlarga foydali ekanligini belgilaydi

*Mahsulotlarning ozuqaviy qiymati* - bu birmuncha keng tushunchani qamraydi va u mahsulot tarkibidagi kimyoviy moddalarni, ularning hazm bo'lish darajasini va energetik qiymatini, mazasini va hokazoni anglatadi. Mahsulot inson organizmining ozuqaviy moddalarga bo'lган talabini qancha ko'p qodirsa va u qancha ko'p balanslashtirilgan ovqatlanish tamoyillariga mos bo'lsa, uning ozuqaviy qiymati shuncha yuqori bo'ladi.

*Mahsulotning biologik qiymati* eng avvalo uning tarkibidagi oqsil sifatini, oqsilning tarkibidagi aminokislotalarni va hazm bo'lish darajasini bildiradi. SHu bilan birga yana mahsulot tarkibidagi hayotiy muhim ahamiyatga molik bo'lган biologik aktiv moddalar - mikroelementlar, almashtirilmaydigan yog' kislotalari, vitaminlar va boshqalar ham kiradi.

*Mahsulotning fiziologik qiymati* - mahsulot tarkibida, inson organizmida modda almashinish jarayonini amalga oshishida ishtirok etuvchi muhim moddalarni borligini bildiradi.

SHu bilan birga yana iste'mol qilinadigan mahsulotni insonning asab, yurak-tomir, ovqat hazm qilish va boshqa sistemalariga ta'sirini ham bildiradi.

*Mahsulotning energetik qiymati* - ovqat mahsulotlarini biologik oksidlanishi natijasida uning tarkibidagi moddalardan ajralgan energiyani va uni organizmdagi fiziologik funktsiyalarini amalga oshirish uchun sarflanishini bildiradi.

YUqori sifatli mahsulot - inson organizmiga ta'sir qiluvchi zararli va zaharli moddalar va o'ziga xos bo'limgan maza va hid tutmagan (og'ir metall tuzlari, zaharli organik birikmalar, zaharli alkoloidlar, glikozidlar, toksin-zaharlar, zamburug'lar ajratgan zaharli moddalar) mahsulotdir.

Oziq-ovqat mahsulotlarida patogen mikroorganizmlar, mog'or zamburug'lar, zararkunandalar bo'lishi mumkin emas. Mis qo'rg'oshin, nikel, metal aralashmalari mahsulot tarkibida cheklangan miqdorda bo'lishi mumkin, qo'rg'oshin tuzlari, simob,mish'yak umuman bo'lmasligi kerak.

*Mahsulotlarning organoleptik xususiyatlari* insonning sezgi organlari orqali aniqlanadigan ko'rsatgichlari bilan belgilanadi: tashqi ko'rinishi, konsistentsiyasi, mazasi va hidi. Bu ko'rsatgichlar mahsulotning hazm bo'lish darajasi bilan bog'liqdir. Bu ko'rsatgichlar ichida eng muhim mahsulotning mazasi bo'lib, mahsulotning kimyoviy tarkibi qancha ko'p universal bo'lsa va qancha ko'p ozuqaviy kislotalar va aromatik moddalar tutsa, u shuncha mazali bo'ladi.

#### ***Mahsulotlarning energetik qiymati va balanslashtirilgan ovqatlanish haqida***

Inson o'zining kundalik hayot jarayonida energiya sarflaydi, sarflangan energiya miqdori uning yoshiga, organizmning fiziologik holatiga, bajaradigan ish turiga, yashash iqlim sharoitiga va boshqa ko'pchilik omillarga bog'liq.

Organizmda energiya xujayralardagi uglevod, yog', oqsil va qisman o'zga birikmalarning - kislotalar, etil spirti va x.k. larning oksidlanishi natijasida yuzaga keladi. SHunga binoan organizmni bir sutkada sarf qiladigan energiyasini miqdorini va uni o'z vaqtida tiklovchi zaxirani yaratishni bilish muhim ahamiyatga ega.

Inson sarflaydigan energiya issiqlik ko'rinishida shakllanadi, shuning uchun energiyaning miqdorini issiqlik birligi bilan o'lchanadi.

Inson organizmiga kerak bo'lgan moddalar ovqat mahsulotlari tarkibida qabul qilinadi. Bu moddalar organizm xujayra, to'qima va organlarining tarkibiy qismlarini yangilanishiga, o'sishiga, tana massasini ko'payishiga sarflanadi. SH sababli, site'mol qilinadigan mahsulot, insonning yashashi va ish bajarishi uchun optimal sharoit yaratishi kerak.

Organizmni yuqori sifatli ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlash natijasida balanslashtirilgan(ratsional) ovqatlanishni tashkil qilish mumkin. O'zgacha aytganda, to'qimalarni yangilanishi uchun, energiya sarflanishi uchun va juda ko'p modda almashinishi jarayonlarini boshqarish uchun zarur bo'lgan muhim moddalarni o'zida tutgan ovqat mahsulotlari bilan organizmni tartib asosida va o'z vaqtida ta'minlash demakdir. Yana shuni ta'kidlash lozimki, mahsulot tarkibidagi moddalar o'zaro qulay nisbatda tashkil topgan bo'lishi shart.

Balanslashtirilgan ovqatlanishni tashkil qilinganda uning tarkibidagi o'rnini almashtirib bo'lmaydigan moddalar turi 56 tadan oshiqroq bo'ladi.

Bunday ovqatlanishni tashkil qilinganda albatta kun tartibi katta ahamiyatga egadir. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodlarni nisbati 1:1:4 bo'lishi, agar og'ir jismoniy ish bajaradigan kishilar bo'lsa - 1:1:5 bo'lishi kerak.

Oqsil, yog' va uglevodlarning miqdori hizmat turiga qarab belgilanadi. Masalan, oqsil 100 gr dan 200 grammgacha, yog' 87 grammdan 175 grammgacha, uglevod 310 grammdan 620 grammgacha o'zgarishi mumkin.

Insonni bir sutkada qabul qiladigan mahsulotini beradigan energiyasining 15% ini oqsillar (shu miqdorning 50% ini hayvon oqsili qoplashi kerak), 30% ini yog'lar (shu miqdorning 25% o'simlik yog'lari qoplashi kerak) va qolgan 50% ni uglevodlar (shu miqdorning

75% ni kraxmall, 20% ni qand, 35 ni pektin moddalari, 2% ni kletchatka qoplashi kerak) ta'minlashi lozim.

Inson organizmida 1 g oqsil oksidlanganda 4 kkal (16,7 kDj), 1 g uglevod oksidlanganda 3,8 kkal (15,9 kDj), 1 g organik kislotalar oksidlanganda 4 kkal (16,7 kDj), 1 g yog' parchalanganda 9 kkal (37,7 kDj) energiya ajraladi.

Eg' va uglevodlar organizmda hazm bo'lganda oxirgi modda largascha - SO<sub>2</sub> va suvgacha parchalanadi; oqsil esa to'liq oxirgi moddalargacha parchalanmaydi, qisman oraliq moddalar - mochevina, kreatinin, mochevaya kislota va boshqa azot tutgan (o'zida issiqlik energiyasi tutgan) moddalar hosil qiladi.

Ovqat mahsulotlarini beradigan energetik qiymatini aniqlash uchun uni to'liq kimyoviy tarkibini bilish etarlidir. Bu ishni quyidagicha amalga oshiriladi.: aytaylik, mahsulot tarkibida oqsil miqdori 2,8, yog' - 3,2 va uglevod - 4,7 g ni tashkil qiladi, demak ushbu mahsulotni 100 g massasini beradigan energiyasi 57,9 kkal ga (4,0 kkal x 2,8 + 9,0 kkal x 3,2 + 3,7 kkal x 4,7) yoki 241,4 kDj ga teng bo'ladi.

Quyidagi jadvalda ovqat moddalarining oksidlanishi jarayonidagi ajratgan energiyasini aniqlashda qo'llaniladigan kalorik koeffitsientlarini keltiramiz (2-jadval):

### ***Organik moddalarning kalorik koeffitsienti***

*2 -jadval*

Ovqat moddalarini	Energetik qiymati koeffitsienti, kkal/g
Oqsil	4,0
YOg'	9,0
Mono- va disaxaridlar yig'indisi	3,8
Kraxmal	4,1
Kletchatka	-
Organik kislotalar	3,0

Ovqat mahsulotlarining kimyoviy tarkibiga qarab ularning ozuqaviy biologik va energetik qiymatlari har-xil bo'ladi. Biz misol tariqasida 3 - jadvalda ayrim mahsulotlarning kimyoviy tarkibi va energetik qiymatini keltiramiz. Jadvaldan ko'rinish turibdiki eng ko'p energetik qiymat sariyog', margarin, shokolad, shakarli pechenye va shakarda, kam energetik qiymat sut, olma, karam va ayrim tur baliqlarda yashiringan ekan.

*Ayrim tur mahsulotlarning kimyoviy tarkibi va energetik qiymati (100 gda )*

*3-jadval*

Mahsulotlar nomi	Miqdori, %			Energetik qiymati, kkal(kDj)
	oqsillar	yog'lar	uglevodlar	
Oliy navli bug'doy uni	10,3	0,9	74,2	327 (1368)
Grechka yormasi	12,6	2,6	68	329(1377)
SHakar	-	-	99,8	374(1565)
SHokolad	5,4	35,3	47,2	540(2259)
SHakarli pechenye	7,5	11,8	74,4	417(1745)
Sut	2,8	3,2	4,7	58(243)
30% smetana	2,6	30,0	2,8	293(1226)
Margarin	0,3	82,3	1	746(3123)
Karam	1,8	-	5,4	28(117)
Kartoshka	2,0	0,1	19,7	83(347)
Tomat ( pomidor)	0,6	-	4,2	19(79)
Olma	0,4	-	11,3	46(192)
Uzum	0,4	-	17,5	69(289)
Mol go'shti	18,9	12,4	-	187(782)
Karp	16	3,6	1,3	96(402)

### **Nazorat savollari:**

*Mahsulotni pishiqligi, uyumi va g'ovakligi qaysi vaziyatlarda hisobga olinadi?*  
*Deformatsiyalanish orqali mahsulotni qaysi xususiyati namoyon bo'ladi?*  
*Qovushqoqlik xususiyati qaysi mahsulotlar uchun oid?*  
*Ozuqaviy qiymat nima, biologik qiymatni undan farqi.*  
*Energetik qiymat nima va qanday aniqlaniladi?*

### **5-MAVZU: GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SANOATIDA NAZORATNI TASHKIL ETISH**

**Reja:**

**Reja:**

*Potentsiometriya usuli*

*Kalorimetriya analizi*

*Refraktometriya*

**Tayanch so'zlar:**

*potentsiometriya; elektrod. adsorbsiya, refraktometriya; refraktometr; prizma; kalorimetriya; kontsentratsiya; dissotsiatsiya;*

### **Potentsiometriya**

Amaliyotda asosan juda ko'p tarqalgan analiz metodlaridan biri potentsialni aniqlash bo'lib, bunda metall ionlarining eritmada, shu eritmadagi metall ionlari bilan hosil qilgan potentsiali aniqlanadi. Potentsial shu eritmadagi ion kontsentratsiyalariga va shu kontsentratsiyaning o'zgarishiga bog'liq.


Potentsial ko'rsatkichi element kontsentratsiyasining, eritmaga tushirilganda uning ionlarining elektr tokining kam yoki ko'p miqdorda sarf qilishidan aniqlanadi. Potentsialni aniqlash potentsiometrlar yordamida amalga oshiriladi.

Potentsiometr: qarshilik, sirpanish kontakti, galvanometrdan iborat. Potentsialni o'lchash uchun quyidagi elektrodlardan foydalaniladi;

Vodorodli elektrod.

Potentsialning absolyut ko'rsatkichini element kontsentratsiyasida aniqlab bo'limgani sababli, standart vodorod elektrodlari yordamida elektr toki harakati orqali potentsialni o'lchash mumkin. Standart vodorodli elektrod deb, 760 mm simob ustuni bosimi ostida va ionlarning eritmadagi erkin harakati 1 gramm ion/litr bo'lisligha hisoblanadi.

Adsorbsiyalangan vodorod ionlari, shu eritmadagi metall ionlari kabi o'zini tutishi mumkin. Bunday vodorodning adsorbsiyalanshiga indiferent metallar qo'llanadi, bularga misol bo'lib platina hizmat qilishi mumkin. Suvga platina tushirilganda, uning ustki qismida vodorodning adsorbsiyalanshi kuzatiladi.



Bunda har bir vodorod atomi alohida ion hosil qilib bir elektron ajratib chiqaradi. Nernst tenglamasi orqali elektr harakatga keltiruvchi kuch ko'rsatkichi ikkita vodorod elektrodlari uchun quyidagicha:

$$E_{H_2} = E^0_{H_2} - \frac{RT}{F} \ln [H^+]$$

bunda R	- gazsimon doimiylik
T	- absolyut temperatura
F	- Faradiy qiymati - 96500 kulon
[H <sup>+</sup> ]	- vodorod ionlarining kontsentratsiyasi
E <sup>°</sup> <sub>N<sub>2</sub></sub>	- vodorod elektrodining elektr harakat kuchi (nolga teng)

### **pH ni potentsiometrik usul bilan aniqlash**

Erkin vodorod ionlarining kontsentratsiyasi kislotaning dissotsiatsiyalanish darajasi bilan aniqlanadi. Vodorod ionlarining kontsentratsiyasi eritmaning aktiv kislotalik muhitini xarakterlab beradi.

pH ko'rsatkichini aniqlashda bir elektrod potentsialining tekshirilayotgan eritmadi vodorod ionlarining kontsentratsiyasiga ta'siridagi o'zgarishlar o'lchanadi. Bu o'olda kontsentratsion element 2 ta elektrodlardan iborat bo'lib, ularning biri etalon vazifasini o'tab beradi.

O'lchash uchun ikkita vodorod elektrodidan foydalaniladi, ularning biri standart xoldagi elektrod bo'lib, bunda element elektr harakat kuchi



$$\text{Bu erda } - \frac{RT}{F} \ln [H^+] = -0,0001984 T_p H$$

$$\text{va } - \lg [H^+] = pH$$

Tenglama quyidagi ko'rinishni hosil qiladi.

$$E_{N_2} = +0,0001984 T_p N$$

18<sup>0</sup>S temperaturada T=291<sup>0</sup>

$$E_{N_2} = 0,0577 rN$$

$$\text{Bundan rN} = \frac{E_{H_2}}{0,0577}$$

## **Potentsiometrik titrlash**

Potentsiometrik titrlash usuli har bir holatda qo'llanishi mumkin. Agarda titrlash vaqtida rN o'zgarsa (ya'ni neytralizatsiyalanish, oksidlanish-qaytarilish reaktsiyalarini sodir bo'lganda) oksidlanish-qaytarilish potentsiali ham o'zgaradi.

Potentsiometrik titrlashda ikkita elektroddan foydalilanadi va galvanometr, uning zanjirni tutashtiruvchi kalitidan foydalilanadi. Potentsialning o'zgarishini galvanometr strelkalarining zanjir tutashtirilgandagi harakatidan aniqlab olinadi. Potentsialni aniq o'lchash uchun kompensatsion usuldan foydalilanadi.

Indikator elektrodini titrlash uchun mo'ljallangan idishga tushiriladi. Unga titrlash eritmasi quyilib, mexanik usul bilan aralashtiriladi. Titrlanayotgan eritmani solishtirish elektrodi bilan aralashtirilad

Potentsiometrik titrlash usuli indikator bilan titrlash usulidan aniqroq natijani ko'rsatadi. Potentsiometrik titrlash aniqligi og'irlik vaznini o'lchash analizidan qolishmaydi.

## **Kalorimetriya**

Kalorimetriya analizi – eritma rangining bo'yاليши интесивлиги, унинг бо'йовчи модда контсентратсиасига боб'лиқ еканлигидан иборат. Ўоруг'лик интесивлиги, суюqliк устунидан о'та туреб, бу суюqliк устунидаги еритма контсентратсиасига, баландлигига, температурасига, табиатига ва тушайотган ўоруг'ликнинг узунлигига ва интесивлигига боб'лиқ

. Иkkita bir hil eritma, ikki hil kontsentratsiyaga ega bo'lsa va bir xil sharoitda bo'lsa, uning yorug'lik intensivligi quyidagicha bo'ladi.

$$\frac{c_1}{c_2} = \frac{h_2}{h_1}$$

bu erda  $s_1 - s_2$  – eritma kontsentratsiyasi

$h_1 - h_2$  – eritma ustuni balandligi

Agar  $s_1$  – eritma kontsentratsiyasi aniq bo'lsa va eritma ustunlari balandligi ma'lum bo'lsa va shu ustunlar orqali o'tayotgan yorug'lik intensivligi bir xil bo'lsa, bunda o'r ganilayotgan eritma kontsentratsiyasi quyidagicha aniqlanadi:

$$C_2 = C_1 \frac{h_1}{h_2}$$

## **Kalorimetrik usul bilan rN ni aniqlash**

Ba'zi bir xollarda tekshirilayotgan eritma kontsentratsiyalarini, ularning rangini, oldindan tayyorlab qo'yilgan etalon namunalar rangi bilan solishtirish yo'li bilan aniqlanadi. Bu holda ularni o'lchash jarayoni osonlashadi va tezlashadi. Lekin aniqligi kamayadi.

Bunga misol bo'lib, kalorimetrik usul bilan rN ni aniqlash hizmat qiladi. Kalorimetrik pH ni aniqlash usuli, aniq bo'lgan muhitdagi pH indikator rangini, boshqa bir noma'lum pH muhitdagi indikator rangi bilan solishtirish usuliga asoslangan. Ko'pincha o'z rangini o'zgartiruvchi indikatorlar, vodorod kontsentratsiyalarining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Bunday eritmalar asosan kuchsiz kislotalar yoki asoslar bo'ladi. Masalan: kuchsiz asos bo'lgan indikator suvli muhitda quyidagicha dissotsiatsiyalanadi.



Dissotsiatsiyalangan indikator qismi bir rangga bo'yagan, ionlar esa boshqa rangga bo'yagan. Indikator dissotsiatsiya konstantsiyasi:

$$\frac{[I_n^+][OH^-]}{[I_nOH]} = K$$

### **Refraktometriya**

Amaliyotda refraktometriya usulidan go'sht mahsulotlarini analizdan o'tkazishda, ulardagi namlikni va yog' miqdorini aniqlashda foydalilanadi. Bu erda bir necha hil refraktometrlardan foydalilanadi.

Universal refraktometr—bu refraktometr suyuqlik va qattiq jismlarning sinish koefitsientini o'lhashda qo'llaniladi. Refraktometning ishchi qismi bo'lib, u ikkita prizmadan iborat bo'ladi. Suyuqlik pastki prizma va ustki prizma oralig'ida joylashtiriladi. Sinish koefitsientini(suyuqliklarda), undan qaytgan yorug'lik nurlari orqali aniqlanadi.

Yog'li (moyli) refraktometrlar maxsus tajribalar o'tkazish va sinish koefitsientini aniqlashda, soddallashtirilgan refraktometr konstruktsiyalaridan foydalilanadi. SHunday refraktometrlar turkumiga moyli refraktometr kiradi. Refraktometr 1 – ko'rish trubkasidan iborat, 2 ta shisha prizma va oynachadan iborat. Pastki prizma sharnir yordamida ochiladi. Prizmalar vintlar yordamida qotirligan. Suv nipell' orqali yuboriladi va chiqariladi. Temperaturani o'lhash uchun termometr joylashtiriladi. SHkalalarni to'g'rilash uchun belgili barabancha bor Refraktometrdagi yorug'lik nurlari yo'nalishi prizmalar ustidagi sinish va qarama-qarshi harakatlari kuzatiladi. SHkala ustiga tushuvchi yorug'lik nurlari 100 belgi bilan bo'lingan.


Moyli refraktometr aniqligi universal refraktometr aniqligidan qolishmaydi.

### **Nazorat savollar**

1. Kalorimetriya analizi qanday amalga oshiriladi?
2. rN ni kalorimetrik usul bilan qanday aniqlanadi?

3. Refraktometriya qanday usul?
4. Refraktometr nima?
5. Potensiometriya nimani aniqlaydi?
6. rN ni potensiometrik usul bilan aniqlash?
7. Potensiometrik titrlash usuli?

## **6-MAVZU: GO'SHT SIFATINI ANIQLASH, ULARNING KATEGORIYA VA NAVLARGA BO'LINISHI**

**Reja:**

*Go'shtning ahamiyati  
Oqsil - mahsulotning asosiy tarkibi hisoblangani  
Semizlik kategoriyalari*

**Tayanch so'zlar:** kategoriya; minerallar; aminokislotalar; fenilalanin

Go'shtning ahamiyati. Respublikamiz oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmoqlaridan biri go'sht sanoati hisoblanadi. Bu borada chorvadorlar, fermerlar va malakali texnologlar muhim o'rinn tutadilar.

Ma'lumki go'sht va go'sht mahsulotlaritarkibida to'la qimmatli oqsillar ko'p miqdorda bo'lganligi uchun har bir inson organizmi uchun zarur va muhim hisoblanadi.

Kuzatishlardan ma'lumki, inson organizmini energetik va plastik moddalar bilan ta'minlashda birorta oziq mahsuloti go'shtning o'rnni bosa olmaydi. Go'sht oqsillari o'simlik oqsillaridan bir necha barobar yuksak bo'lganligi uchunham u him energiya manbai hisoblanadi. Binobarin u insonlarning kundalik xayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Go'sht tarkibida barcha muhim elementlar tayyor holda bo'lganligi sababli, inson organizmida moddalar almashinuvida ishtiroy etadi.

Kuzatuvlardan ma'lum bo'lishicha, go'sht miyaga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytganda, miya oziqni ko'proq olib o'sadi va rivojlanadi. Ma'lumki inson organizmi o'z faoliyatida oqsil, yog', uglevod, tuz va vitaminlarni, shuningdek barcha turdag'i aminokislotalarni sarflaydi. Binobarin, bu moddalarni o'rni hamma vaqt to'ldirilib turishi talab etiladi. SHuning uchun iste'mol qilinadigan oziq-ovqatlar tarkibida organizm uchun muhim bo'lган barcha moddalar etarli va sifatli bo'lishi shart.

Barcha moddalar murakkab suv aralashmalari, organik va anorganik birikmalardan tashkil topgan.

Umuman, go'sht mahsulotlari texnologiyasini mukammal bilish uning barcha texnik va texnologik talablarga rioya qilish tayyorlanadigan mahsulotni yuksak sifatda bo'lishi, uning xushbo'yligi (aromatligi) inson tomonidan sevib iste'mol qilishni muhim omillaridan hisoblanadi

Go'shtning asosiy klassifikatsiyalaridan biri, uni kategoriyalarga ajratish va navlarga bo'lishda ularga tegishli bo'lган go'sht to'qimalarining ozuqaviy qiymati yotadi. Go'sht tarkibida quyidagi to'qimalar mavjud: mushak to'qima, bog'lovchi to'qima va qon. Bu to'qimalarning tarkibi juda murakkab tuzilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Oqsil moddalar Oqsillar inson organizmi uchun juda kerakli bo'lib, ular to'qimalar, fermentlarni va gormonlarni hosil qilish uchun keraklidir. Oqsillarning biologik qiymati ko'pincha aminokislotalar sostaviga bog'liq. Bular o'rnnini bosib bo'lmaydigan muhim ahamiyatga ega bo'lgan aminokislotalar: triptofan, fenilalanin, leytsin, izoleytsin, treonin, metionin, lizin, valin va arginin. Eng ko'p oqsilga boy bu mushak to'qimalaridir. Ularda suv 75-77% va quruq moddalar 23-25% ni tashkil qiladi. Quruq modda qoldig'ida 21-24% organik moddalar va 0,8-1,8% mineral moddalar bo'ladi.

Oqsil - mahsulotning asosiy tarkibi hisoblangani holda, turli xildagi aminokislotalar birikmasidan iborat. Oqsillar aminokislotalarning saqlanish miqdorigan qarab to'liq (to'la qiymatli) va to'liqsiz oqsillarga bo'linadi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha katta yoshdagi odam (og'irlig 75-105 kg. bo'lgan) uchun bir sutkada 105-150 g. oqsil talab etilar ekan. Oqsillar asosan go'sht, baliq, sut va tuxum tarkibida ko'proq uchrashi aniqlangan. Oksillarning miqdoriga ko'ra oziq sifatini yuksaklik darajada bo'lishi ko'ndalang-targ'il muskullarda bo'lgani holda u nihoyat qimmatli hisoblanadi. Lekin biriktiruvchi to'qima va silliq muskullarda ayrim aminokislotalar (triptofan, lizin, tirozin va boshqalar)ni uchramasligi aniqlangan. SHuningdek, sifatli go'sht tarkibida o'rtacha 20% oqsil bo'lishi tajribalarda kuzaptilgan.

Mushak to'qimalaridan farqliroq bog'lovchi to'qimalarda kamroq qimmatga ega oqsillar tarkib topgan bo'ladi. Bu bog'lovchi to'qimalarning tarkibi turli xil bo'ladi.

Bog'lovchi to'qimalarning kimyoviy tarkibi

Moddalar	Miqdori %	
	paylar	bog'lovchi tomirlar
suv	62,9	37,6
mineral	0,5	0,5
Organik:		
kollagen	31,6	0,7
elastin	1,6	31,7
mukoid	1,3	0,5
boshqa oqsillar	0,2	0,6
lipidlar	1,0	1,1
boshqalar	0,9	0,8

Semizlik kategoriyalari. Go'sht uchun suyladigan hayvonlardan olinadigan mahsulotlarning konditsiyasi (semizlik va sifat darajasi) uchun go'sht sanoati tomonidan xom-ashyoga katta va ulkan talablar qo'yiladi. CHunki yuqori sifatli xom-ashyodan keng assortimentda oziq va texnika mahsulotlari olish tabiiydir.

Olinadigan xom-ashyoning sifati ko'p jihatdan hayvonlarning oriq-semizligi, yoshi, jinsi, zoti, hamda fiziologik holati bilan belgilanadi. Bu borada nihoyatda ko'p kuzatish va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, hamda chovchachilik bo'yicha adabiyotlarda aks ettirilgan.

Xom yoki bo'sh tipiga mansub bo'lgan hayvonlar birmuncha go'shtdor bo'lganlari holda, ulardan go'shtni qayta ishlash korxonalari sifatli va ko'proq xom-ashyo olishlari mumkin. Bunday konstitutsiya tipiga ega bo'lgan hayvonlarning vazni birmuncha katta, go'sht va yog' chiqimi yuqori darajada bo'lishi aniqlangan.

Umuman go'sht uchun boqiladigan zotli hayvonlarning suyaklari ingichka, bo'yni kalta va sergo'sht, boshi kalta, ko'kragi keng va go'shtdor, ya'ni tushi bo'rtib chiqqan, orqasi, beli, sagrasi keng va sergo'sht, terisi cho'ziluvchan qalin bo'lib, mayin jun bilan qoplangan bo'ladi. Bu tipdag'i hayvonlar tez etiluvchan, o'z tanasida qisqa vaqt ichida ko'proq go'sht etishtira oladigan, muskul to'qimalar salmoqli bo'ladi. Ayniqsa yana bir muhim ko'rsatgichi ularning go'shti «marmarsimon», ya'ni go'sht va yog' to'qimalari qavatma-qavat bo'ladi. Bunday holat olinadigan go'sht xom-ashyosini mayin, yumshoq, nihoyat sifatli va lazzatli bo'lishida eng muhim omillardan hisoblanadi.

Agar qoramollardan go'sht xom-ashyosi etishtirish borasida so'z yuritsak, go'shtdor zotli mollarning tashqi ko'rinishi buchkasimon, oyoqlari kalta va yo'g'on, boshi kichik va yumaloq, bo'yni yo'g'on va kalta, juni yaltiroq va birmuncha mayin, hamda kam harakat bo'ladi. Bunday zotlar respubikamizda nihoyat kam tarqalgan bo'lib, ular atigi 5-6%ni tashkil etadi. Jumladan, qozoqi oq bosh, qalmoqi, santagertruda, aberdin-angus, gerefond kabi zotlar bunga misol bo'la oladi. Bu to'g'rida keyinroq qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Mol go'shti va qo'y go'shtlari mushak to'qimalarining va yog' qatlamlarining tuzilishiga qarab quyidagi semizlik kategoriylariga klassifikatsiyalanadi. Bu kategoriylar ko'rsatkichi quyidagilardan iborat:

**Semiz mol go'shti kategoriyasi.** Mushaklar a'lo darajada rivojlangan, suyaklar umuman ko'rinxinmaydi. YOg'lar butun tana qismini qoplab olgan bo'ladi.

**Yuqori semiz go'sht kategoriyasi.** Mushaklar yaxshi rivojlangan, suyaklar bo'rtib chiqmagan. Yog'lar tananing qo'l qismidan orqa son qismigacha qoplab turadi.

**O'rtacha semizlik kategoriyasi.** Mushaklar qoniqarli rivojlangan. Orqa tomon suyaklar ozgina bo'rtib chiqqan. Yog'lar tananing sakkizinch qovurg'asidan pastga qarab qoplab turadi.

**O'rtadan past semizlik kategoriyasi.** Mushaklar qoniqarsiz rivojlangan. Orqa tomonagi suyaklar bo'rtib chiqqani yaqqol ko'rini turadi. Yog'lar juda kam, onda – sonda uchraydi. Bu kategoriya mansub mol go'shti ozg'in mol go'shti hisoblanadi.

Cho'chqa go'shti semizligi 4 ta kategoriya bo'lingan bo'ladi.

Yog'li kategoriya - yog' qalinligi 7 sm dan ortiq.

Yarim yog'li kategoriya - yog' qalinligi 5-7 sm gacha

Vetchinali - yog' qalinligi 3 - 5 sm gacha;

Go'shtli - yog' qalinligi 1,5- 3 sm gacha

Oxirgi kategoriya baholanmagan cho'chqa go'shti og'riq cho'chqa go'shti hisoblanadi.

Go'shtdor zotli sigirlar sog'ilmaydi, chunki ularning suti nihoyatda oz bo'lib, o'z buzog'ini boqish uchun sarflanadi. Aks holda uming yosh buzog'i o'smay, rivojlanmay qolishi mumkin

**1 kategoriya talabi:** yirik mollarning gushti konikarli darajada rivojlangan, umurtqa pog'onasi o'simtalar bo'rtib chiqmagan, dumgaza suyaklari ko'zga tashlanib turmaydigan bulishi kerak. SHuningdek, teri osti moyi 8-nchi qobirg'adan dumg'azasiga kadar katlam xosil kilsa va bo'ynida, kuragini yuzi kismida, oldingi qobirg'alarida, sonida, toz va chot kismida oz bo'lsada moy bo'laklari bo'lsa, u 1-chi kategoriya deb xisoblanadi. /rasm-16/.

**YOsh mollarni go'shti** qoniqarli rivoj topgan, umurtka pog'onasi o'simtalari biroz bo'lsada bo'rtib chiqqan, kurak suyagi yuzasi, qobirg'alar, teri eg' katlamai oz bo'lsada ko'rini turadi, kurak kismida, sonini ichki kismida va dummini tanaga birikkan erida moy bo'laklari oz bo'lsada ifodalangan bo'ladi.

**2-chi kategoriya talabi:** Yirik mollarda muskulatura konikarli darajadan past, umurtqa o'simtalari, dumg'aza suyagi bo'rtib chiqqan va yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Teri osti moyi sezilarli darajada emas.

**YOsh mollar go'shti** - sust tarakkiy etgan. Umurtka pogonasi o'simtalari, dumg'aza suyagi bo'rtib chiqqan va yaqqol ko'zga tashlanib turadi, moy parchalari deyarli sezilmaydi.

*Go'shtning morfologik tuzilishi va ayrim xususiyatlari. Go'shtning navlarga bo'linishi*

Morfologik jihatdan go'sht tarkibiga muskul to'qimasi, yog', biriktiruvchi to'qma, suyaklar va nerv tolalari kiradi. SHuningdek qon tomirlar, limfa sistemasi ham nihoyat oz miqdorni tashkil etib go'sht tarkibiga kiradi.

#### Muskul to'qimasi.

Tarkibida 72-75% suv va 28-25% quruq moddalardan iborat. Quruq modda tarkibida 18-22% oqsil moddalar, 17-5% yog' va lipidlar, 1-1,2% mineral moddalardan iborat.

Muskul to'qimasining asosiy elementi bu muskul tolasidir, bu tolalar birlashib muskul bog'ini (po'choq) hosil qiladi va ular bog'lovchi to'qima (endomiziya) bilan o'raladi. Endomiziya yupqa nozik kollogen tolalardan iborat oralig'idagi bo'sh joylar oquvchan moddalar bilan to'lgan. Endomiziya qavatlariga qon va limfa tomirlari va nerv tolalari bilan (pronizanby) teshilgan.

Birlamchi bog'lar, ikkilamchiga, uchlamchiga va hokazolariga birlashib bog'lovchi to'qima bilan o'ralib muskul hosil qiladi.

YOg' to'qimasi. YOg' to'qimasi biriktiruvchi to'qimaning bir turi bo'lgani holda o'ziga xos rangga va xususiyatga egadir. Jumladan, u qoramollarda sariq, qo'ylerda oqroq, cho'chqalarda oq va otlarda to'q sariq bo'lishi aniqlangan.

YOg' to'qimasining rangi ko'plab omillar bilan belgilanadi. Masalan, hayvonlarni oriq-semizligi, yoshi, jinsi, boqilishi, fiziologik holati shular jumlasidandir. YOg' to'qimasi mikroskop ostida ko'rilmaga, retikulyar hujayralar, yog'ga aylanuvchi, retikulyar hujayra, bulutsimon hujayra, yog' hujayrasidan iborat, ular dona-dona bo'lib biriktiruvchi to'qima bilan yonma-yon joylashganligi go'sht sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Binobarin go'sht yo'naliishiga mansub bo'lgan hayvonlar bu holatd yaqqol sezilib turadi. SHuning uchun ularni go'shtini «marmarsimon» go'sht deb ataladi. Bunday go'shtlar yumshoq, mayin, mazali, lazzatli va tez pishadigan bo'ladi.

#### Biriktiruvchi to'qima.

Biriktiruvchi to'qima ko'pincha yulduzsimon, ba'zan cho'ziq holda uchraydi. Bu to'qima organizmni barcha erida uchraydi va hujayralararo moddalar kollogen (elim beruvchi) va elastik(qayishqoq) tolalardan tashkil topgan. Bu to'qima ko'pincha shakllanmagan (shaklsiz) ko'rinishda uchraydi va u semiz mollar go'shtida 9-10%, oriq mollarda 14-15% atrofida bo'lishi aniqlangan.

#### Suyak to'qima.

Suyak to'qima zinch serkovak suyak hujayralaridan va shaklsiz moddalardan tashkil topgan. SHuningdek mayda kovakliyoki teshik-teshikli bo'lishi aniqlangan. Suyak to'qimasi o'z shakliga ko'ra yassi va naysimon bo'ladi. Hayvonlarni turi, yoshi va vazniga ko'ra uning tanasidagi suyak to'qima salmog'i har xil bo'ladi. Masalan, qoramollarda 7-31%, otlarda 13-15%, qo'ylerda 8-17% va cho'chqalarda 5-9% bo'lishi aniqlangan.

**Go'sht navlari.** Go'shtning tana qismidan olingan joyiga qarab o'zining ozuqaviy qimmatiga ega. U o'zining to'qimasi va kimyoviy tarkibi bo'yicha turli ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

O'zida yog'i, suyaklari va ko'rinarli bog'lovchi to'qimalar bo'limgan go'sht oliy navli go'sht deb yuritiladi. O'zida 6% gacha yog' va bog'lovchi to'qimalariga ega bo'lgan go'sht 1 navli go'sht deyiladi. Go'shtdagagi mushak va bog'lovchi to'qimalarining miqdori, uning tez yoki aksincha hazm bo'lishiga ta'sir utkazadi.

Yuqori navli go'sht past navli go'shtga qaraganda o'zida mushak to'qimalari oqsillarining ko'pligi va bog'lovchi to'qimalar oqsillarining kamligi bilan tez hazm bo'ladi. Ular pepsin va pankreatin bilan 20-30% yaxshiroq hazm qilinadi.

### Nazorat savollar

1. Go'sht qanday kategoriyalarga bo'linadi?
2. Oqsil moddalar nima?
3. Go'shtning qanday navlari mavjud?
4. Bog'lovchi to'qimalarning kimyoviy tarkibi?

## 7-MAVZU: GO'SHT SIFATINI ANIQLASH USULI

### Reja:

*Mol go'shtning kimyoviy tarkibi va sifati  
Mol go'shtning sifatini aniqlash  
Go'shtning kaloriyasi*

**Tayanch so'zlar:** mikroorganizmlar; gemoglobin; polipeptid; organoleptik;

Eng yuqori sifatli go'sht birinchi galda barcha yuqori naslli go'shtdor zotlar (qozoqi oqbosh, santa-gertruda, aberdin-angus, gereford, qalmoqi, sharole va h..) dan etishtiriladi. CHunki, bu zotdagি mollar faqatgina go'sht etishtirishga moslashtirilgan bo'ladi. Mol tanasidagi go'sht miqdorini va uning sifatini hayvonning tiriklik vaqtida ham taxminan chamlash yo'li bilan aniqlash mumkin. Bu usulda mollarni oriq-semizligi, son qismining to'la go'shtdorligi, elka yo'nalishini esa tekis yoki notejisligi, shuningdek, kengligi hamda tanasini umumiy ko'rinishi (ekster'er)ga qarab belgilanadi.

Mollarning go'shtdorlik xususiyatini ifodalash uchun aniq usullardan foydalilanadi. Bunda mollar so'yilgach go'shtini tortish va hisoblash usuli aniq va qulay hisobga olinadi.

So'yilgan mollarning go'sht nimtasidagi boshqa to'qima (yog', pay, suyak, va h.k.)lardan ajratilgan holda bir necha guruhlarga bo'linadi. YA'ni suyakli go'sht yoki go'sht nimtalari; laxm go'sht yoki suyakdan ajratib olingan go'sht, qor go'sht yoki yog', pay, tog'ay, limfatik tomirlardan tozalab olingan go'sht shular jumlasidandir.

hayvon turlari	to'kimalar miqdori suyakli go'sht miqdoriga nisbatan, %			
	muskul	YOg'	suyak va tog'ay	Biriktiruvchi
Yirik mol:				
yaxshi boqilgan	56,6	10,1	15,7	11,6
o'rtacha boqilgan	59,7	10,3	yo17,5	12,.5
Etarli boqilmagan mayda mol	60,6	3,5	21,9	14
yaxshi boqilgan				
o'rtacha boqilgan	55,4	18,2	15,2	11,2
etarli boqilmagan	56,9	15,8	15,8	11,5
	57,4	4,5	21,9	16,2

Go'shtning kaloriyasi uning sifatiga, molning semiz-oriqligiga, boqish usuliga, oziqlantirishga, yoshiga, jinsiga, fiziologik holatiga va hokazolariga bog'liq bo'lgani holda 1 kilogrammda taxminan 1200-2800 kilokaloriya va undan ko'proq bo'lishi tajribalarda sinab ko'rilgan.

Oriq mol go'shtida yog' miqdori o'rtacha 3,30% bo'lsa, yuqori semizlik darajasiga etkazilgach u 23% ko'payishi mumkin ekan. SHuningdek, paylar miqdori oriq mollarda 14% bo'lsa, yuqori daraja semizlarida u atigi 9,6%ga to'g'ri kelar ekan.

Laxm go'sht tarkibidagi kimyoviy moddalarining miqdori mollarning semizlik darjasini bilan belgilanadi. Agar mollarning semizligi qanchalik yuqori bo'lsa, ularning go'shtdagi suv (68,5%), hamda oqsil (17,6%) kamayishi bilan yog' miqdori (23%) va umumiy kaloriyasi (2850kkal) shuncha yuqori bo'lishi tajribalarda sinalib ko'rilgan.

Go'shtning asosiy qismi muskul to'qimalaridan tashkil topgan bo'lib, u yosh mollarda ancha nozik, tez pishadigan va yaxshi hazm bo'lismi xususiyatiga egadir. Qari mollarning go'shti esa ancha qattiq, chayrroq va dag'allashgan bo'ladi. SHu bilan birga uni uzoq vaqt pishirish talab etiladi. Bunday go'shtni hazm bo'lismi yosh mollarnikiga nisbatan pastroq bo'ladi. SHuning uchun ham chet mamlakatlarda buzoq go'shti yirik mol go'shtiga nisbatan bir necha marta qimmat baholanadi.

Umuman go'sht miqdori semiz mollarda ko'p, oriqlarda oz, shuningdek, yosh mollarda ham oz, katta yoshdagilarida esa ko'proq bo'ladi, shu bilan birga erkak mollarda urg'ochilarga nisbatan ko'p go'sht bo'lishi aniqlangan.

Mol tanasida yog' to'qimalarining miqdori asosan teri ostida, shuningdek, buyrak va qovuq atrofida, oshqozon va ichaklar atrofida ko'proq uchraydi. Bunday xususiyat ko'proq yirik mollarda yaxshi ifodalangan bo'ladi.

Mol go'shtning sifatini aniqlashda yana bir usul ancha qulay hisoblanadi. YA'ni go'shtning marmarsimon ko'rinishiga ega bo'lismi yoki ega emasligidan bu borada asosiy ko'rsatgich hisoblanadi. marmarsimon go'sht deyilganda uni tarkibidagi yog va muskul to'qimalar qavat-qavat holda ifodalangan bo'ladi. Bunday go'shtlar juda mazali va to'yimli hisoblanadi.

Go'shtning marmarsimon bo'lismi asosan go'shtdor zot mollarda yaxshi rivojlangan bo'ladi. SHuning uchun ham ularning go'shti go'sht-sut yo'nalihsidagi mollarnikiga qaraganda birmuncha yumshoq, to'yimli, tez pishadigan va mazali bo'ladi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lismicha go'sht tarkibidagi yog' ko'p bo'lsa, u holda go'shtning ta'mi pasayadi, hazm bo'lismi xususiyati tubanlashadi va bunday go'shtga nisbatan odamlarning htiyoji yuqori darajada bo'lmaydi.

Mol go'shtini oziq sifatida qiymati bir qancha omillar bilan belgilanadi. Masalan, hayvonlarning yoshi, jinsi, semizlik darjasini, iste'mol qilgan em-xashak turlari va ularning to'yimliligi shular jumlasidandir. Go'shtning kimyoviy tarkibi ham yuqorida ko'rsatilgan omillar asosida turlicha bo'lishi tabiiydir.

Adabiyot ma'lumotlariga ko'ra laxm go'sht tarkibida 72-75% suv, 25-28% quruq modda bo'ladi. Lekin quruq qoldiqning deyarli 60%ini oqsil tashkil qilsa, 5% yog' va 1-1,2% ini mineral moddalar, vitaminlar, fermentlar va gormonlar tashkil etadi. Go'sht oqsilini 85% ini to'la qiymatli bo'lgani holda o'z o'rnini almashtirib bo'lmaydigan aminokislotalardan tashkil topgandir.

Miozin go'sht tarkibidagi eng muhim oqsil hisoblanib, salmoqli o'rinni egallaydi. SHunga ko'ra go'sht tarkibidagi barcha oqsil moddalarning deyarli 35-40%ini miozin hisobiga tashkil topganligi aniqlangan.

Aktin go'sht tarkibidagi oqsillarning 12-155ini tashkil qiladi. U go'sht tarkibida fibrillar va globulyar shaklida uchraydi.

Go'sht tarkibida globulin, miogen, mioalbumin kabi oqsillar ham uchraydi. Ular orasida globulin barcha oqsillarni 10-20%iga tengdir.

Miogen esa 20% va mioalbumin 102% atrofida bo'ladi.

Go'sht tarkibidagi nihoyat murakkab hisoblangan nukleoproteidlar ham uchraydi. Jumladan, ribonuklein va dezoksiribonukleik kislotalari, elastin, kollogen va mukoproteinlar bo'lismi aniqlangan.

*Go'shtni taom pishirishga* ishlatalishdan oldin, odatda uni tashqi ko'rinishiga qarab, eskirish holatlari kuzatilmagan taqdirda, go'shtdagi o'zgarishlarga e'tibor beriladi.

Go'shtning eskirishi ning ustki qismidan boshlanadi. Bu jarayon asosan mikroorganizmlar yordamida tashqi muhit ta'siri ostida davom etadi. Mikroorganizmlar go'shtning ichki qismida, asosan mushak to'qimalarining suyak bilan tutashgan joylarida tez rivojlanadi. Ularning rivojlanish tezligi 2-14 sm gacha 1-2 kun ichida o'zgaradi.


Go'shtning aynishi uning ustki qismida boshlanadi. Ustki qismi ko'rinishi o'zgaradi. Aynigan go'sht namligi oshadi, shilimshiq modda bilan qoplanadi va qo'lga yopishadigan holga keladi. Go'sht rangi o'zgaradi, to'q ko'kimtir tusga kira boshlaydi. Gemoglobin oqsilining achishi natijasida vodorod oltingugurt ajralib chiqadi. SHundan so'ng undan nohush hid ajralib turadi. Oqsil moddalarning achish jarayoni mikroorganizmlar yordamida turlicha davom etadi. Achish jarayonida tashqi muhitning ta'siri va mikroorganizmlarning turlari ham ahamiyatga ega.

#### **Oqsil moddalarning aynishi sxemasi**

Оқсил



gidroliz  
Albumoz va polipeptidlar



Go'sht sifatini aniqlashda—organoleptik ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Eskirgan go'sht organoleptik ko'rsatkichlari quyidagilar bilan aniqlanadi: Tashqi ko'rinishi – usti juda nam, yopishqoq; rangi – kul rang va ko'kimir qo'ng'ir; konsistensiyasi – barmoq bilan ezilganda chuqurcha holda; hidi – achigan, ichki ora qismlaridan kelib turadi; yog'i – kul rang kir, mog'orlash alomatli; ilik yog'i – kir rangda, hidi yoqimsiz; paylari – shilimshiq, kir rangda, nam; sho'rvasi – qaynatilganda to'q qora, achigan hidli.

So'nggi ma'lumotlarga qaraganda, mol go'shtida molning oriq - semizligiga ko'ra 3%dan 35%gacha moy bo'lishi mumkin ekan. SHuningdek, barcha turdag'i mineral moddalar (kaliy, natriy, kaltsiy, magniy, temir va h.k.lar) ham bo'lishi kuzatilgan. Fosfor va mis ham salmoqli o'rinnegallar ekan. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha go'sht tarkibidagi yog' moddalarining ko'payishi bilan undagi mineral moddalar miqdori kamayib borar ekan. Go'sht tarkibidagi turli xildagi vitaminlar (tiamin-V<sub>1</sub>, riboflavin-V<sub>2</sub>, nikotin kislotasi -RR<sub>1</sub>, biotin-N, xolin, kobalamin-V<sub>12</sub>, foliev kislotasi)ni bo'lishi uning qiymatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

### Nazorat savollar

1. Go'shtning aynish holati qaeridan boshlanadi?
2. Oqsil moddalarning aynish sxemasi?
3. Go'sht sifatini aniqlashda organoleptik ko'rsatkichdan foydalanish?

## 8-MAVZU: GO'SHT TARKIBINI BAKTERIOSKOPIK USUL BILAN ANIQLASH

### Reja:

*Go'shtning tashqi alomatlari  
Mushak,yog',suyak to'qimalari  
Go'shtning sifatini aniqlash  
Qora mol larni boshlang'ich qayta ishlash tsexida nazorat qilish*

### Tayanch so'zlar: sterilash;gentsianviolet;fuksin;mikroskop;

Go'sht deganda hayvon so'yilgandan so'ng, uning butun tanasi yoki bir qismi tushuniladi. Go'sht o'zining to'qimalari tuzilishiga qarab, bir necha ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Suyak bilan birga bo'lgan go'sht, ya'ni uning skelet muskulaturasi go'sht to'qimalari bilan birga uyg'unlashgan.

Suyakdan ajratib olingan go'sht – suyaksiz paylardan va boshqa tolalardan tozalangan va suyaksiz go'sht.

Go'sht tarkibida tirik organizmning hamma to'qimalari mavjud bo'ladi. Bular: mushak to'qima, suyak, yog', bog'lovchi va nerv, shuningdek qon va limfatik to'qimalar. Ularning go'sht tarkibidagi miqdori, hayvonning zotiga, jinsiga, yoshiga, boquv yo'naliishiga va boshqa bir qator faktorlarga bog'liq.

Go'sht sifatini baholashda asosan uning anotomik-morfologik va fizik-kimyoviy tarkibiga qarab aniq xulosalar chiqarish mumkin. Asosiy anotomik-morfologik go'sht qismi – bu mushak to'qimasi hisoblanadi. U o'z navbatida skelet muskulurasini tashkil qiladi.

**Mushak to'qima** – alohida tolalardan iborat bo'lib, bog'lovchi to'qimalar uni biriktirib turadi. Ular orqali nerv tolalari to'qimalari o'tadi. To'qimalar esa suyak bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Qari yoki ishchi hayvonlarning mushak to'qimalari dag'al va qattiq bo'ladi. Yosh va go'sht uchun boqiladigan hayvonlar mushak to'qimalari mayin bo'ladi.

**Yog' to'qimasi** - ikkinchi anotomik-morfologik asosiy go'sht to'qimalaridan biri. U o'zining ko'p sonli yog'li kletkalar bilan bog'lovchi to'qimalar bilan uyg'unlashib ketgan. Yog'li kletkalar ekzoplazmatik ustki qatlamdan va gel holatda bo'ladi. Bunday yog' kletkalarning kattaligi 35- 130 mk diametrda bo'ladi.

Yog'ning ranglari turli ko'rinishda bo'lishi mumkin. Cho'chqa va echki yog'i – oq rangda, boshqa hayvon yog'lari esa sarg'ish rangda namoyon bo'ladi. Yosh hayvondan olingan yog'lar och rangda bo'ladi, aksincha qari yoshdagi hayvon yog'lari hiraroq rangda bo'lishi kuzatiladi. Yog'larning zichligi ularning erish temperaturasi va qotishi turli hayvonlarda har-xil bo'ladi.

Yog' mushak to'qimalari bilan birga hosil qilgan qatlami, go'shtning mazali va to'yimliligini ta'minlab beradi.

**Suyak to'qimasi** – (suyak – bu bog'lovchi to'qimalardan biri), u o'zining turli o'lchamdagи uzunligi, formasi, tuzilishi bilan ajralib turadi. Go'sht tarkibida quyidagi suyaklarni formalariga qarab ajratish mumkin.

Naysimon suyaklar (oq suyaklari), tekis suyak, aralash suyaklar – umurtqa suyaklari ko'krak qafasi suyaklari, son suyaklari x.k.

**Qon** organizmning muhim to'qimalaridan biridir. Qon, limfa va to'qima suyuqligi organizmning ichki muhitini tashkil qiladi. Organizmning barcha to'qima va xujayralari fizik-kimyoviy xossalari va tarkibi nisbatan doimiy bo'ladigan ana shu suyuqlikning muhitidagina normal ishlay oladi.

Issiq qonli hayvonlarda esa tarkibi murakkab, benihoya muhim vazifalarni bajara oladigan, o'ziga xos xossa va hususiyatlarga ega bo'lgan suyuq to'qima – qon paydo bo'lgan. Qonning organizmdagi ahamiyati, u bajara oladigan vazifalardan kelib chiqadi. Qon quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Transport vazifasini – qonning bu vazifasi uning turli moddalarni organizmda tashishi bilan belgilanadi. Jumladan qon kislород, glyukoza, aminokislolar, yog'lar va hayot uchun muhim bo'lgan boshqa moddalarni organizmning barcha xujayra va to'qimalariga etkazib beradi.

2. Termoregulyatsiyada –ya'ni issiqlik almashinuvida va uning boshqarilishida ishtirok etadi. Ma'lumki organizmning turli organ va to'qimalarda moddalar almashinuvining darajasi bir-xil emas. Qon organizm bo'ylab doimo harakatda bo'lib, tegishli organlardagi ortiqcha issiqlikni olib, boshqalariga beradi, ortiqchasini esa issiqlik uzatadigan organlarga – teri, o'pka va boshqalarga etkazadi.

3. Qon xujayra va to'qimalar uchun fizik-kimyoviy muhitdir. Buning ma'nosi shundaki, qonning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari doimiy bo'lib, juda kam chegarada o'zgaradi.

4. Qon himoya vazifasini o'taydi. Qondagi leykotsitlar – oq qon tanachalari organizmga tushgan turli yot jismlar, zararli agentlarni, moddalarni yutib oladi va emiradi.

5. Qon organizmdagi fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning idora etilishida ishtirok etadi.

Hayvonlarda qon miqdori tirik vazniga nisbatan olganda quyidagicha: Otlarda 8,0 - 10%, qora mollarda 7,5 – 8,2%, cho’chqalarda 4,5 – 6,5%, qo’ylarda 7,0 – 9,0% ni tashkil etadi. Hayvonning yoshi, organizmning holati, oziqlanishi, yilning fasli kabi omillar qon miqdoriga ta’sir ko’rsatadi. Masalan: bo’g’ozlik davrida qon ko’payadi, endigina tug’ilgan yosh hayvonlarda qon, onasidagiga qaraganda 2 -3 barobar ko’p bo’ladi. Organizmdagi qonning 55% ga yaqini venalarda, 20% o’pkada, 15% arteriyalarda, 5% yurakda va kapillyarlarda bo’ladi. Jumladan jigarda 20%, taloqda 16% va terida 10% qon turadi. Yurak qon tomir sistemasida aylanib organizm bo’ylab tarqaladigan aktiv harakatdagi qon, aylanayotgan qon deyiladi.

Qon tarkibida turli miqdorda albuminlar va globulin mavjud. Albuminlar organizmda asosan plastik, qurilish materiali vazifasini bajaradi. Ular jigarda hosil bo’lib, qonga chiqarilgandan so’ng turli organlarga tashiladi. Globulinlar katta dispersli oqsillardir. Globulinlar organizmning immunobiologik reaktsiyalarida, immunitet hosil bo’lishida katta ahamiyatga ega.

**Go’shtning sifatini aniqlash.** Go’sht mahsulotining turli chuqur qatlamlaridan sterillangan pichoq bilan go’sht bo’lakchalari namunaga ajratib olinadi. Kesib olingen bo’lakchalar shishali predmetga qo’yiladi. Bu predmet shishachalar oldindan yaxshilab spirt va efir bilan ishlov berilgan bo’lishi kerak. 5-10 gr namuna spirt lampasi ustidan uch, to’rt marotaba o’tkazilib quritiladi.

Shundan so’ng bu namunalar Gramm usuli bilan bo’yaladi. Fiksatsiyalangan preparatga filtr qog’ozi tegiziladi. Bu qog’oz gentsianviolet karbol eritmasida shimdrib olinadi. 1-2 daqiqa vaqt o’tgandan so’ng qog’ozni olib preparatni ikki marotaba suvli yod eritmasi bilan yuviladi. SHundan so’ng uni spirtda yuvib rangsizlantiriladi va fuksin karbon eritmasi yordamida bo’yaladi.

Spirt ta’siri ostida rangsizlanmagan mikroorganizmlar va siyoh rangini saqlab qolsa, ular gramm musbat deyiladi. O’zining siyoh rangini yo’qotgan mikroorganizmlar keyinchalik fuksin yordamida qizil rang hosil qilsa, ular gramm manfiy deyiladi. Mikroskop ostida go’sht sifatini quyidagi ko’rsatkichlarga qarab aniqlanadi:

Sifatli go’sht – namunalarda mikrofloralar aniqlanmagan, ko’z ilg’ay olmaydigan ba’zi bir kokklar yoki tayoqchalar ko’rinadi. To’qimalarning bo’linishi kuzatilmaydi.

O’rtacha sifatli go’sht – namunalarda (20-30) dona va undan ko’p kokklar va tayoqchalar mavjud. To’qimalarning sezilarli bo’linishi kuzatilmaydi.

Sifati eskirgan go’sht – namunalarda mikroorganizmlar soni va tayoqchalar sonining ko’pligi va to’qimalarning bo’linib ketganligi kuzatiladi.

Sifati buzilgan go’sht – namunalarda gramm-manfiy va gramm-musbat tayoqchalar kapsulalarda mavjud bo’lib, go’shtning chirishga bo’lgan hususiyatlari hali namoyon bo’lmagan. Bunday holda go’shtni bakteriologik analiz qilish kerak bo’ladi.

**Fuksin karbon eritmasini tayyorlash:** Asosiy fuksin moddasining to’yintirilgan 1% li spirtli eritmasini 5% li karbon kislotasining suvli eritmasi bilan, 1 xajm fuksin spirtli eritmasini 10 xajm karbon kislotsasi eritmasiga nisbatan solib aralashtiriladi. Hosil bo’lgan eritmani distillangan suv bilan 10 marta suyultiriladi.

**Suvli yod eritmasini tayyorlash:** 1 gramm kristall holdagi yodni suvli kaliy yod eritmasida eritiladi (2g yodli kaliyni 300 ml distillangan suvgaga)

**Gentsianvioleta karbon kislota eritmasini tayyorlash.** 100 ml 5% li karbon kislota eritmasini 1 gr gentsianvioleta va 10 ml spirtda eritiladi.

## **Qora mol va boshqa hayvonlarni boshlang'ich qayta ishlash tsexida nazorat qilish sxemasi**

CHorva mollarini maxsulotini kayta ishlash bir necha texnologik jaraenlarni uz ichiga oladi. Masalan, mollarni suyishdan oldin xushsizlantirish, sung konsizlashtirish, terisini shilish, ichki organlarini chikarib olish, tanasini tozalash shular jumlasiga kiradi.

### Hayvonlarni xushsizlantirish

Yirik mol va cho'chqalar xushsizlantiriladi. Mayda mol va buzoklar xushsizlantirilmaydi. Xushsizlantirishdan maksad mol oyogiga gildirakli zanjir boylab osma yulga kutarishda ishchi mexnatining xavsizlantirishdir.

Xushsizlantirish shunday olib borilishi kerakki bunda mol yuragining faoliyati uzgarmasligi kerak. YUrak ishlab turganda mol suyilsa uning konsizlanishi tulik bulib undan olinadigan maxsulotlar sifatli va saklashga chidamli buladi.

Xayvonlarni xushsizlantirish bir necha usullari bulib, xammasida xam agar xayvon konsizlantirilmasa oradan bir necha minut utgach u yana uziga keladi.

Bolg'a bilan xushsizlantirish. Bunda og'irligi 2 kilogramm va dastasi 1 metr bulgan bolgadan foydalaniladi. Bunda molni kulogidan ung kuziga va o'ng qulog'idan chap ko'ziga chiziqlar kesishgan eriga bolg'a bilan uriladi. Urish kuchi bosh suyagini shikastlamasdan, fakat miyasini molekulyar alokasini uzgartira olishi etarli xisoblanadi.

Otvuchi apparat bilan xushsizlantirishda tupponchadan foydalaniladi. Unda diametri 9 mm bulgan gazsiz sochma uk solinib xayvonni miyasiga otiladi. Miyaga kirgan uk xayvonni xushsizlantiradi. Bunda yurakni urishi davom etadi va konsizlantirish jareni yaxshi natija beradi.

Elettronarkoz erdamida xushsizlantirish usuli xozirgi vaktda keg tarkalgan rasm. Bu usul ma'lum kuchlanishga ega bulgan elektr tokining kiska muddatda molning markaziy asab sistemasiga ta'siriga asoslangan. Yirik mollarni xushsizlantirishda kuchi 1-1,5 a va kuchlanishi 120 voltgacha bulgan uzgaruvchan elektr tokidan foydalaniladi. Tokning kuchlanishi va xushsizlan-tirish muddati molning turiga, eshiga va ogirligiga boglik. U 7-20 sek.ni tashkil kilib molning eshiga va fiziologik xolatiga boglik. Elektr erdamida tugri xushsizlantirish uchun mol ma'lum bir xolatda turishi kerak. Buning uchun bitta eki ikkita mol sigadigan aloxida xona - boksdan foydalaniladi. Elektr toki ta'sirida xushsizlantirilgan mol boks (kichik xona)ning ichiga yikiladi, sungra boks ochiladi va xayvon suyish va nimtalash yexining poli ustiga tushadi va uning orka oeklari zanjir bilan boglanib, konsizlantirish osma yuliga elektr lebedka erdamida kutariladi.

Qonsizlantirish. Mollar etkizilgan eki osib kuyilgan xolda konsizlantiriladi. Gusht kombinatlarida asosan mollarni osib, vertikal usulda konsizlantirish usuli kullaniladi. Koramollarning tanasidan vazniga kura 4,2 foiz kon chiksa, u konsizlantirilgan buladi. Lekin bu mikdor, xayvon tanasidagi umumiy kon mikdorini 40-65 foizini tashkil etadi. Konsizlantirish ishlari 6-8 minut davom etadi.

Terini shilib olish ishlari ogir mexnat talab kiladigan operatsiyalardan bulib kuplab kushxonalarda mollar vertikal osib kuyilganda amalga oshiriladi. Go'sht sifati sanitariya jixatidan qoniqarli bulishi uchun kushxonalarda terini shilish va tana (tush)ga dastlabki ishlov berishda turli vositalar (ilmoq, blok ustidan utkazilgan arkon va x.k.lar) dan keng foydalanib kelinmokda.

So'yilgan molni qulqoq, burun va lablari atrofidagi terisi kesib olinadi, sung bosh terisi o'ng burun katagidan chap shoxigacha shilib olinadi. Tomogidagi kesik pastki labidagi halqasimon kesikkacha etkaziladi va boshning kolgan kismidagi terisi shilinadi, sungra birinchi buyin umurtkasi bilan ensa suchgi orasidagi kesilib bosh tanadn ajratiladi.

Terini tanadan shilib olish ikki boskichdan iborat bulib, teri yuzasidan 30-35 foiz (bo'yinning 75%, kurakning 35%) pichoq erdamida shilinadi. Keyingi bosqichda xar xil konstruktsiyadagi teri shilish mashmnalari erdamida mexanik ishlov usul shilib olinadi.

Mexanik usulda shilib olish uchun mashina quvvatini hisoblash ustida Rossiya olimlari ko'p izlanishlar olib borishgan. Ularning asosiy izlanishlari teri bilan muskul to'qima orasidagi birikish kuchini engishga asoslangan.

**Ishlab chiqarishda veterinar nazorat boshlang'ich qayta ishlash jarayonlarini nazorat** qilib boradi.

- 1.Kasallikka chalingan mol go'shti va boshqa mahsulot turlarini ajratish va ularni bartaraf etish.
- 2.Ishlab chiqarish jarayonlarining sifatli va to'g'ri olib borilishini ta'minlash.

Birinchi vazifani bajarishda veterinar ko'rik mukammal olib borilishi talab etiladi. Bunda molning to'qimalari, ichki organlari va limfatik qism sohalari qayta ishlash davomida tekshirib boriladi.

Ikkinchi vazifa esa shtatda mavjud bo'lgan nazoratchi va brakerlar orqali texnologik jarayonlarning to'g'ri olib borilishi va ularning sifatiga baho berib boriladi. Bunda nazorat ball sistemasi bo'yicha baholanadi va molning semizlik kategoriyalari aniqlanadi.

#### ***Boshlang'ich qayta ishlashda nazorat*** nuqtalari

1.Qonsizlantirish – qonsizlantirish uchun ishlatiladigan pichoqlar va qon qabul qilish uchun mo'ljallangan idishlarning sterilizatsiya qilish nazorati; qonni toza va tez vaqt ichida qabul qilish va uni qayta ishlashga yuborish nazorati. Bosh qismidagi limfatik jag' qismlarini ko'rikdan o'tkazish (cho'chqalarda kuydirgi kasalligida)

2. Kallani tana qismidan ajratish (qora mol uchun). Jag' qism, limfa sohalarini veterinar ko'riganidan o'tkazish, og'iz bo'shlig'i, tilni ko'rikdan o'tkazish.

3. Terini shilish va ajratish. Terini shilish jarayoni sifatini nazorat qilish. Terining ko'rinishi va uning ustki qismi, tana usti ko'rikdan o'tkaziladi. Terining nuqsonlariga qarab unga baho beriladi.

4. Qorin va ichki a'zolarning bo'shatilishi. Bunda o'z vaqtida endokrin xom ashyosi va ichak a'zolarining tez orada ajratib olinishi va uni transportirovkasi nazorat qilinadi. Bunda ichki a'zolarni ajratib olish sifati, ichki sekretsiya bezlarini nazorat qilinadi.

5. Tanani kesish va bo'lish. Tanani kesishni to'g'ri va sifatli bo'lishi nazorat qilinadi. Tananining biqin mushaklari (finnoz) veterinar ko'riganidan o'tkaziladi.

6.Tanani yuvish va quruq artish. Tanani yuvish va uni quritib artish nazorat qilinadi. Tanaga toza ishlov berish ballar bilan baholanadi. Uning umumiy holati veterinar ko'riganidan o'tkaziladi.

7. Tarozida tortish va markirovka. Standart talablari bo'yicha tananining semizlik holatini baholash nazorati.

#### ***Nazorat savollar***

1.Sifatli go'shtni analiz usuli bilan aniqlash?

2.Sifati buzilgan go'shtni aniqlash?

3.Ishlab chiqarishda mol so'yish va uni qayta ishlash tsexlarida veterinar nazorat qanday ishlarni amalga oshiradi?

## **9- MAVZU: GO'SHT MAHSULOTLARINI SOVUTISH VA SOVITISH JARAYONI NAZORATI**

### **Reja:**

*Sovutish haqida umumiy tushunchalar*

*Sovutish yo'li bilan go'shtga ishlov berish*

*Temperatura sharoitlari nazorati*

*Sovutilgan go'shtni saqlash davridagi temperatura*

*Muzlatilgan go'shtni saqlash davridagi temperatura*

*Havoning nisbiy namligi nazorati*

**Tayanch so'zlar:** temperatura;krioskopik;protoplazma; bug'lanish,suyuqlanish.erish, qaynash, sublimatsiya

Katta shoxli mol go'shti, cho'chqa, ham qo'y tanalari, submahsulotlar va qush tanasi sovutiladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini muzlatishda aniq chegaraviy haroratgacha sovutilganda mahsulot namligi kristall moddaga aylanadi.

Haroratni pasaytirish bilan go'shtdag'i namlik muzlatiladi, jumladan har bir haroratning qiymati aniq muzlatilayotgan suv miqdoriga mos keladi.

Plank bo'yicha  $-62\text{--}65^{\circ}\text{C}$  haroratda go'sht to'qimalaridagi suv muzlaydi, biroq muzlatish jarayoni nafaqat namlikni muzlatishdan iborat emas, go'shtdag'i boshqa fizik va kimyoviy o'zgarishlariga bog'liq.

Muzlatilgan namlikning miqdorini oshirish darajasi bo'yicha mahsulotning issiqlik o'tkazuvchanligi oshadi va muzlatish va sovutish jarayoni qachonki mahsulot, atrof – muhit harorati farqlari kamaygunicha tezlashadi.

Muzlatish tezligi mahsulotning shakli va o'lchamiga, go'sht qatlaming kattaligiga, issiqlik o'tkazuvchanligiga, harorat farqiga bog'liq. Muzlatish bir va ikki fazali bo'lishi mumkin.

Ikki fazali muzlatish – sovutish kamerasida issiqlik jarayoni  $4^{\circ}\text{C}$  haroratgacha, keyin esa muzlatish kamerasiga joylashtiriladi va muzlatkichda  $-18$  do  $-25^{\circ}\text{C}$  -da havoning harorati  $-8^{\circ}\text{C}$  gacha muzlatiladi.

Bir fazali muzlatish – bu jarayonda go'sht oyog'i va submaxsulotlari dastlabki sovutishga uchragan holda muzlatkichga yuboriladi.

Go'sht va go'sht mahsulotlarini sovutish va muzlatishda muhit mahsulotga aks ta'sir qilmasligi kerak, mahsulotdagi issiqlik iloji boricha tez va har tomonidan bir tekisda, mahsulot sifatiga jarayon tezligi ta'sir qilmasligi, sovutish apparatlari ekspluatatsiya uchun oddiy va qulay bo'lishi kerak.

Muzlatish havoda, rassolda yoki sovuq tashuvchi agentlar (ammiak, freon, rassol), metall plitkada tsirkulyatsiya yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Eng ko'p tarqalgani esa tunnellarda, kamerlarda, shkaflarda havoni majburiy tsirkulyatsiyalashni qo'llash hisoblanadi. Meva va sabzavotlarni qayta ishslash sanoatining bir qancha jarayonlari ancha past haroratda olib boriladi. Sovuqlik agentlari sifatida havo, suv va muzni ishlatib bunday jarayonlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Sun'iy sovitish yo'li bilan boradigan jarayonlar qatoriga ba'zi bir absorbsiya, kristallanish, gazlarni ajratish, sublimatsiyali quri-tish va boshqa jarayonlar kiradi. Shuningdek, bu turdag'i ovitishdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, yer qatlamlarini muzla-tish, havoni konditsiyalash va boshqalarda keng foydalaniladi. Sun'iy sovitish doimo past haroratli muhitdan yuqoriyoq haroratli muhitga issiqlikni uzatish bilan bog'liq. Termodinamikaning ikkinchi qonuniga binoan, bunday uzatish energiya sarfini talab qiladi. Shuning uchun ham, sistemaga energiya kiritilishi sovuqlikolishning zaruriy sharti hisoblanadi. Sovuqlik ishlab chiqarish usullari ma'lum darajada talab etilayotgan harorat va qurilmaning ishlatilish ko'lami bilan aniqlanadi. Shartli ravishda 1) o'rta sovitish (atrof-muhit haroratidan  $-100^{\circ}\text{C}$  gacha) va 2) chuqr sovitish ( $-100^{\circ}\text{C}$  dan past harorat) larga bo'linadi.

O'z navbatida,  $-100^{\circ}\text{C}$  dan past haroratlar olish shartli ravishda quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- a) chuqr sovitish texnikasi ( $45\text{--}273\text{ K}$ );
- b) kriogen texnikasi ( $40\text{ K}$ — $0,3\text{ K}$ );
- d) ultra-past haroratlar texnikasi ( $0,00002\text{ K}$  gacha).

2 K dan yuqori haroratlar olinishi texnikada qo'llaniladi. Undan pastroq haroratlarni olish esa, ilmiy tajribalar qilish texnikasiga to'g'ri keladi. Chuqr sovitishga to'g'ri keladigan haroratlarni olish gaz aralashmalarini qisman yoki to'liq suyultirish yo'li bilan ularni ajratish imkonini beradi. Natijada azot, kislород, vodorod, propan, butan, etilen va boshqa gazlarni olish mumkin bo'ladi.

**Sun'iy sovitish usullari.** Sun'iy sovitish jarayonlarida sovuqlik agentlari harorati quyidagi yo'llar bilan pasaytiriladi:

- 1) past haroratda qaynaydigan suyuqliklarni bug'latish;
- 2) siqilgan har xil gazlarni kengaytirish.

Gazlarni quyidagicha kengaytirish mumkin:

- a) gazni drossellovchi qurilma (teshikli shayba, ventil va shunga o'xshash) ichidan o'tkazish. Drossellanishdagi kengayish adiabatik va tashqi ish bajarishsiz amalga oshadi;
- b) tuzilishi jihatdan porshenli yoki turbokompressorga o'xshash mashina — detanderda gazni kengaytirish. Bundagi kengayish adiabatik, lekin tashqi ish bajarish bilan amalga oshadi. Past haroratda qaynaydigan suyuqliklarni bug'latish. Past, manfiy qaynash haroratiga ega bo'lgan har xil suyuqliklarni bug'latish sovuqlik olishda keng qo'llaniladi. Bug'lanishda bunday suyuqliklarning entalpiyasi kamayadi, natijada ular qaynash haroratigacha soviydi. Masalan, suyuq ammiak 1 atm bosimda bug'lansa, uning harorati —34°C gacha pasayadi, bu harorat ammiak uchun shu bosimdagи qaynash harorati hisoblanadi. Bu holatda ammiakni har xil muhitlarni — 30°C gacha sovitishga ishlatish mumkin. Yuqoriroq bosimda ammiak bug'latilsa, qaynash harorati ham yuqori bo'ladi.

**Past harorat olish usullari.** Sovuqlikni quyidagi usullarda olish mumkin. Bu usullar ichiga fazaviy o'zgarish (erish, qaynash, sublimatsiya va boshq.) jarayon-lari kiradi. Ammiak, freon kabi past haroratda qaynaydigan suyuqliklarni bug'latishdan tashqari, sovuqlik olish uchun muzni eritish ham ishlatiladi. Lekin toza suv yaxini eritib olishda faqat 0°C gacha harorat pasayishi mumkin. Erish haroratini pasaytirish uchun maydalangan muz (yoki qor) va tuzdan (masalan, NaCl yoki CaCl) tashkil topgan aralashmalar qo'llaniladi. Kalsiy xlorid tuzi bilan muz aralashmasini —55°C haroratgacha sovuqlik olish uchun ishlatish mumkin.

**Sovuqlik agentlari.** Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, sovitish koeffitsiyentining miq-dori sovuqlik agentlarining xususiyatlariga bog'liq emas. Lekin, sovitish mashinasining o'chamlari, konstruksion materialning turi, ishchi bosimlar sovuqlik agentlarining xususiyatlariga bog'liq. Shuning uchun sovuqlik agentlariga quyidagi talablar qo'yiladi:

- 1) kondensatorda sovuqlik agentlari bug'larini tabiiy sovituvchi moddalar (suv, havo) bilan suyultirishga imkon bo'lishi uchun, sovuqlik agentlari yuqori kritik haroratga ega bo'lishi kerak;
- 2) yuqori bug'lanish issiqligiga ega bo'lishi kerak. Bu sovitish unumdorligi yuqori bo'lishi hamda sovuqlik agentlari sarfining kamayishiga olib keladi;
- 3) kichik solishtirma hajmga ega bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, sovitish mashinasining o'chamlarini kamaytiradi;
- 4) bug'lanish (so'rish) bosimi atmosfera bosimidan yuqoriroq bo'lgani ma'qul. Chunki sovuqlik eltgich yo'qotilishini to'xtatish, havo so'rilishini to'xtatishdan osonroq. Sistemaga so'rilgan havo bug'latkich, kondensatorda issiqlik almashinish jarayonini yomon-lashtiradi, suv bug'larini kirgani sababli rostlovchi ventilda muzlab qolish xavfi hamda kimyoviy faol birlashmalarining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi;
- 5) suyuqlanish (kondensatsiyalanish) bosimi juda yuqori bo'lmasligi kerak. Aks holda qurilma konstruksiyasi murakkablashadi va narxi ortib ketadi. Undan tashqari, sovuqlik agentlari kimyoviy aggressiv bo'lmasligi va inson organizmiga zararli ta'sir ko'rsatmasligi kerak; olovga va portlashga xavfsiz, olinishi (tayyorlanishi) oson va arzon bo'lishi kerak. Qo'yilgan talablarning ikkinchisi faqat porshenli kompressorlarga tegishli. Turbokompressor qurilmalari uchun sovuqlik agentlari kichik bug'lanish issiqligiga ega bo'lishi kerak. Chunki turbokompressorlar ko'p miqdordagi sovuqlik agentlarini siqish uchun mo'ljallangan. Hozirgi paytda yuqoridagi talablarning ko'piga muvofiq kelgan

sovuqlik agentlari — ammiak va freonlar. Juda kam hollarda sovuqlik agentlari sifatida uglerod ikki oksidi, oltingugurt angidridi va xlorli metil ishlatiladi. Propan, etan va etilen moddalarini —70°C dan past haroratni olish uchun ishlatiladi. Ammiakning afzalliklari quyidagilar: yuqori bug' hosil bo'lish issiqligi, bug'latgichdagi uncha katta bo'limgan ortiqcha (atmosferadan) bosim va yuqori bo'limgan kondensatsiya bosimi. Shu bilan birga ammiak yonuvchan, zaharli, havo bilan aralashib portlovchi aralashma hosil qilishi va namlik bo'lganda mis hamda uning qotishmalari yemirilishi (korroziya) mumkin. Freonlar—bu metanning ftor, xlor birikmalaridir. Freonlar yuqori bo'limgan suyuqlanish va bug'lanish bosimiga ega, zararsiz,

yong‘in va portlashga xavfsiz, konstruksion materiallarni yemirmaydi. Kamchiliklarga esa sovuqlik agentlarining yo‘qotilishiga sabab bo‘ladigan juda kichik qovushqoqlik va moylar bilan yaxshi aralashishi kiradi. Uglerod dioksidi — yuqori solishtirma hajmiy unumdorlikka ega, bu, o‘z navbatida, kompressor silindrlarining ixcham bo‘lishiga olib keladi. Lekin juda past kritik harorat va yuqori kondensatlanish bosimiga ega bo‘lgani uchun uning ishlatilish sohasi chegaralangan. Xlorli metil va oltingugurt angidridining asosiy kamchiliklari past bug‘lanish bosimi (atmosferadan), oltingugurt angidridining korrozion faolligi va zaharliligidir. Ishlab chiqarish sharoitlarida sovitish qurilmalari boshqa bir qancha qurilmalarga xizmat ko‘rsatishi mumkin va bu qurilmalar oraliq sovuqlik agentlari orqali sovutiladi. Oraliq sovuqlik tashuv-chilar sifatida past haroratda muzlaydigan eritmalar — natriy xlorid, kalsiy xlorid yoki magniy xlorid tuzlarining suvdagi eritmalar qo‘lla-niladi. Sovitish eritmalarini nasos yordamida sovitish mashinasining bug‘latgichi va qurilmalar orasida aylanma harakat (sirkulatsiya) qiladi. Bug‘latkichda eritma soviydi va qurilmalarda issiqlikni o‘ziga olib isiydi. Eritma va uning konsentratsiyasini tanlash talab qilinayotgan sovitish haroratiga bog‘liq. Bu harorat eritmaning muzlash harorati — kriogidrat nuqta haroratidan yuqori bo‘lishi kerak.

**Kompressor qurilmalarining jihozlari.** Sovitish qurilmasi tarkibiga kompressorlar va har xil turdag'i issiqlik almashinish qurilmalari kiradi.

Kompressorlar. Kompressor sovitish qurilmalarida porshenli, rotorli, turbokompressorlar va vintli kompressorlar qo‘llaniladi. Shulardan eng keng tarqalgani — porshenli kompressorlardir.

Yuqori va o‘rtacha unumdorlikda V va W-simon kompressorlar qo‘llaniladi. Kichik unumdorlikda ishlovchi freonli kompressorlar elektr yuritkich bilan bir qobiqda joylashtirilib, salniksiz va germetik ravishda ishlab chiqariladi. Yuqori siqish darajalariga erishish uchun ko‘p bosqichli kompressorlar bilan bir qatorda ko‘p bosqichli agregatga ulangan bir bosqichli kompressorlar ham qo‘llaniladi. Masalan, past bosim bosqichida maxsus siqib beruvchi (buster kompressor) qo‘llanilsa, yuqori bosimgacha esa bir bosqichli kompressor qo‘llaniladi. Sanoatda ikki bosqichli kompressorlar ham keng ishlatiladi. Yuqori sovitish unumdorligida ikki va uch bosqichli turbokompressorlar qo‘llaniladi. Issiqlik almashinish qurilmalari. Sovitish qurilmalarida qo‘llanila-digan kondensatorlar issiqlikni ajratib olishi bo‘yicha quyidagilarga bo‘linadi:

- 1) issiqlik suv tomonidan olib ketiladigan oqimli kondensatorlar;
- 2) issiqlik suv tomonidan olib ketilib havoga bug‘lanadigan, yuvilib turuvchi-bug‘latgichli kondensatorlar;
- 3) havoli kondensatorlar.

Yuqori va o‘rtacha unumdorlikda ishlovchi qurilmalarda kondensator-larning 1-turiga mansub bo‘lgan qobiq-trubali kondensatorlar qo‘llaniladi. Kichik qurilmalarda esa, ko‘pincha havoli kondensatorlar qo‘llaniladi. Bug‘latkich sifatida ko‘pchilik hollarda cho‘ktirilgan va qobiq-trubali issiqlik almashinish qurilmalari qo‘llaniladi.

### Sovutish yo‘li bilan go’shtga ishlov berish

Sovuq temperatura haroratida go’shtni saqlashning 2 hil usuli mavjud.

1.Qisqa vaqt saqlash – to’qima suyuqligining krioskopik nuqtasidan yuqori bo‘lgan temperaturada saqlash yoki unga yaqin bo‘lgan haroratda saqlash.

2.Uzoq muddat saqlash – krioskopik nuqtadan past bo‘lgan haroratda saqlash. Birinchi holatda go’shtni tez orada saqlash temperaturasigacha sovutiladi. Ikkinci holda go’sht oldindan sovutilib, so’ngra past temperatura ostida muzlatiladi. Go’sht sovuqlik bilan ishlov berilishiga qarab: hona haroratidagi holatda, sovutilgan, muzlatilgan va eritilgan holatda bo‘ladi.

**Hona haroratidagi go'sht** - 6 soatdan kam bo'lмаган va tabiiy sharoitdasovutilgan va ustki qatlami qotgan go'sht deb tushuniladi.

**Sovutilgan go'sht**-mushak oldi va suyakka yaqin qismlarning  $0^{\circ}+4^{\circ}\text{S}$  temperaturagacha tabiiy yoki sun'iy holda etkazilishiga tushuniladi.

**Muzlatilgan go'sht**-sovutishdan keyin muzlatish kameralarida muzlatilgan, mushak va suyak oldi qismlari  $-6^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lмаган go'sht deb yuritiladi.

**Eritilgan go'sht** – mushak va suyak oldi qismlarida  $0^{\circ}\text{S}$  atrofida bo'lган temperaturadan iborat go'shtga aytildi.

### **Temperatura sharoitlari nazorati**

Sovutish davridagi temperatura. Sovutish jarayoni, go'shtning tarkibida turli mikrofloralarning rivojlanishini oldini oladi. Temperaturaning protoplazma krioskopik nuqtasidan pasayishi, mikroorganizmlar hayotini ham o'dirmaydi. Lekin ularning rivojlanishini sekinlashishi isbotlangan. Temperaturaning pasayishi kimyoviy jarayonlarning va fermentlarning aktivlashishi tezligini sekinlashtiradi.

Buning oqibatida ko'pchilik mikroorganizmlarning hayoti har tomonlama sekinlashadi. Tezlik bilan sovutilgan go'sht o'zining diskordinatsiya holatiga ega bo'ladi. SHuning uchun bu hol eng ma'qul hisoblanadi.

Sovutish muddati go'shtga ta'sir etuvchi temperatura va uning atrof muhitdagi havo haroratiga bog'liq. Kameraga jo'natalayotgan go'shtning harorati yuqori bo'lganligi uchun boshlang'ich sovutish davrida unda ekzotermik jarayonlar bo'lib o'tadi. Qonsizlantirilgandan so'ng 90 minut ichida go'sht temperaturasi  $39-40,5^{\circ}\text{S}$  gacha bo'ladi. SHuning uchun go'shtni kameraga kiritishdan oldin kamera harorati  $1-2^{\circ}$  krioskopik nuqtadagi temperaturasidan past bo'lishi kerak.

### **Sovutilgan go'shtni saqlash davridagi temperatura**

Sovutilgan go'shtni saqlash davrida mikrobiologik aynish havfi bo'lganligi uchun uni aniq sovutish temperatura rejimlariga rioya qilingan holda nazorat qilib boriladi. Ayniqsa kislород ta'siri ostida oksidlanish jarayonlari kechishi kuzatiladi va yog' qatlamlarining aynish hollari kuzatilishi mumkin. Gemoglobinning metgemoglobinga o'tishida, go'shtning ustki qismidagi rangining qo'ng'ir tus olishi kuzatiladi. Go'shtni sovuq holda saqlash davrida temperatura bilan birga uning o'zgaruvchanligi ham ahamiyatga ega.

Havoning nisbiy namligi yuqori bo'lган paytda namlik kondensatsiyalanish hodisasi ro'y berishi mumkin va go'shtning ustki qismi namlanishi va mikroorganizmlarga qulay sharoit yaratib berishi mumkin. SHuning uchun kameradagi temperatura harorati go'shtni sovutish davrida bir ma'romda bo'lishi kerak.

### **Muzlatilgan go'shtni saqlash davridagi temperatura**

Muzlatilgan go'shtni saqlash temperaturasi uning muzlatish temperurasiga bog'liq. Agarda saqlash temperaturasi go'shtning temperurasidan yuqori bo'lsa unda go'sht ustida suv parlarining kondensatsiyalanishi ro'y berishi mumkin. Temperaturaning tebranishi (o'zgarishi) go'shtni saqlashda muzlagan qatlamlarning erishiga olib keladi

Muzlatish davrida go'shtning tarkibidagi kimyoviy o'zgarishlar sekinlashsada lekin butunlay to'xtab qolmaydi. Muzlatilgan go'shtni saqlash davrida fosfatidlarning parchalanishi kuzatiladi. Bu o'rinda oqsil moddalar sistemasining o'zgarishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Oqsil moddalar go'shtni muzlagan holda saqlash davrida sekin asta gidrolizga uchraydi. Bunga azot moddasining bir muncha ortib borishini misol qilish mumkin. Ko'pchilik oqsil moddalarining hususiyatlarini o'zgarishini ham kuzatish mumkin. SHuningdek lipidlar ham biokimyoviy o'zgarishiga to'g'ri keladi. Sezilarli ravishda yog'larning gidrolizga uchrashi kuzatiladi.

Past haroratdai temperatura o'z navbatida mikroorganizmlarning o'lishiga sabab bo'ladi. Ulardan ba'zi birlari, patogen mikroorganizmlar, juda past temperaturalarda ham saqlanib qolishi mumkin.

Shunday qilib go'shtni faqat past haroratda muzlatish yo'li bilan mikroorganizmlarning rivojlanishini to'xtatish mumkin. Bunda go'shtdagи temperatura  $-10^{\circ}\text{S}$  dan oshmasligi kerak. Temperatura  $-10^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lsa go'shtning ustki qismi mog'or zamburug'lari bilan qoplanishi mumkin. Mog'orlashga sabab temperaturaning tebranishi(o'zgarishi) bo'lishi mumkin.

### **Havoning nisbiy namligi nazorati**

Sovuqlik bilan ishlov berish davrida havoning nisbiy namligi tana ustidagi namlikning parlanish intensivligiga bog'liq bo'ladi. Tana qismining usti parlanish bilan birga ustini plenka bilan qoplanishiga olib keladi. Quruq qotgan plenka tanani butunlay qoplab turadi. Quruq qotgan plenka tanani butunlay qoplab turadi. Quruq plenka qismi tanani turli mikroorganizmlardan saqlab turadi. Namlikning parlanishi go'shtning og'irligini kamayib borishiga olib keladi. Havoning nisbiy namligi optimal xolda 90-90% bo'lishi kerak. Qurish jarayonini ikki marta qisqartirish mumkin. Bunda go'sht oq surp bilan o'rabi qo'yiladi. Standart holatda belgilangan, sovutilgan go'sht sovutish kameralarida  $0+2^{\circ}\text{S}$  temperaturalarda, havoning nisbiy namligi 85% dan oshmagan holda saqlanishi kerak.

Muzlatilgan go'shtni saqlash uchun optimal havoning nisbiy namligi 96% hisoblanadi. Havoning nisligini mahsus psixrometr asboblarida o'lchanadi. Bundan tashqari gigrograf asboblaridan ham foydalanish mumkin. Psixrometrlar qo'llanilishda oddiy bo'lib kamera devorlariga o'matilgan bo'ladi.

### **Nazorat savollar**

1. Sovuq temperaturada go'sht necha usulda saqlanadi?
2. Sovuqlik bilan go'shtga ishlov berishda qanday temperaturadan foydalaniladi?
3. Sovuqlik bilan ishlov berilganda havoning nisbiy namligi?

## **10-MAVZU: HAYVONOT YOG'LARINING SIFATINI ANIQLASH**

### **Reja:**

Xom-ashyoga qo'yiladigan talablar  
Oziq-ovqat xom yog'ini eritish  
Tayyorlangan mahsulotga bo'lgan talablar  
Ozuqaviy yog'larga qo'yiladigan talablar  
Texnik yog'larga qo'yiladigan talablar

**Tayanch so'zlar** : oqsillar; kollagen; konservatsiya; anatomik; glitserid, mol yog'i, yopishoqlik, yod soni, parchalanish, oksidlanish, olish, suyak, yog'ni sovutish, qozon, tindirish, AVJ qurilmasi, ozuka uni, sovun, konfiskat.

### Xom-ashyoga qo'yiladigan talablar

Ozuqaviy yog'larni ishlab chiqarish uchun faqat sifatli xom-ashyodan foydalaniladi. Mashina yordamida yoki o'zida eskirish, tashqi hidga ega bo'lgan ichak yog'lari faqat II navli yog'lar turkumiga qabul qilinadi. Normal holda ishlab turgan korhonada mikroorganizmlar ta'siri ostida yog' xom-ashyosining buzilishiga yo'l qo'yilmaydi. SHuning uchun qayta ishlashga keltirilgan yog' xom-ashyosini tashqi nazoratdan, ko'rikdan o'tkaziladi. YOg' xom-ashyosi qontalash yoki qorin, ichak axlatlari bilan ifloslanmagan bo'lishi kerak.

Yog' xom-ashyosini uzoq vaqt saqlashda yoki uni transportirovka qilishda, unda aynish protsesslari davom etib, xom-ashyoning buzilishiga olib kelishi mumkin. Yog' xom-ashyosi o'zida etarli namlikka va azotli moddalar miqdoriga ega bo'lganligi uchun mikroorganizmlarning rivojlanishiga tezda sharoit yaratishi mumkin. Bunda yog' xom-ashyosidagi mavjud bo'lgan oqsil moddalarining parchalanishi va chirishi kuzatiladi, chunki oqsillar asosan kollagenlardan iborat bo'ladi. Yog' to'qimalarining oqsillar qismi parchalanishi natijasida noxush hid kelib turadi.

Mog'or zamburug'lari va mikrobakteriyalar o'zidan lipaza va lipoksidazalarni ajratib chiqaradi va ular yog' hisobiga rivojlanadi. Ularning ba'zi birlari yog'larni parchalamasdan hazm qilishi mumkin. SHuning uchun mikroorganizmlarning yog' xom-ashyosidagi rivojlanishi, yog'larni gidrolitik parchalanishiga va achishiga olib keladi.

Yog' to'qimalari lipazalarga boy hisoblanadi. Cho'chqa yog'ning to'qimalari o'zida juda ko'p miqdorda lipoksidazalarga ega. Ular yog' kislotalarini va glitserinni oksidlashi mumkin. Bunday fermentlarning rivojlanishini temperatura haroratini pasaytirish bilan tushirish mumkin. Natriy xlor miqdori ba'zi bir hollarda ularning aktivligini oshirishi mumkin. SHuning uchun yog' xom-ashyosini saqlashda, tuz bilan konservatsiyalanganda yog'ning kislota soni oshib ketishi mumkin.

Yog' xom ashylarini normal organoleptik ko'rsatkichlarga qarab ularni turlariga va anatomik kelib chiqishiga qarab ajratiladi. Har bir yog' xom-ashyosi to'plamidan o'rtacha namunalar ajratib olinadi. 60-100g yuvilgan va maydalangan yog' xom-ashyosini stakanchaga solib, uni suv xammomida 60-65<sup>0</sup>S da eritiladi. Suyultirilgan yog'ni extiyotkorlik bilan filtrlanadi va quritish shkafida quritiladi. Filtrlangan yog' tekshirilib kislota soni aniqlanadi.

### Oziq-ovqat xom yog'ini eritish

So'yilgan mol tanasidan ajratib olingan hali sovumagan yog' yumshoq, zichlashmagan bo'ladi. U yomon maydalaniadi va undan hayvon tanasini hidi kelib turadi. YOg' yaxshi maydalaniishi uchun uni sovutishi kerak.

YOg'ni sovutish - iflosliklardan tozalash va dezodoratsiyalash (yomon hidlardan xolis qilish) uchun u 3-soatdan ko'proq vaqt davomida sovuq suvda yaxshilab yuviladi.

Sovutib yuvilgan yog' maydalaydigan apparat (volchok) yordamida maydalniladi. Keyin eritish uchun qozonga solinadi. Olov (alanga) bilan qizdirialdigan ochiq qozonda jizza va yog' kuyib ketmasligi uchun yog' miqdoriga nisbatan 10-25% suv solib, keyin yog' solinadi va qozon 95-100<sup>0</sup>gacha qizdiriladi.

Qozondagi yog' va suv qaynashi bilan olov pasaytiriladi vag chovli bilan aralashtiriladi. 6-8 soatdan keyin olovni o'chirib yoqqa maydalangan osh tuzi (solingen yog'ning vazniga nisbatan 2-3%) sepiladi. Tuz yog'dagi suvni o'ziga tortib olib jizza bilan birga qozonning tagiga cho'kadi. SHunday qilib yog' tozalanadi. YOg' tinishi va tuz cho'kishi uchun 2-3 soat vaqt ketadi. Eritib tindirilgan yog' bochkalarga quyilib berkitiladi yoki boshqa qozonga (otstoynik) ga o'tkaziladi.

Unga ikkinchi marta 0,5-1% tuz qo'shib, 4-5 soat davomida tindiriladi.

Xom yog' bug'da eritilganda olovda eritilgan yog'ga nisbatan chiqimi ko'p vag sifati yaxshi bo'ladi. Unga kam vaqt va yonilg'i sarflanadi. Xom yog' bug'da eritilganda qozon kuchli yoki past bug' bilan qizdiriladi. Bunday qozonlarga 750-1400 kg yog' sig'adi.

Qozonga yog' to'ldirilishidan oldin uning rubashkasi (kuylagi) ichiga harorati 75-80% li issiq suv quyiladi va bu harorat bug' bilan birday tutib turiladi, keyin yog' qism-qism qilib (solinadi) to'ldiriladi. Har gal yog' solingandan keyin uning ustiga 5-6 kg maydalangan tuz solinadi. YOg' erishi davomida aralashtirgich hamma vaqt harakat qilib turadi. Qozonga yog'ni solish, eritish vag undan chiqarib olish 3 soat davom etadi.

YOg' erigandan keyin aralashtigich to'xtatilib, ustiga 4-5 kg mayda tuz sepiladi vag 20-30 minut davomida tindiriladi. So'ngra yog'ning tiniq qatlami kran, truba yoki nasos yordamida ikki qavat devorli tindirish apparatiga quyiladi. Bu apparatda ham yog'ning ustiga 4 kg mayda ttsuz sepilib 4-6 soat davomida yog' tindiriladi va idishlarga quyiladi.

Suyaklar yog'i olovda yoki bug' yordamida qizdiriladigan ochiq qozonlarda yoki avtoklavda eritiladi.

So'nggi yillarda go'sht sanoati korxonalarida hayvonlar yog'ini eritish uchun uzlusiz eritib turuvchi kurilmalardan foydalanilmoqda. Bu borada ekspulsion «Titan», AVJ vag De-Laval markali qurilmalardan foydalanib kelinmoqda. Bu qurilmalar hayvon yog'ini 6-15 minut ichida eritib, sifatli eritilgan yog' olish imkonini beradi va u yuqori unumdorlikka ega. Respublikamiz korxonalarida AVJ qurilmasi keng tarqalgan.

AVJ - qurilmasi markazdan qochma kuchga asoslangan. AVJ apparati (shnekli tsentrifuga NOGSH - 325, separatorlar,sovutgich, oraliq idishlar, isitgichlardan iborat.

YOg' xom ashysi AVJ apparatida maydalaniadi va eriydi. Apparat chetlari mayda teshikchali barabandan va baraban tagi, qopg'og'idan joylashgan pichoqlardan iborat. Baraban 1 minutda 1450 marta aylanadi. Baraban tekislikka nisbatan burchak ostida urnatilagn. Apparatning voronkasiga Sovutilgan yoki Sovutilmagan yog' xom ashysi solinadi va maydalanim aylanayotgan baraban ichiga tushadi. Markazdan qochma kuch ta'sirida baraban devoridagi mayda teshiklardan yog' xom ashysi yanada maydalanim baraban bilan g'ilof orasiga o'tadi. G'ilofga 2 atm. Bosimdag'i ochiq bug' beriladi va maydalangan yog' bir zumda erib ketadi.

Harorati 90°S bo'lган yog' massasi truba orqali shnekli tsentrifugaga tushadi (tsentrifuga minutiga 3500 marta aylanadi), vayog' massasi suyuq vag zikh fazaga ajraladi. Barabandagi shnek yig'ilib qolgan jizzani (yog' erigandan so'ng qolgan bog'lovchi to'qima) barabanning tor qismidan tashkariga chiqarib turiladi. Suyuq qismi suv bilan yog' aralashmasi, qabul qiluvchi idishga okib tushadi. Bundan yog' nasos yordamida isitgich orkali ta'minlovchi bakka beriladi. Birinchi separatorda suv va oqsillardan tozalanadi. YOg' talab darajasida toza bo'lishi uchun ikkinchi va uchinchi separatorlarda ham tozalanib yig'uvchi idishga tushadi. Bu idish g'ilofli bulib suv yordamida sovutiladi, biroz sovugan yog' sovutgich orqali bochkalarga quyiladi. AVJ qurilmasining afzalligi - yog' eritish jarayonining tezligi, barcha texnologik jarayonning uzlusizligi, yukori unumdorligi (2,5t/soat), olingan yog'ning yuqori sifatliligidir. Xom ashysiga ishlov berish 7 minutni tashkil etadi.

### Tayyorlangan mahsulotga bo'lган talablar

Hayvonlardan tayyorlangan texnik yog'lar 3 xil navga bo'linadi:

Ularning navi barcha xususiyatlarini hisobga olgan holda buladi. Jumladan, rangi, tarkibidagi suv mikdori, efirda erimaydigan moddalari vag asosan, yog' kislotasini qotish harorati (yog titri) muhim hisoblanadi.

I - nav yog' - oq yoki sarg'ish rangli, kislotaliligi 34 gacha titrlanganda 10 gacha bo'lган, suv miqdori 0,5% gacha bo'lishi mumkin.

II - nav yog' - och jigarrang rangli, kislotaliligi 25 gacha suv miqdori I -navnikidek bo'lishi mumkin.

III - nav yog' - to'q jigarrang rangli suv miqdori 1,5% kislotaliligi va titri me'yorlanmaydi.

Tarkibida yog'i bo'lган mahsulotlardan texnik yog' olish uchun oldin uni dastlabki tayyorlashdan o'tkaziladi, so'ng uni yog'i olinib tozalanadi. Dastlabki tayyorlash ishlari: qabul qilish navlarga bulish, maydalash va yuvish tadbirlaridan iborat.

Mahsulotdan yog' olish uchun issiqlik ta'sirida ishlov berish, siqish, presslash vag tsentrifugalash, xamda eritma ta'sirida ekstrigirlash (ekstragirovaniya) tadbirlari amalga oshiriladi.

YOg'ni tozalash uchun uni tindirib qo'yish, yuvish, separatlash, neytrallash ishlari olib boriladi. Tozalangan yog 50-55<sup>0</sup>S haroratda toza va mustahkam bochkalarga 200 kg dan qilib quyliladi, tortiladi, nomerlanadi, muhrlanib saqlash uchun jo'natiladi. Bunda yogni sifati va laboratoriyada tekshirilganligi natijalari to'g'risida veterinariya guvohnomalari ham bo'lishi talab etiladi.

### Ozuqaviy yog'larga qo'yiladigan talablar

Go'sht ishlab chiqarish korxonalarida asosan to'rt turdag'i eritilgan hayvon yog'lari olinadi. Mol yog'i, qo'y yog'i, cho'chqa yog'i va ilik yog'i. Sifat ko'rsatkichlariga qarab yog'lar uchta navga ajratiladi. Oliy, I va II navlar, cho'chqa yog'i uchun alohida "ekstra" navi belgilangan. Yog'larni navlarga ajratishda, ularning organoleptik ko'rsatkichlariga, kislotalik soniga va namligiga qarab aniqlanadi.

49<sup>0</sup>S temperaturada eritilgan oliy navli mol yog'ini kristallizatsiya qilish bilan hayvon yog'i olinadi.

Buni quyidagi standart ko'rsatkichlar belgilab beradi.

Namlik % da	- 0,2 gacha %
Efirda erimaydigan moddalar	- 0,25 gacha %
Erish temperaturasi	- 32 <sup>0</sup> gacha
Kislota soni	- 1,6 gacha
Yod soni	- 45-60
Yuvilish koeffitsienti	- 193-198
Qalay tuzlarining miqdori	- 1kg yog'da 200 mg gacha
Qo'rg'oshin tuzlarining miqdori	- yo'q
Eriqan o'olati rangi	- tiniq
Mazasi, hid	- og'izda tezda eriydi,
tashqi hidlarning yo'qligi	

### **Texnik mahsulot (fabrikat)lar ishlab chikarish**

Barcha go'sht kombinatlarida xalq xo'jaligi uchun muhim hisoblangan, hayvonlar uchun ozuqabop mahsulotlar (go'sht uni, go'sht - suyak uni), sanoat uchun texnik yoglar, moylash uchun ishlataladigan yog'lar,sovun, o'g'it va hokazolar ishlab chikariladi.

Hayvonlar uchun ozukabop qon uni go'sht va go'sht - suyak uni oksilgan nihoyat boy bo'lganligi uchun chorvachilikda keng qo'llaniladi va qimmatli oziq qo'shimchasi hisoblanadi.

Texnik yog'lar. Sovun ishlab chikarishda, ko'pchilik ishlarida, metallurgiya va to'qimachilik saoatida, hamda turli xil moylash ishlarini bajarishda zarur xom ashyo hisoblanadi. Hayvonlarni yog'i turli xildagi asbob-uskuna vag mexanizmlarni moylashda keng qo'llaniladi. Sovun - tayyorlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'g'it esa qishloq xo'jalikda foydalaniladi.

Texnik mahsulotlar oziq-ovqat uchun yaroqsiz bo'lган mahsulotlardan, veterinar vag sanitariya nazorati asosida ishlab chiqariladi.

Texnik - yog'lar - tarkibida yog'i bo'lган mahsulotlarni qizdirish, ekstragirlash (ekstragirovanie) va presslash (zichlash, siqish) natijasida olinadi. Quruq oziqlar vag o'g'itlar tarkibida yog'i bo'lган mahsulotlarni qayta ishlash natijasida yoki yog'i bo'lмаган mahsulotlarni qaynatib quritgach tayyorlanadi. Moylash ishlarida foydalaniladigan yog'lar asosan turli xildagi yoglarni suyuq qismi hisoblanib, ular mahsulotni kristallashtirish vag presslash natijasida olinadi.

### **Texnik yog'larni ishlab chiqarish**

Ma'lumki, go'sht kombinatlarini deyarli barcha bo'lim va tsexlarida mahsulotni kayta ishlash natijasida turli xil chiqitlar chikadi. SHu chiqitlar texnik yoglar vag kuruq (em) ozik tayyorlash uchun asosiy ashyo hisoblanadi.

So'yilgan hayvonlarni turiga kura ulardan turli miqdorda texnik ashysi olinadi. Masalan, qoramollardan vazniga nisbatan -5,30%; cho'chkalardan - 5,75%; qo'y va echkilardan 8,2% miqdorda texnik mahsulotlar uchun ashyo olinishi aniklangan.

Qayta ishlash uchun foydalaniladigan ashyo o'zini kelib chikishi va xususiyatiga kura ikki guruhga bo'linadi.

I - konfiskatlar. II - chiqit (otxod)lar.

CHiqitlar oziq - ovqat uchun yaroqsiz ashysodir. Konfiskatlar esa asosan veterinariya va sanitariya nazorati asosida ajratilagn hayvon to'shlari, nimtalari yoki ayrim organlar hamda go'sht kombinatida nobud bo'lган hayvon tanasi hisoblanadi. Ikkinci guruhga - asosan hayvon organizmidagi iste'mol uchun yaroqsiz hisoblangan (jinsiy organlar, embrionlar, ichak bo'lakchalari, fibron, aorta, traxeya, yog' tutqichlardan olingan moy bo'laklari) ashylar kiradi.

Infektsiyali ashylar - hayvon tanasi nimtasi, ichki organlari hisoblanib, ular yuqumli kasalligi (kuydirgi, qora son, chuma vag hokazo) bulgan, insonlar uchun xavotirli hisoblangan mahsulotlardir. Bunday mahsulotlar maxsus apparatlar yordamida sanitarlik so'yish xonalarida shahar xayvon chiqitlari zavodlarida kayta ishlanadi yoki veterinariya - sanitariya talabiga ko'ra kuydirib yuboriladi.

Tarkibida yog miqdorini oz-ko'pligiga ko'ra ashylar 3 guruhga bo'linadi. 1. YOg'siz ashylar. 2. YOg'li ashylar. 3. Seryog' ashylar.

Birinchi va ikkinchi guruh - tarkibida elim moddasini oz-kupligiga kura kenja guruhlarga bo'linadi.

Tarkibida 5% gacha yog'i bo'lган ashylar yog'siz mahsulot hisoblanadi. Ular - jigar, o'pka, taloq, embrion, bachardon, yosh buzoklar ichagi, kolbasa tsevidan chiqqan chikitlari, fibrin vag suyaklardan iborat.

Tarkibida 5% dan 20% gacha bo'lган mahsulotlar yog'li xom ashyo hisoblanadi. Bu guruhga - ichak kesiklari, foydalanishga yaroqsiz ichaklar, brak qilingan yurak, hikildoq, oshqozon, qo'y oyoqlari kiradi.

Seryog' ashylar - brak kilingan cho'chqa to'shlari (nimtalari) moyi, ichaklari, go'sht - moy chikitlari, teridan olingan moy, moy tutkichlardan olingan ashyo pirashka qovurilgach goldiq yog' shular jumlasiga kiradi.

Texnik yoglar xususiyatiga kura yumshoq va qattiq bo'lishi mumkin. Texnik ashyolar kimyoviy tarkibi vag fizik xususiyatlariga ko'ra ularni kayta ishlash vag saqlash ishlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ularni tarkibida 54,5-89% suv bo'lishi aniklangan.

Mahsulot tarkibida suv, oqsil va yog' kancha ko'p bo'lsa u tez buziladi (ayniydi). Ularning buzilishi asosan, turli mikroorganizmlar vag fermentlari ishtirokida yuz beradi. Binobarin texnik mahsulotlar imkonli boricha qisqa vaqt ichida, tezkorlikda kayta ishlanishi lozim. Agar buni imkonli bulmasa mahsulotni konservalash talab etiladi.

### **Texnik yog'larga qo'yiladigan talablar**

Texnik yog'lar 3 ta navlarga ajratiladi: I, II va III navlar. Sifat ko'rsatkichlariga qarab yog' navlari aniqlanadi.

#### **Yog' navlарining sifat ko'rsatkichlari**

Ko'rsatkichlar	Navlar		
	I	II	III
15 <sup>0</sup> S temperaturada rangi	oq rangdan sariq rang	och jigar ranggacha	to'q jigar ranggacha
Namlik miqdori % da	0,5 gacha	0,5 gacha	1,5 gacha
Efirda erimaydigan moddalar miqdori % da	0,75 gacha	2,0 gacha	3,0 gacha
Kislota soni	10 gacha	25 gacha	}normalanmagan
YOg' kislotalarining qotishi	34 gacha	34 gacha	
YUvilmaydigan moddalar miqdori	0,5 gacha	1,0 gacha	1,25 gacha

#### **Nazorat savollar**

*Xom-ashyoga qo'yiladigan talablar?*

*Qanday organoleptik talablar qo'yiladi?*

*Eritilgan yog'larning qanday turlari mavjud?*

*Texnik yog'larga qo'yiladigan talablar?*

*Hayvon yog'inining tarkibi va uning o'zgarishi.*

*YOg'larning fizik xossalri.*

*YOg'larning kimyoviy tarkibi, o'zgarishi va asosiy sifat ko'rsatkichlari*

*YOg' ishlab chiarishda hayvon suyaklaridan foydalanish.*

*Xom yog'ni sovutish vag uning ahamiyati.*

#### **11-MAVZU:**

### **TUZLANGAN VA DUDLANIB TUZLANGAN MAHSULOTLAR SIFATINI NAZORAT QILISH.TUZLANGAN VA DUDLANIB TUZLANGAN MAHSULOT TURLARI**

#### **Reja:**

*Konservalash usullari*

*Tuzlash usulida go'shtni konservalash*

*Tuzlangan mol va qo'y go'shti. Tashqi ko'rinishi*

*Tayanch so'zlar : mahsulotlar;rulet;bekon;patogen;*

**Umumiy tushuncha.** Ma'lumki, tez buziladigan eki sifat jixatdan aynab qoladigan chorva maxsulotlariga nisbatan o'z vaqtida talab etiladigan chora-tadbirlar kurilmasa ular tez buziladi vaiste'mol kilishga yaroksiz xolda kelishi mumkin. Bunga asosiy sabab turli xil mikroorganizmlar bulib bunday maxsulotlar ular uchun nixoyat kulay muxit xisoblanadi.

Mikroorganizmlarni tez ko'payib ketishi uchun xavo xarorati, namligi go'sht to'qimasidagi fermentlarni biokimeviy uzgarishiga boglik xolda buladi. SHularni xisobga olgan xolda chorva maxsulotlarini konservalash usulidan foydalaniladi.

SHunday qilib, maxsulotni saqlab qolishda ularni konservalash usullari maxsulotning sifatini buzilishiga sababchi xisoblangan bir qancha biologik omillarga tashqi muxit tomonidan ma'lum ta'sir ko'rsatishga asoslangan.

**Konservalash usullari. BIOZ** - saqlanishi lozim bulgan maxsu-lotlarning tirik elementlarini saklash va buning uchun ularning tabiiy immunitetidan foydalanishga asoslangan bo'lib, tirik xayvonlarni saqlash uchun ishlataladi.

**ANABIOZ** - maxsulotlarning tirik elementlari faoliyatini va zarar keltiruvchi turli xildagi mikroorganizmlar va bakteriyalarning rivoj lantirishi tuxtatadi. Bu usulda maxsulot xaroratda saklash, kurnish, tuzlash va vakuumda /bosim ostida/ saqlash yuli bilan koservalanadi.

**TSENABIOZ** - maxsulot sifatini buzadigan mikroblar faoliyatini foydali mikroflora erdamida tuxtash jaraeni xisoblanadi. Bu usul asosan sut maxsulotlarini saklashda kuprok foydalaniladi.

**ABIOZ** - bu saklanadigan maxsulotlardagi fermentlar faoliyatini butunlay tuxtash va ularni buzishdan iborat usul xisoblanib, u yuqori xaro-rat, xar xil antiseptik moddalar, nur energiyasi ta'sirida amalga oshiriladi.

Umuman maxsulotlarni konservalash usullari ulardan foydalanish maksadlari birinchi navbatda saklash muddatiga qarab tanlanadi.

Agar konservalangan maxsulotning ja'mi va tuyimligi to'liq bo'lsa, va uzoq saqlansa shu usul eng yaxshi konservalash usuli deb xisoblanadi.

Go'sht va boshqa maxsulotlarni past temperaturada konservalash usuli universal usul xisoblanadi.

Umuman, maxsulotlarni konservalash usullari bir qancha bo'lib, asosiy maksad /uzok eki kiska muddat saklash, transportlarda jo'natib, mavsumiy foydalanish va x. K. Lar/ga kura ulardan foydalaniladi. SHuni unutmaslik lozimki, saklanadigan maxsulot sifati kancha yukori bulsa, u shuncha uzok vakt saklanadi va uning barcha sifat belgilariga xam putur etmaydi. Kuplab xujalik va xonadonlarda gusht, sut va undan tayerlangan maxsulotlar past xaroratda /asosan sovutgichlarda/ saklanadi.

### **Tuzlash usulida go'shtni konservalash**

Tuzlangan go'shtlar birinchidan, uzoq vaqt saqlansa, ikkinchidan ayrim kasallik /brutselez, finnoz, yuqumli sariq kasali/ vaqtida zarasizlantirish maqsadida ko'rildigan tadbir xisoblanadi. Tuzlagan gushtning xazm bulish xususiyati birmuncha tuban buladi. Agar veterinariya, sanitariya, gigiena va texnologiya qoyidalariga rioya qilinmasa unday go'shtni iste'mol qilgan kishilarda oshkozon ichak faoliyatini buziladi.

Gushtni asosan 3 xil /xul, kuruk va aralash/ usulda tuzlash kullaniladi.

*Xul usulda* - asosan chukcha gushti tuzlanadi. Buning uchun kaynatilgan, tuzlik darajasi 18,5-22 % bulgan eritmadan va unga 2-3,5% kaliy selitrasni solingan xolda foydalaniladi.

*Kuruk usul* - asosan chuchka eki /shpik/, soni va tush gushtlarini tuzlash uchun kullaniladi. Issik vaktlarda shu usulda koramol va kuy gushtlari xam tuzlanadi. Tuzlash uchun tuzlar aralashmasi tayerlanadi. Uning tarkibida osh tuzidan tashkari 1,5-2 % selitra va ba'zan 1,5-2,5 % shakar buladi. Agar shakar kuprok kushilsa, tuz kamrok buladi, va aksincha, tuz aralashmasi gushtning ogirligiganisbatan 8-18 % olinishi mumkin. Gusht tuzlar aralashmasi bilan yaxshi ishkalanadi. Keyin ular zich kilibtaxlanadi. Tuzlanish jaraeni 12-25 kun davometishi mumkin. Bu jaraen davomida gusht yana 1-2 marta tuz aralashmasi bilan ishlanadi.

*Aralash usul* - barcha turdag'i xayvon gushlari tuzlash uchun foydalaniladi. Bunda tuzlanadigan gusht mikdorini urtacha 5-6 % teng tuz aralashmasi bilan ishkalanib, biror idishga solinadi va ularni taxlab ustidan namakob kuyiladi.

Qoramol va qo'y go'shti aralash usulda kuchsiz va kuchli tuzlanadi. Kuchsiz tuzlashda 100 kism osh tuzi, 1,5 kism shakar va 0,8 kism kaliy selitrasni olinib undan tuzlar aralashmasi tayerlanadi. Kuchli tuzlash uchun esa 100 kism osh tuziga bir kism kaliy selitrasni olinadi.

Tuzlangan go'shtlar biror tog'ora eki yog'och idishlarga zich xolda terib qo'yiladi. Kuchsiz tuzlashda tuz mikdori gushtga nisbatan 6-7 %, kuchli tuzlashda uning 10 % teng bulishi tavsiya etiladi. 3-4 kundan sung tuzlangan gushtdan sel /namakob/ ajralib chikadi. SHundan sung zichligi 15-18 kg/m<sup>3</sup> li qilib tayerlangan namakob quyiladi va uni 4-6 S xaroratda 20-30 kun saklash mumkin. Tuzlashdan oldin yirik suyaklari maydalaniladi.

#### ***Tuzlangan mahsulotlar sifatini nazorat qilish***

Mol go'shti va qo'y go'shtidan tayyorlanadigan mahsulotlar: Tuz va nitrit natriy bilan konservalangan mol va qo'y go'shti mahsulotlari (solonina) ya'ni tuzlama deb ataladi. Bunday tuzlamalar yog'lik, o'rtacha yoki yog'siz bo'ladi. Tuzlangan go'sht mahsulotlari qora murch, lavr bargi bilan yoki oddiy usulda tuzlanishi mumkin. Mahsulotlar suyak bilan birga, lahm holda va rulet ko'rinishida ishlab chiqariladi.

Cho'chqa go'shtidan tayyorlanadigan mahsulotlar son, rulet, bekon va tuzlangan go'sht mahsulotlaridan iborat bo'ladi. Xom ashyning turiga qarab, tuzlangan son: orqa, oldi tomon, teri bilan, terisiz ko'rinishda bo'ladi. Ularni texnologik ishlov berilishiga qarab quyidagilarga ajratiladi: xom holda dudlangan, pishirib dudlangan va pishirilgan mahsulotlar.

Shuningdek dudlangan mahsulotlarga cho'chqa go'shtidan tayyorlangan: koreyka, ko'krak, bekon, bo'yin va filey mahsulotlari kiradi.

#### ***Xom ashygoya qo'yiladigan talablar***

Go'sht tarkibidagi patogen mikroorganizmlar osh tuzi ta'siri ostida ham o'z faoliyatlarini uzoq vaqt saqlab turishlari ma'lum. Ba'zi bir batsill va kuydirgi kabi mikroorganizmlar tuzlangan kundan 14 kun o'tgandan keyin ham aniqlanishi mumkin. Patogen mikroorganizmlarning ayrimlari o'z hayot faoliyatlarini kontsentratsiyalangan nomokop eritmalarida uzoq vaqt, hatto oy lab saqlab qoladi. Toksin ishlab chiqaruvchi mikroorganizmlar turlari ba'zan tuzlashda va pishirish davrida ham butunlay yo'q bo'lib ketmaydi. SHuning uchun tuzlangan va dudlanib tuzlangan mahsulotlar faqat sifatli va sog'lom hayvon go'shtlaridan tayyorlanadi. Tuzlash uchun so'yilgan vaqtidan 2 soat o'tgan, molning qorin bo'shlig'i va ichaklari bo'shatilmagan bo'lsa, bunday go'sht tuzlash va dudlab tuzlashga yaramaydi. CHunki bunday mol go'shti ichagi ichidagi mikroorganizmlar tana to'qimalariga o'tib ketgan bo'ladi.

Ishlab chiqarishda sovutilgan va eritilgan go'shtdan foydalanishga ruxsat etiladi. Ikki va undan ortiq marta muzlatilgan go'shtdan ishlab chiqarishda foydalanimaydi.

Tuzlashdan avval go'shtning ustki qismi yaxshilab mexanik kirlardan va qondan tozalanadi. Shuningdek tanadagi muhr belgilarini, qontalash joylarini olib tashlanadi.

#### ***Tayyor mahsulotga qo'yiladiga talablar***

*Tuzlangan mol va qo'y go'shti. Tashqi ko'rinishi.* Bo'laklarning ustki qismi toza, mog'orlash va yallig'lanish yo'q. Konsistentsiyasi—qattiq, zich, kesilgandagi rangi och pushti va qizil, bir tekisda. Hidi - yangi tuzlangan go'shtga xos, sifatli. Begona, achigan, yoqimsiz hidlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Tuzlangan go'sht bo'laklaridagi tuzning miqdori 12% dan oshmasligi kerak. 100 gr tuzlangan go'sht tarkibida nitritning miqdori 20 mg bo'ladi. Tuzli eritmada 100 ml da 100 mg dan oshmasligi kerak. Rangi tiniq, qizil rang, ko'piksiz, begona hidlarsiz bo'lishi kerak.

Tuzlangan go'sht mahsulotlari 20 kundan kam vaqtida tuzda saqlangan bo'lsa yoki yuqorida qo'yilgan talablarga javob bermasa, u holda bunday mahsulotlar savdoga chiqarilmaydi.

Ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilish sxemasi

Tuzlash tsevida nazorat quyidagicha amalga oshiriladi:

- a) Korxonaga keltirilgan xom-ashyo va materiallar nazorati.
- b) Texnologik jarayonlar paytida xom-ashyo sifati buzilishining oldini olish.
- v) Texnologik jarayonlarning aniq bajarilishi va ularning optimal sharoitda olib borilishini ta'minlash.
- g) Ishlab chiqarishdagi yuqori sanitari gigienik holat nazorati.

*Xom-ashyoni qabul qilish.* Xom-ashyoni qabul qilishda uni standart talablariga javob berishini tekshiriladi. Organoleptik aniqlash yo'li bilan ishlab chiqarishga keltirilgan go'sht sifati nazoratdan o'tkaziladi. Agarda xom-ashyo shubha uyg'otsa, u holda uni laboratoriya

tekshiruvidan o'tkaziladi. Qabul qilishda uning xujjalariini, og'irligini va boshqa texnik sharoitlarini ko'zdan kechiriladi. Korxonadagi nazoratchi vet-san eksperti, xom-ashyoning yaroqsiz ekanligini va uni ishlab chiqarishga yubormaslik haqida xulosa berishi mumkin.

*Bo'laklarga bo'lish.* Bunda mol go'shti, qo'y go'shti va cho'chqa go'shti tanasining to'g'ri sxemada bo'laklarga bo'linishi nazorat qilinadi. SHuningdek bo'laklarning toza holda navlarga qarab ajratilishi kuzatiladi.

*Tuzli eritma va aralashmalarni tayyorlash:* Tuzli eritma va aralashmalarning retsepturalari nazorat qilinadi. Bunda avvalo nitrat va nitritlarning dozirovkalari, quruq tuzli aralashmalarda tuzning bir me'yorda aralashuvi to'g'riliği kuzatiladi. Xom-ashyoni mahsus tayyorlangan idishlarga solishdan oldin areometr bilan tuzli eritmaning quvvati aniqlanadi. Eskirgan eritmalarda vaqtı-vaqtı bilan nitrit miqdori aniqlab boriladi. SHuningdek xom-ashyoning bir-biriga taxlanishi, ularning sanitär-gigienik holatlarda saqlanishiga e'tibor beriladi. Tuzlash. Xona temperaturasining harorati va tuzlash vaqtı nazorat qilinadi. O'z vaqtida xom-ashyoy bir joydan ikkinchi joyga o'rnini o'zgartirib turiladi. O'zgartirish vaqtida organoleptik sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi. Tuzlashdan so'ng ballar bo'yicha baholash o'tkaziladi. Har bir idishlardan tuzlovchi eritmalar tekshirilib turiladi.

#### **Nazorat savollar**

1. *Tuzlangan va dudlab tuzlangan mahsulot turlari?*
2. *Xom-ashyoga qanday talablar qo'yiladi?*
3. *Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar?*
4. *Tuzli eritma va aralashma qanday tayyorlanadi?*

## **12—MAVZU: KOLBASA MAHSULOTLARINING SIFAT NAZORATI**

#### **Reja:**

*Kolbasa tayerlash texnologiyasi*

*Go'sht turlariga qarab navlarga ajratilishi*

*Xom ashyoga qo'yiladigan talablar*

*Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar*

*Kolbasalarni pishirish, qaynatish, qovurish va dudlash*

*Kolbasa mahsulotlarini organoleptik ko'rsatkichlar bilan baholash*

**Tayanch so'z:** *Pishirilgan kolbasa, yarimdundlangan, dudlangan, suyakdan ajratish, tozalash (jilovka).*

#### **Kolbasa tayerlash texnologiyasi**

Kolbasa tayerlash birmuncha murrukab bulgani xolda, u asosan pishgan, pishirib dudlangan, xom dudlangan guruxlardan iborat bo'ladi. Kolbasa uchun xayvonning yumshok va yarim yumshok go'shtidan foydalaniladi. Turli kattikligidagi go'shtlar maydalaniadi va qiyma xoliga keltiriladi. Unga yog', un va xar xil ziravorlar qo'shiladi.

Kolbasa mahsulotlarining asosiy turlarida katta miqdorda muskul to'qimasi bo'ladi va ular qimmatli oqsillarni boshqa to'qimalarga nisbatan o'z tarkibida ko'p tutadi va ozuqaviy qimmati yuqori bo'ladi.

Kolbasa tayerlashda xomashe uchun go'sht, xom yog', kon, ichak-chavoqlar, xar xil ziravorlar (qalampir, sarimsoq piyoz, kon, kardamon, koritsa va x.k.lar), osh tuzi, nitrat va nitritlar ishlataladi.

Kolbasa tayerlash uchun ketma-ket amalga oshiriladigan texnologik jaraenlarga aloxida e'tibor beriladi. Masalan, go'shti suyakdan pay-chandir, pardadan ajratish, tugrash, kovurish, kaynatish, dudlash, kabilar shular jumlasidandir. Go'shtni suyaklardan ajratib olish obvalka deyiladi. Go'shtdan pay-chandir, parda va muskullar orasidagi yog' katlamlaridan ajratib olishga jilovka deyiladi.

Kolbasa mahsulotlari yuqori kaloriyalari va yuqori to'yimlik mahsulot hisoblanadi. Ba'zi kolbasa mahsulotlarining kimyoviy tarkibi va quvvati quyidagi 8-jadvalda berilgan:

Mahsulot	namlik	kimyoviy tarkibi,%	100 g mahsulotning
----------	--------	--------------------	--------------------

	miqdori, %	hazm bo'ladigan iste'molga yaroqli bo'lagi			quvvati, kkal
		oqsil	yog'	uglevod	
<b>pishirilgan kolbasalar:</b>					
Lyubitel'skaya	55	13,02	25,11	-	286,9
Otdel'b'naya	68	11,88	13,59	1,18	179,9
chaynaya	72	11,69	10,35	1,18	149
sardelki	70	14,25	9,18	1,37	149,4
<b>YArim dudlangan:</b>					
Poltavskaya	40	14,82	36,27	-	398,1
Krakovskaya	45	14,82	31,77	-	356,2
Ukrainskaya	48	17	26,64	-	317,5
Pol'skaya	50	19,19	22,50	-	287,9
<b>Dudlangan:</b>					
Moskovskaya	30	20,43	37,35	-	431,1

Go'sht jilovka qilinganda asosan 3 xil nav ajratiladi.

1-nav go'shtlar- orka va son gushtlaridan olinadi va yukori navli kolbasalar uchun ishlataladi.

2-nav go'shtlar- bo'yin, ko'krak qafasi, qorin devorlari va tananing oldingi qismlaridan, suyak va pardalardan ajratiladi. Bunda qismdan bo'lsada go'sht pardasi va muskullar oraligidagi biriktiruvchi katlamlari qolishi mumkin. Bunday go'shtlar qiyma qilinib, pishirilgan sortli kolbasalar uchun foydalaniлади.

3-nav gushtlar- birinchi va ikkinchi nav gushtlarni ajratib olishdan kolgan yigindilar, paylar aralash gusht parchalari xisoblanadi.

Ajratib olingan gushtlar 200-300 gr kattalikda bulaklarga bulinadi, yog'och bochka eki yaşçiklarga solib tuzlanadi. Bunda quruq tuzlar va namakob bilan tuzlash texnologiyasidan foydalaniлади.

Kolbasa mahsulotlarini tayyorlash uchun ishlataladigan go'sht turlariga qarab, ular bir necha navlarga ajratiladi:

1) Oliy navli kolbasa mahsulotlari: Pishirilgan kolbasalar, sosiska va sardelkalar, mol va cho'chqa go'shtining oliy navidan ishlab chiqariladigan yarim dudlangan va dudlangan kolbasa mahsulotlari.

2) I navli kolbasa mahsulotlari: Pishirilgan kolbasalar, sosiska va sardelkalar, mol va cho'chqa go'shtining I navidan ishlab chiqariladigan yarim dudlangan va dudlangan kolbasa mahsulotlari.

3) II navli kolbasa mahsulotlari: Pishirilgan kolbasalar, II navli mol va cho'chqa go'shtidan tayyorlangan yarim dudlangan kolbasalar.

4) III navli kolbasalar: Pishirilgan kolbasalar, submahsulotlardan tayyorlangan, go'sht qirqimlaridan va shartli belgiga ega bo'lgan go'shtdan ishlab chiqarilgan kolbasa mahsulotlari.

### Xom ashyoga qo'yiladigan talablar

Go'sht. Kolbasa mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun qora mol go'shtining turli semizlikdagi ko'rinishi ishlatalishi mumkin.

Kolbasa tayyorlashda past kategoriya semizligidagi go'sht ishlataladi. Chunki kolbasa ishlab chiqarishda asosan mushak to'qimalaridan foydalilanadi. Pishirilgan kolbasalar ishlab chiqarish uchun go'sht: issiq, sovutilgan va muzlatilgan holda ishlataladi. Boshqa turdag'i kolbasalar uchun go'sht faqat sovutilgan yoki muzlatilgan bo'lishi kerak (suyakli go'sht tanasi eritilgan holda ishlataladi) Dudlangan va oliv navli yarim dudlangan kolbasalar uchun ikki marta muzlatilgan go'sht ishlatilmaydi.

Cho'chqa go'shti kolbasa mahsulotlari tayyorlashda sovuq va muzlatilgan holda, yog'i esa hidsiz holda bo'lishi kerak. Kolbasa mahsulotlari uchun mo'ljallangan go'sht sifatlari va sog'lom hayvonlardan olingan bo'lishi shart. SHartli ravishda qabul qilingan go'sht vetsan eksperti hulosasi bilan qayta ishlashga ruxsat etiladi.

*Submahsulotlar.* Ular issiq, sovutilgan, muzlatilgan holda ishlataladi. Sifati past submahsulotlar kolbasa ishlab chiqarishda ishlatilmaydi.

*Ichak.* Elastik holda bo'lishi kerak. Yaxshilab suvda yuvilgan va tozalangan bo'lishi shart. Rangi och rangda. Ishlab chiqarishga teshik, chirigan ichaklar qabal qilinmaydi.

### **Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar**

Tayyor kolbasa mahsulotlari sifati standart talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. Quyidagi hollarda ular iste'molga chiqarilmaydi.

- 1) Ko'rinishi va sifati past bo'lsa.
- 2) Patogen mikroorganizmlar va qurtlash lichinkalari aniqlansa.
- 3) Agarda mahsulot tarkibida begona predmet zarrachalari(metall qoldiqlari, shisha bo'laklari, yog'och va x.k) aniqlansa.
- 4) Texnik brak mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa. Bu mahsulot standart talablariga javob bermasa.

Tayyor mahsulotlarga quyidagi standart talablar qo'yiladi:

**Tashqi ko'rinishi** – batonlarning ustki qismi toza bo'lishi, qobiqlarga shikast etmagan bo'lishi kerak. Dog'larning bo'lishi, mog'orlash alomatlari bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Konsistensiyasi** – pishirilgan kolbasalar uchun zich, qattiq va dudlangan kolbasalar uchun qattiq.

**Kesilgandagi ko'rinishi** – qiyma monolit holda, dudlangan kolbasalar uchun zich, qattiq, yog'lar dona-dona bir me'yorda tarqalib turishi kerak va retsepturada ko'rsatilgan o'lchamlarda prizmatik yoki to'rtburchak shaklda bo'ladi. YOg'ning rangi oq yoki pushti rang bilan qoplanib turishi mumkin. Qiyma pushti rangda , bir me'yorda, dog'larsiz bo'lishi kerak.

**Hidi va mazasi.** Pishirilgan kolbasalar uchun o'ziga hos aromatik hidga ega. Mazasi yoqimli, tuzi me'yorda. Yarim dudlangan va dudlangan kolbasalar uchun – o'ziga xos dudlangan aromatik hidgi, ziravorlar va o'tkir tuzlangan maza berib turadi. Tayyor mahsulotlarda begona hidlar bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

**Namlik miqdori.** Turli tipdagi kolbasalar, ularning navlariga va retsepturasiga qarab aniq reglamentlangan suv miqdorini o'ziga qabul qilishi mumkin (%).

YArim dudlangan kolbasalar

- 35 dan 52 gacha

Quruq dudlangan kolbasalar

- 30% gacha

**Tuz miqdori.** Retseptura bo'yicha kolbasa mahsulotlarining o'zida tuz miqdori quyidagicha bo'ladi (%) da

Pishirilgan kolbasalar, sosiska, sardelka - 2 dan 4,5 gacha

Yarim dudlangan kolbasalar

- 3 dan 6 gacha

Quruq dudlangan kolbasalar

- 3 dan 8 gacha

**Nitrit miqdori.** 100 gr mahsulot uchun 20 mg eritma holda nitrit ishlataladi.

**Kraxmal miqdori.** (agar retsepturada kraxmal ko'zda tutilgan bo'lsa) 2% gacha qo'shiladi. YArim dudlangan kolbasalarga 2,5% qo'shish mumkin.

Bundan tashqari standart talablari bo'yicha batonlarning forma va o'lchamlari, ichak turlari va sun'iy qobiqlar o'lchamlari, ularni kanop bilan bog'lash yo'llari aniq ko'rsatilgan.

### **Kolbasalarni pishirish, qaynatish, qovurish va dudlash**

Go'sht kolbasalarini tayerlashda asosan pishirilgan va pishirib dudlangan navlari qovuriladi. Ularni olovdan 1,8-2 m balandlikda osik xolda joylashtirish talab etiladi. Bunda bargli daraxtlar utini yokiladi. Kolbasalar oldin 78-90 C, keyin 90-100 C xaroratda kovuriladi. Sosiska va sardel'kalar uchun qovurish vaqtি 30 min tashkil etadi. Lekin, "Chaynaya", "Lyubitel'skaya" va "Doktorskaya" deb nomlarga kolbasalarni 150 min qovurish talab etiladi.

Qovurib bo'lingan kolbasaslar tezda kaynatiladi. Bu tadbir pishirilgan kolbasa uchun oxirgi va pishirib dudlangan kolbasalar uchun oxiridan ilgarigi texnologik jaraen xisoblanadi.

Qaynatish ishlari suvg'a toldirilgan qozonlarda va maxsus bug kameralarda bajariladi. Bunda xarorat turli darajada bulishi mumkin. Jumladan respublikamiz zavodlarida 70-80 da qaynatish kuprok kulla-niladi. Binobarin, kolbasa batonining ichidagi xarorat 65-70 C atrofida buladi. Agar, ba'zan kolbasa zararsizlantrilgan shartli yarokli xomashedan tayerlangan bulsa, uni 90-95 C xaroratda qaynatish talab etiladi. Bunda baton ichidagi xarorat 80-85 C atrofida buladi.

Qozondagi suv 90-95 C gacha isitilgach unga kolbasalar solinadi va kaynatishning oxirigacha ana shu xarorat saklab turiladi. Batonlar ichidagi xarorat 68-72 C ga etkazilsa, kolbasalar tayer bulgan xisoblanadi.

Kolbasalarni qaynatish muddati batonlarning diametriga bog'liqdir. Jumladan, "sosiska" 10 min, "sardel'ka"lar 10-16 min, "Ukraina", "Minsk", "Litva", "Poltava" deb nomlanuvchi kolbasalar 20-25 min, "CHaynaya", "Doktorskaya" va shu kabi kolbasalar 30-40 min va kolgan navlari 70-150 min kaynatiladi.

Qaynatish ishlari tugagach, kolbasalar ramalarga osilgan xolda yaxshilab shamollatadi va xarorati 4-8 S bulgan xonalarda sovitiladi. Ayrim xollarda, fabrika sharoitida kolbasalar dush tagida sovitiladi va omborga junatiladi. U erda 7-9 C xarorat va 75-80 % namlik bulishi talab etiladi.

Pishirib-dudlab tayerlangan kolbasalar. Pishirib dudlab tayerlangan kolbasalar kaynatilgandan sung, dudlanadi. "Poltava", "Litva", "Ukraina", "Minsk", "Moskva", "Krakov", "Pol'sha" kabi kolbasalar va "Ovchilar" sosiskasi shu usulda tayerlanadi.

Pishirib dudlanadigan kolbasalar kiymasiga 50%dan kuprok chuchka gushti solinadi. Kolbasa kiymasi 6-8-20 mm kattalikda bulishi mumkin. Unga suv kushilmaydi va 1-2 sutka davomida tayerlangan maxsulot tindiriladi. Pishirib dudlanadigan kolbasalar kaynatilib,

sovitolgandan sung 40 C issiklikda 2-24 soat eki 14-19 C issiklikda 2-8 sutka sovuk tutunda dudla-tiladi. Tayerlangan kolbasalar 1-2 oy saklanishi mumkin.

Xom xolida dudlangan kolbasalar yaxshi tuzlangan va suyaklardan ajratilgan gushtdan tayeralanadi. Bunday gusht 7-8 kun tuz egandan sung teshiklari 5-8 mm li maydaligichda kiyma kilinadi. Kiyma aralashtirgachga solinadi, ustiga maydalangan chuchka gushti va egi, xamda shakar, selitra, xamda ziravorlar kushib aralashtiriladi. Keyin, 2-4 C xaroratda 1 sutka davomida saklab sovitiladi. Sovitilgan kiyma ichaklarga zich kilib tuldirib, ustidan ip (kanop) bilan boglanadi va 2-7 kun davomida saklanadi. Sungra 15-16 C xaroratda 14-30-90 kun davomida kuritiladi.

Liver kolbasalar esa qaynatilishi oldidan qovurilmaydi. Faqat diametriga kura ular 25-35 min davomida qaynatish bilan chegaralanadi.

Tayer maxsulotlarni saqlash. Etishtiriladigan maxsulotlarni sifatli bulishida ularning saklash tadbirleri muxim axamiyat kasb etadi. Asosan, kolbasalar saklanadi. Sakdash xona “ombor” lar xarorati 4-6 C, namligi 75-80 % bulishi talab etiladi.

Oaynatib dudlangan kolbasalar osilgan xolda saklanadi. Dudlab quritilgan kolbasalar esa oldin osilgan xolda, keyin yashik va kartdon qog’oz qutilarga solib saklanadi.

Agar kolbasalarni uzok vakt saklash rejalahtirilgan bo’lsa, ularni qurib qolmasligi va mog’ormamasligi uchun usti parafinlanadi eki o’simlik (kungaboqar, paxta, kunjut va x.k. lar) moylari bilan moylab qo’yiladi.

“Ovchilar” kolbasasi. Bunday kolbasalar asosan 1-navli mol go’shtidan va unga uncha egli bulmagan chuchka gushtidan tayerlanadi. Buning uchun mayda (qiyma) langan mol go’shti tuzlanadi. Chuchka gushti 4 mm kattalikda kesilib aralashtiriladi. Massaga tuz, shakar, sarimsok piez, kora muruch kabilar kushiladi. Tayerlangan ichakga solingan kiyma xar 16-20 sm uzunlikda uralib (bir-biridan aloxida), qovuriladi. So’ngra qaynatiladi va dudlanadi.

“Ovchilar” kolbasasi o’ziga xos xidga, mazaga va ko’rinishga ega. Uni tarkibida namlik nisbatan ozrok buladi. Lekin moy va oqsil ko’proq bo’ladi. Binobarin, uni tuyimliligi yuksak darajada buladi. Bunday kolbasalar issiq eki sovuqligicha iste’mol uchun tavsiya etiladi. Agar eyishdan oldin ochik erda, issikligi kuchli bo’lmagan olov ustida isitilsa, uni lazzatliligi ortadi va taom sifatida uni iste’mol kilish mumkin.

“Yarim dudlangan” kolbasalar. CHala dudlangan deyishga sabab, qaynatib olingan kolbasalar ma’lum darajada dudlanadi va quritilishi xisoblanadi. Uni tarkibida quyidagilar bo’lishi mumkin: 1-nav mol go’shti, o’rtaloy cho’chqa go’shti, cho’chqa teri osti moy qatlami. Maxsulot xushxurligini oshirish maxsadida unga sarimsok piez, kora muruch va tmin solib aralashtiriladi. Tuzlangan go’sht tarkibida togay, chandir, go’sht pardasi va boshqa qo’shimchalar bo’lmasligi talab etiladi. Go’sht salqin xonada 2- sutka davomida etiladi. Etilgan go’sht yana maydalanadi, kiyma xolga keltiriladi va barcha talab etilgan kushimchalar solinadi. Cho’chqa teri osti moyi xam maydalanib umumiy massaga solinadi va bir xil kurinishga ega bulganmassa xosil bulgancha u aralashtiriladi. Maxsus mashina (apparat) erdamida kuchli bosim bilan qiyma ichaklarga solinadi. Kaynatiladi sungra usti kavati kizarguncha ular qovuriladi. SHundan keyin bug’ erdamida qaynoq xolda biror soat saqlanadi eki suvda qaynatiladi va sovitiladi.

So’nggi texnologik jaraen dudlash quritish xisoblanadi. Natijada uni tarkibidagi namlik kamayadi va ma’lum vakt saklash uchun kulaylikvujudgv keladi.

Sardel’ka. Sardel’kalar tarkibiga va tayerlash texnologiyasiga ko’ra turlicha bo’ladi. Masalan, qiyma qilingan mol (buzok)ning 1nav go’shtidan va unga ma’lum miqdorda cho’chka go’shti bo’laklari kon eki kon zardobi kushiladi. 2-chi turdag‘i sardel’kalar fakat chuchka gushidan tayer-lanadi. Buning uchun, mol mikdori urtacha (50%) bulgan 97% mikdordagi kiymalangan chuchka gushtiga 3 % atrofida 1-chi navli bugdoy uni va kraxmal kishiladi. Go’sht ikki marta kiymaniladi va unga turli aromat ziravorlar (kora muruch, sarimsok piez, koreandr vax.k. lar) qo’shilib yaxshilab aralashtiriladi. Qiyma ichaklarga solinib, uning diametriga kura 10-30 min davomida qovuriladi. Sung u sovitiladi va iste’mol uchun jo’natiladi. Sardel’kalarning diametri sosiskalarga karaganda yugonrok buladi. Uning rangi och pushti

shaftoli guliga eslatadi. U yumshok sernam, nozik mazali va xushxur taom xisoblanadi. U uz takibidagi ziravorar turi va miqdoriga ko'ra turlicha aromat xidiga ega bo'ladi. Sardel'kalar qovurilgan, qaynatilgan va isitilgan xolda garnir bilan eki garnirsiz iste'mol uchun beriladi.

Tamaddi sosiskasi (sosiska zakusochnaya). Bunday sosiskalar birinchi navli esh mol go'shti (25%) va (75%) urtacha moyli cho'chqa go'shtidan tayerlanadi. Mol go'shti ikki marta mayda xolda qiymalanadi, lekin chuchka gushti nisbatan yirikrokligicha koldiriladi. Turli xil ziravor (kora muruch, tmin, sarimsok piez, muskat engegi)lar qo'shiladi. Tayerlangan kiyma ichaklarga solinadi, sungra qovuriladi va qaynatiladi. Issiq xaroratda ishlangan sosiskalar sovitiladi va ular iste'mol uchun tayer xisoblanadi.

Tamaddi sosiskasi uziga xos ekimli xidiga va mazaga ega. Bu dast-avval uni tarkibiga kushilgan ziravorlarga boglik buladi. Tayer sosis-kalarni iste'mol kilishda gorchitsa, xren, va turli xil garnirlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Kolbasa mahsulotlarini organoleptik ko'rsatkichlar bilan baholash**

Tayyor kolbasa mahsulotlarini organoleptik baholashda, bir smenada ishlab chiqarilgan kolbasa mahsulotlari ichidan 10% ni tashqi ko'rinishiga qarab baholanadi, 1% ni (ya'ni ikki batondan kam bo'lмаган miqdorda) kesib tekshiriladi. Tekshirishda batonlar uzunasiga kesiladi. Birinchi yarmidan ustki qobiqlari tozalanadi va uning ko'rinishi, hidi aniqlanadi. SHundan so'ng kesilgan batonning ustki yuzasi ko'zdan kechiriladi.

Tekshiruvlar natijalari bo'yicha kolbasa mahsulotlariga yaroqli ekanligi haqida xulosa berilib ularga ballar beriladi. Sifatsiz kolbasa mahsulotlari agarda nuqsonlarga ega bo'lsa va tuz, nitrit miqdori ortiq bo'lsa, u holda standart shartlariga ko'ra bunday mahsulotlar texnik brak deb tan olinadi va iste'molga chiqarilmaydi.

### **Nazorat savollar**

1. *Kolbasa tayyorlash uchun ishlatiladigan go'sht turlari va uning navlari?*
2. *Xom ashyoga qo'yiladigan talablar.*
3. *Tayyor mahsulotga qo'yiladigan talablar.*
4. *Kolbasa mahsulotlarini organoleptik ko'rsatkichlar bilan baholash?*

## **13-MAVZU: GO'SHTLI KONSERVA MAHSULOTLARINING SIFAT NAZORATI**

### **Reja:**

*Go'sht konservasi tayerlash texnologiyasi  
Konserva uchun go'sht tayerlash  
Konservalarga qo'yiladigan talablar  
Organoleptik baholash  
Konservalarga bakteriologik baho berish*

**Tayanch so'zlar:** *konserva, bombaj, konsistentsiya, sterilizatsiya, go'sht, submahsulotlar, sho'rva, sous, yog', o'simlik xom-ashyosi*

Konserva tayerlashda turli xil banka idishlardan foydalaniladi. Sanitariya-gigena talablariga kura shisha idishlar bir muncha kulay xisob-lanadi. Lekin ular osonlik bilan sinadi.

Ayrim ma'lumotlarga kura konserva bankalarini tayerlash uchun okartirilgan yupka tunika nioxyat kulay va yaxshi material xisoblanadi.

Okartirish uchun ishlatiladigan kalayining tarkibida kurgoshin 0,5 %dan margimush 0,001%dan ko'p bo'lmasligitalab etiladi.

Konserva uchun foydalaniladigan tunuka bankalar xar xil shaklda bo'ladi. Bankalarni sterilizatsiya qilgan vaqtida xajmi kengayishini xisobga olib, ularning tag tomonidan shtampovka qilish natijasida ariqcha /gofrirovka/ lar xosil kilinadi.

Bankalarning sirtki tomoni konservalar sterillangandan keyin xam loklanishi mumkin. Vazelin, tserezin, lok ekiegli bueklar bilan koplangan bankalar bir necha yillab zanglamaydi.

Veterinariya va sanitariya nazoratidan utkazilgan xar xil semizlikdagi koramol, kuy, chuchka, bugu va tovuk gushtlari gusht konservalari tayerlash uchun asosiy xom ashe xisoblanadi. Bulardan tashkari xayvonlari kushimcha maxsulot /kalla-pocha/laridan xam konserva tayerlanadi.

Konserva uchun go'sht tayerlash. Gusht asosan kuyidagicha tayerlanadi; dastavval gusht suyaklardan, kon tomirlardan, va paychandirlardan ajratib olinadi. Ayrim xollarda oldindan pishiriladi va portsiyalarga bulib, bankalarga solib berkitiladi, sungra bankalarning zinch epilganligi, sterillanganligi va navlarga bulinganligiganligi va navlarga bulinganligi tekshiriladi.

Go'shtni suyak va pay-chandirdan ajratish xuddi kolbasa tayerlashdagi kabi usulda olib boriladi. Gusht oldindan pishirilganda ancha suv yukotadi. Lekin unda quruq moddalar ko'payadi. Jumladan, qoramol go'shti pishirilganda 23-28 % suv yo'qotadi.

Go'sht pishirilganda undan qismdan mioalbuminlar /kupik xolda/ kollagan /elim/ uglevodlar, azotli ekstrakt moddalar va anorganik birikmalar suvgaga chikadi, natijada gusht dastlabkivaznining 30-35 % yukotadi.

Go'shtni oldindan pishirish uchun ikki taglik, oqartirilgan maxsus kozonlar ishlatiladi. Bu kozonlar bug bilan isitiladi. Ichidagi suvning xarorati 98-100 ga etkazilib 50 min. 2 soatgacha kaynatiladi.

Pishirib sovitilgan go'sht ikkinchi marta pay-chandirlaridan tozalanadi, portsiyalarga bulinib, bankalarga joylashtiriladi. Avval bankalar issik suv eki issik bugda yuviladi va unga kuyuk shurva, eg xamda ziravor kushiladi.

Go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish korhonalarida quyidagi turda konserva mahsulotlari ishlab chiqariladi:

a) Go'shtdan ishlab chiqariladigan konservalar. Mol go'shtidan, cho'chqa go'shtidan va qo'y go'shtidan.

b) Go'sht va o'simliklar aralashmasidan tayyorlangan konserva mahsulotlari. (sabzavot va dukkakli o'simliklar) bilan go'sht mahsulotlari aralashmasi.

v) Tayyor go'sht mahsulotlaridan ishlab chiqarilgan konservalar (masalan konservalangan sosiska mahsulotlari)

g) Submahsulotlardan tayyorlangan konservalar. I kategoriyalı submahsulotlar (til, jigar, miya, buyrak) dan tayyorlangan konservalar. Konservalarga hayvonot yog'lari qo'shib ishlatiladi.

**Go'sht.** Konserva ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan go'sht o'ta sifatli va sog'lom hayvonlardan olingan bo'lishi kerak. Go'sht mahsulotining yaroqliligi veterinar guvohnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi shart

Konserva ishlab chiqarish uchun sovutilgan va muzlatilgan go'shtdan foydalanish mumkin. Ikki yoki undan ortiq marta muzlatilgan go'sht mahsulotlaridan konserva ishlab chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Mol go'shtidan tayyorlangan oliy navli konserva mahsuloti –

yog'li va semiz mol go'shtidan tayyorlanadi. I navli konservalar esa o'rtacha semizlikdagi mol go'shtidan va yoshi 2-10 gacha bo'lgan hayvondan olingan bo'lishi kerak. Go'sht tarkibida suyak, pay, bog'lovchi to'qimalar va boshqa chandir elementlar bo'lmasligi kerak.

**YOg'**. Konservalarning turiga qarab mol yog'i, qo'y yog'i, cho'chqa yog'lari xom-ashyo sifatida yoki eritilgan holda, shuningdek ilik yog'i ham ishlatilishi mumkin. Xom-ashyo sifatida konservalarga o'zida 85% gacha yog' mavjud bo'lgani uchun teri osti yog'i va buyrak oldi yog'lari ishlatilishi mumkin. Eritilgan yog' 1 navdan past bo'lmasligi lozim.

**Submahsulotlar.** YAngi olingan va sifatli bo'lishi kerak. Eritilgan submahsulotlardan konserva ishlab chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Miya yaxshilab tozalangan va yuvilgan bo'lishi kerak.

**Sosiska.** To'liq standart talablariga xos ravishda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

**O'simlik xom ashysi.** Sifatli va standart talablariga javob beradigan bo'lishi kerak. Ular tashqi muhit (qum, toshcha, er qoldiqlari) dan yaxshilab yuvib tozalangan bo'lishi shart. Bunday yaroqsiz o'simliklar konserva chiqarishga yuborilmaydi.

#### **Konservalarga qo'yiladigan talablar**

Xom ashyo solingandan keyin, bankalar berkitilib, ularning zinchiligi aniklash uchun maxsus vannalarga tushiriladi, va nazorat kilinadi. Vannadagi suvning xarorati 70-80-bilib, unda bankalar 1-2 min atrofida saklanadi.

Bankalarning zinchiligini vakuum asboblarida xam tekshirish mumkin. SHunday kilib tekshirilgan konservalar avtoklavda sterillanadi. Bu tadbir nixoyat zaruriy xisoblanadi. Bunga sabab maxsulotning ozik-ovkatlik xususiyatini, mazasi va ta'm sifatini pasaytirmasdan, undagi mikro-floralar yukotiladi eki ularning rivojlanishiga chek kuyiladi.

Xom ashe tarkibida mikrofloralar ishtirokida zararlanish darajasi sterillanganda zararsizlantiriladi. SHuning uchun xam bu tadbir muxim kasb etadi. Texnologik talablarga kura gusht va boshka xil konservalar 112-120 xaroratda 15 min 70 min sterillanadi. Sterillash muddati dastavval xom ashening sifatiga va idishdarning xajmiga boglik buladi. Sterillash natijasi gushtning sifatiga xam boglik buladi.

Agar so'yilgan xayvonlar semiz va soglom bulgan bulsa, ularning go'shtida  $rN = 5,8-6,0$  ga teng buladi, binobarin, ular gushtidan tayerlangan konserva toza xamda chidamli buladi.

Uncha toza bo'limgan va oriq mollar go'shti konserva tayerlash uchun yaroksiz xisoblanadi.

Sterillash tadbiri tugagach kozondan bug chikarilishi bilan avtoklav ichidagi bosim tezda pasayadi, ammo issik konservalar bankalarining ichida xali bosim yukori buladi, ya'ni avtoklav bilan konserva bankalarining ichidagi bosim xar xil bulib koladi. SHuning uchun, kupincha bankalar otib yuboradi, eki ularning tagi kavaradi. Bunday xodisalarni bulmasligi uchun avtoklavdan bug chikarilgandan keyin uning ichigasovuk suv eki sovuk bug yuborish talab etiladi.

Avtoklavdan korzinkalarda chikarilgan bankalar sovitish uchun sovuk suv solingan vannalarga tushiriladi, eki sovuk xavo kirib turadigan tunnellariga joylashtiriladi. Ayrim xollarda ularni ochik xavoda 3-4 soat saklab sovitish xam tavsiya etiladi.

Bankalar sovitilgandan keyin saralash xonasiga utkaziladi. Sterillangan konservalarni birinchi marta saralash bankalarning zinchiligini tekshirishdan iborat. Agar bankalar zinchiligi bulsa, sterillash davrida ichidagi maxsulotning suyuk kismi tashkariga chikmaydi, ya'ni bankalarning usti toza va ok buladi. Zinchiligi bankalardan esa sterillash davrida oldin xavo, keyin esa suyuklik chikadi.

Bunday bankalar ok eki koramtir-sarik rangli tomchilar bilan kuzga tashlanganligi uchun yaroksiz xisoblanib ochiladi va ichidagi maxsulot kiyma kilinib tezda sotishga yuboriladi.

Sterillangan bankalar 24 soat ichida yana ikkinchi marta saralanadi va ular termostat xonasiga yuboriladi. Bu xonada bankalar piramida shaklida teriladi va 37-39 xaroratda 5-10 kun saklanadi.

Go'sht mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarda har-bir konserva mahsuloti turi bo'yicha alohida talablar qo'yiladi. Ko'pincha umumiy talablar, konserva ishlab chiqarishda hamma turdag'i mahsulotlar kabi qo'llaniladi. Ishlab chiqarilayotgan konserva mahsulotlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

**Ta'mi va hidi** - normal holda, o'ziga hos xususiyatlarga ega (pishirilgan mol go'shti, qovurilgan mol go'shti, til va x.k) bo'lishi kerak.

**Konsistensiyasi** – zich, juda qattiq bo'lmasligi kerak, pashtetlar uchun mayin, bir hilda suruvchan bo'lishi kerak.

**Mahsulot holati** – bo'laklar butun, bankadan ularni olayotganda burlalanib ketmasligi kerak. O'simlik xom-ashyosi o'zining rangi va xususiyatlarini saqlab qolishi va bir me'yorda aralashgan bo'lishi kerak.

**SHo'rvasi** – (agar u konservada mavjud bo'lsa) qizdirilgan holatda tiniq rangda, sarg'ish, ozgina cho'kma holda bo'lishi mumkin. Sousi o'ziga xos rangda va konsistensiyaga ega bo'ladi.

**Konserva tarkibidagi mahsulotlar nisbati** – (go'sht, submahsulotlar, sho'rva, sous, yog', o'simlik xom-ashyosi) retsepturada ko'rsatilgan me'yor bo'yicha bo'lishi kerak. Ular ±2% atrofida o'zgartirilishi ko'zda tutilgan.

**1 kg bankalar og'irligi netto vazni** - ±3% ga farq qilishi mumkin. Kam og'irlilik vaznidagi bankalar esa germetiklik tekshiruvlaridan keyin narxlanib, etishmagan og'irlik hisobga olinadi.

**Osh tuzi miqdori** – tuzlanmagan go'shtdan tayyorlangan konservalar uchun 1-2%, tuzlangan go'shtdan tayyorlangan konservalar uchun 2-3,5% ni tashkil etadi.

**Nitrit miqdori** – (agarda u go'shtni tuzlashda qo'llanilgan bo'lsa), 100 gr konservada 20 mg eritma holda qo'llanilgan bo'lishi kerak.

Konserva tayerlashda sanitariya-gigiena sharoiti tekshirilib bori-ladi. Bunda avtoklavdagi sterillangan xar bir partiya bankalarning 5-10% termostatda saklansa u kifoya xisoblanadi. Natijada partiya maxsulotining sifatini va kancha muddat saklaniishi lozimligi aniklanadi.

Xar bir partiya konservalar savdo tashkilotlariga chikarilishidan oldin *organoleptik va bakteriologik* nazoratdan utkaziladi. Bunda ijobjiy natijaga ega bulgan konservalarga realizatsiya kilinishi uchun ruxsat beriladi.

## Organoleptik baholash

Konserva mahsulotining sifatini degustatsion komissiya tarkibida: go'sht inspeksiysi xodimi, sifat laboratoriysi boshlig'i va korxona direktori ishtirokida organoleptik ko'rsatkichlarga qarab baho beriladi. Mahsulot sovuq va qizdirilgan holda degustatsiyadan

o'tkaziladi. Bunda banka ichidagi mahsulot degustatsiya qilinadi. Organoleptik baholash standart qoidalarida ko'rsatilgan talablarga asosan olib boriladi.

Mahsulot uchun qo'yilgan standart talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi: mahsulotning tashqi ko'rinishi, uning mazasi, hidi, rangi va konsistensiyasi shuningdek sho'rvasining tiniqligi. Konservalarning organoleptik ko'satkichlari ularning xom-ashyo sifati va sterilizatsiya rejimlariga bog'liq.

### **Konservalarga bakteriologik baho berish**

Konservalarga bakteriologik baho berish uchun, mavjud bo'lган texnologik ko'satkichlarga asosan, yuz foiz termik sterilizatsiya qilingan va bombajga uchragan bankalar ajratib olinadi. Har kuni ishlab chiqarilgan konservalar bakteriologik nazoratdan o'tkaziladi. Bunda ixtiyoriy bir banka tanlab olinadi va u analizdan o'tkaziladi. Agarda sterilizatsiya jarayoni va xom-ashyo ishlov berishda shubha uyg'otsa, har bir besh yuzinchi bankadan analiz uchun bir banka ajratib olinadi.

Konservalarda batsill botulinus va boshqa patogen bakteriyalar aniqlansa, shu smenada ishlab chiqarilgan barcha konservalar to'xtatilib, ajratib qo'yiladi. So'ngra bu konservalardan foydalanish davlat sanitar nazorati xodimlarining xulosasiga topshiriladi. Shuningdek konservalarda ichak tayoqchalari va proteya gruppasiga xos bo'lган mikroorganizmlar mavjudligi analizdan o'tkaziladi.

Organoleptik baholash yuz ballik sistemada amalga oshiriladi.

Ko'satkichlar	Ballar miqdori
Ta'mi va hidi	- 50
Go'shtning konsistensiyasi	- 20
Sho'rvasi sifati	- 10
Bo'laklar miqdori, navlarga ajratilishi va sifati	- 20
	Ja'mi 100

Konserva sifatini buzilishi - bir kancha sabablar natijasida yuz berishi mumkin. Masalan, konserva bankasida kavarik paydo bulishiga konserva ichida kolgan eki zanglanish natijasida paydo bulgan teshik orkali tashkaridagi xavo bilan birgalikda mekroblar tushib rivojlanishi, konservada bulgan mikroblar tushib rivojlanishi, konservada bulgan maxsulot bilan banka devori orasida boradigan kimeviy reaktsiya natijasida N paydo buladi. Ayrim vaktlarida mexanik ta'sirlar xam sabab bulishi aniklangan. Masalan bankalarning me'eridan ortik tuldirib yuborilishi, uzok mudat muzlatilishi va x.k. lar shular jumlasidandir. Binobarin, kavarik paydo bulishini aniklash, tekshirib kurish maksadga muvofik xisoblanadi.

Konserva bankasining butunligi - uning ijobjiy tomonlaridan biri xisoblanadi. Uni aniklash uchun etiketkasi olinadi, banka yuviladi va xarorati 80-85 bulgan suvgaga 5-7 minut solib kuyiladi. Bunda agar bankaning biror joyidan xavo pufaklari chiksa, demak, u zinch epimgagan xisoblanadi.

Konservalar germetik /zich/ yopilmagan bo'lsa ularni sotishga ruxsat berilmaydi. Bunda uning ichidagi maxsulot organoleptik jixatidan tekshiriladi. SHuning dek, bankani ochkanda chikkan gazning xidiga e'tibor beriladi. Maxsulotning tashki kurinishi, rangi, konsistensiyasi, xidi va mazasi tekshirib kuriladi. Maxsulotning ogirligi biror bosh idishga solingen xolda nazorat kilinadi va uning tarkibi tekshiriladi. Bundan tashkari konserva bankasining ichki yuzasida koramtir doglar va zang bor- yukligi aniklangan xolda kat'iy xulosaga kelinadi.

### **Nazorat savollar**

1. Go'shtdan qanday konserva mahsulotlari ishlab chiqariladi?
2. Konserva mahsulotlarining ishlab chiqarilishida qanday go'sht turlaridan foydalaniladi?
3. Konserva tayyorlashda qanday talablar qo'yiladi?
4. Organoleptik baholash?
5. Konservalarga bakteriologik baho berish

### **14-MAVZU:**

## **GO'SHT MAHSULOTLARIDAGI NITRITLAR VA NITRATLAR,KRAXMAL,OSH TUZI MIQDORINI ANIQLASH**

### **Reja:**

*Nitritlar miqdorini aniqlash*

*Nitratlar mikdorini aniqlash*

*Osh tuzi tarkibini aniqlash*

*Kolbasa mahsulotlari tarkibidagi kraxmal miqdorini aniqlash*

**Tayanch so'zlar:** nitrit; nitrat; reduksion kolonka; vityajka; osh tuzi; nordon azotli kumush; cho'kma; eritma, kraxmal, kletchatka, reaktiv, oqsil.

Birlashgan holdagi nitritlar va nitratlar miqdorini aniqlash uchun avvalo undagi nitritlar miqdorini Griss usuli bo'yicha aniklanadi, so'ngra etil spirti yordamida ular parchalanadi. Keyin reduksion kolonkada temirli kadmiy yordamida nitratlarning nitritlarga qaytarilishi olib boriladi va so'ngra oxirgi aniqlangan miqdoriga qarab nitratlarning miqdori qayta hisoblanadi.

Bu aniqlashni o'tkazishda quyidagi reaktiv va eritmalar qo'llaniladi: 1. Metalli kadmiy, kukun xolatdagi, toza. Uni diametri 1mm bo'lgan elakdan elab o'tkaziladi, distillangan suvda ho'llanib, keyin 5%li xlorid kislota va distillangan suv bilan yuvib tashlanadi.

2. Nartiy edkiy, 0,1n eritma;
3. Tsink sernokisliy, 45% eritma;
4. Suvli ammiak, 5%li eritma;
5. Rektifikatli etil spirti;
6. Suvsiz sulfanil kislota;
7. Sirka kislotasi, 12% li eritma;
8. a-naftilamin;
9. Nordon azotli natriy (kiyoviy toza);
10. distillangan suv;
11. sulfanil kislota eritmasi, 0,5 gr sulfanil kislotasini 150 ml 12% li sirka kislotasida eritiladi;

12. a-naftilaminni sirka kislotali eritmasi: 0.2 gr a-naftilaminni 20 ml suvda qaynatib, filtrlab, keyin filtrga 180 ml 12% li sirka kislotasi qo'shiladi;

13. Griss reaktivi: sulfanil kislotani sirka eritmasi bilan a-naftilamin teng hajmda olib aralashtiriladi. Aralashtirish davomida pushti rang hosil bo'lishi bilan unga mis kukuni qo'shib aralashtiriladi va filtranadi. Griss reaktivini qorong'i joyda saqlanadi.

Kolonkani tuzilishi. Aniqlash reduksion kolonkalar yordamida olib boriladi. U ko'ndalang kesim yuzasi 7 mm ga teng shisha trubka bo'lib, pastki qismiga kran hamda voronkosimon kolba biriktirilgan.

Reduksion kolonkaning tagiga yupqa qavat qilib paxta solinadi, distillangan suv quyiladi va kolonkani temirli kadmiy bilan to'lg'iziladi.

Reduksion kolonkani ishlatishdan oldin 15 ml 0,1 n tuzli kislota eritmasi bilan yuvib tashlanadi, keyin 15 ml distillangan suv va nihoyat 15 ml 5 % li ammiak eritmasi bilan yuviladi. Kadmiyning yuqori qismi 3-4 sm chuqurlikda po'lat sim bilan aralashtirib (chayqatib) tashlanadi.

Uzoq muddat ishlatilgandan keyin reduksion kolonkani aktivligini HNO<sub>3</sub> yoki NaNO<sub>3</sub> standart eritmasi bilan tekshiriladi. Temirli kadmiyning aktivligi kamayishi sezilsa uni olib, tuzli kislotaning 5% li eritmasi bilan yuviladi va yana qaytadan u bilan kolonka to'ldiriladi.

Vityajkani tayyorlash. 10 gr o'lchanan mahsulotni olib, stakanga solib, 10-15 ml suv bilan to'ldiriladi, 40-50°C gacha qizdiriladi, yaxshilab aralashtiriladi, keyin 10 minut tindirilib (vityajkani) paxtali filtrli voronka orqa.pi 100 ml o'lchov kolbasiga quyiladi. Tortilgan farshni yangi suv bilan to'ldiriladi va yuqoridagi operatsiyalar qaytariladi. Tortilgan naveska mahsulotni 100 ml xajmda filtrat olinguncha yuviladi

Tayyorlangan (vityajka) da oqisillarni cho'kmaga tushirish uchun undan 20ml olib, unga 10 ml 0,1n o'yuvchi natriy eritmasidan va 40 ml 0,45% li nordon oltingugurtli ruh eritmasidan qo'shiladi, 5 minut suvli xammom (vodyanaya banya)da isitiladi va qog'oz filtr orqali 100 ml li o'lchov kolbasiga filtrdan o'tkaziladi. Filtrdagi cho'kmani 100 ml li hajmga etguncha suv bilan yuvib tashlanadi, so'ngra filtrat hajmini suv belgisigacha etkazib qo'yiladi.

Nitritlar miqdorini aniqlash. 20 ml fil'ratni olib pipetka bilan 100 ml o'lchov kolbasiga solamiz, 5 ml 5% li ammiak eritmasidan solamiz, 10 ml 0,1 n xlorid kislota eritmasidan solib, suv hajmini kolba belgisigacha to'ldiramiz. Hosil bo'lgan eritmada 15 ml olib, uni 15 ml Griss reaktivi bilan aralashtiramiz. 15 minut o'tgandan keyin fotokalorimetrlar bilan uning bo'yash intensivligi o'lchanadi (yashil filtrat, kyuvet 2 sm). Tavsiya etilayotgan kalorimetrlanadigan eritma kontsentrasiyasi 1 ml da 0,001 mg dan oshmasligi kerak. Kalibrlash egriligini standart eritma bo'yicha nitrit natriyning 0,0001 dan 0,001 gr 1 ml kontsentrasiyasida 1ml kalorimetrlanayotgan eritmada 0,2 oraliqda quriladi.

O'tkazilayotgan tajriba oralig'idagi farq 0,5 mg% oshmasligi kerak. Oxirgi natija ikki paralell holda o'tkazilgan aniqlashning o'rta arifmetik javobidan olinib, keyin 0,1 mg % gacha aniqlik bilan hisoblanadi.

Nitratlar mikdorini aniqlash. Konussimon kolbaga pipetka yordamida 20 ml fil'trdan o'lchab solamiz, bu fil'trat oqsillar cho'kmaga tushgandan keyin olingen bo'ladi va unga 5 ml etil spiriti, 100 ml 0,1 n xlorid kislota eritmasidan qo'shilib 15 minut davomida qaynatiladi

(agarda eritmada nitritlar bo'lmasa, unga faqat 10 ml 0,1 n NS1 qo'shilib uni 80 °S gacha qizdiriladi) sekinlik bilan. Shundan so'ng 4 ml 5 % li ammiak eritmasidan qo'shiladi. Eritmani issiq holida reduktsion kolbaga quyiladi.

Fil'trlash tezligi bir xil bo'lishi uchun (1 min da 5 ml atrofida) suv quyuvchi nasos ulanadi. Sinalayotgan eritmani fil'trlash tugashi bilan, reduktsion kolonkani distillangan issik suv bilan yuvib tashlanadi. Fil'trat xajmi 40-80 ml miqdorda olinib sovutiladi, uni 100 ml li o'lchov kolbasiga o'tkaziladi va kolba belgisigacha suv bilan to'ldiriladi.

O'lchov kolbasidan pipetka bilan 15 ml fil'trat olinib, unga 15 ml Griss reaktividan qo'shiladi va 15 min kalorimetrlanadi, bu vaqtda uning bo'yash intensivligi o'lchab boriladi.

Bu eritmada nitritlar mikdori kalibrlash egriligidagi aniqlanadi va natija NaNO<sub>2</sub> ga 1,23 koeffitsientda yoki KNO<sub>2</sub> ga 1,46 koeffitsientida hisoblanadi.

Eritmadagi nitrit va nitrat mikdorini aniqlash: 500 ml o'lchov kolbasiga 25 ml eritmani pipetka bilan o'lchanadi va kolbani distillangan suv bilan belgisigacha to'ldiriladi.


Aniqlash yuqorida qo'llanma bo'yicha olib boriladi. Aniqlash uchun 20 ml suyultirilgan eritma olinadi. Agar kalorimetrlanayotgan eritmada nitrit va nitratlarning kontsentratsiyasi (0,001 gr) 1 ml da 0,001 gr dan oshmasa, unda qo'shimcha suyultirish qilinadi. Paralell olib borilgan aniqlashlar orasidagi farq 50 mg % dan oshmasligi kerak. Tajribaning natijasi ikki o'rtacha arifmetik qiymatidan olinadi va 1mg % aniqlik bilan hisoblanadi.

### **Osh tuzi tarkibini aniqlash**

Osh tuzini kolbasa ishlab chiqaruvchi maxsus tuzlashda va konservalashda maza beruvchi va konservalovchi xom ashyo sifatida qo'llaniladi. Uning mahsulotdagi mikdorini standart bo'yicha olinadi.

Go'shtli mahsulotlardagi tuz miqdorini tirtlash yo'li bilan nordon azotli kumush yordamida aniklanadi, Indikator sifatida nordonxromli kaliydan foydalaniladi.

Xlor ionlari bshtan kumush ionlarining bog'lanishi natijasida qiyin eruvchan oq rangli xlorli kumush (xloristoe serebro) cho'kmasi paydo bo'ladi.



Bunda qizil-qo'ng'ir rangdagi nordon xromli kumush cho'kmasi, oq rangdagi kumush xlorid cho'kmasing rangini o'zgartiradi.

Lekin shunga qaramay cho'kma rangini o'zgarishini aniklash qiyin (titrlash davomida). «Eski» eritmalar va go'sht mahsulotlaridan chiqqan vityajka suyuqliklarni titrlash davomida kumush ionlari va fosfat ionlarining muallaq muhitda bog'lanishi natijasida xatolik kelib chiqishi mumkin.

Tuzlangan mahsulotlardagi tuz mikdorini aniklash. 3 gr ga yaqin maydalangan mahsulotni texnik tarozida o'lchab olib 200-250 mm konussimon kolbaga (yoki stakanga) solamiz. Kolbaga 100 ml distillangan suv solib 15 minut davomida uchida rezinali shisha naycha bilan aralashtirilib turiladi. Keyin filtrlanadi. 10-20 ml filtrlangan vityajkani pipetka yordamida olib, 2-3 tomchi 5% li nordonxromli kaliyga quyiladi va 0,05n nordon azotli kumush bilan titrlanadi.

Osh tuzining mikdorini quyidagicha hisoblanadi:

$$X = \frac{0,0029 * K * a}{\epsilon * c} * 100\%$$

bunda:

0,0029 - xlorli natriyning mikdori - titrlanayotgan 0,05 n nordon azotli kumush eritmasining ekvivalenti, g/ml

K - eritmani normallashtiruvchi tuzatish koeffitsienti;

a – nordon azotli kumush eritmasining hajmi, ml;

v - eritma hajmi, ml;

s - naveska, gr.

Bunday yo'l bilan eritmadiagi tuz miqdorini aniqlashda, taxminan uning kontsentratsiyasini o'lchov kolbasida 0,3% gacha suyultirish kerak.

### **Kolbasa mahsulotlari tarkibidagi kraxmal miqdorini aniqlash**

Bu laboratoriya ishining vazifasi kolbasa tarkibidagi kraxmal miqdorini aniqlashdan iborat.

Apparat, reaktivlar va eritmalar: Texnik tarozi, elektr plitkasi, asbestdan tayyorlangan setka, suvli yoki shamol yuboruvchi sovtgich, konussimon kolba 250 ml, shisha voronka, o'lchamli kolbalar 50,100,250 ml, o'lchamli tsilindr 10,100 ml, pipetkalar 1,2,10,20,25 ml, byuretkalar 25 ml, mikrobyuretkalar,Mor qisqichi, qum soat 3 minut;

Feling suyuqligi ( 2 eritmadan iborat №1 va № 2)

№1 eritma quyidagicha tayyorlanadi: 40gr kristall xoldagi CuSO<sub>4</sub> moddasini suvda eritiladi va eritmaning sig'imi 1 ml ga etkaziladi.

№2 eritma: 200 gr segnet tuzi va NaOH 150 gr miqdorda suvda eritiladi va eritma sig'imi 1 ml ga etkaziladi. Ikkala eritmalar alohida saqlanib, kerakli miqdorda bir hilda ishlatiladi.

Xlorid kislota 10%-li eritma, Na(OH) – 10% li eritma, sariq qon tuzi – 15% li eritma, tsink sulfat oksidi -30% li eritma, kaliyli yod – 30% li eritma, sulfat kislotosi – 25% li eritma, temirli yod, fenolftalein – 1% li spiritli eritma,

Lyugol eritmasi: 100 ml suvda, 2 gr kaliy yodi va 1,27 kristall yod eritiladi.

Distillangan suv, kraxmal, 1% li osh tuzida eritilgan holda.

*Tajribaga tayyorgarlik.* 1)Avval kolbasa ustidagi qobiqlar tozalab olinadi. Namuna probalarini ikki marta go'sht maydalagichdan (diametri 3-4 mm) o'tkazib olinadi.

2) Hosil bo'lgan qiymani yaxshilab qorishtiriladi, so'ngra shisha bankachaga solib ustini qopqoq bilan mahkamlanadi va analiz oxirigacha sovuq joyga saqlash uchun qo'yiladi.

Tajribani o'tkazish. 1) Sifatini aniqlash. Kolbasaning yangi kesilgan joyiga 1 tomchi Lyugol eritmasi tomiziladi. Agar kolbasa mahsulotida kraxmal bor bo'lsa, unda uning rangi ko'k yoki to'q ko'k rang rangni hosil qiladi.

2) Miqdorini aniqlash. Texnik tarozida 20 gr qiymani 0,01 gr aniqlikkacha o'lchab olinadi va uni sig'imi 250 ml bo'lgan konussimon kolbaga joylashtiriladi. Uning ustiga sekin asta 80 ml, 10% li xlorid kislotasini quyiladi va shisha tayoqcha yordamida aralashtirib turiladi. Kolbani ichidagi suyuqlik bilan havosovutgichi bilan biriktirilib, tagiga astbestli setka qo'yilib, plitkaga qo'yiladi. 15 minut davomida kolbani aylana harakatlar bilan kolbadagi suyuqliknini aralashtirib turiladi. 15 minutlik qaynatishdan keyin, kolbani plitadan olib, uning ichidagi moddani uy harorati temperaturasigacha sovutiladi. Bu jarayonni tezlashtirish uchun sovuq suvdan kolba ustiga oqizib qo'yish kerak. SHundan so'ng kolba ichidagi moddani miqdoriy 250 ml o'lchov kolbasiga o'tkaziladi. Suyuqlik sig'imini distillangan suv yordamida kolbaning o'lchov chizig'iga o'tkaziladi. SHu bilan birga kolba ichidagi yog' o'lchov chizig'i ustida bo'lishi shart.

Kolba ichidagi modda aralashtirilib qog'oz filtr yordamida filtrlanadi. Pipetka yordamida 25 ml filtratni sig'imi 50 ml bo'lgan o'lchov kolbasiga solinadi. Unga 1 tomchi 1% li fenolftalein eritmasi tomiziladi va filtratni 10% li NaOH ishqori bilan neytrallanadi va qizil rang hosil bo'lguncha davom ettiriladi. SHu zahoti kolbaga tomchilab 10% li xlorid kislotasi yuboriladi va u qizil rang yo'qolishi bilan to'xtatiladi. So'ngra yana 2-3 tomchi shu kislotasi tomizilib nordon reaksiyali eritma hosil qilinadi.

Oqsillarni cho'ktirish va gidrolizatni rangsizlantirish uchun 50 ml li o'lchov kolbasiga pipetka yordamida 1,5 15 % li sariq qon tuzi eritmasi va 1,5 ml 30% li tsink sulfat eritmasi tomiziladi. Kolbadagi hosil bo'lgan suyuqliknini uy harorati temperurasigacha sovutiladi va uning xajmini distillangan suv bilan to'ldirib o'lchov chizig'igacha etkaziladi.

10 ml rangsiz toza filtratni pipetka yordamida 100 ml li o'lchov kolbasiga solinadi va unga pipetka bilan 20 ml Felling suyuqligi quyiladi. Aralshmalik kolbani engil aylantirib aralashtiriladi. So'ngra kolbani plitkaga qo'yib suyuqlik 3 minut davomida qaynatiladi.(qaynab chiqqan vaqtidan boshlab hisoblanadi)

Qaynatib bo'lingan kolba shu zahoti sovuq suv yordamida sovutilib, uning ichidagi suyuqlik xajmi distillangan suv bilan o'lchov chizig'iga. Bu jarayon yaxshilab aralashtirilib davom ettiriladi va mis oksidi cho'kmasi hosil qilish imkonini yaratiladi. 20 ml tindirilgan suyuqliknini sig'imi 100-250 ml bo'lgan konussimon kolbaga pipetka yordamida quyiladi. Unga o'lchamli tsilindr bilan 10 ml 30% li kaliy yodi eritmasini va 10 ml 25% li sul'fat kislotasi quyiladi. SHu zahoti hosil bo'lgan sariq-jigarrang yod eritmasidan hosil bo'lgan modda 0,1n giposul'fat eritmasi bilan titrlanadi va och sariq rang hosil bo'lguncha davom ettiriladi. So'ngra 1ml 1% li kraxmal eritmasi qo'shilib titrlash davom ettiriladi va sekin asta 5-6 sekund oralig'ida tomchilar soni kamaytirilib eritmadi ko'k rang yo'qolishi bilan to'xtatiladi.

#### Tajriba natijalarini hisoblash

1) Kraxmal miqdorini foizlarda (x) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$X = \frac{a \cdot (250 - 2) \cdot 50 \cdot 100}{20 \cdot 25 \cdot 10} = a \cdot 248$$

Bu erda: a – kraxmal miqdori 0,1n giposulfit eritmasi miqdoriga teng, jadvalda ko'rsatilgan (gr); 0,1n giposulfit eritmasi millimetrlar miqdorida o'lchash uchun 5 ga ko'paytiriladi.;

(250-2) –gidrolizat xajmi(cho'kmani hisobga olgan holda) ml;

25-50 – gidrolizatni suyultirish, neytrallash va oqsillarni cho'ktirish.

20 – namuna probasi (gr)

10 – gidrolizatni qaynatish uchun olingan millimetr miqdori.

Kraxmal mavjudiligi jadvali

0,1n giposul'fit eritmasi miqdori (ml)	Kraxmal mavjudligi (mg)	0,1 n giposul'fit eritmasi miqdori(ml)	Kraxmal mavjudligi(mg)
1	2,8		
2	5,6		
3	8,4		
4	1,3		
5	14,2		
6	17,1		
7	20,1		
8	23,1		
9	26,1		
10	29,2		
11	32,3		
12	35,4		
13	38,6		
14	41,8		
15	45,0		
16	48,3		
17	51,6		
18	54,9		
19	58,2		
20	61,6		

### *Nazorat savollari*

*Kraxmal miqdorini aniqlash?*

*Kolbasa mahsulotlarida kraxmal miqdori necha foizni tashkil etadi?*

*Mahsulotdagi osh tuzi miqdorini qaysi usul bilan aniqlanadi?*

*Nordon azotli kumush qaysi tenglamadan aniqlanadi?*

*Nitritlar mikdori qanday aniklanadi?*

*Nitratlar mikdori qanday aniqlanadi?*

*Vityajkani qaysi usul bilan tayyorланади?*

## **15-MAVZU: PISHIRILGAN VA YARIM DUDLANGAN KOLBASA TAYYORLASH**

**Reja:**

*Pishirilgan kolbasa tayyorlash*

*Yarim dudlangan kolbasa tayyorlash*

**Tayanch so'z :** aralashtirish, shpritslash, dudlash, kutterlash, etiltirish, tindirish, qizdirish

### **Pishirilgan kolbasa tayyorlash (Varenaya kolbasa)**

Kolbasa tayerlash birmuncha murrakab bulgani xolda, u asosan pishgan, pishirib dudlangan, xom dudlangan guruxlardan iborat bo'ladi. Kolbasa uchun xayvonning yumshok va yarim yumshok go'shtidan foydalaniladi. Turli kattikligidagi go'shtlar maydalilanadi va qiyma xoliga keltiriladi. Unga yog', un va xar xil ziravorlar qo'shiladi. Ajratib olingan gushtlar 200-300 gr kattalikda bulaklarga bulinadi, yog'och bochka eki yaşiklarga solib tuzlanadi. Bunda quruq tuzlar va namakob bilan tuzlash texnologiyasidan foydalaniladi.

Quruq tuzlash uchun 100 kg osh tuzi, 1,5-2,5 gr selitra va 3-5 gr selitra va 3-5 kg shakar olib aralashma tayerlanadi. Undan pishiriladigan kolbasalar uchun (100 kg go'sht xisobida) 3-3,5 kg; dudlash bilan tayerlanadigan kolbasalar uchun 3-4,5 kg sarflanadi. Gusht tuzlanib, 3-6 S xaroratda 2-5 sutka saqlanadi. Tuzlangan go'sht maydalagich erdamida 2,5-10 mm kattalikda qiyma qilinadi. Qoida bo'yicha qiyma o'sha kunda ishlatiladi va kamdan-kam 2-3 S li sovitish xonalarida saklanib ikkinchi kuni ishlatilishi mumkin. Kanday nav kolbasa tayerlanishiga ko'ra qiyma pishirish mashmnasiga eki kutterga va so'ngra aralashtirgichga solinadi. Kutterda qiymaga suv eki sho'rva, xamda ayrim ziravorlar, aralashtirgichga esa kraxmal va kolbasa tayerlash uchun retseptda kursatilgan boshka maxsulotlar xam kushiladi. Barcha maxsulotlar kushilgach va aralashtirgach "kolbasa kiymasi" tayer xisoblanadi va navbat bilan uni ichaklarga solish tartibi amalga oshiriladi.

Pishirilgan kolbasa mahsulotlari tayyorlash uchun mol go'shti, cho'chqa go'shti va boshqa hayvon go'shtlari yangi so'yilgan holda yoki sovutilgan, muzlatilgan ko'rinishda ishlatiladi. SHuningdek turli oqsildan iborat bo'lgan preparatlardan ham foydalaniladi. Bularga soyali oqsillar, qon plazmasi, kazeinatlar, sut kraxmal, un, sariyog', tuxum mahsulotlari misol bo'la oladi.


Hozirgi paytda pishirilgan kolbasa mahsulotlari turlari juda ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.

Pishirilgan kolbasaning qiymasini tayyorlashda temperaturani pasaytirish maqsadida suv sovuq holda yoki muz bilan almashtiriladi.

Kolbasa mahsulotlari sifatini yaxshilash maqsadida, yog'larning oqish jarayonini to'xtatish maqsadida turli fosfatlar qo'llaniladi. Bunda 100 kg qiymaga 300 gr fosfat birikmasi qo'shish mumkin. Shuningdek mahsulotda ta'm va maza beruvchi ziravorlardan xam foydalaniladi. Dudlovchi preparat ya'ni suyuqlik ham ta'm beruvchi sifatida qo'llaniladi.

Kutter uskunasida qiymaga ishlov beriladi..Bunda ziravorlar, tuz nitrit natriy, suv, oqsil preparatlari, muz, kraxmal, fosfat va boshqa mahsulotlar qo'shiladi. Tayyor bo'lgan mayin pasta holidagi ko'rinishga ega bo'lgan qiymani shprits uskunasi yordamida qobiqlarga joylanadi. Qobiqlar tsellofanli yoki hozirgi paytda keng tarqalgan poliamid plenkalaridan tayyorlangan bo'ladi. Ularning uchlari klipsator yordamida alyumin simlardan tayyorlangan klipsalar yordamida yopiladi. So'ngra ularni tindiriladi. Shundan so'ng batonlar kamerallarda qizdiriladi. Chunki ustki qismi quritilishi kerak va rangi qizarishi hosil bo'ladi. Keyingi jarayon suvda yoki parda pishiriladi. Tayyor bo'lgan mahsulotning ichidagi temperatura  $72^{\circ}\text{S}$  da bo'lishi kerak. Pishgan kolbasa mahsulotlari darhol sovuq suv yordamida sovutilishi kerak va omborhonalarda saqlanishga yuboriladi.

Xom ashyo tayyorgarligi, suyakdan ajratish, paylardan tozalash,  
maydalash



Pishirilgan Doktor kolbasasi. Oliy navli (GOST 23670)

Tuzlanmagan xom ashyo (100 kg uchun)

Ajratilgan mol go'shti oliy navli - 25 kg

Ajratilgan cho'chqa go'shti yarim yog'simon - 70 kg

Tuxum yoki uning poroshogi - 3 kg

Sut yoki quruq sut - 2 kg

Ja'mi 100 kg

Ziravor materiallar (grammda 100 kg tuzlanmagan xom ashyo uchun)

Osh tuzi - 2000 gr

Nitrit natriy - 7,0 gr

Qora murch - 60 gr

Kardamon - 50 gr

Qobiqlar: diametri 50-55 mm yoki undan ortiq poliamid yoki tsellofan qobiqlar 65-120 mm gacha.

Mahsulot chiqishi 109% (100 kg tuzlanmagan mahsulotda)

### **Yarim dudlangan kolbasa tayyorlash**

Nazariy qism: "Yarim dudlangan" kolbasalar. CHala dudlangan deyishga sabab, qaynatib olingen kolbasalar ma'lum darajada dudlanadi va quritilishi xisoblanadi. Uni tarkibida quyidagilar bo'lishi mumkin: 1-nav mol go'shti, o'rta moyli cho'chqa go'shti, cho'chqa teri osti moy qatlami. Maxsulot xushxurligini oshirish maxsadida unga sarimsok piez, kora muruch va tmin solib aralishtiriladi. Tuzlangan go'sht tarkibida togay, chandir, go'sht pardasi va boshqa qo'shimchalar bo'lmasligi talab etiladi. Go'sht salqin xonada 2- sutka davomida etiladi. Etilgan go'sht yana maydalanadi, kiyma xolga keltiriladi va barcha talab etilgan kushimchalar solinadi. CHo'chqa teri osti moyi xam maydalanib umumiyl massaga solinadi va bir xil kurinishga ega bulganmassa xosil bulgancha u aralashtiriladi. Maxsus mashina (apparat) erdamida kuchli bosim bilan qiyma ichaklarga solinadi. Kaynatiladi sungra usti kavati kizarguncha ular qovuriladi. SHundan keyin bug' erdamida qaynoq xolda biror soat saqlanadi eki suvda qaynatiladi va sovitiladi.

So'nggi texnologik jaraen dudlash quritish xisoblanadi. Natijada uni tarkibidagi namlik kamayadi va ma'lum vakt saklash uchun kulaylikvujudgv keladi.

Xom ashyo: Tuzlash uchun navlarga ajratilgan mol go'shti, qo'y go'shti, yog'siz cho'chqa go'shtlari bo'laklarda yoki maydalagichda maydalangan (diametri 16-25 mm va 2-3 mm) ishlatiladi. 100 kg xom ashyo uchun 3 kg osh tuzi va 7,5 gr nitrit natriyning 2,5% li eritmasi solinadi. Nitrit natriyni qiymani qorish vaqtida solish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tuzlangan go'sht 3+ 10S da 12 soatdan 24 soatgacha etiltiriladi.

Qiymani qorish: Etiltirilgan go'shtni yoki mayda qiymani qorish uskunasida 2-3 minut qorilib, unga ziravorlar solinadi va nitrit natriy eritmasi va chesnok ham solinadi. Keyin 2-3 minut davomida asta-sekin yarim yog'li cho'chqa go'shtli qiyma solinadi. Oxirgi 2 minut qorish davomida cho'chqa yog'i (shpik), mol yog'i solinadi. Umumiyl qorishtirish 8-10 minut davom etadi.

### ***Qobiqlarni qiyma bilan to'ldirish***

Qobiqlarni qiyma bilan to’ldirishda gidravlik va vakuum shpritslardan foydalaniladi. Qobiqlarni shprits trubkalariga (tsevka) kiygazilib ularni to’ldiriladi. Batonlarni kanop bilan bog’lanadi va ularning ustiga tovar belgilari qo’yiladi. Hozirgi paytda klipsator uskunalari yordamida baton uchlari alyumin klipsalar yordamida bog’lanmoqda.

Tindirish: Bog’langan batonlar ramalarga ilinib 2–4 soat davomida  $4+8$  °S temperaturada tindiriladi.

Termik ishlov berish: Termik ishlov berish jarayoni maxsus pechlarda amalga oshiriladi.

Batonlarni qizdirish, ya’ni 60-9 minut davomida  $90$  °S issiqlikda qizdiriladi. Ustki qismi quritilib, ichidagi rangi qizarishi kuzatiladi.

So’ngra batonlar bug’ yoki suvda  $80 \pm 85$  °S da 60 – 90 min. pishiriladi. Pishgan baton ichidagi temperatura  $72$  °S bo’lishi kerak.

Batonlar 2 – 3 soat sovutiladi  $20$  °S da va maxsus tutatish kameralarida  $43 \pm 50$  °S da 12 – 24 soat tutatiladi.

Quritish: Tayyor kolbasalar  $11 \pm 12$  °S da havo namligi 76,8% da 1–2s quritiladi.  
*Yarim dudlangan “Tallinskaya” kolbasa (oliy navli) (GOST 16351)*

Tuzlanmagan 100 kg xom ashyo

Mol go’shti 1 navli - 55 kg

Cho’chqa yarim yog’li go’shti – 20 kg

Cho’chqa yog’i yon tomonidan - 25 kg

Jami 100 kg

Ziravorlar 100 kg tuzlanmagan xom ashyo uchun osh tuzi: 3000 g

Nitrit natriy 7,5 g

Shakar – 100 g

Qora muruch – 100 g

Sarimsoqpiyoz – 40 g

Koriandr – 25 g

Qobiqlar: ichak yoki sun’iy qobiqlar f 40 – 65 mm bo’lgan.

Mahsulot chiqishi: 80% (100 kg xom ashysiga nisbatan).

### **Nazorat savollari**

*Yarim dudlangan va dudlangan kolbasa navlari nechta?*

*Qizdirish jarayoni nima uchun kerak?*

*Dudlash necha gradus temperaturada amalga oshiriladi?*

*Pishirilgan kolbasalarning nechta navlari mavjud?*

*Pishirilgan kolbasalarga qanday xom-ashyo ishlataladi?*

*Tindirish jarayoni nima uchun kerak?*

## **16-MAVZU:SUTNING KIMYOVIY TARKIBI**

### **Reja:**

*Sigirlarning suti kimyoviy tarkibi, xossalari*

*Sut yog’i, uning funktsiyasi va kimyoviy tarkibi*

*Yog’ sharcha (zarracha) lari va ularning tarkibi*

**Tayanch so'zlar:** quruq moddalar; sariyog'; fosfatid; kaprilpalmitin; yog' zarrachalari.

Sigirlardai sog'ib olinadigai sutning tarkibi doimiy bo'lmasdan, u bir qancha faktorlarga: ularni oziqlantirish darajasi, em-xashak turlari va sifati, sigirlarni asrash, parvarish qilish shartlariga, yoshi, tirik vazni, oriq-semizligi, mahsulot yo'naliishi, zoti, individual xususiyatlari, fiziologik holati va hokazolarga bog'lik bo'ladi va ular ta'sirida doim o'zgarib turadi.

Sigir surʼi tarkibidagi suv va quruq moddalar hamda uni tashkil qiluvchi elementlar turli miqdorda bo'lishi aniqlangan.

Sigir sutining kimyoviy tarkibi %

Sutning tarkibi	O'rtacha	Oz va ko'p bo'lishi
Suv	87,5	82,7-90,7
Quruq moddalar	12,5	9,3-17,3 2,7-7,0
YOg'	3,8	
Oqsil	3,3	2,0-5,0
Jumladan; kazein	2,7	2,20-4,50
albumin va globulin Oqsilsiz	0,6 0,1	0,45-1,1 0,02-0,15 4,00-5,30
birimlar Sut shakari (laktosa)	4,7 0,7 0,15	0,50-1,00 0,10-0,20
Mineral moddalar Limon kislota		
Fosfatidlar (steridlar)	0,10	-

Sigirlarning surʼi kimyoviy tarkibi, xossalari va toʼla qimmatligi, tez hazm bo'lismiga koʼra boshqa chorva mollari sutidan farq qiladi. Sut tarkibiga koʼra asosan ikki xil - suv va quruq moddalar kompleksidan tashkil topgan. Sut tarkibidagi suv undagi quruq moddalarning eritmasi sifatida uning zardobi (plazmasi) va kolloid sistemasi vazifasini bajaradi. Sut tarkibidagi quruq moddalar miqdori uning to'yimlilik darajasini aniqlashda muxim ko'rsatkich hisoblanadi.

O'zbekistonda boqiladigan ba'zi sigirlar sutining zotiga ko'ra kimyoviy tarkibi, %

Ko'rsatkichlar, %	Sigirlar zoti		
	qora-ola zoti	SHvits zoti	Bushuev zoti
yog'	3,4	4	4,1
oqsil	3,2	3,5	3,6
kazein	2,5	2,6	2,8
sut shakari	5,2	5,2	5,1
quruk moddalar	11,8	13,4	12,8

Sigirlar sutining kimyoviy tarkibi ularning zotiga ko'ra ham turlicha bo'lishi aniqlangan. Jumladan, O'zbekistonda boqiladigan sersut sigirlarning zotiga ko'ra surʼi tarkibi quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

Jadval ko'rsatkichlaridan ma'lum bo'lismicha, uch xil zot sog'in sigirlarning surʼi tarkibidagi moddalarga ko'ra bir-biridan yaqqol farq qilar ekan. Bundan tashqari SH.A. Akmalxanov ma'lumotiga ko'ra, 1 l surʼi tarkibidagi vitaminlar miqdori quyidagicha: A-130-150 mkg; E-700-900 mkg; D-0.07-1.1 mkg; K-1000 shartli birlik; S-900-2000 mkg; RR-1500-1700 mkg; V<sub>1</sub>-700-900 mkg; V<sub>2</sub>-900-2000 mkg; V<sub>6</sub>-155-760 mkg; V<sub>12</sub>-2-7 mkg.

Olib borilgan kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, sut tarkibidagi mineral moddalar miqdori birinchi galda sigirlarga beriladigan em-xashak tarkibiga, uning to'ymliligi va sifatiga, qolaversa ular organizmida yuz beradigan barcha fiziologik va biokimyoviy jarayonlarning jadalligiga, ularning fiziologik holatiga va individual xususiyatiga bog'liq ekan.

Umuman sigir suti tarkibidagi mineral moddalar orasida kaltsiy va fosfor eng salmoqli o'rinni tutadi va miqdor jihatidan birinchi o'rinda turadi. Bu moddalar sutdan pishloq tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. shuningdek, sigir sutining tarkibida ma'lum mikdorda kaliy, natriy, magniy, xlor kabi mikroelementlar va kobalt, volfram, nikel, litiy kabi mikroelementlar borligi ham aniqlangan.

### **Sut yog'i, uning funktsiyasi va kimyoviy tarkibi**

Sigirlarning sutidagi yog' miqdori turlicha (2,7-6% gacha) bo'ladi. YOg' tarkibida fosfatid, stearin kabi muddalar erigan holda uchraydi. Sut yog'i yog' kislotalarning glitserin bilan birikishidan hosil bo'ladi. Unda yog' kislotalaning miqdori o'rtacha 92,5%, glitserin esa 7,5% miqdorda uchraydi. Sut yog'i tarkibida har xil yog' kislotalar uchraydi.

### **Sut yog'i tarkibidagi kislotalarning asosiy xossalari**

Kislotalar	Sut yog'idagi miqdori, %	Molekulyar og'irligi	Temperatura (°S)	Zichligi
			qaynashi erishi	
moy	1,4	88,1	162	28 0,966
kapron	1,6-3,3	116,1	205	15 0,929
kapril	0,5-2,2	144L	237	16 0,910
kaprin	0,3-3,0	172,2	264	31 0,895
laurin	2,6-7,3	200,2	225	44 0,883
miristin	9,9-26	228,2	250	53,8 0,863
palmitin	14,8-42,7	256,5	271	62,5 0,849
stearin	1,7-6,2	287,3	291	69,4 0,845
araxin	0,5-0,7	312,3	328	77 -
dioksistearin	0,4-1,0	316,3	-	136 -

Sut yog'i issiqqa, bug'ga, lipaza fermenti, ishqor va kislotalarga chidamsiz, tez erib ketadigan bo'ladi. Sut yog'i 27-34 °S da eriydi va 17-22 °S da qotadi.

Sut yog'ining zichligi (100 °S da areometr yordamida aniqlanganda) 0,863-0,869; 20 °S da 0,918-0,925 ga teng. Sut yog'i tarkibidagi yog' kislotalar sariyog'ning mazasi, hidi va ta'mini yaxshilash xususiyatiga ega. Suvda yaxshi eriydigan quyi molekulali ayrim yog' kislotapar, jumladan, moy kislota, kapron va ma'lum darajada kapril kislotalar sut yog'ida 5-8% atrofida bo'lishi mumkin, binobarin, xona temperaturasida bu kislotalar suyuladi, shuning uchun ham sariyog', odatda, yumshoq bo'ladi.

Sutdagi yog' kislotalarning tarkibi, miqdori, fizik va kimyoviy xossalari sigirlarniig yoshi, zoti, mahsulot yo'nalishi, fiziologik holati, individual xususiyati va hokazolarga bog'liq ekanligi aniqlangan.

### **Yog' sharcha (zarracha) lari va ularning tarkibi**

Sut tarkibidagi yog' mayda sharchalar shaklida bo'ladi. Ular issiq sutda emulsiya holida bo'ladi, sovuq sutda suspenziya ko'rinishida bo'ladi. YOg' sharchalarining kattaligi 0,1-22 mikron bo'lib, ko'proq 2,5 mikron atrofida uchraydi. 1 ml sut tarkibida 2-5 milliard dona yog' sharchalari bo'lishi bo'lishi aniqlangan.

YOg' sharchalarining yirik-maydaligi muhim ahamiyatga ega. CHunki ular qancha yirik bo'lsa, sut tarkibidagi yog' shuncha toza va tez ajraladi. Sut tarkibidagi yog' sharchalar yirik-maydaligiga ko'ra turli miqdorda bo'lishi aniqlangan.

#### **Sigir suti tarkibidagi yog' sharchalarining diametriga ko'ra nisbat ko'rsatkichlari**

Yog' sharchalarining diametri (mikron)	% mikdori
1 mikrongacha	22
1-3	30
3-4	24
4-5	16
5-6	6
6-7	1-3
7-8	0,4
8-10	0,3
10 dan ortiq	juda kam

Yog' sharchalarining ustki qismi oqsil qavat (parda) dan iborat bo'lganligi uchun ular bir-biriga qo'shilib ketmaydi. Bu oqsil parda har xil usulda tozalanadi. U kislota yoki ishqor ta'sirida tez parchalanadi. Binobarin, sutning yog'lilik darajasini aniqlash ham shu usulda bajariladi. SHuningdek, mexanik ta'sir ko'rsatish natijasida ham oqsil pardalar parchalanishi mumkin.

G.S. Inixov kuzatishlariga qaraganda, yog' sharchalarining yirik-maydaligi har xil sigirlarda turlicha bo'ladi. U to'rtta sigir sutidagi yog' sharchalari hajmini aniqlab, quyidagi xulosaga kelgan, yani birinchi sigirning sutidagi yog' sharchalarining hajmi  $28,5-43,5 \text{ m}^3$ , ikkinchisiniki  $13,5-45,4 \text{ m}^3$ , uchinchisiniki  $30,0-68,3 \text{ m}^3$  va to'rtinchisiniki  $25,-54,1 \text{ m}^3$  bo'lgan. Suti serqaymoq bo'lgan sigirlar sutidagi yog' sharchalari yirikroq bo'lishi aniqlangan. Lekin bunday xususiyat hamma vaqt bir xilda kuzatilavermaydi, ba'zan buning aksi xam bo'lishi mumkin.

#### **Nazorat savollar**

1. *Sut tarkibidagi quruq moddalar miqdori?*
2. *Sut tarkibidagi yog' miqdori?*
3. *Sut yog'i tarkibidagi kislotalar miqdori?*

#### **17-MAVZU: SUT OQSILI, QANDI, MINERAL TUZLARI, VITAMINLAR, KISLOTALAR VA UNING XOSSALARI**

##### **Reja:**

*Sut oqsili va uning xossalari  
Sut zardobi tarkibidagi oqsillar  
Sut qandi  
Mineral tuzlar  
Sut tarkibidagi vitaminlar  
Sutning kislotaliligi*

**Tayanch so'zlar:** *sigirlarni oziqlantirish, laktatsiya davri,fiziologik holati,sutning kislotaliligi, sutning temperaturasi, tozaligi va saqlash sharoiti, sutning sifati, kazein;globulin;albumin;oqsillar;sut shakari (laktoza);bakteriotsidlik*

Sut tarkibidagi oqsillar tez hazm bo'lishi va unda xar bir organizm uchun kerakli bulgan, o'rnini almashtirib bulmaydigan aminokislota-lari mayjudligi bilan qimmatlidir. Sut oqsili asosan kazein, albumin, globulin va boshka azotli moddalardan tashkil topgan. Sutdagi oqsillar mikdori 2,8-4,6% atrofida bo'ladi. Uning 2,2-3,2% ni kazein tashkil kiladi.

Kazein barcha sut maxsulotlari (pishloq, suzma, tvorok brinza) ning asosiy tarkibi xisoblanadi. Uning to'yimliligi xam yuqori darajada bo'ladi. Lekin u toza xolda albumin va globulinga qaraganda qiyinroq hazm bo'lishi aiiqlangan. SHunday qilib kazein asosan pishloq va tvorog taylorlashda foydalaniladi va qisman undan elim plastmassa ham taylorlanadi.

Kazein tarkibida bir qancha aminokislotalar (prolin, tsistin triptofan, tirozin, valin, arginin va aspargin) uchraydi. Ularning mikdori sigirlariing zotiga, yil fasllariga, sog'ish davriga, beriladigan em-xashak turlariga va sifatiga bog'liq ekanligi aniklangan. Masalan, P.V. Kugenov ma'lumotiga ko'ra, SHvits zot sigirlar sutida 4,8% arginin, 7,6% aspargin kislota, 3,8% alanin, 1,9% glitsin, 16,3% glyutamin kislotosi, 6,7% serin, 4,2% treonin borligi aniklangan.

SHunday qilib sut mahsulotlari ishlab chiqarishda kazeinning roli katta, u sut mahsulotlari: pishloq, suzma, qatiq va boshqalar tayyorlashda muhim hisoblanadi. SHuningdek, kazeindan aviatsiya, to'qimachilik va qog'oz sanoatlarida foydalanish uchun qimmatli elim tayyorlanadi. Kazeindan sun'iy jun tayyorlash mumkinligi ham tajribada sinab ko'rildi.

### **Sut zardobi tarkibidagi oqsillar**

Sut qaynatilganda idish yoki qozon tagida ma'lum mikdorda quyqa qoladi. Bu quyqa asosan sut zardobi oqsillaridan iborat bo'ladi. Sut zardobida albumin, globulin kabi oqsillar uchraydi. Ular tarkibidagi aminokislotalar kazeinnikidan farq qiladi, ularning mikdori ham har - xil bo'ladi. Masalan, glyutamin kislota bilan treonin 18,49%, valin-metionin 9%, leytsin 11.85%, fenil-alanin 9,42%, alanin 4,38%, prolin-tirozin 2,5%, serin 5,32%, glitsin 2,08%, aspargin kislotosi 2,53%, arginin 1,92%, lizin va gistidin 7,98%, tsistin 2% miqdorida uchraydi.

Albumin tarkibida fosfor bo'lmaydi, binobarin, u oddiy oqsil hisoblanadi. Uning mikdori sigir sutida 0,4-0,6%, og'iz sutida o'rtacha-0,8%. buladi. Albumin yuqori sifatlari oqsil bo'lib, ayniqsa o'sayotgan yosh organizmlar uchun muhim ahamiyatga ega. U tez va to'la hazm bo'lishi bilan boshqa oqsillardai ustun turadi. Albumindan har-xil pishloq, ayniqsa yashil rangli pishloq va boshqa sut mahsulotlari tayyorlashda xam foydalaniladi.

Globulin oddiy sigir sutida juda oz 0,1% atrofida, og'iz sutida 8-15% miqdorda bo'ladi. Globulin bakteritsidlik (bakteriyadan tozalash) hossasiga ko'ra yangi tug'ilgan organizmlar uchun o'rnini almashtirib bo'lmaydigan oqsil hisoblanadi. SHu bilan birga yosh organizmning har-xil kasalliklarga qarshiliginini kuchaytiradi. Agar sut 70-75 °S gacha isitilsa, kuchsiz kislotali muhitda iviy boshlaydi va kolloid holatga o'tadi.

### **Sut qandi**

Sug shakari, ya'ni laktoza elindagi sut bezlarida hosil bo'ladi. Uning glyukozadan hosil bo'lishi aniklangan. Sut shakari disaxarid hisoblanadi, u glyukoza bilan galaktoza birikmasidan iborat. U suvda yaxshi eriydi. Temperatura ko'tarilishi bilan uning erish xossasi ham ortadi.

Sut shakari ba'zi sut mahsulotlari (qatiq, pishloq, suttan tayyorlangan ichimliklar) tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. SHu bilan birga u sutning achishi va bijg'ib qolishiga sababchi bo'ladi. Sut shakari mikroorganizmlar bilan birga sutning va sut mahsulotlarining achishiga sharoit yaratadi, natijada sut kislota hosil bo'ladi.

Sut shakari yosh bolalar organizmi uchun muhim ahamiyatga ega, undan meditsinada penitsillin tayyorlashda foydalaniladi. To'yimliligi jihatidan oddiy shakardan tez hazm bo'ladi, shuningdek, yosh organizmning jadal o'sishi va rivojlanishi uchun juda muhim va qimmatli hisoblanadi.

### **Mineral tuzlar**

Sut tarkibidagi mineral tuzlar mikdor jihatidan uncha ko'p bo'lmasada, ular hayvon organizmi uchun va sut mahsulotlari tayyorlash texnologiyasida muhim ahamiyatga ega. Mineral tuzlar sutga qondan o'tsada, ularning miqdori va sifati qondagidan boshqacha bo'ladi. CHunki sut bezlarining faoliyati jarayonida ularning tanlab o'tkazish va boshqarish xususiyati o'ziga hos bo'ladi.

Sut tarkibida kaltsiy, magniy, fosfor, natriy, kaliy, xlor, temir tuzlari ko'proq uchraydi. Umuman sut tarkibidagi mineral tuzlar miqdorini sutni kuydirgandan so'ng olingan kulning vazniga qarab aniqlash mumkin. Tekshirishlardan ma'lum bo'lishicha, suttagi mineral tuzlar deyarli doimiy bo'lib, 0,70-0,75% atrofida uchraydi.

Sut tarkibida mineral tuzlardan tashqari bir qancha mikroelementlar; 0,15mt/l marganets; 0,8mg/l mis; 0,25 mg/l kobalt; 0,8 mg/l - 2mg/l ruh; 1,3 mg/l litiy va temir shuningdek, ma'lum mikdorda nikel, xro, alyuminiy, kurgoshin, qalay, titan, vanadiy, kumush, geliy, rubidiy va boshqalar bo'lishi aniklangan. Mikroelementlar muhim axamiyatga ega bo'lgan holda, ularning har biri malum murakkab funksiya bajaradi. Masalan marganets organizmda vitaminlar xosil bo'lishida, ularning o'zlashtirilishi va organizmning o'sishida muhim rol o'ynasa, mis qon tarkibida gemoglobin hosil bo'lishida muhim rol uynaydi. Ruh hayvonlarning ko'payishida aktiv ishtirok etadi, chunki u ko'prok hayvonlar urug'i (spermasi) da yig'iladi. Kobalt V gruppaga vitaminlar tarkibida uchraydi. Yod esa tiroksin gormoni tarkibida bo'lib, hayvonlardagi qalqonsimon bez faoliyati uchun muxim manbaa hisoblanadi.

### **Sut tarkibidagi vitaminlar**

Sut tarkibidagi vitaminlar har-xil organik birikmalardan iborat bo'lib odam va hayvonlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular organizmda moddalar almashivuni jarayonida va qaytarilish jarayonlarida alohida funksiya bajaradi. Agar organizmda vitaminlar etishmasa, moddalar almashinuvni jarayoni buziladi, organizm kasallanadi. Sut tarkibidagi vitaminlar ikki gruppaga bo'linadi. Bular suvda eriydigan V, S, R vitaminlar (bular organizmda sintezlanadi) va yog'larda eriydigan A, E, O, K vitaminlar (ular em-xashakdan sutga o'tadi). Vitaminlarning ko'pi qoramollar organizmda boradigan hayotiy jarayonlarda aktiv ishtirok etadi va ularning o'sishi, rivojlanishi hamda mahsulorligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Xozirgi vaqtda vitaminlarning 30 dan ortiq turi aniklangan bo'lib, ulardan meditsinada, veterinariyada va biologiyaning bir qancha sohalarida keng foydalaniladi. Umuman vitaminlar organizmni oqsil, yog' va uglevodlar kabi energiya manb'alari bilan ta'minlamaydi, xujayra va

to'qimlar tuzilishda ham qatnashmaydi. Lekin ular barcha to'qima va organlarda boradigan biokimyoviy jarayonlarga ta'sir ko'rsatadi. Agar organizmda vitaminlar etishmasa, moddalar almashinuvi ham buziladi. Ba'zan vitaminoz (vitamin etishmaslik) kasalliklari kelib chiqadi.

Olimlar tomonidan olib borilgan kuzatishlarga qaraganda, sut tarkibida har xil vitaminlar bo'ladi. Lekin, ularning miqdori doimiy bo'lmasdan bir qancha faktorlar bilan belgilanadi. R.B. Davidov, L.E. Gulko va M.A. Ermakovlar ma'lumotiga ko'ra sut tarkibidagi ayrim vitaminlar mikdori quyidagicha: A vitamin 0,13-0,35 mg/kg, E -0,8-1 mg/kg, D - 0,002-0,004 mg/kg, V<sub>1</sub> - 0,7-0,9 mg/kg, V<sub>2</sub>-0,94-1,73 mg/kg, V<sub>12</sub> - 3-5 mg/kg, RR-1,56-1,66 mg/kg, S-10-25 mg/kg bo'ladi.

### **Sutning kislotaliligi**

Sutning kislotalilik xossasi Terner ( $^{\circ}\text{T}$ ) darajasi bilan belgilanadi. Terner darajasi deganda, fenolftalein indikatori yordamida suv bilan ikki marta suyultirilgan 100 ml sutni neytrallash uchun sarflanadigan ishqorning ditsinormal eritmasi mikdori tushuniladi. Yangi sogib olingan sutning kislotalilik darajasi 16-18  $^{\circ}\text{T}$  ga teng bo'ladi. Bu degan so'z yangi sogib olingan 100 ml sutni titrash uchun 0,1 vodorod ishqor eritmasidan 16-18 ml sarflanishi kerak. Ayrim sigirlar sutida bu ko'rsatkich past yoki yuqori bo'lishi mumkin.

Sutning titrlanadigan kislotalilik xususiyati bir qancha faktorlarga bog'liq bo'lib, ularning eng asosiyları: sigirlarni oziqlantirish, laktatsiya davri va ularning fiziologik holati hisoblanadi. Sutning kislotaliligi uning temperaturasiga, tozaligiga va saqlash sharoitiga ham ko'p jihatdan bog'likdir, ya'ni sut issiq joyda saqlansa, toza bo'lmasa, kislotaliligi ortib ketadi, sutning sifati buziladi.

Agar kislotalilik darajasi 28-30  $^{\circ}\text{T}$  bo'lsa, sut qaynatilganda chirib qoladi. Agar bu ko'rsatkich 60-70  $^{\circ}\text{T}$  ga etsa, sutning sifati yomonlashib ketadi. SHuning uchun sut zavodlariga kolxoz va sovxoz fermalaridan keltirilgan sutning kislotalilik darajasi tekshirib ko'rildi. Agar kislotalilik darajasi 19  $^{\circ}\text{T}$  dan past bo'lsa, sutning har tonnasi uchun xo'jalikka 5 so'mdan qo'shimcha haq to'lanadi. Agar bu ko'rsatkich 19 $^{\circ}\text{T}$  dan 22  $^{\circ}\text{T}$  gacha bo'lsa, aksincha, 5 so'mdan jarima solinadi. Kislotaliligi 22 $^{\circ}\text{T}$  dan yuqori bo'lgan sut qabul qilinmaydi va xo'jalikka qaytarib yuboriladi. chunki, bunday sutdai sut mahsulotlari tayyorlash mumkin bo'lmaydi.

### **Nazorat savollar**

1. *Sut oqsilining qanday xususiyatlari bor?*
2. *Sutning bakteriotsidlik xususiyati va kislotaliligi nimalardan iborat?*

## **18-MAVZU: SUTNI ANALIZ QILISH**

### **Reja**

*Sut va sut mahsulotlari sifatini nazorat qilish  
Namunalarni tekshirishga tayyorlash  
Organoleptik baxo berish  
Sutning zichligini aiiqlash va unga ta'sir etadigan faktorlar  
Yog'ni aniqlash usullari*

**Tayanch so'zlar:** *jiromer; kislotali usul; sut yog'i; suvli yog'; biologik ko'rsatkich; organoleptik baho; yot jismlar; mexanik ifloslanish; katalaza; reduktaza.*

Sut va undan tayyorlanadigan mahsulotlar sifatini nazorat qilish ishlari asosan sut laboratoriyalarda analiz qilish yo'li bilan olib boriladi. Buning uchun avval namuna olinadi. Masalan, suttan o'rtacha namuna olish uchun uni oldin yaxshilab aralashtiriladi va etiketkali maxsus toza shishalarga solinib, og'zi tiqin bilan berkitiladi. Namuna sutning hajmi 200-250 ml bo'ladi, lekin yog'lilik darajasini aniklash uchun 50 ml sut etarli. Sut namunasi maxsus cho'michda (cherpak yoki diametri 9 mm bo'lgan temir naycha yordamida) olinadi. Namuna olingan shishalarga xo'jalikning nomi, sigirlar gruppasi, sut sog'ilgan kun va hokazolar yozib quyiladi.

Sut iamunalarini konservalab, bir necha kun mobaynida saklash jumkin. buning uchun ularga kaliy bixromat ( $K_2Cr_2O_7$ ) niig 10% li eritmasidan 100 ml sutga 1-2 ml yoki bir dona tabletkasidan solinadi, natijada sut konservalanadi. SHuningdek, 100 ml sutga formalinning 40% li eritmasi 1-2 tomchi tomiziladi. Bunda konservalash usulidan foydalanmasa ham bo'laveradi. SHuni unutmaslik kerakki, agar sut konservalangan bo'lsa, uni ichib yoki hayvoilarga berib bo'lmaydi, shuningdek, u organoleptik xossasi (mazasi, hidi) ni aniklash uchun yaroqsiz hisoblanadi. Quruq moddalar, oqsil va kul mikdorini aniklash uchun olingan namunalarga ham yuqoridaagi kabi usulni qo'llash kerak. Lekin formalindan kuprok qo'shib yuborilsa, yog' miqdorini aniqlash uchun sut sifatsiz bo'lib qoladi. Agar iamunalarni 10 kungacha saqlash kerak bo'lsa, ular katakli maxsus yashiklarga joylashtirilib, 10-15 °S li muzxonalarda saqlanadi va har ikki-uch kunda chayqatib turish kerak bo'ladi. Bunda konservalovchi modda bir tekis taqsimlanadi va sut yuzasida hosil bo'lgan qaymoq yaxshi aralashadi.

Sutning kimyoviy tarkibi bo'yicha, ayniqsa yog'lilik darjasи, zichligi va hokazolarning odatdagи ko'rsatkichlardan farqi katta bo'lsa, shuningdek, ba'zn bir qalbakilik (masalan, sutga suv qo'shish) holati gumon qilinsa, bunda gumon qilingan sut kunning qaysi vaqtida sog'ilgan bo'lsa, nazorat sog'im ham o'sha vaqtida va o'sha sog'uvchi tomonidan o'tkazilishi kerak.

Sutning biologik ko'rsatkichlaridan kislotaliligi, bijg'itish iamunasi, shirdon shirasi - achitki iamuna, fermentlar (reduktaza, katalaza) borligini, vitaminlar mikdorini aniqlash uchun olingan sut namunalarini konservalanmaydi, sut qisa vaqt ichida, namuna olingan zahoti analiz qilinadi.

Sug namunalarini ikki sutkalik sog'imdan olish talab etilsa, har bir sog'im mikdorn hisobida namuna belgilanadi. Masalan, umumiy namuna mikdori 200 ml bo'lishi uchun quyidagi tadbir qo'llanadi. Faraz qilaylik, sigirning sutkalik suti 10 l, ikki sutkalik suti, aytaylik 20 l. Bunda har bir litr suttan 200:20=10 ml namuna olinadi.

Namuna olishning birinchi kuni ertalab sigirdan 4 l sut sog'ib olinadi, kechqurun esa 6 l. Ikkinci kuni esa sog'imda ham, aytaylik 5 l dan sut sog'ib olingan bo'lsin. Bunda namuna quyidagicha olinadi:

birinchi sutkada sog'ilgan ertalabki suttan  $4 \times 10 = 40$  ml. SHu kuni sog'ilgan kechqurungi sugdan  $6 \times 10 = 60$  ml olinadi;

ikkiichi sugkada sog'ilgan ertalabki sugdan  $5 \times 10 = 50$  ml. SHu kuni sog'ilgan kechqurungi suttan  $5 \times 10 = 50$  ml olinadi.

Jami ikki sutkalik namuna 200 ml bo'ladi.

### **Namunalarni tekshirishga tayyorlash**

Namuialarni sut laboratoriyasida analiz qilish uchup temperaturasini  $20^{\circ}\text{S}$  ( $\pm 2^{\circ}\text{S}$ ) gacha ko'tarish kerak. SHuningdek, namuna yaxshilab aralashtiriladi, ba'zan uni bir idishdan ikkinchi idishga 3-4 marta quyib aralashtirish mumkin. Bunda sutni idish devori bo'ylab quyish kerak. Agar olingan namunalar konservalashtirilgan bo'lsa, u holda uni 30-40 S gacha ilitish, yaxshilab aralashtirish va tekshirishdan oldin o'rtacha  $20^{\circ}\text{S}$  ( $\pm 2^{\circ}\text{S}$ ) ga keltirish talab etiladi.

### **Organoleptik baxo berish**

Buning uchun sutning rangi, tarkibi, mazasi, ta'mi va hidiga baho beriladi. Konservalashtirilgan sutning mazasi tekshirilmaydi. Normal deb hisoblangan sutning rangi bir oz sarg'ish, tarkibi jihatidan bir xil, o'ziga hos hidli, mazasi yoqimli, biroq shirin bo'lishi kerak. Sutning rangi boshqacha, hidi yoqimsiz va mazasi yaxshi bo'lmasa, u holda brak qilinadi. Bunday sut qanday maqsadlarda ishlatilishi xo'jalik zootexnigi yoki sanitar-texnik tomonidan belgilanadi. SHuni unutmaslik kerakki, kasal sigirlardan sog'ib olingan sutga orgaoleptik baho berilmaydi.

### **Sutning zichligini aiqlash va unga ta'sir etadigan faktorlar**

Sutning zichligi areometr yordamida, sog'ib olingandan keyin kamida ikki soat o'tgach namunalari bo'yicha aniklanadi. Buning uchun sutning temperaturasi  $15-20^{\circ}\text{S}$  bo'lishi kerak. Lekin zichligini aniqlashda areometr talabiga ko'ra, albatta  $20^{\circ}\text{S}$  bo'lishi kerak, shunga ko'ra, ilgari ko'rib o'tilganidek ayrim tuzatishlar kiritiladi.

Sutning zichligini aniqlashdan oldin uni yaxshilab aralashtirish kerak. Lekin bunda sut yuzasida ko'pik xosil bo'lmasligi kerak. Sut tsilindrga quylganda, ehtiyyotlik bilan unipg ichki devoriga tegizib quyish ma'kul. TSilindr tekis joyga qo'yiladi.

Toza va quruq areometr 1,030 ko'rsatkichga qadar ehtiyyotkorlik bilan asta-sekin sutga botirib qo'yiladi. U sutda xarakat qiladi va to'xtaydi. Lekin areometrning biror joyi tsilindrga tegib turmasligi kerak, binobarin, sutning temperaturasi va zichligi aniqlanadi. Sutning zichligini aniqlashda areometrning sut bilai chegaradosh bo'lgan meniskining yuqori qismi hisobga olinadi. Ko'z bilam chamalab aniqlashda ko'z shu chegara to'g'risida bo'lishi to'g'ri iatija beradi.

Sugning zichligi gradus (daraja) bilai ifodalanadi. Buning uchun olingan natijaning oldingi ikki raqami (1) olib tashlanadi, qolgan raqamlar esa sutning darajada ifodalangan zichligini bildiradi. Masalan, sutning zichligi 1,0270 deb faraz qilaylik, bu esa areometrning 27-darajasiga teng yoki ko'rsatkich 1,0275 bo'lsa, 27,5 daraja hisoblanadi. Sutning zichligiga bir qancha faktorlar ta'sir etadi, ularning eng asosiyları: talab etilgan sut namunalarini zichligini belgilangan vaqtida aniklash, sutning tarkibi buzilishi (jumladan, suv qo'shilishi) yoki temperaturasini talab darajasida bo'lmasligi va hokazolardir.

### **Yog'ni aniqlash usullari**

Mazkur standart sut va sut mahsulotlari uchun qo'llaniladi va yog'ning massaviy ulushini aniqlash usullarini o'rgatadi: sut va sut mahsulotlarida kislotali usul, xom sutda turbidimetrik usul va shirdon (sichujniy) li, eritilgan sirlarda ekstraktsion usul.

Namuna tanlash usullari. GOST 13928 va GOST 26809 bo'yicha sut va sut mahsulotlaridan namuna tanlash va ularni tekshirishga tayyorlash.

O'lchashlarni olib borish. Sigir suti (xom, turli ko'rinishda pasterillangan, yog'sizdan tashqari, sterillangan, bolalar ozuqasi uchun).

(1-6 yoki 1-7) tipli 2 ta sut yog' o'lchagichga (og'izini xo'l qilmaslikka harakat qilib) dozator orqali  $10 \text{ sm}^3$  dan sulfat kislota quyiladi (zichligi

1810 dan 1820  $\text{kg/m}^3$  gacha) va suyuqliklar aralashib ketmasligiga xarakat

qilib ehtiyyotkorlik bilan pipetkada  $10,77 \text{ sm}^3$  dan sut qo'shiladi. Bunda

pipetka yog o'lchagich og'ziga burchak holda ushlab turiladi. Pipetkadagi sutning sathini meniskaning pastki nuqtasi orqali aniklanadi.

Pipetkadan sut asta-sekin tomishi kerak. Pipetka bo'shagandan so'ng oradan 3 sekund vaqt o'tmaguncha uni yog' o'lchagich og'zidan olinmaydi. Pipetka ichidagi sutni puflab tushirish mumkin emas. Yog' o'lchagichga dozator orqali  $1\text{sm}^3$  izoamil spirti qo'shiladi.

Aralashmaga bir necha tomchi distillangan suv tomizish maqsadida yog' o'lchagichdagi aralashmaning satxini yog' o'lchagich asosining og'zidan 1-2mm past qilib oliadi.

O'lchash aniqligini oshirish uchun, ayniqsa zichligi kam bo'lgan sutlar uchun namunani dozirovka tarozida tortish usuli tavsiya etiladi. Bunday holda avval 11.00g sut 0,005 aniqlikkacha tortiladi, so'ngra sulfat kislota va izoamil spirti quyiladi.

Yog' o'lchagichlarni quruq probkalar bilan og'zi yopiladi. Bunda probkalar idish bo'g'zining yarmidan o'tgan bo'lishi kerak. YOg' o'lchagichlardagi suyuklik va oqsil moddalar to'liq erib ketishi uchun ularni kamida 5 marta to'nnarib, silkitiladi.

O'lchashlarni olib borishni ta'minlash uchun probkalarning ustki qismiga mel bilan belgi chizib qo'yish tavsiya qilinadi.

Yog' o'lchagichlarni to'nnarilgan xolda  $(65\pm2)^\circ\text{S}$  xaroratlari suv vannasiga 5 minut mobaynida solib qo'yiladi.

Sirt ko'rinishi va konsistensiyasiga ko'ra sut bir xil rangga /oq rangdan sargish ranggacha/ ega bo'lishi, cho'kma va parchalar bo'lmasligi kerak. Sut muzlatilmagan va zichligi 1027 kg/m<sup>3</sup> dan kam bo'lmasligi kerak.

Birinchi nav talablarini qondira oladigan va 10 °S dan yoqori bo'lмаган xaroratda topshiriladigan sut «sovutilgan birinchi nav» deb qabul qilinadi.

Kasal va kasallikda gumoi qilinayotgan sigirlardan olingan sut oziq-ovqat maxsulotlariga ishlatalishidan, oldin ularga termik ishlov berish kerak xamda II nav talabiga javob bermaydigan, ammo kislotaliligi 21°C dan oshmaydigan, bakteriyalar urug'lanishi III sinfdan yoqori, soflik darajasi esa II gruppadan yoqori sutlar navsiz deb qabul qilinadi.

Fizik kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichiga qarab sut birinchi va ikkinchi navlarga bo'lindi. 1. jadval/

1-Jadval.

Ko'rsatkich	1-chi nav	2-chi nav
Kislotaliligi, <sup>0</sup> T	16 ..... 18	16.....20
Etalon bo'yicha soqlik darajasi gruppadan past emas	I	II
Reduktazali namuna bo'yicha bakteriyalarning urug'lanishi, sinfdan past emas	I	II

Tekshirilayotgan sug namunasini pg organoleptik bahosini xamda namunadagi:  
 Zichlikni  
 Mexanik ifloslanishni  
 Bakteriyalar sonini  
 YOg'ning massali ulushini  
 Formal titrlash usuli va AM-2 analizator yordamida oqsilning massali ulushini  
 AM-2 analizatorida SOMO ning massali ulushini  
 Issiqga chidamlilagini aniklash kerak  
 Organoleptik, fizik-kimyoviy va mikrobiologik ko'rsatkichlar asosida sutning navi aniqlanadi.

**Qaymoqning sifat nazorati**

Organoleptik, fizik-kimyoviy, mikrobiologik ko'rsatkichlariga asoslangan xolda qaymoklar birinchi nav, ikkinchi nav va navsizga bo'linadi.  
 /1.2 jadval/.

1.2 Jadval

Ko'rsatkich	1-sort	2-sort	Navsi z
Organoleptik: ta'm va xid	Toza, sof, begona ta'm va xidsiz Kuchsiz ifodalangan xashaki ta'm va hidlarga yo'l quyladi.		
Konsistentsiya	Bir jinsli, ifloslanmagan va yog' bo'laklarisiz, muzlatilmagan. Muz izlariga, ayrim yog' bo'lakchalariga yo'l qo'yiladi.		
Rang	Oq sarg'ish tusli		
Fizik-kimyoviy:yog'ning massali ulushi,%	30.....40	30.....40	30.....40
Kislotalilik, <sup>0</sup> T	12.....14	15.....17	18
Qaynash namunasi	Oqsil parchalari yo'q		Alovida mayda oqsil parchalarining mavjudligi
Harorat, <sup>0</sup> S dan oshmaydi	10	15	15
Mikrobiologik: reduktaza namunasi bo'yicha bakteriyalar soni, sinflardan past emas	1	2	3

Qaymoklar namunasining organoleptik bahosini hamda namunadagi kislotaliligin, yog'ning massali ulushini, qaymoqlar plazmasining kislotaliligi, issiqga chidamliligi, haroratni, bakteriyalar sonini aniqlashi kerak. Olingan ma'lumotlar asosida qaymoqlar navi belgilanadi.

**Ishni shakllantirish**

Ishning bajarilishini izohlang, tekshirilayotgan ishning asosiy usllarini ko'rsating, o'tkazilgan analizlar natijasini keltiring, kelayotgan sut va qaymoqparning sifatiii nazorat qiluvchi jurnalni to'ldiring.

/1.3j/ GOST 13264-70 va RST USSR 1326-76 talabiga javob beradigan xom ashyoga muvofiq bo'lgan xulosa chiqaring.

**9-laboratoriya ishi**  
**MAHSULOTLAR TARKIBIDAGI QURUQ MODDALARNI ANIQLASH**  
**USULLARI**

*Ishning maqsadi:* Barcha oziq-ovqat mahsulotlari, xomashyo va tayyor mahsulotlar tarkibidagi quruq moddalarni aniqlashdan iborat.

**NAZARIY QISM**

Barcha oziq-ovqat mahsulotlari, ularning xom ashyolar tarkibi suv va quruq moddalardan tashkil topgan. Mahsulot quruq moddalari tarkibiga uglevodlar, klechatka, oqsillar, organik kislotalar, mineral moddalar kiradi. Quruq moddalar miqdori mahsulot sifatining universal ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi, shuning uchun barcha xomashyo va tayyor konserva mahsulotlaridagi quruq moddalar miqdori GOST va texnik shartlar (TU) bilan belgilanadi. Mahsulotlardagi quruq moddalar miqdori fizik-kimyoviy, kimyoviy va fizik usullar bilan aniqlanishi mumkin. Ko'p hollarda quruq moddalar miqdorini aniqlashning eng ko'p tarqalgan usullari mahsulotlarni doimiy og'irlikkacha quritish va mahsulotdan svjni haydash usullaridan qo'llaniladi. Fizik usullardan refraktometrik usul va zichlikni aniqlash usullari ko'p tarqalgan.

**1-ish. QURUQ MODDALARNI ANIQLASHNING SALMOQLI  
USULI**

Kerakli asboblar:

Quritish shkafi. Bioks yoki farfor kosacha. Eksikator.

Kerakli mahsulotlar:

Sabzi namunasi. Kartoshka namunasi. Meva pioresi namunasi. Olma namunasi.

*Ishni bajarish tartibi:*

Bu usulda mahsulotni quritish shkafida doimiy og'irlikka kelguncha  $105^{\circ}\text{S}$  haroratdagи atmosfera bosimi ostida yoki  $70^{\circ}\text{S}$  haroratdagи past bosim ostida quritishga asoslangan. 10-12g toza qizdirilgan qumni toza va quruq bioksga solinib, bioksnii shisha tayoqcha bilan birgalikda doimiy og'irlikka kelguncha quritiladi. Biokslar eksikatorda sovutilib, 0,001 g aniqlikgacha o'lchab olinadi. So'ngra bioksga 5g miqdorda quritiladigan mahsulot namunasi solinadi. SHisha tayoq yordamida qum bilan aralashtiriladi va 0,001g aniqlikkacha o'lchanadi. Quritilgan mevalarning quruq moddalarini aniqlashda namunani qumsiz tortiladi. Qopqog'i ochiq bioks quritish shkafiga qo'yilib, 4-soat davomida  $105^{\circ}\text{S}$  haroratdagи muhitda quritiladi (1-rasm). SHundan so'ng biokslarning qopqog'i yopiladi, eksikatorda 30 minut davomida sovutiladi va o'lchanadi. O'lchanagan biokslar yana 1 soat davomida quritiladi, sovutilib o'lchanadi. Bu jarayon ketma-ket quritilgan ikkita biokslar og'irliklari o'rtasidagi farq 0,002 g ni tashkil qilguncha davom ettiriladi. Quruq moddalarning ulushini (X) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$X = \frac{M_2 - M}{M_1 - M} \cdot 100; \quad \%$$

Bu erda,

$M$  - bioksning qum va shisha tayoqcha bilan birgalikdagi og'irligi, g;  $M_1$  - bioksning qum, shisha tayoqcha va mahsulot namunasi bilan birgalikdagi quritishdan oldingi og'irligi, g;

$M_2$  - bioksning qum, shisha tayoqcha va mahsulot namunasi bilan birgalikdagi quritishdan keyingi og'irligi, g.

Birgalikda quritilgan mahsulotlar quruq moddalarning miqdori orasidagi farq 0,2% dan oshmasligi kerak.

## 2 - ish. QURUQ MODDALARNI ANIQLASHNING TEZLASHTIRILGAN USULI

Kerakli asboblar:

V-4 infraqizil nurlanish asbobi. Quritish shkafi. 20x24 sm li filtr qog'oz. Eksikator. Kerakli mahsulotlar: meva va sabzavot namunalari.

Ishni bajarish tartibi:

Bu usul mahsulotni V4 asbobida infraqizil nurlanish yordamida suvsizlantirishga asoslangan. Bu usul sabzavotli tamaddi uchun mo'ljallangai konservalar, quritilgan mevalar quruq moddalarini aniqlashda qo'llaniladi. Konservalarning o'rtacha namunalarini qiymalagichdan o'tkaziladi va chinni kosachada aralashtiriladi. Tayyorlangan namunani darhol og'zi zich yopiladigan idishga solinadi. SHu idishdan tekshirishga namuna olishdan oldin, u yaxshilab aralashtirilishi kerak.

Paketlar tayyorlash uchun o'lchami 20x14 mm li filtr qog'ozidan foydalaniladi, qog'oz o'rtasidan bukланади, со'ngra paketni uchta burchagidan ichkariga 1,5 sm bukланади. Paketning ichiga o'lchami 11x25 sm li filtr qog'ozidan kichik paketga joylanadi. Quruq moddalar miqdorini aniqlashdan oldin asbob 150-125°S gacha qizdiriladi va tayyorlangan paket 3 minut davomida qizdirilib, 2-3 minut eksikatorda sovutiladi. Tayyorlangan va quritilgan paketga 5 g miqdorida namuna o'lchab solinadi va V4 asbobiga qo'yiladi. Namuna solingan paketni 150-152°S da 5 minut davomida quritiladi. Eksikatorda 5 minut sovutib, со'ngra o'lchanadi. Quruq moddalarining ulushi (X) quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$x_1 = \frac{M_2 - M}{M_1 - M} \cdot 100; \quad \%$$

Bu erda,

M - paketning og'irligi, g;

M<sub>1</sub> - paketning namuna bilan birgalikdagi quritishdan oldingi og'irligi, g;

M<sub>2</sub> - paketning namuna bilan birgalikdagi quritishdan keyingi og'irligi, g.

## 3- ish. ERIYDIGAN QURUQ MODDALAR OG'IRLIK QISMINI REFRAKTOMETR YORDAMIDA ANIQLASH

Kerakli asboblar:

Refraktometr. Kerakli mahsulotlar: Meva suvlari, sharbatlari, shinni, meva konservalarining eruvchi qismi.

Ishni bajarish tartibi:

Eruvchi quruq moddalarini aniqlashning refraktometrik usuli bazi konservalarning quruq moddalarini aniqlashning standart usuli hisoblanadi va bu usul mahsulotga standartlarda malum ko'rsatmalar bo'lгanda qo'llaniladi. Refraktometr yordamida tomat-pasta, tabiiy meva suvlari, sharbatlari, shinni va turli xil meva konservalarining eruvchi quruq moddalar miqdori aniqlanadi (2-rasm).

SHuningdek, bu usul yangi uzilgan mevalar, sabzavotlar va yarim tayyor mahsulotdagи eruvchi quruq moddalar ulushini aniqlashda qo'llaniladi. Ishni bajarishdan oldin asbobning aniqligi distillangan suvda tekshirib ko'rildi. Agar refraktometrning shkalasi 1,23 raqamini ko'rsatsa demak, asbob ishlaydi. Namunani tekshirishga kirishishdan oldin refraktometrning qopqog'i ochiladi, prizmaga 1-2 tomchi tekshiriluvchi modda tomiziladi va yoqori prizma yopiladi so'ngra, refraktometrning ko'rsatishi yozib olinadi, bunda tekshiriluvchi moddaning harorati 20°S dan oshmasligi kerak. Moddaning harorati moddaning quruq moddalarini miqdoriga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Agar moddaning harorati 20°S dan farq qilsa, haroratga to'g'rilash maxsus jadvaldan foydalaniladi.

#### 4 - ish. QURUQ MODDALARNI ZICHLIGI ASOSIDA ANIQLASH

Kerakli asboblar:

Piknometr. Areometr. Termostat.

Kerakli mahsulotlar: Meva sharbatlari.

Ishni bajarish tartibi:

Bu usul mahsulotning zichligi bilan uning quruq moddalari o'rtasidagi bog'liklikka asoslangan. Moddaning zichligi piknometr (arbitraj usuli) yoki areometr yordamida aniqlanishi mumkin. Piknometrda zichlikni aniqlash uchun piknometr yaxshilab joyib quritiladi. Toza piknometr 0,0001 g aniqlikkacha o'lchanadi, belgisidan sal yoqorigacha 20°S haroratli distillangan suv bilan to'ldirilib, 30 minutga termostatga qo'yiladi. SHundan so'ng piknometrning qopqog'i ochiladi va filtr qog'oz bilan o'lchov belgisi yoqori burchagi bo'yicha suvning sathi belgilanadi, piknometr yana qopqoq bilan yopiladi va o'lchanadi, so'ngra xuddi shunday piknometrning namuna bilan birgalikdagi og'irligi o'lchanadi. Tekshirilayotgan namunaning zichligi (d) quyidagi tenglama orqali hisoblanadi.

$$d = \frac{P_2 - P_0}{P_1 - P_0} \cdot D;$$

Bu erda

R<sub>2</sub> - piknometrning 20°S haroratdagi namuna bilan birgalikdagi og'irligi, g;

R<sub>1</sub> - piknometrning 20°S haroratdagi distillangan suv bilan birgalikdagi og'irligi, g;

R<sub>0</sub> - bo'sh piknometrning og'irligi, g;

D - suvning 20° S haroratdagi nisbiy zichligi 0,99823 ga teng;

d - tekshirilayotgan namunaning 20°S haroratdagi nisbiy zichligi.

So'ngra zichlik va quruq moddalar o'rtasidagi bog'liqlik jadvalidan quruq moddalar miqdori aniqlanadi (1-ilova).

Zichlikni areometrda aniqlash uchun diametri areometrning kengaygan joyidan 2-3 marta katta bo'lgan shisha tsilindr kerak bo'ladi. SHu tsilindrga asta-sekin harorati 20°S bo'lgan tekshiriluvchi suyoqlik quyiladi. Toza va quruq areometrni sekin-asta tsilindrning devorlariga tegizmasdan suyoqlikka tushiriladi (3-rasm). Areometr suyoqlikka barqaror joylashgandan keyin uning ko'rsatishi pastki belgisidan 0,001 aniqlikda hisoblanadi. Agar tekshirilayotgan suyoqlik juda bo'yagan bo'lsa, areometrning ko'rsatishlari yoqori o'lchov birligida hisoblanadi, bunda ko'rsatilgan miqdor 0,0002 ga ko'paytiladi.

#### *10-laboratoriya ishi*

#### MEVA-SABZAVOTLARNI KISLOTALILIGINI ANIQLASH

Ishning maqsadi: meva va sabzavotlardagi, konservalangan mahsulotlardagi kislotalilikni turli xil usulda aniqlashdan iborat.

#### NAZARIY QISM

Ko'pgina meva-sabzavotlarning mazasi ularning tarkibiga kiruvchi organik kislotalarga bog'liq. Kislotalilik mahsulotning tabiatiga yoki meva-sabzavotni saqlash va qayta ishslash jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Mevalar tarkibiga olma, limon va musallas kislotalari kiradi. Karam tuzlanganda sut kislota, meva, sabzavot shiralari yoki musallas achiganda sirka kislota hosil bo'ladi. Mahsulotning kislotaliliga qarab, uning yangi ekanligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ko'pgina hollarda mahsulot kislotaliligi uning sifat ko'rsatkichi bo'ladi. Umumiy (titrlanadigan) kislotalilik hajmiy analiz usulida aniqlanadi. Mahsulotning olingan miqdoridagi umumiy kislotalilik uning hamma kislotalarini neytrallash uchun ketgan ishqor miqdoriga baravar bo'ladi. Ishqorning titplashda sarf bo'lgan miqdori mahsulotdagi izlanayotgan kislota uchun hisob qilinadi. Uzum uchun musallas kislotasiga danakli va urug'li mevalarda olma kislotasiga

hisob qilinadi. Bunday hisobni kislotaning kimyoviy formulasi va ekvivalentini bilgan holda qilish osondir. Olma kislotasining molekulyar og'irligi



CHOH-COOH = 134 ikki asosli kislota sifatida uning ekvivalenti Musallas kislotasining molekulyar og'irligi



Limon kislotasining molekulyar og'irligi



C - COOH = 192 ekvivalenta



Bir asosli kislotalar (sut va sirk) molekulyar og'irligi ularning ekvivalentiga teng.

Sut kislotasiniki  $\text{CH}_3\text{CHOH COOH} = 90$ .

Sirka kislotasiniki  $\text{CH}_3\text{COOH} = 60$

0,1 n o'siovchi ishqorning titri u yoki bu kislotaning ekvivalent miqdorini ifodalaydi. Meva-sabzavotlar tarkibidagi ayrim organik (chumoli sirka) va boshqa kislotalar uchuvchan kislotalar bo'lib, ular suv bug'i yordamida haydaladi, Ularni miqdorini aniqlash uchuvchanlik xossasiga asoslangan. Mahsulotlardagi aktiv kislotalilik deganda, 1 l eritmada vodorod (N) ionining kontsentratsiyasini kislotaning dissotsiyalanish darajasiga bog'liq tushuniladi. Umumi kislotalilik (titrlash yo'li bilan aniqlanadigan) va aktiv kislotalilik (vodorod ionlari kontsentratsiyasini ifodalaydigan) boshq - boshqa qiymatlardir. Meva sabzavotlardagi aktiv kislotalilikni aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Hamma fermentativ jarayonlar: mahsulotlar saqlanishdagi parchalanish jarayonlari, antiseptik moddalar bilan konservalash va nihoyat mahsulotning nordon mazasi vodorod ionlari kontsentratsiyasiga bog'liqidir. Vodorod ionlarining kontsentratsiyasi mahsulotlarda juda kam, u o'nli logarifm bilan ifodalanadi va

$$\text{pH} = -\log_{10}(N') = \log 1/(H)$$

Neytral eritmalar uchun pH = 7 ga teng.

Kislotali muhitda vodorod ionlarining soni katta, shuning uchun ulardan pH > 7 kichik, ishqoriy muhitda esa aksincha, pH < 7.

### 1-ish. UMUMIY KISLOTALIKNI ANIQLASH

Kerakli asboblar va reaktivlar:

Pipetka. Bioretka. Kolbalar. Kimyoviy stakan. Fenoftalein eritmasi. Distillangan suv. Mahsulot namunasi. 0,01 n NaOH eritmasi.

Ishni bajarish tartibi:

Umumi kislotalilik mahsulotning barcha nordon moddalarini titrlashga sarflangan ishqorning miqdoriga teng. Ko'p hollarda umumi kislotalilikni aniqlashda quyidagi usuldan foydalaniladi:

Mahsulotdan 20 g namuna o'lchab olinadi va bu namunani issiq distillangan suv bilan chayqab, hajmi 250 ml -li o'lchov kolbasiga quyiladi. Kolbaning 3-4 hajmiga 80°С haroratli distillangan suv solinadi va 30 minut davomida tindirib qo'yiladi. Vaqtigaqtan bilan kolba chayqab turiladi, so'ngra oqar suv tagida xona haroratigacha sovutiladi, kolbaning belgisiga distillangan suv bilan to'ldiriladi va qopqog'i yopilib, yaxshilab aralashtiriladi. Mahsulot quruq filtrdan stakanga o'tkaziladi. Pipetka bilan hajmi 200-250 ml li kolbaga 5 ml filtrat o'lchab olinadi. Ustiga 2-3 tomchi 1% li fenoftalein (spirtli) eritmasi tomiziladi va 0,1 n ishqor eritmasi bilan titrlanadi. Umumi kislotalilik X quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$X = \frac{y \cdot K \cdot Y_0 \cdot 100}{M \cdot Y_1};$$

Bu erda,  $y$  - titrlanishga sarflangan 0,1 n ishqor eritmasining hajmi, ml;

$U_1$  - titrlashga olingan eritma hajmi, ml;

$U_0$  - namuna etkazilgan hajm, ml;

$M$  - tekshirishga olingan tortim miqdori (suq mahsulotlar uchun hajmi), g/ml;

$K$  - mos kislota uchun hisoblash koeffitsienti.

Olma kislotsasi uchun - 0,0067; Limon kislotsasi uchun - 0,0064;

Sirka kislotsasi - 0,0060; Sut kislotsasi uchun - 0,0090

Vino kislotsasi uchun - 0,0075

Suq mahsulotlarning umumiy kislotaliligini aniqlash uchun 250ml li o'lchov kolbasiga pipetka bilan 25 ml suq mahsulot o'lchab olinadi. Kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan to'ldiriladi, yaxshilab aralashtiriladi, so'ngra boshqa kolbaga 50 ml miqdorida titrlash uchun ajratib olinadi.

### BA'ZI KONSERVALAR UMUMIY KISLOTALILIGINING KO'RSATKICHLARI

Marinadli konservalar 2% dan yoqori emas (sirka kislotsiga nisbatan) uzum sharbati 0,2% dan kam emas (musallas kislotsiga nisbatan) olma sharbati 0,3-1,2% dan kam emas (olma kislotsiga nisbatan) sirkalangan karam 0,7 dan 2 %gacha (sut kislotsiga nisbatan)

2- ish. UCHUVCHAN KISLOTALAR MIQDORINI ANIQLASH Kerakli asboblar va reaktivlar.

Texnik tarozi. O'lchov tsilindri. 500 ml-li kolbalar. Sovutgich. Mevalar suvi. 10% li fosfat kislota. Fenoftalein indikatori. 0,1 n ishqor eritmasi.

Ishni bajarish tartibi:

Uchuvchan kislotalarni aniqlash uchun texnik tarozida sabzavot pioresi yoki mezgasidan 25 g tortib olinib, hajmi 500 ml li kolbaga solinadi, ustiga 150 ml suv va 1ml 10% li fosfat kislotadan quyladi, meva suvlari yoki musallas analiz qilinganda pipetka bilan 50 ml vinodan yoki meva suvidan kolbaga solinadi. Kolba shisha nay orqalisovutgich bilan va bug' hosil qiluvchi kolba bilan rezina tiziq orqali ulanadi, kolbadagi suqlikning yarmi haydalgandan keyin bug' hosil qiluvchi kolbadan bug' yoboriladi va haydash to 200 ml haydalgan suqlik hosil bo'lguncha davom ettiriladi (4-rasm). Keyin haydalgan suqlikka 5 tomchi fenoftalein qo'shib, 0,1 n ishqor eritmasi bilan qizg'ish rang paydo bo'lguncha titrlanadi. Uchuvchan kislotaning miqdori sirka kislota hisobiga nisbatan foiz hisobida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$N = \frac{n \cdot 100 \cdot 0,006}{\alpha};$$

Bu erda

$n$  - namuna og'irligi.

$n$  - 0,1 n ishqor miqdori, ml.

0,006- sirka kislota asosida 0,1 n ishqorning titri.

### 3-ish. MAHSULOTLARDAGI AKTIV KISLOTALIKNI ANIQLASH

Kerakli asbob va reaktivlar.

rN metr. Standart (bufer) eritmalar. Har xil 50,100,150,250 ml hajmli kimyoviy stakanlar. Mahsulot namunasi.

Bu usul barcha meva va sabzavot konservalari uchun qo'llaniladi. Bu usul rN-metr asbobida tekshiriluvchi eritmaga elektrodlarni botirganda ular potentsiallari orasidagi hosil bo'ladigan farqni o'lchashga asoslangan. Suq mahsulotlar va bo'tqasimon mahsulotlarning aktiv kislotaliligi ularni suv bilan aralashtirmasdan aniqlanadi. Suq va qisq' qismlardan iborat bo'lgan konservalarning rN ini aniqlash uchun faqat suq qismi olinadi. Quruq konservalarning aktiv kislotalilagini aniqlash uchun mahsulot

qiymalanadi va birga-bir nisbatda distillangan suv bilan aralashtiriladi. Aniqlashdan oldin asbobning aniqligi rN aniq bo'lgan biror buferli eritmada tekshiriladi. Asbobni tekshirish uchun asbobning idishiga buferli eritma quyiladi va uning elektrodlari eritmaga to'la cho'ktirib qo'yiladi. Bu holda asbobning strelkalari buferli eritma rN ning sonini ko'rsatishi kerak. Agar asbobning ko'rsatishi bilan eritmaning rN ining soni o'rtasida farq bo'lsa, u holda asbobning strelkasi maxsus buragich yordamida kerakli songa keltiriladi. Tekshirilayotgan asbobning idishiga rN i tekshirilayotgan eritma (yoki mahsulot) solinadi, unga elektrodlar tushiriladi, asbob ishlatiladi va eritma yoki mahsulotning rNi asbob shkalasida aniqlanadi.

rN ni universal indikator qog'ozi yordamida aniqlash (texnik usul).

Bu usul barcha meva va sabzavot konservalarinint rN ini uncha katta bo'limgan aniqlikda aniqlashda qo'llaniladi. Tekshirilayotgan eritmaning 1-2 tomchisi indikator qog'oziga tomiziladi va hosil bo'lgan rangni ranglar shkalasi bilan solishtirilganda, eritma rN ining kattaligi aniqlanadi. Bazi konservalar aktiv kislotaliliginining ko'rsatkichlari: Meva sharbati -4,4 dan yoqori emas, shaftoli va o'rikning shakarli bo'tqasi-3,8 dan yoqori emas, konservalangan bodring -4,0, yashil no'hot-5,6 dan kam emas, pomidor-3,9.

## **11-laboratoriya ishi**

### **MEVA - SABZAVOT MAHSULOTLARI TARKIBIDAGI MINERAL QOLDIQLARI VA UNING ISHQORIYILIGI, MEXANIK QO'SHIMCHALARINI ANIQLASH USULLARI**

**Ishning maqsadi:** meva - sabzavot mahsulotlari tarkibidagi mineral qoldiqlari va uning ishqoriyili, mexanik qo'shimchalarini aniqlash usullarini o'rganishdan iborat.

#### **NAZARIY QISM**

Meva - sabzavot xom-ashyolari va qayta ishlangan mahsulotlarning muhim ko'rsatkichlaridan biri ular tarkibidagi mineral birikmalardir. Tekshirilayotgan muddani qizdirib keyin kuydirilgan qoldig'i kul hisoblanadi. Meva-sabzavot mahsulotlarining mineral tarkibiy qismiga metallar va metalloidlar kiradi.

Metallar ko'p miqdorda Ma, K, Sa, Mn, Fe va ozroq miqdorda, metalloidlardan esa S1, R, V va boshqalar kiradi. Iloqoridagi mineral muddalar odam organizmida muhim ahamiyatga egadir. Analiz qilinayotgan mahsulotdagi mineral muddalar miqdori va tarkibi kuydirib kuli olingandan keyingi tarkibga mos kelmaydi chunki, mahsulot kuydirish jarayonida xilma-xil o'zgarishlarga uchraydi. Meva-sabzavotlarda tabiiy holda bor bo'lgan mineral muddalardan tashqari ularni qayta ishlash jarayonida ayrim qo'shimchalar (osh tuzi, soda va boshqalar) qo'shiladi yana shu narsa ehtimoldan holi emaski, mahsulot qayta ishlanayotganda metall bo'lakchalari, qum, mineral qo'shimchalar og'ir metallar (mis, qalay, qo'rg'oshin) qo'shilib ketishi mumkin. SHuning uchun ishlab chiqarish jarayonida xom-ashyoga va mahsulotga texnik-kimyoviy nazorat asosida tavsifnomalar berishda faqat undagi mineral tarkibiy qism emas, balki metall qo'shimchalar, xlорidlar, og'ir metallar, qum borligi ham hisobga olinadi.

konussimonkolbagafiltrlanadi.

Natriyxloridni aniqlash uchun pipetka bilan tuzli eritmadan 25 ml olib 250ml ikolbaga 0,1 N ishqor eritmasini solinadi, belgisigacha distillangan suv solib chayqatiladi.

Titrlashuchunpipetkabilan 25mltayyorlanganeritmadan olib kolbaga solinadi, 2-3 tomchifenoltalein qo'shibbioretka 0,4 Nishqoreritmasini olib, ochqizil rang paydo bo'lguncha neytrallanadi. Keyinkolbaga 5-10 tomchi 10% kaliyxromat eritmasidan tomizilib, to'xtovsiz chayqatilib turgan holda 0,1 N kumush nitratning eritmasi bilan kumush xlорidning oq cho'kmasi toqizg'ishrangga o'tguncha titranadi.



Kumushxromatqo'ng'irqizilranglicho'kmaningfoizmiqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\frac{n \cdot k \cdot 0,00585 \cdot R}{a}$$

n – 0,1N AgNO<sub>3</sub> ning titrlash uchun sarflangan soni;  
k - to'g'rilovchi koefitsient, 0,00585;  
R - tortimning suyoltirish koefitsienti (25:250-0,1)-S1;  
a - titrlash uchun olingan suyqlik eritmasining ml soni.

### **12-laboratoriya ishi**

#### **MAHSULOTDAGI AROMATIK MODDALARNI ANIQLASH**

Ishning maqsadi: mahsulotdagi aromatik moddalarini aniqlashni o'rganishdan iborat.

Oziq-ovqat mahsulotlarining xushbo'y hidga ega bo'lishi, ular tarkibidagi engil uchuvchan birikmalar-spirtlar, aldegidlar, efirlar, aromatik moylar va hokazolar borligi bilan bog'liq.

Oziq-ovqat mahsulotlaridagi asosiy xushbo'ylik efir moylari ta'minlaydi. Asosan tsitrus (limon, apelsin, mandarin) o'simliklari, ziravorlar, sarimoqpiyoz, piyoz, shivit, petrushka, estragonlar va boshqalarda efir moylari ko'kdir. Efir moylarining yoqori bo'limgan miqdori hazm qilish moddalarini ajralishini tezlashtiradi va ovqat tez hazm bo'lishida yordam beradi.

Kerakli asboblar va reaktivlar:

Haydash kolbasi. Sovutkich-yig'ish kolbasi. Suv hammomi. 100 sm<sup>3</sup> sig'imli kimyoviy stakan. Soat oynasi. Xromli aralashma. Kaliy eritmasi. Kraxmal eritmasi. Mahsulot namunasi.

Ishni bajarish tartibi:



Mahsulotlardagi aromatik moddalarini aniqlashda (ayrim paytlarda bu tushuncha aromat soni deb yoritiladi) 0,01 g aniqlikda namuna tortib olinadi. Namunaning og'irligi 10 dan 50 g gacha aromatik moddalar miqdoriga qarab o'zgarib turishi mumkin. Tortib olingan mahsulot haydash kolbasiga solinib, 100sm<sup>3</sup> sig'imda distillangan suv quyiladi. Haydash kolbasi 200-ZOOsm<sup>3</sup> hajmi bo'lishi mumkin. Yig'gich kolba sifatida 50 sm<sup>3</sup> o'lchov tsilindri ham ishlatishi mumkin. Sovutgichga ulangan allonjning uchi yig'gich tsilindr tagigacha etishi kerak, probka yoki keyin xavo chiqaruvchi kapillyar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Efir moylarining uchuvchanligi e'tiborga olgan holda, distillyat yig'ilayotgan idish sovuq suvli yoki muz solingan idishga solib qo'yiladi.

Suyqliknini haydashgacha kolbaga kontsentrlangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> –sulfat kislotadan 500sm<sup>3</sup>,50 g kristall K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> va 450sm<sup>3</sup> distillangan suvdan iborat xromli aralashma qo'shiladi. Haydash sekinlik bilan qaynatish orqali va yig'gich kolbada 50sm<sup>3</sup> distillyat yig'ilgan xolatgacha davom ettiriladi. Xromli aralashma bilan efir moylarining ta'sirlashuvi kaliy bixromatdan ajralayotgan kislorod hisobiga amalga oshadi:



Suv hammomida aralashma 1 soat davomida qaynatilganda efir moylari to'liq oksidlanadi. Yig'gich tsilindrdagi suyqlik 100 sm<sup>3</sup> li stakanga olinadi, tsilindr ozgina distillangan suv bilan yo'lib olinadi va distillyatga qo'shiladi. Stakan soat oynasi bilan yopib qo'yiladi. Stakandagi distillyat 1 soat o'tgandan keyin sovutilib, sig'imi 500-800sm<sup>3</sup> taglik kolbaga qo'yiladi. Soat oynasi va stakan yana 50sm<sup>3</sup> distillangan suv bilan yo'lib qo'shiladi. Keyin 25sm<sup>3</sup> li eritma qo'shib, kolba tiqin bilan 3 minut qorong'i joyda saqlanadi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi natijasida erkin yod ajraladi va ajralgan yod eritmasi bilan kraxmal ishtirokida titrlanadi.



Kraxmal bilan yodning ta'sirlanuvidan hosil bo'lgan ko'k rang Sg<sup>3+</sup> ionlari ta'sirida ko'k rangiga aylanadi.

Xromli aralashma bilan parallel kontrol titrlash ham bajariladi, bunda distillyat ustiga  $50\text{sm}^3$  distillangan suv solinadi. «Aromatik soni»  $\text{X}_a$  ( $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$   $\text{sm}^3$   $0,2\text{mol}/\text{dm}^3$ )ning  $100$  g tekshirilayotgan mahsulotdagi kontsentratsiyasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$X_a = \frac{100 \cdot (V_1 - V_2) \cdot K}{m}$$

$V_1, V_2$  -  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasining ishchi va kontrol eritmalarini titrlashga sarflangan hajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$K$  -  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasining koeffitsienti;

$M$  - mahsulotning og'irlilik miqdori, g.

### *13-laboratoriya ishi*

## KONSERVALANGAN MAHSULOTLAR SIFATIGA BAHO BERISH USULLARI

Ishning maqsadi: konservalangan mahsulotlarning organoleptik ko'rsatkichlari, idishga joylashgan og'irligi, hajmi, cho'kmalari orqali belgilash usullaridan foydalangan holda sifatiga baho berishni o'rganishdan iborat.

#### NAZARIY QISM

Oziq-ovqat mahsulotlari sifatiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri organoleptik usuldir. Bu usulda odamning sezgi organlari mahsulot sifati bo'yicha to'g'ridan - to'g'ri kerakli ma'lumotga ega bo'ladi. Organoleptik usulning ko'rsatkichi mutaxassisning tajribasiga va metodik yondashish usuliga bog'liq bo'ladi.

«Organoleptik» so'zi grekchadan olingen bo'lib, ikki qismdan iborat. «Organon» organ, «Lamvapo» baholamoq, sezmoq demakdir.

Organoleptik usulda mahsulot sifati haqida hamma ma'lumotlar sezgi organlari orqali to'planadi. Mahsulot mazasi, rangi, hidi va hokazolar. Mahsulot sifatiga baho berishda hozirga qadar, Organoleptik usul o'zining ahamiyatini yo'qtogani yo'q. Konservalangan mahsulotlarning sifatini organoleptik ko'rsatkichlardan tashqari mahsulotning idishga joylashgan og'irligi, hajmi, cho'kmalari va meva sharbatlaridagi mag'iz qismi ham belgilaydi. Mahsulotning idishdagi og'irligi deganda, iste'molchiga jo'nataladigan idishdagi ogirlik tushuniladi. Idishdagi mahsulot og'irligi etiketkadagi ko'rsatilgan mahsulotlarniig nominal son qiymatiga to'g'ri kelishi kerak. Lekin ayrim hollarda nominal qiymatdan 2,3 yoki 5% farq qilishi mumkin. Ko'pchilik hollarda mahsulotni to'lik, idishdan ajratib olish qiyin, mahsulot og'irligi bo'yicha o'zgaradi va bu holda mahsulot og'irligini idishdagi og'irlilik bilan ro'ilgan tarang og'irligi o'rtasidagi farq deb tushunish kerak bo'ladi. Tarang joylangan suioq mahsulotning hajmi ml hisobida o'lchanib, unda o'lchov tsilindridan foydalilanadi.

#### 1-ISH. IDISHGA JOYLANGAN MAHSULOTNING OG'IRLIGINI VA HAJMINI ANIQLASH

##### Kerakli asboblar

Texnik-kimyoviy tarozi.  $500\text{sm}^3, 1000\text{sm}^3$  sig'imli o'lchov tsilindr-lari. tayyor mahsulot namunalari.

##### Ishning bajarilishi:

Har bir partiyadagi idishga joylangan mahsulotning og'irligi, hajmi to'ldirish darajasi, shu partiyadagi bankalardai bir nechta namuna sifatida olib nazorat qilinadi. Agar olingen namunalardagi mahsulot og'irligi nominal etiketkadagi qiymat yoki ko'rsatilgan og'irlilik hajmi bilan to'g'ri kelmasa, shu partiyadagi mahsulot iste'molga yaroqli deb jo'nataladi. Aks holda esa, mahsulot namunalarining o'rtacha arifmetik

qiymati quyidagi formula  $X = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n x_i$  bilan topilib, ( $D$ ) nominal qiymatdan chetga

chiqishi  $D = \frac{N - \bar{X}}{N}$  formula yordamida hisoblanadi.

N - mahsulotning nominal qiymati yoki etiketdagi og'irligi.

X̄ - mahsulot namunalaridagi og'irlilikning o'rtacha arifmetik qiymati.

Agar  $D \leq 1$  bo'lsa, u holda tayyor mahsulot partiyasi yaroqli bo'lib, iste'molchiga jo'natilishi mumkin.

Agar  $D > 1$  bo'lsa, shu partiyadagi mahsulotlar iste'molchiga jo'natilmaydi, u yaroqsiz hisoblanadi. Har bir partiyadagi mahsulot sifatiga baho berishda  $d_1$ ;  $d_2$ ;  $d_3$  va  $d_4$  larning qiymatlaridan foydalanish standartda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Agar standartda maxsus ko'rsatma bo'lmasa, mahsulot og'irligini yoki hajmini nazorat qilishda  $d_2$ ning qiymatidan foydalaniladi. Bankalarning to'ldirilganlik darajasini aniqlashda  $d_3$  ning qiymatidan foydalaniladi.

#### d ning me'yordagi nazorat qiymati

Partiya hajmi, son bilan	Namuna hajmi, son bilan	$d_1$	$d_2$	$d_3$	$d_4$
26-500	3	2,81	4,13	6,08	8,98
501-800	3	2,72	4,00	5,09	8,70
801-1300	5	2,60	3,83	5,64	8,32
1301-3200	6	2,51	3,70	5,44	8,04
3201-8000	9	2,14	3,55	5,23	7,72
8001 -	12	2,36	3,48	5,12	7,56
22000 dan katta	15	2,34	3,44	5,07	7,48

#### 2-ish. KONSERVALANGAN MAHSULOT TARKIBIDAGI MAG'IZ QISMINI ANIQLASH

Kerakli asboblar:

TSentrifuga. Kimyoviy stakan 100sm<sup>3</sup>. Termometr. Mahsulot sharbati. Distillangan suv.

Ishning bajarilishi:

Meva suvlari yoki sharbatlaridagi mag'iz qismini aniqlash, ma'lum miqdordagi sharbatni tsentrifugalab, cho'kkан mag'iz qismining og'irligini aniqlashga asoslangan. Tekshiruvni bajarish uchun tortilgan tsentrifuga probirkasiga 10 g tekshirilayotgan sharbat va distillangan suv 1:1 nisbatdagi aralashmasi solinadi. Probirkadagi sharbat stakanga joylashadi va stakandagi suvning xarorati 60°S ga pasayguncha kutiladi. Qizdirish sharbatning tarkibidagi mag'zining ajralishiga yordam beradi, keyin probirka olinib, 1500 ayl/min aylanish chastotasida tsentrifugada 20 min davomida tsentrifugalanadi. TSentrifuga sekinlik bilan to'xtatilishi lozim, probirka chayqatilmasdan ajralgan suv to'kiladi va probirka tubidagi qattiq qoldiq 0,01 g aniqlikda tortiladi. Mag'zining og'irligi ( $X_m$ ) quyidagi formula bilan topiladi:

$$X_m = \frac{2 \cdot 100 \cdot M_1}{M}$$

$M_1$ - probirkadagi cho'kmaning og'irligi, g;

$M$  - sharbatli suvning probirkadagi og'irligi, g.

Meva sharbatlaridagi mag'iz qismi standart bo'yicha 30-35 % ni tashkil qilishi kerak.

#### 3-ISH. KONSERVALANGAN MEVA-SABZAVOT SHARBATLARIDAGI CHO'KMA MIQDORINI ANIQLASH

Kerakli asboblar va reaktivlar:

TSentrifuga va probirkalar. Texnik-kimyoviy tarozi. Ulchov tsilindri. Suv xammomi. Termometr. Stakan. Uzum yoki olma sharbati. Ishning bajarilishi:

Meva suvlarining mag'izsiz tashqi ko'rinishi uniig tarkibidagi cho'kmaga bog'liq. Meva suv cho'kmasi bilan chayqatilganda o'zining tiniqligini yo'qotadi va yoqimsiz ko'rinishga ega bo'lib qoladi, Ayrim hollarda meva suvlarida yoki sharbatlarida cho'kma paydo bo'lisi texnologik sharoitning noto'g'ri yo'lga qo'yilganligidan darak beradi. Cho'kma miqdorini aniqlash standart usul asosida tsentrifugalab, mahsulotning yopishqoqligini pasaytirish, pektin moddalarini gidrolizlash maqsadida va ozgina qizdirish yordamida amalga oshiriladi.

Tekshirishni boshlash uchun tsentrifuga probirkalari yaxshilab joyib quritiladi va 0,0001 aniqlikda tortiladi. Meva sharbatidan yoki ekstraktidan o'rtacha namuna olinib, yaxshilab aralashtirilgan holda  $150\text{sm}^3$  tabiiy sharbatdan yoki  $40\text{sm}^3$  kontsentrlangan sharbatdan o'lchab olinadi. Kontsentrlangan sharbatni suoltirishda iste'molchi uchun yozilgan yozuvdan foydalaniladi. Tayyorlangan sharbat oldindan texnik-kimyoviy tarozida tortilgan probirkaga solinadi. Agarda yoqoridagi texnik-kimyoviy tarozi bo'lmasa, probirka og'irligi ma'lum stakanga solinib, pallali tarozi tortilishi mumkin.

TSentrifuganing xavfsiz ishlashi uchun tsentrifuga probirkalarining massasi bir xil bo'lisi kerak, hamda tsentrifuga uyalari simmetrik holda joylashgan bo'lisi lozim. SHarbat olingan probirkaga  $85-90^\circ\text{S}$  li suv hammomida 3 minut saqlanadi va keyin tsentrifugaga joylanib, 800 ayl\min da 20 minut davomida aylantiriladi. TSentrifuga sekinlik bilan to'xtatilgandan keyin probirkaga olinib, probirkadagi suyoqlik to'kiladi va probirkaga devoridagi qoldiq suvlar ketishi uchun filtr qog'oz ustiga to'nkaryladi. Probirkaning cho'kma bilan birgalikdagi og'irligi 0,0001 g aniqlikda tortiladi. Cho'kma og'irligi miqdori  $X_0$  (%) hisobida quyidagi formula yordamida topiladi.

$$X_o = \frac{100 \cdot (M_1 - M_2)}{M_2}$$

$m_1$  - probirkaning sharbat bilan birgalikdagi og'irligi, g.

$m_0$  - bo'sh probirkaning og'irligi, g.

$m_2$  - sharbatning og'irligi, g.

#### **14-laboratoriya ishi**

#### **YORDAMCHI MODDALARNING SIFATINI ANIQLASH**

Ishning maqsadi: Konservalashda ishlatiladigan yordamchi moddalar (osh tuzi namligi, sirka kislotasi, qaxrabo kislotasi, aldegidlarni, shakar rangi va hokazo)ning sifatini aniqlashdan iborat.

#### **NAZARIY QISM**

Osh tuzi, sirka kislotasi, qand va ziravorlar meva sabzavotlarni konservalashda ishlatilib, konservalarning saqlanishida muhim rol o'ynaydi. Konservalashda ishlatilgan osh tuzi Davlat standarti talabiga javob berishi zarur. Masalan:

- A) tuz kislotalarining kattaligi 0,5 mm dan oshmasligi zarur.
- B) tuz oppoq rangga ega bo'lib, hidi bo'lmasligi zarur.
- V) tuzning 5% li eritmasi sho'r mazaga ega bo'lisi va boshqa achchiq maza sezilmamasligi kerak.
- G) tuz tarkibida 96,5 % natriy xlorid bo'lisi kerak.
- D) tuzda har xil mexanik organik va noorganik qo'shimchalar bo'lmasligi zarur.
- E) namlik ekstra assorti osh tuzida 0,5 dan 6% gacha bo'lisi kerak.

Konservalash uchun ishlatiladigan tuz tarkibida gips, kaltsiy xlorid yoki magniy xlorid bo'lmasligi kerak, chunki bu moddalar suvning qattiqligini oshirib konservalangan mahsulot sifatini pasaytiradi. Xuddi shuningdek, sirka kislotaga ham ma'lum talablar qo'yiladi. Ishlatishdan oldin solishtirma og'irligi, umumiyl kislotaligi mineral kislotalar yo'qligi, og'ir metall, qaxrabo kislotasi va aldegidlar bor yo'qligi

tekshirishlishi lozim. Konservalashda ishlatiladigan har qanday modda sifat jihatidan bir qator talablarga javob berishi zarur. Ulardank: namlik, rangi, mazasi, tozaligi va hokazolar.

### 1-ISH. OSH TUZINING NAMLIGINI ANIQLASH

Kerakli asboblar va reaktivlar:

Quritish shkafi. Analitik tarozi. Kolba. Voronka. Tuz namunasi.

Ishning bajarilishi:

Unchalik katta bo'limgan tagi tekis kolbaga voronka qo'yilib, quritish shkafida quritiladi vasovugandan keyin analitik tarozida tortiladi. Keyin kolbaga 10 g osh tuzining o'rtacha namunasidan olinadi va voronka bilan tarozida tortiladi. Quritish quritish shkafida 140-150°С haroratda olib boriladi. Quritish doimiy og'irlikka erishguncha davom etadi. Birinchi quritish bir soat davom etadi, keyingilari har 30 minutdan keyin og'irliklari o'rtasidagi farq 0,001 g dan oshmagan holda olib boriladi.

Namlikning miqdorlari foiz hisobida quyidaga formula orqali topiladi:

$$X = \frac{(a - e) \cdot 100}{c}$$

a - quritishgacha bo'lgan kolba voronkalarining osh tuzi bilan birligdagi og'irligi, g;

v - kolba, voronkaning tortish bilan qurishidan keyingi og'irligi, g;

s - quritishgacha bo'lgan tuzning og'irligi, g hisobida.

### 2-ISH. SIRKA KISLOTASINING SIFATINI ANIQLASH

Kerakli asboblar va reaktivlar:

Piknometr. Gidrostatik tarozi. Quritish shkafi. Suv hammomi. 100ml, 500ml li o'lchov kolbalari. Farfor kosacha. Bioks. Pipetka. Bioretka. Sirka essentsiyasi. 0,1 n ishqor eritmasi. Margantsovka eritmasi. Indikator metilfenolyat. Sulfat kislotaning normal eritmasi. Ammiak. Kaltsiy xlorid. Vodorod sulfitli suv. Fuksinsulfat kislotasi.

### SOLISHTIRMA OG'IRLIGINI ANIQLASH.

Sirka kislotasining solishtirma og'irligi piknometr yoki gidrostatik tarozi yordamida aniqlanadi.

### UMUMIY KISLOTALARINI ANIQLASH.

Sirka essentsiyasining kontsentratsiyasini aniqlash uchun yaxshi yopiladigan bioksga 5 g tortib olinib, o'lchov kolbasida 500 ml gacha suoltiriladi. Keyin alohida 25 ml dan olib 0,1 n ishqor eritmasi bilan fenolftalein indikatori ishtirokida titrlanadi.

Sirka kislotasining foiz hisobidagi miqdori quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = \frac{a \cdot 0,006 \cdot 500 \cdot 100}{25 \cdot e}$$

a - 25 ml sirka kislotasi eritmasini neytrallash uchun ketgan 0,1 n ishqor eritmasining mikdori, ml;

v - sirka kislotasi og'irligi, g.

Sirka kislotaning kontsentratsiyasini aniqlash pipetka yordamida 10 ml sirka olib, 100ml o'lchov kolbasida suoltirib, eritilan 25 ml ni yoqoridagidek titrlash mumkin. Topilgan sirka kislotasining hajmi foiz miqdorini og'irlikka aylantirish uchun foiz sonini sirkaning solishtirma og'irligiga bo'linadi.

### SIRKA KISLOTASINI ANIQLASH.

Ekstrakt miqdorini aniqlash uchun 25 ml analiz qilinayotgan sirka kislotasi, tortilgan chinni kosachaga solinadi va suv hammomida bug'lanriladi, kuritish shkafida 80-100°С da doimiy og'irlikka erishguncha quritiladi, xamda tortiladi.

### SIRKA ESSENTSIYASINING TOZALIGINI TEKSHIRISH.

Buning uchun 5 ml sirka essentsiyasi suv bilan 2 marta suoltiriladi, 1 ml margantsovka qo'shiladi, margantsovka rangi 10 minutdan keyin yo'qolishi kerak.

### SIRKADA MINERAL KISLOTALAR BORLIGINI ANIQLASH.

Buning uchun 20 ml tekshirilayotgan sirka essentsiyasiga 4-5 tomchi metilfenolyat indikatorining suvli eritmasidan qo'shiladi. Keyingi toza sirka kislotasi eritmasi bilan ranglar

taqosslanadi. Agar unchalik ko'p bo'lмаган mineral kislotalar bo'lsa, metilfenolyat xavo rang, ko'p miqdorda bo'lsa, yashil rang beradi.

#### **QAXRABO KISLOTASINI ANIQLASH.**

Sirka kislotada qaxrabo kislota borligini aniqlash uchun 20 ml sirka ammiak bilan neytrallanadi va kaltsiy xlorid eritmasi qo'shiladi. Agar oq cho'kma paydo bo'lsa, qaxrabo kislotaning kaltsiyli tuzi cho'kmaga tushadi.

#### **ALDEGIDLARNI ANIQLASH.**

Aldegidlarni aniqlash uchun 20 ml sirka sulfit angidrid gazi bilan rangsizlantirilgan fuksin qo'shiladi. Qizil siyoh rangining hosil bo'lishi aldegid borligidan darak beradi.

#### **OG'IR METALLARNI ANIQLASH.**

Sirka kislotada og'ir metallar borligini aniqlash uchun 20 ml sirka kislotaga shuncha miqdorda vodorod sulfidli suv quyiladi. Sulfit tuzlar hosil bo'lishi natijasida cho'kma hosil bo'ladi.

#### **3-ISH. QAND VA ZIRAVORLARNING SIFATINI BAHOLASH**

Kerakli asboblar va reaktivlar:

Polyarimetr. Kalorimetrik. Sekundomer. Saxarometr. Mis. Tur. Termometr. 50 g kand. 165x100mm ulchamli stakan. Feling suyoqligi.

Qand va ziravorlarning mazasi, ta'mi, tashqi ko'rinishi, hidi va boshqalar organoleptik yo'l bilan aniqlanadi. Qand mevali, sabzavotli murrabolar, povidlo va sharbatlar tayyorlashda ishlataladi. Kontsentratlangan eritmasi yaxshi antiseptik hisoblanadi.

Ishning bajarilishi:

Qandning tozaligini tekshirish uchun 25 g shakar 100 ml issiq distillangan suvda eritiladi. Sovutilgan qand eritmasi GOST -22-40 yoki GOST 21-40 talabiga javob berishi zarur. Qandning suvda erish muddatinnani aniqlash maqsadida balandligi 165 mm ga, eni 100 mm bo'lgan stakanga misdan yasalgan to'r osiladi, bu to'r stakan tubidan 12 mm masofada joylashishi kerak.

Stakanga 20 g gacha isitilgan suv stakan ostki qismiga 20 ml qolguncha to'ldiriladi. Keyin kubik holdagi qand ostita sekundomer bilan erish vaqtiga o'lchanib boriladi. SHunday xol 5 marta qaytariladi. Har safar suv solinadi va qand joylanib o'lchanadi. Olingan natijaning o'rtacha arifmetik qiymati topiladi.

#### **QANDNING NAMLIGINI ANIQLASH.**

10 g shakarni yoki qandni maydalab, quritish yo'li bilan qandning namligi aniqlanadi. Tortib olingan shakar yoki qand, og'zi qopqoqli bo'lgan bioksda avval 50-60°S da, keyin 105-110°S da quritiladi. Qanddagagi namlik % hisobida quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = \frac{(a - e) \cdot 100}{a}$$

a - analiz uchun olingan shakar og'irligi, g;

v - doimiy og'irlikkacha quritilgan shakarning og'irligi, g.

#### **INVERSIYALANGAN SHAKARNI ANIQLASH.**

Sifat reaktsiyasi yordamida invertlangan shakarning borligiga ishonch hosil qilish mumkin. Buning uchun probirkaga 15 ml Feling suyoqligi olinib, 10 ml qandli eritmadan qo'shiladi, chayqatilib, 3 minut qaynatiladi. Agar mis oksidining qizil cho'kmasi paydo bo'lsa, invertlangan qand borligidan darak beradi.

#### **SAXAROZNING MIQDORINI ANIQLASH.**

Saxarozning miqdorini aniqlash uchun qand gidrolizlanadi, keyin permanganatlil usulda aniqlanadi. Agar laboratoriyyada polyarimetr bor bo'lsa, aniqlash optik usulda bajariladi, aniqlashda kam vaqt sarf bo'ladi.

Polyarimetrdagi aniqlash uchun maydalangan qand voronka orqali 100ml o'lchov kolbasiga o'tkaziladi (6-rasm). Maydalab, tortilgan qand namunasiga 7/8 qismgacha suv solinadi va eritma aralashtiriladi. Keyin kolba 20 minut 20°S haroratli suvda saqlanib, kolba belgisigacha distillangan suv bilan to'ldiriladi va saqlanib, kolba filtrlanadi. Filtrlashda eritma kontsentratsiyasi o'zgarmasligiga e'tibor berilishi kerak. Filtrat polyarimetrdagi aniqlanadi.

Saxarometr xam saxarozaning izlanayotgan qand moddasining foiz miqdorini ko'rsatadi, olingan natija formula asosida quruq moddaga hisob qilinadi.

$$X = \frac{P \cdot 100}{100 \cdot \epsilon}$$

R- saxarometrning ko'rsatkichlari

v- qanddagi namlikning foiz hisobidagi miqdori.

#### SHAKARNING RANGINI ANIQLASH.

SHakarga har xil organik moddalar sarg'ish rang beradi. SHakardagi sariqlikni aniqlash uchun maxsus ishlatiladigan kalorimetrdan foydalilanadi. SHakarning rangi -650 g shakar va 100 ml sariq rangli shishalar bilan solishtiriladi. Agar shakarning rangi 100ml sariq rangli shisha rangiga mos bo'lsa, me'yordagi rang hisoblanadi. Ranglik 100 raqami bilan belgilanadi. Me'yordagi shakarning rangligi quyidagi nisbatda bo'ladi:

$$I^0 = \frac{100}{100}$$

SHakar eritmalarining rangliligi quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = \frac{I^0 \cdot 100}{M}$$

P - shishadagi me'yor (1/4, 1/2, 1/3)

M - asbob shkalpasidagi ko'rsatkich.

#### ZIRAVORLAR

Ziravorlar oziq-ovqatlarga maza, aromat, xid beruvchi vosita sifatida ishlatilib, ular tarkibida uchuvchan efir moylari yoki achchik moddalarni saqlaydi. Hamma ziravorlar mevalarning urug'i, po'stlog'i, ildizi, bargi va boshqa qismlardan iborat.

#### ZIRAVORLAR SIFATINI ANIQLASH.

20-50 g og'irlidagi o'rtacha olingan namuna shisha bankaga joylanib, og'zi qopqoq bilan yopiladi. Ularning sifatini organoleptik, mikroskopik va kimyoviy usullarda aniqlash mumkin. Organoleptik kuzatish orqali mahsulotning mazasi, hidi va tozaligini aniqlash mumkin. Bunday kuzatishni bajarish uchun ziravor oq, yaltiroq qog'oz ustiga յопqa qatlamda yoyiladi va kuzatiladi. Maydalangan ziravorlardagi ifloslik yoki qo'shimchalarni ko'rish uchun lupadan foydalilanadi. Mikroskopik kuzatishda tekshirilayotgan mahsulotdagi qo'shimchalar mikroskop bilan ko'rildi.

Kimyoviy aniqlashda ziravorlar tarkibidagi kletchatkalar, kraxmal, mineral moddalar, efir moylarining miqdori aniqlanadi. Efir moylari va qoldiq, kul miqdori ziravorlarning eng muhim ko'rsatkichlaridir.

Texnik sharoitda u juda qat'iy me'yoranadi.

### *15-laboratoriya ishi*

## **SUV VA KO'PIK MODDALAR MIQDORINING O'ZGARISHINI O'RGANISH**

Ishning maqsadi: mahsulotlar tarkibidagi moddalar miqdorining birlamchi qayta ishlashda yoki issiqlik ta'sirida o'zgarishini o'rganish.

#### NAZARIY QISM

Mahsulotlardagi suv va quruq moddalar miqdori birlamchi qayta ishlashda va issiqlik ta'sirida o'zgaradi.

Donli mahsulotlar xo'llanganda yoki юvilganda, suvni юtib o'zining og'irligini oshiradi. Hayvon mahsulotlarida (go'sht, baliq) sovutish jarayonida ma'lum miqdor namlikni yo'qotadi, yo'qotilgan namlik miqdori qator omillarga bog'liq bo'ladi. Jumladan, bo'laklar kattaligiga ham bog'liqdir. Issiqlik ta'sirida qayta ishlashda

yoqori molekulyar moddalar kolloid holatining o'zgarishi natijasida ozuqa mahsulotlari namlikni yo'qotishi yoki yotishi mumkin. Makaron mahsulotlari esa issiklik ta'sirida hajmi va og'irligi oshadi. O'simlik mahsulotlarini birlamchi qayta ishlash, yovish yoki dullash jarayonida (kartoshka, ildizmevalar) eriydigan quruq moddalarning yo'qotilishi kuzatiladi. Donli o'simliklar bunday sharoitda asosan uglevodlar, mineral va azotli moddalarni yo'qotadi. Tozalangan kartoshka bo'laklar suvga solinganda, minerallar azotli birikmalarni kraxmalga qaraganda ko'proq yo'qotadi. Eriydigan quruq moddalar yo'qotilishi kartoshka suvda saqlanganda, uning bo'laklari katta-kichikligiga bog'liq. O'simlik mahsulotlari qizdirish va namlik ta'sirida eriydigan moddalarni yo'qotishi, mahsulotning kimyoviy tarkibi bilan aniyanadi.

Hayvon mahsulotlari (go'sht, baliq) issiqlik ta'sirida eriydigan moddalarni va yog'ni yo'qotadi.

#### 1-ISH. KARTOSHKASI SUVDA ISHLANGANDA MAYDALANGANLIK DARAJASINING ERIYDIGAN QURUQ MODDALAR YO'QOTISHIGA TA'SIRI

Xom sabzavotlar suvda saqlanganda faqat mexanik ta'sirlangan hujayrada erigan moddalar suvga o'tishi mumkin. Butun hujayraning sirtqi qobig'i protoplazma, membrana bo'lib, eruvchan moddalarning suvga o'tishiga yo'l qo'yaydi.

Ishning maqsadi: kartoshka suvda saqlanganda maydalanish darajasining eruvchan moddalar yo'qotishiga ta'sirini o'rGANISH.

Asboblar va idishlar:

Refraktometr. RPL-2. 2 ta 250 ml li stakan. 2 ta 100 ml li konussimon kolba. 2 ta voronka.

Ishning bajarilishi:

Uch dona kartoshkani tozalab, har birini simmetrik ikkiga bo'linadi. Uchta yarimalik kartoshkalar tortilib, hajmi 250 ml li stakanga solinadi, o'lchov tsilindriga 200 ml distillangan suv solinib, kartoshka ustiga quyiladi. Suv kartoshka bo'laklarini qoplashi lozim.

Ketgan suv miqdori yozib qo'yiladi. Uchta kartoshkaning boshqa bo'lagini 10x10 ml qilib kesilib, stakanga solinib, shuncha miqdorda distillangan suv solinadi. Stakanlar soat oynalari bilan yopilib, ikkala namuna xam 30 minut saqlab qo'yiladi. Oxirida suyoqliklar yaxshilab chayqatilib, 5 minut saqlab qo'yiladi. Keyin har bir suyoqlik qog'oz filtr bilan quruq konussimon 100 ml li kolbaga filtrlanadi. Har bir suyoqlikdagi quruk moddalar miqdori refraktometr bilan aniqlanadi. Kartoshkadan ajralgan suvda eruvchan moddalar miqdori quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$X = \frac{a \cdot v}{b}$$

v - olingan distillangan suv hajmi, ml;

v - kartoshka og'irligi, g;

a - quruk modda miqdori. Haroratga tuzatish kiritilgan..

#### 2 - ISH. ANTOTSIANLAR RANGINING UZGARISHIGA MUXIT REAKTSIYASINING TA'SIRINI URGANISH

Ishning maqsadi: antotsianlar rangining sezilarli darajada o'zgarishdagi muhitning rN qiymatini aniqlash.

##### NAZARIY QISM

Ko'pgina mevalar va rezavor mevalarning rangi ularda suvda eriydigan pigment antotsianlar borligi bilan belgilanadi. Bu guruh moddalariga har xil ranglar (qizil, siyoh, ko'k, sarg'ish) taalluqli. Antotsianlarning rangi muxit reaktsiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Mevalar xujayralari sharbatining rN qiymati neytral yoki kuchsiz ishqoriy tomonga o'zgarishi noxush hisoblanadi.

Kerakli asboblar, idishlar va reaktivlar:

Laboratoriya LP-5 rN metri. Termometr. 2 ta 100 ml li kimyoviy stakan. 5 ml li pipetka. 0,1 n o'юvchi natriy eritmasi.

Ishning bajarilishi:

Bu ishni bajarish uchun sharbatlari antotsianlar bilan bo'yalgan mevalar yoki rezavor mevalar: gilos, qora smorodina va karolidan foydalanish mumkin. Ikkita stakanga 5 ml dan sharbat quyiladi.

Stakanlarning bittasiga sekinlik bilan tomchilatib 0,1 n o'юvchi natriy eritmasidan tabiiy rang o'zgargancha qo'shiladi. SHarbatning birinchi va ikkinchi stakandagi rangi belgilanadi. Keyin tabiiy va rangi o'zgargan sharbatning rN qiymati aniqlanadi. Rangli suyoqliklar muxitining rN qiymatini o'lchash uchun LP-5 rN metri tavsiya etiladi. Stakandagi suyoqlik xajmini distillangan suv bilan suioltilish orqali oshirish mumkin (xajmining 10 barobargacha oshishi muxit rN qiymatiga ta'sir qilmaydi). Antotsianlar rangi rN ning qanday qiymatida o'zgarishi aniqlanib, ish юzasidan xulosa qilinadi.

### ***16-laboratoriya ishi***

#### **KONSERVANTLARNI ANIQLASH USULLARI**

Ishning maqsadi: meva-sabzavotlardagi konservantlar - sorbin va sulfit kislotalar, sulfit angidrid miqdorlarini aniqlash usullarini o'rghanishdan iborat.

##### **NAZARIY QISM**

Meva-sabzavotlarni konservalashda konservantlar deb ataluvchi kimyoviy birikmalar ishlatalidi. Ularning miqdori standart asosida belgilanadi. Tabiiy konservalovchi moddalarga shakar, spirt, sut va sirka kislotalarini misol qilishimiz mumkin. Bulardan tashqari ko'p xollarda boshqa moddalar: sulfit kislota eritmasi va tuzlari, benzoy kislotasi va benzoy kislotasini natriyli tuzi (0,16% gacha), ayrim hollarda chumoli kislotasi (NSOON-0,15-0,25%) va paraxlorbenzoy kislota (Sb№S1SOO) ishlatilishi mumkin.

Konservalash sanoatida eng muxim kasb etgan konservant sulfit angidrid ( $\text{SO}_2$ ) va sulfit kislotadir ( $\text{Na}_2\text{SO}_3$ ). CHunki sulfit angidrid bilan konservalangan mahsulot qo'llanilishidan oldin qizdirish yo'li yoki boshqa usullar bilan desulfatlanishi mumkin. Sulfit angidridning ko'p bo'limgan miqdorini sifat reaksiyasini yordamida aniqlash mumkin. Buning uchun tekshirilayotgan mahsulot suv bilan aralashtirilib, ozgina fosfat kislota bilan kislotali xolga keltiriladi va qizdiriladi. Agar sulfat angidridning hidi paydo bo'lsa yoki yodli qog'ozning rangsizlanishi kuzatilsa, sulfit kislota borligi ma'lum bo'ladi.

**1-ISH. SORBIN KISLOTASI MIQDORINI ANIQLASH** Kerakli asboblar va reaktivlar:


Ajratuvchi voronka. Suv hammomi. 50 ml, 100 ml li kimyoviy stakanlar. 100 ml va 200 ml li o'lchov kolbalari. Bioretka. Meva shirasi yoki maxsulotning suvli eritmasi. 25 % li  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi. Dietil efiri. Vodorod peroksid ( $\text{H}_2\text{O}_2$ ). 0,5 mol/dm<sup>3</sup> natriy hidroksid ( $\text{NaOH}$ ). 0,02 mol/dm<sup>3</sup> kaliy bromat ( $\text{KBrO}_3$ ). Kristall xoldagi kaliy bromid ( $\text{KBr}$ ). Kristall holdagi kaliy yodid ( $\text{KI}$ ). Natriy tiosulfatning kraxmalli eritmasi.

Ishning bajarilishi:


Sorbin kislotasi molekulasi tuzilishida ikkita qo'shbog' bo'lib, uning miqdorini nazorat qilish bromning birikish reaksiyasiga asoslangan. Mahsulotdagi sorbin kislota miqdori reaksiyadan oldin qo'shilgan bromning va reaksiyaga kirishgandan keyin qolgan bromning miqdorini hisoblash yo'li bilan topiladi.

Ajratgich voronkaga 10 sm<sup>3</sup> maxsulotning suvli eritmasi yoki meva suvi solinadi va 25% li  $\text{Na}_2\text{SO}_4$  dan 10 sm<sup>3</sup> qo'shiladi xamda 5 sm<sup>3</sup>  $\text{H}_2\text{O}_2$  dan solinadi (5-rasm). Vodorod peroksidni qo'shishdan maqsad bromga birikadigan moddalarni ajratishdir. SHundan keyin dietil efiri qo'shilib, 5 min chayqatiladi. Suvli eritma boshqa ajratgich voronkaga solinadi va yana 10 sm<sup>3</sup> efir solib chayqatiladi. Efirlari ekstraktlar birga qo'shilib, 10 sm<sup>3</sup> KOH (0,5 mol/dm<sup>3</sup>) solinadi va chayqatiladi. Bunda sorbin kislota natriyli tuz xoliga o'tadi.

Ishqorli eritma stakanga solinib, efirli ekstrakt qaytadan  $10 \text{ sm}^3 \text{ Na}_2\text{SO}_4$  eritmasi bilan chayqatiladi. Efir qoldig'i  $\text{H}_2\text{O}_2$ ni va ishqoriy ekstraktni ajratish uchun ular birga 20 min qaynoq suv xammomida qizdiriladi. Stakandagi qoldiq sovutilib,  $100 \text{ sm}^3$  li o'lchov kolbasigao'tkaziladi va belgisigacha distillangan suv bilan to'ldiriladi.  $20 \text{ sm}^3$  ishqorli eritma kolbaga solinib, ustiga  $80 \text{ sm}^3$  distillangan suv qo'shiladi, og'zi shisha tiqin bilan yopiladi. Kolbada  $0,3 \text{ g}$  kristall xoldagi  $\text{KBr}$   $12 \text{ sm}^3$  (1:1) eritilgan sulfat kislotada eritilib børetkadan  $10 \text{ sm}^3 \text{ KBrO}_3$  eritmasi qo'shiladi. Kolba yopilib, 15 min korong'i joyda saqlanadi. Keyin kolbaga  $0,3 \text{ g}$  kristall xoldagi  $\text{KJ}$  qo'shiladi. Reaktsiya tenglamasi kuyidagi ko'rinishda boradi:



Qoldiq brom kaly yodid eritmasidan yodni siqib chiqaradi.



Йод  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_3$  нинг крахмалли еритмаси билан тайёрланади.  $\text{J}_2 + \text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_3 = 2 \text{Na J} + \text{Na}_2\text{C}_4\text{O}_4$

Sorbin kislotasining % hisobidagi X og'irlilik qismi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$X = \frac{0,7 \cdot 100 \cdot (\nu_1 \cdot k_1 - \nu_2 \cdot k_2)}{20 \cdot 1000 \cdot m}$$

$\nu_1, \nu_2$  —  $\text{K Br O}_3$  va  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  larning xajmi,  $\text{sm}^3$ ;

$k_1, k_2$  — tuzatuvchi koeffitsient;

0,7 — sorbin kislotaning og'irlilik miqdori,  $\text{mg/sm}^3$   $\text{K Br O}_3$  eritmasida; 100 — ekstraktning xajmi,  $\text{sm}^3$ ;

m — maxsulotning tortib olingan og'irligi, g;

20 — analiz uchun olingan ekstrakt xajmi,  $\text{sm}^3$ .

Sorbin kislotasini spektrofotmetrik usulda xam aniqlash mumkin. Lekin spektrofotometr yo'q bo'lган vaqtida юqoridagi usuldan foydalaniladi.

## 2-ISH. SULFITLANGAN MEVA-SABZAVOTLI YARIM TAYYOR MAXSULOTLARDA SULFIT KISLOTA MIQDORINI YODOMETRIYA USULIDA ANIQLASH

Kerakli asboblar va reaktivlar:

1. Børetka.
2. 100, 200, 250 ml li o'lchov kolbalari.
3. Farfor kosacha.
4. Sulfat kislotasi (1:3).
5. Normal ishqor eritmasi.
6. Kraxmal eritmasi.
7. 0,01 n yod eritmasi.
8. 5-10 g maxsulot namunasi.

Ishning bajarilishi:

Farfor kosachaga 5 g tekshirilayotgan maxsulot namunasi olinadi. Maxsulotni mumkin qadar kam miqdordagi suv iblan юшиб, xajmi 200 ml-li kolbaga solinadi, ustiga 25 ml normal ishqor eritmasidan quyilib, kolba tiqin bilan berkitiladi va chayqatilib, 15 min tinch quyiladi. Keyin 10 ml 1:3 nisbatdagi sulfat kislotasi eritmasi, 1 ml kraxmal eritmasi solinadi va 0,01 n yod eritmasi bir necha sekundgacha saqlanadigan ko'k rang paydo bo'lguncha titrlanadi. Xisob quyidagi formula asosida bajariladi:

$$X = \frac{(b - c) \cdot 0,00032 \cdot 100}{a}$$

Bu erda X — sulfit angidridning % hisobidagi miqdori.

b — sulfitlangan mahsulotni titrlash uchun sarflangan 0,01 n yod eritmasi hajmi, ml;

s — suv va reaktivlarni titrlash uchun sarflangan 0,01 n yod hajmi, ml;

a — tekshirish uchun olingan maxsulot og'irligi, g.

## MUSTAQIL BAJARILADIGAN ISHLAR

Talabalarning ma’ruza va amaliy mashg’ulotiga tayyorlanib kelishi va o’tilgan materiallarni mustaqil o’zlashtirishlari uchun kafedra o’qituvchilari tomonidan ma’ruza matnlari ishlab chiqilgan, har bir talabaga ushbu materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Talabaning fanni mustaqil tarzda qanday o’zlashtirganligi joriy, oraliq va yakuniy baholashlarda o’z aksini topadi. Shu sababli reyting tizimida mustaqil ishlarga alohida ball ajratilgan bo’lib, ular JB, OB lar tarkibiga kiritilgan.

Mustaqil ish uchun fan bo’yicha \_\_\_ ball ajratilgan bo’lib, u \_\_\_ soatni tashkil etadi.

Amaliy mashg’ulotda talabalar mustaqil holda asosiy darslik, ma’ruza materiallari va uslubiy qo’llanmalardan foydalanib, tayyorgarlik ko’rishlari lozim.

Qoldirilgan darslarni topshirish uchun talaba dars materialini tayyorlab kelishi va o’qituvchining og’zaki suhbatidan o’tishi zarur. Qoldirilgan ON va YaN lar belgilangan tartib bo’yicha topshiriladi.

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning hususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik, o’quv qo’llanmalar va elektron o’quv uslubiy majmualar bo’yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
- tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruzalar qismini o’zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo’yicha fanlar bo’limlari yoki mavzulari ustida ishlash va referat xamda konspektlar tayyorlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o’rganish;
- kompyuter texnologiyalari tizimlari bilan ishlash;
- talabaning o’quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fanlar bo’limlari va mavzularini chuqur o’rganish;
- interaktiv va muammoli o’qitish jarayonida faol qatnashish;
- masofaviy (distansion) ta’lim;
- reyting baholashga tayyorlanish;

### **Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:**

1. Go’sht mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida nazoratni tashkil etish.
  2. Go’sht tarkibini bakterioskopik usul bilan aniqlash
  3. Go’sht sifatini aniqlash, ularning kategoriya va navlarga bo’linishi
  4. Sut ishlab chiqarish jarayonida texnik-kimyoviy nazorat o’rni.
  5. Sut oqsili, qandi, mineral tuzlari, vitaminlar, kislotalar va uning xossalari.
  6. Sutning ivish davomiyligini sut ivituvchi fermentlar orqali tekshirish
- Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:
7. Dasrlik va o’quv qo’llanmalar bo’yicha fan boblari va mavzularini o’rganish;
  8. Tarqatma materiallar bo’yicha ma’ruzalar qismini o’zlashtirish;
  9. Avtomatlashtirilgan o’rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
  10. Talabaning o’quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog’liq bo’lgan fanlar bo’limlari va mavzularini chuqur o’rganish;
  11. Masofaviy (distantsion) ta’lim.

## GLOSSARIY

Atamaning nomlanishi			Atamaning ma'nosi
O'zbek tilida	Ingliz tilida	Rus tilida	
<b>Antibiotiklar</b>			organizmlar hayot faoliyatining maxsus maxsuloti yoki ularning modifikatsiyasi, ayrim mikroorganizmlarga (bakteriyalar, zamburug'lar, suv o'tlariga, sodda hayvonlarga) viruslarga va boshqalarga nisbatan yoqori fiziologik faollikka ega bo'lgan, ularning o'sishini to'xtatadigan yoki taraqqiyotini butunlay yo'qotadigan moddalardir.
<b>Bioz</b>			mahsulotlar barra (svejiy) yoki hayvonlarni tirik holda saqlash tushuniladi.
<b>Anabioz</b>			yashirinchcha hayot qonuniyati tushuniladi. Mahsulotda bu holatda biologik jarayonlar butunlay yoki kisman to'xtagan bo'ladi. Hujayrada modda almashinuv jarayoni susayadi va shu bilan birga mikroorganizmlar faoliyati ham to'xtaydi. Lekin ular nobud bo'lmaydi. Qulay sharoit tug'dirilganda mikroorganizmlar tezda rivojlanadi. Anabioz havo temperaturasi pasaytirilib, mahsulot quritilib, mahsulot xujayrasidagi osmotik bosim o'zgartirilib, kislotali muhit hosil qilinib va maxsus anestezik moddalar qo'llanib yaratiladi.
<b>Abioz</b>			mahsulotni saqlashda hech qanday hayot asoratlarini bo'lmasligi nazarda tutiladi. Ushbu tamoyilni o'z navbatida bir necha xil variatsiyalari mavjud. Ba'zi holda butun mahsulot o'lik holga kelib, steril holdagi organik massaga aylanadi, ba'zan esa uning tarkibidagi yoki iozasidagi mikroblar, o'zga jonivorlar o'ldiriladi.
<b>Mikrobiologik usulda konservalash</b>			meva va sabzavotlarni bu usulda konservalash tabiiy konservantlarga sut kislotasi, spirtlardan foydalanishga asoslangan. Sabzavotlarni tuzlash, olmani xo'llash va uzumdan vino olish keng qo'llaniladi
<b>Inspeksiya</b>			xom ashyo ko'zdan kechirilib,

			tarkibidagi qayta ishlash uchun yaroqsiz hisoblangan qismlar (zaxaurilgan, mog'orlangan, noto'g'ri shakldagi, etilmagan va hoqazo) ajratiladi.
<b>Blanshirlash</b>			bu termin frantsuzcha so'zdan olingan bo'lib, oqartirish ma'nosini bildiradi. Qayta ishlashga tayyorlashda sabzavot va mevalarni qisqa muddatga qaynab turgan suv yoki bug' bilan ishlanishi blanshirlashdeb yoritiladi. Blanshirlash jarayonida oksidlanishda qatnashuvchi fermentlar (peroksidaza va katalaza) parchalanadi. SHu bilan birga oshlovchi moddalarning tarkibi va miqdori keskin o'zgaradi. Ma'lumki, oshlovchi moddalar havoda oksidlanganida flobafen deb ataladigan to'q rangga kiradi. Blanshirlash natijasida oshlovchi moddalarning oksidlanishiga sabab bo'ladigan fermentlar parchalanadi va xom ashyo quritilganda ularning rangi o'zgarmaydi.
<b>Defekt mahsulot</b>			mahsulotni joriy qilingan talablarga javob bermagan har bir ko'rsatgichi shu mahsulotning defekti hisoblanadi va agar mahsulotda bittagina defekt topilsa ham bunday mahsulot «defekt mahsulot» deyiladi.
<b>Aniq defekt</b>			aniqlash uchun me'yoriy xujjalarda uni aniqlash qoidalari, uslublari va vositalari keltiriladi. Aniq defekt, odatda ko'zga ko'rinarli bo'lib, taxminiy aniqlaniladi.
<b>YAshirin defekt</b>			aniqlash uchun me'yoriy xujjalarda uni aniqlash qoidalari, uslublari va vositalari keltirilmagan. Ular mahsulotni sifatini buzganliklari bilan namoyon bo'ladilar.
<b>O'ta aniq defekt</b>			bunday sifat o'zgarish yozaga kelganda mahsulotni ishlatib bo'lmaydi va zararli hisoblanadi (konservalardagi bombaj ).
<b>Sezilarli defekt</b>			bunday defekt mahsulotni maqsadga muvofiq qo'llashga yoki uni saqlashga ta'sir ko'rsatadi, lekin u o'ta aniq defektdagi kabi mahsulotni yaroqsiz holga keltirmaydi (

			mahsulotni mexanik shikastlanishi, deformatsiyalanishi va h.)
<b>Kam ahamiyatli defekt</b>			mahsulotning qo'llanilishiga va saqlanishiga ta'sir ko'rsatmaydi. Masalan: meva va sabzavotlar rozasidagi sezilarsiz qirilishlar, kattaligi, shakli va rangini me'yoriy ko'rsatgichdan farqlanishi va xokazo
<b>Bartaraf qilinadigan defekt</b>			bartaraf qilish texnik jixatdan onson va iqtisodiy jihatdan samaradorli bo'lgan sifat ko'rsatgichlar kiradi. Masalan: metall bankalarning ustki qismini engil zanglashi.
<b>Bartaraf qilinmaydigan defekt</b>			yuzaga kelgan o'zgarishlarni bartaraf qilib bo'lmaydi yoki iste'molga yaroqsiz bo'ladi. Masalan: shisha bankalarni sinishi va xokazolar
<b>Kalibrlash</b>			xom ashyni o'lchami bo'yicha ajratish tushuniladi
<b>Navlash</b>			xom ashyni navlariga qarab ajratish tushuniladi
<b>Qovurish</b>			xom ashylarni issiq o'simlik moyida qovuriladi. Qovurish natijasida xom ashyoning mazasi, hid va tashqi ko'rinishi yoqimli tus oladi; qisman namlik bug'lanib ketishi va mahsulot tarkibiga moy simirilishi natijasida ularning kaloriyaliligi oshadi. Namlik bug'lanishi, oqsil koagulyatsiyalanishi va hujayralararo bo'shliqdan havo chiqib ketishi natijasida mahsulot zichligi oshadi.
<b>Konservalangan birinchi va ikkinchi ovqatlar</b>			Birinchi ovqatlarga borshchlar, shchi, lavlagili sho'rva, namakobbdagi sho'rva, ikkinchisiga – turli solyankalar, sabzavot bilan go'sht, sabzavot bilan qo'ziqorin, karam bilan cho'chqa go'shti va hokazo kiradi
<b>Sabzavotdan tayyorlangan tabiiy konservalar</b>			tabiiy sabzavot konservalaridan salat, vinegret, birinchi va ikkinchi taomlar, go'sht va baliqli ovqatlar uchun garnir sifatida ishlatalishda yarim tayyor mahsulot sifatida foydalaniladi. Bu konservalar bevosita sovuq holda yoki isitilib, yog' bilan yoki yog'siz iste'mol qilinishi mumkin. Ushbu konservalarni ishlab chiqarish uchun

			foydalilanilgan sabzavotga pazandalik ishlovlari berilmaydi, tayyor mahsulot esa dastlabki xom ashyo xususiyatlarini maksimal ravishda saqlab qoladi. Tabiiy konservalar butun yoki kesilgan sabzavotdan ishlab chiqariladi, osh tuzining past kontsentratsiyali eritmasi solinadi, ba'zan qand ham qo'shiladi. Ishqalab maydalangan sabzavot piorelaridan ham tabiiy konservalar tayyorlanadi.
<b>Sharbatni gomogenizatsiyalash</b>			saqlash vaqtida sharbatning qatlamlanishini bartaraf etish maqsadida uni bir jinsli qilish uchun, ya'ni undagi muallaq zarralarni maydalash uchun, u gomogenizatsiyalanadi
<b>Sharbatni deaeratsiyalash</b>			sharbat tarkibidagi havo isitish natijasida yoki mexanik deaeratsiya yordamida chiqarib yoborilishi tushuniladi. CHuqr vakuum ostida deaeratsiyalangan mahsulot tarkibida S vitamini saqlanib qoladi. Mahsulotni qadoqlashdan ilgari isitish natijasida ham shu kabi samaraga erishiladi. SHuning uchun ko'plab zavodlarda tomat sharbati mexanik usulda deaeratsiyalanmaydi.
<b>Tabiiy sharbatlar</b>			biror turdag'i xom ashydandan ishlab chiqariladi. Unga qand, qand siropi, kislota, ranglovchi va xushbo'y qiluvchi, konservalovchi komponentlar qo'shilmaydi. Bu sharbatlardan ichimlik sifatida (olma sharbati, uzum sharbati va h.) yoki alkogolsiz va likyor-aroq sanoatida (olcha sharbati, qora qorag'at sharbati va hokazo.) YATM sifatida foydalilanildi. IOqori kislotali mahsulot sharbatlari faqat chuchuklashtirilgandan so'ng ichish uchun yaroqli hisoblanadi. Tabiiy sharbatlarning turlari – markali sharbatlar xom ashyoning birligina tanlangan navidan (masalan olmaning Rannyaya roza navidan) ishlab chiqariladi. Ushbu sharbatlar ioqori ozuqaviy qimmati, ayniqsa, yaxshi ta'm va xushbo'yligi bilan farq qiladi.

<b>Kupajlangan sharbatlar</b>		ushbu sharbatlar asosiy sharbatga boshqa turdag'i sharbat qo'shilishi (nok-olma sharbati 80:20; olchagilos sharbati 65:35 va h.) yo'li bilan tayyorlanadi. Bir xom ashayoning turli navlarining sharbatlari ham kupajlanadi, masalan, yoqori qandli nav sharbati kam qandli, ammo yoqori kislotali nav sharbati bilan va h.
<b>Qandli sharbatlar</b>		ta'mi yaxshilanishi uchun kislotaliligi baland bo'lgan xom ashayolardan olingan tabiiy sharbatlarga qand yoki qand siropi qo'shiladi. Bunday sharbatlar ichimlik sifatida ishlataladi. Qand etsiz sharbatlarga, sirop esa ichimlik konsistensiyasi hosil qilish uchun etli sharbatlarga qo'shiladi.
<b>Gazlangan (saturatsiyalangan) sharbatlar</b>		gazlangan sharbatlar karbonat angidridi ( $\text{SO}_2$ ) bilan to'yintirish orqali olinadi. $\text{SO}_2$ sharbatga yangiligicha saqlanish xususiyatini beradi, sharbatning tarkibiy komponentlarini oksidlanishdan saqlaydi, uning ozuqaviy qimmatini oshiradi va mikroorganizmlar faoliyatini to'xtatadi
<b>Bijg'itilgan sharbatlar</b>		ushbu sharbatlar uning tarkibidagi qandlarni qisman yoki to'liq bijg'itib etil spirtiga aylantirish yo'li bilan tayyorlanadi. Ular kam alkogolli ichimlik (olma sidri) va YATM sifatida ishlataladi
<b>Quyultirilgan sharbatlar (kontsentratlar)</b>		quyultirilgan sharbatlar tabiiy sharbatlardan namlikning bir qismini bug'latilib olinadi. Suv bilan aralashtirgandan so'ng ichimlik va YATM sifatida ishlataladi. Kontsentratlar uchun kamroq miqdorda tara, ombor, transport kerak, shuningdek, ular tabiiy sharbatlarga qaraganda mikroorganizmlar ta'siriga chidamliroq.
<b>Pasterlangan sharbatlar</b>		germetik tarada ishlab chiqariladi, qadoqlab germetiklangandan so'ng isitilgan
<b>Aseptik konservalangan sharbatlar</b>		ishlab chiqarish jarayonlarida mikroorganizm urug'lari yo'q qilingan, steril sharoitda qadoqlangan

<b>Sovuq saqlanadigan sharbatlar</b>			0–(−2) <sup>0</sup> Sgacha sovutilgan, ushbu temperaturada karbonat angidrid gazi atmosferasida saqlanadigan
<b>Antiseptiklar yordamida konservalangan (etil spirti, sorbin kislotasi, sulfat angidrid, benzoynordon natriy) sharbatlar</b>			likyor-aroq va alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqarish sanoatida yarimtayyor mahsulot sifatida qo'llaniladigan sharbatlar
<b>Etsiz sharbatlar</b>			loyqa, shaffoflantirilmagan va tiniq, shaffoflantirilgan turlarga ajratiladi. Ular meva hujayralarining erimas to'qimalardan ajratilgan sharbati. Tamomila shaffof bo'lishi uchun sharbat maxsus texnologiya asosida tindiriladi va filtranadi. Agar sharbat tiniq bo'lishi shart bo'lmasa, u holda dag'al muallaq zarralarni gidromexanik usulda ajratib olish kifoya qiladi. Etsiz sharbat presslash usuli bilan olinadi. Presslab olingan sharbatning miqdori meva to'qimalarining tuzilishi va mevaga beriladigan dastlabki ishlov texnikasiga bog'liq
<b>Etli sharbatlar (nektarlar)</b>			ishqalab olingan gomogenizatsiyalangan massaga katta miqdorda qand siropi qo'shilgan ko'rinishda ishlab chiqariladi. "Suroq mevalar" etli sharbatlarning turi hisoblanib, o'ta mayin maydalangan va ozroq miqdorda qand siropi qo'shilgan meva massasi hisoblanadi
<b>Povidlo</b>			ishqalangan meva va rezavor massasidan qand qo'shib bug'latib olingan mahsulot. U yangi yoki sulfitlangan xom ashyo yoxud pyure ko'rinishida konservalangan YATMdan tayyorlanadi
<b>Djem</b>			butun yoki kesilgan meva va rezavorlardan qand siropida jele shaklidagi massa hosil bo'lguncha pishirish yo'li bilan ishlab chiqarilgan mahsulot tushuniladi. Tayyor mahsulot tarkibidagi sirop mahsulottan ajralmasligi kerak.
<b>Murabbo</b>			meva va rezavorlardan tayyorlangan, qand yoki qand-patoka siropida pishirilgan mahsulot tushuniladi.

		Meva tayyor mahsulotda ezilmagan, sirop esa quyuq, qovushqoq va jelelanmagan bo'lishi, mevadan sirop oson ajralishi kerak. Murabboda sirop va meva nisbati 1:1 bo'ladi
<b>TSukatlar</b>		mevadan tayyorlangan mahsulot bo'lib texnologik jarayonlar davomida kontsentrlangan qand yoki qand-patoka siropidan to'yintiriladi, namsizlantiriladi, mayda qand siropi sepiladi yoki ustida qand qoplamasi (glazur) hosil qilinadi. TSukat ishlab chiqarish uchun turli urug'li yoki danakli yangi terilgan yoxud sulfitlangan meva, rezavorlar, yashil grek yong'og'i, tsitrus mevalar, yangi yoki tuzlangan qovun va tarvuz po'chog'i xom ashyo bo'la oladi.
<b>Marinad</b>		meva va sabzavotdan tayyorlangan, ustiga sirkali quyilma quyilgan konserva mahsuloti tushuniladi. Quyilma tarkibiga, sirkadan tashqari, tuz, qand va ziravorlar kiradi. Marinad quyilmasi tarkibiga kiruvchi komponentlar kerakli ta'mni ta'minlaydigan tarzda tanlanadi. Sirka kislotosi konservalovchi ta'sirga ega, u aktiv kislotalilikni oshirish hisobiga ta'sir ko'rsatadi

### **«TEXNIK-KIMYOVİY NAZORAT» fanidan umumiylar savollar**

1. Sanitar nazorat funktsiyalari nimalardan iborat?
2. Texnik-kimyoviy nazorat nima?
3. Ishlab chiqarishda texnik nazorat usullarini aytинг.
4. Refraktometriya qanday usul?
5. Refraktometr nima?
6. Quruq moddalar miqdorini qaysi asbob yordamida aniqlash mumkin?
7. Potentsiometriya usulda nima aniqlanadi?
8. rN ni potentsiometrik usul bilan aniqlashni aytинг.
9. Potentsiometrik titplash usulini tushuntiring.
10. Kalorimetriya analizi qanday amalga oshiriladi?
11. Kalorimetrik usul bilan rN qanday aniqlanadi?
12. Indikator dissotsiatsiya konstantasi qanday ifoda orqali aniqlanadi?
13. Quruq moddalar deganda nimani tushunasiz?
14. Quruq moddalarning konservalar sifat ko'rsatkichlari kompleksidagi rolini aytинг.
15. Quruq moddalarni aniqlashning qanday standart usullari mavjud?
16. Standart usullarning qo'llanilish sohalarini aytib bering?

17. Mahsulotning mazali tamini yaratishda organik kislotalarning roli?
18. Mahsulotlarning umumiy va aktiv kislotaliligi nima?
19. Korxona tajriba xonalarida xom-ashyo va tayyor mahsulotning kislotaliligini aniqlashda qanday usullar qo'llaniladi?
  20. Konserva sanoatida osh tuzi nima maqsadda ishlataladi?
  21. Osh tuzini konserva sanoatida ishlatalishda qanday talablar qo'yiladi?
22. Mor usulining mohiyati nimadan iborat?
23. Mahsulotdagi mineral qoldiq yoki kulning umumiy miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
24. Qum, mexanik qo'shimchalar va metallarni aniqlash usulini tushuntiring.
25. 1 kg mahsulot tekshirilayotganda metall qo'shimchalar miqdori qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?
26. Qattiq mineral modda foiz miqdori qaysi ifoda bilan aniqlanadi?
27. Fruktozani aniqlash usulini tushuntiring.
28. Kraxmalni aniqlash usulini tushuntiring.
29. Saxaroza miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
30. Kletchatka miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
31. Konserva tayyorlashda qanday talablar qo'yiladi?
32. Organoleptik baholash?
33. Konservalarga bakteriologik baho berish?
34. Osh tuzi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?
35. Osh tuzi tarkibida namlikni aniqlash formulasi qanday?
36. Sirka kislotasining xajmiy miqdorini og'irlikka qanday aylantirish mumkin.
37. Qandning namligi qanday formula yordamida aniqlash mumkin?
38. Ziravorlar sifatini qanday yo'llar bilan aniqlash mumkin?
39. Maxsulot sifatini baxolashda orgapoleptik usullar qanday ahamiyatga ega.
40. Organoleptik usulda mahsulot sifatini baholashda qaysi sezgi organlari ishtirok etadi?
  41. Degustatsiya qilish qoidalari va sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?
42. Mahsulotning rangi deganda qanday xulosaga egasiz?
43. Konservalangan meva sharbatlaridagi mag'iz qismi, cho'kindi qismini aniqlash haqida tushuncha bering?
44. Konserva mahsulotlari uzoq vaqt saqlanganda yoki termik jihatdan ishlanganda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
45. Oziq-ovqat mahsulotlarining aromatikligi ular tarkibidagi qanday moddalar borligiga bog'liq?
  46. Nima uchun po'sti archilgan kartoshka qorayadi?
  47. Antotsianlar rangini o'zgarishi qanday omillarga bog'liq?
  48. Sharbatlarning muxit reaktsiyasini qanday aniqlash mumkin?
  49. Yog'ning eruvchanligi qanday baholanadi?
  50. Yog'ning zichligi qanday aniqlanadi?
  51. Yog'ning sovunlanish soni qanday aniqlanadi?
  52. Yog'ning yod soni qanday aniqlanadi?
  53. Yog'ning kislota soni qanday aniqlanadi?
  54. S vitamini qanday aniqlanadi?
  55. V<sub>1</sub> vitaminini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
  56. V<sub>2</sub> vitaminini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
  57. R guruhi vitaminlarini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
  58. Sulfit angidridni aniqlashning qaysi usullarini bilasiz?

- 59.Sulfit angidrid qanday formula asosida aniqlanadi?
- 60.Sorbin kislotasini aniqlovchi usullarga tavsif bering.
- 61.Sorbin kislotasi qanday formula asosida aniqlanadi?
62. Konservalashda rezina halqaning plastik va elastik xolatlarining qanday ahamiyati bor?
63. Rezina halqaning kislotalar ta'siriga chidamlilagini qanday aniqlash mumkin?
64. Shisha taralarning mexanik mustaxkamligini va termik barqarorligi deganda nimani tushunasiz?
65. Texnik normativ xujjalarda taralar qanday talablar qo'yiladi?
66. Shisha taralar yoki bankalariing kislota ta'siriga chidamliligi qanday aniqlanadi?

### **«TEXNIK-KIMYOVIY NAZORAT»fanidan TEST SAVOLLARI**

#### **1. Fanning maqsadi:**

- A) Texnikalarning ishlash printsipini o'rganish.  
 B) kimyoviy elementlarni o'rganish.  
 \*V) Maxsulot ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish, ularning sifat ko'rsatkichlarini saqlab qolish  
 G) Korxona ishchilarining nazorati

#### **2. Nazoratni olib borishning nazariy usullari:**

- A) Sanitar nazorat va texnik nazorat  
 B) Veterinar ekspertiza va sanitar nazorat  
 V) Texnik nazorat, sanitar nazorat va veterinar ekspertizasi.  
 \*G) Hammasi to'g'ri

#### **3. Nazoratning funktsiyasiga nimalar kiradi?**

- A) Ichimlik suvi, tara sifatining nazorati  
 B) Xom ashyo sifati, tara, asboblarning joylanish nazorati  
 V) Korxona xodimlarining gigienasi nazorat, ketgan xom ashyo xarajati va tayyor mahsulot miqdorining nazorati  
 \*G) Hammasi to'g'ri

#### **4. Xom ashyo va tayyor maxsulotlarni tekshirishning xajmiy uslublari:**

- A) Oksidlanish-qaytarilish, neytrallash  
 B) Oksidlanish-qaytarilish, titrlash  
 V) Oksidlanish-qaytarilish, sterillash  
 \*G) Oksidlanish-qaytarilish, neytrallash, titrlash.

#### **5. Xom ashyo va tayyor maxsulotlarni tekshirishning fizik usullari:**

- A) Namlikni o'lchash, organoleptik ko'rsatkichlar  
 B) Bakteriyalarni, mikroblarni tekshirish  
 V) Asbob uskunalarining ishlash printsiplarini tekshirish.  
 \*G) Massa, zichlik, qovushqoqlik, elektr o'tkazuvchanlikni o'lchash.

#### **6. Potentsiometriya usulida nima aniklanadi?**

- A) Moddaning zichligi aniqlanadi  
 \*B) Moddaning eritmada metall ionlari bilan hosil qilgan potentsiali aniqlanadi.  
 V) Moddaning eritmada ishqor ionlari bilan hosil qilgan potentsiali aniqlanadi  
 G) Moddaning eritmada tuzlar bilan hosil qilgan potentsiali aniqlanadi.

#### **7. Potentsiometr nimadan iborat?:**

- \*A) Qarshilik, sirpanish kontakti, galvanometrdan iborat.  
 B) Kalit, reduktor, tok o'tkazgichdan iborat  
 V) Elektrod, qarshilik, tok o'tkazgichdan iborat

G) Hammasi to'g'ri

**8.Kalorimetriya analizi nimaga asoslangan?:**

- A) Eritma kontsentratsiyasining intensivligiga asoslangan
- B) Eritma ionlarining erish intensivligiga asoslangan
- \*V) Eritma rangining bo'yалиш intensivligiga asoslangan
- G) Eritmaning pH muhitiga asoslangan

**9.Kislotalilikning turlari:**

- \*A) Umumiy kislotalilik,aktiv kislotalilik,uchuvchan kislotalilik.
- B) Oqori kislotalilik,normal kislotalilik
- V) Uchuvchan kislotalilik,oqori kislotalilik
- G) Neytral kislotalilik,aktiv kislotalilik

**10.Meva sharbatining aktiv kislotaliligi qanday?:**

- A) 1,5 - 2,0
- B) 5 - 5,6
- \*V) 4 - 4,4
- G) 4,5 - 5

**11.Yangi sog'ilgan sutning umumiy kislotaliligi qanday?:**

- A) 10-15\*T
- B) 5-10\*T
- V) 20-23\*T
- \*G) 16-18\*T

**12.Go'shtning aktiv kislotaliligi qanday?:**

- A) 5,8-6,0
- B) 6,0-7,0
- V) 4,0-5,2
- G) 6,2-7,5

**13.Sutning aktiv kislotaliligi qanday?:**

- A) 4,5-5,3
- B) 5,3-6,0
- V) 7,2-8,3
- G) 6,0-6,8

**14.Oziq-ovqat sanoatida osh tuzi nima maqsadda ishlataladi?**

- A) Ta'mini yaxshilash,xushbuy xid berish maqsadida
- B) Konservalash maqsadida
- V) Bakteriyalar ko'payishini oldini olish,uzoq muddat saqlash maqsadida
- \*G) Hammasi to'g'ri

**15.Mahsulot tarkibidagi kraxmal miqdorini aniqlash qaysi usulga asoslangan?:**

- A) Gidroliz hosil qilishga asoslangan
- B) Azot qoldig'ini aniqlashga asoslangan
- \*V) Kraxmalni yod bilan kompleks hosil qilishiga asoslangan
- G) Kraxmalni brom bilan kompleks xosil qilishiga asoslangan

**16.Mahsulot sifatini aniqlash uslublari:**

- A) Bakteriologik,farmatsevtik usul
- B) Potentsiometrik,kalorimetrik usul
- V) Organoleptik, fizik-kimyoviy,fizik,biologik,fiziologik usullar
- \*G) Hammasi to'g'ri

**17.Refraktometrning ishlash printsipi nimaga asoslangan?:**

- \*A) Nurlarning sinish printsipiga asoslangan
- B) Suioq va qattiq jismlarning sinish koeffitsientini o'lchashga asoslangan
- V) Suioq va qattiq jismlarning zichligini o'lchashga asoslangan
- G) Suioq va qattiq jismlarning temperaturasini o'lchashga asoslangan

**18. Viskozimetrda yog'ning qaysi ko'rsatgichi aniqlanadi?:**

- \*A) Qovushqoqligi
- B) Zichligi
- V) Sovunlanish soni
- G) Barchasi to'g'ri

**19. YOg'ning zichligi qaysi asbobda o'lchanadi:**

- A) Viskozimetr, termometr
- B) Refraktometr, barometr
- V) Galvanometr, termometr
- \*G) Piknometr, areometr

**20. Refraktometrda moddaning qaysi ko'rsatkichlari aniqlanadi:**

- A) Zichligi, massasi
- B) yog' va kislotaliligi
- \*V) Namligi va quruq moddasi
- G) Hammasi to'g'ri

**21. Kolbasa mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari qaysi usullarda aniqlanadi?:**

- A) Nitrit va kraxmal miqdorini aniqlash
- B) Namligi va osh tuzini aniqlash
- V) Organoleptik va bakteriologik analiz
- \*G) Barcha usullar to'g'ri

**22. Sut mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari**

- A) Rangi, hidri, mazasi, yog'liligi
- B) Massasi, zichligi, mazasi
- \*V) Organoleptikasi, namligi, yog'liligi, quruq modda miqdori, kislotaliligi
- G) Konsistensiyasi, kislotaliligi, zichligi

**23. Mahsulot quruq moddasini aniqlashning standart usullari:**

- A) Quritish shkafida quritish
- B) Infraqizil nurlanish yordamida quritish
- V) Refraktometr, piknometr yoki areometrda aniqlash
- \*G) Barcha usullar to'g'ri

**24. Qaysi birikmalarning borligi mahsulotga xushbo'y xid beradi:**

- A) Fruktoza, glikoza, amilaza
- B) Ketonlar, spirtlar, yog'lar
- V) Pektin, jelatin
- \*G) aldegidlar, spirtlar, efirlar, aromatik moylar

**25. Oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi konservantlarni aniqlang:**

- A) SHakar, spirt, sut va sirka kislotalari
- B) Kaliy va natriy tuzlari
- \*V) Sulfid angidrid, sorbin kislotosi, sulfit kislotosi
- G) Barchasi to'g'ri

## REFERAT MAVZULARI

1. Sanitar nazorat funktsiyalarini nimalardan iborat?
2. Texnik-kimyoviy nazorat nima?
3. Ishlab chiqarishda texnik nazorat usullarini aytинг.
4. Refraktometriya qanday usul?
5. Refraktometr nima?
6. Quruq moddalar miqdorini qaysi asbob yordamida aniqlash mumkin?
7. Potentsiometriya usulda nima aniqlanadi?
8. rN ni potentsiometrik usul bilan aniqlashni aytинг.
9. Potentsiometrik titrlash usulini tushuntiring.
10. Kalorimetriya analizi qanday amalgalashadi?
11. Kalorimetrik usul bilan rN qanday aniqlanadi?
12. Indikator dissotsiatsiya konstantasi qanday ifoda orqali aniqlanadi?
13. Quruq moddalar deganda nimani tushunasiz?
14. Quruq moddalarning konservalar sifat ko'rsatkichlari kompleksidagi rolini aytинг.
15. Quruq moddalarni aniqlashning qanday standart usullari mavjud?
16. Standart usullarning qo'llanilish sohalarini aytib bering?
17. Mahsulotning mazali tamini yaratishda organik kislotalarning roli?
18. Mahsulotlarning umumiyyatini va aktiv kislotaliligi nima?
19. Korxona tajriba xonalarida xom-ashyo va tayyor mahsulotning kislotaliligini aniqlashda qanday usullar qo'llaniladi?
20. Konserva sanoatida osh tuzi nima maqsadda ishlataladi?
21. Osh tuzini konserva sanoatida ishlatalishda qanday talablar qo'yiladi?
22. Mor usulining mohiyati nimadan iborat?
23. Mahsulotdagi mineral qoldiq yoki kulning umumiyyatini miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
24. Qum, mexanik qo'shimchalar va metallarni aniqlash usulini tushuntiring.
25. 1 kg mahsulot tekshirilayotganda metall qo'shimchalar miqdori qaysi ifoda yordamida aniqlanadi?
26. Qattiq mineral modda foiz miqdori qaysi ifoda bilan aniqlanadi?
27. Fruktozani aniqlash usulini tushuntiring.
28. Kraxmalni aniqlash usulini tushuntiring.
29. Saxaroza miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
30. Kletchatka miqdorini aniqlash usulini tushuntiring.
31. Konserva tayyorlashda qanday talablar qo'yiladi?
32. Organoleptik baholash?
33. Konservalarga bakteriologik baho berish?
34. Osh tuzi qanday sifatlarga ega bo'lishi zarur?
35. Osh tuzi tarkibida namlikni aniqlash formulasi qanday?
36. Sirkalarning xajmiyi miqdorini og'irlilikka qanday aylantirish mumkin.
37. Qandning namligi qanday formula yordamida aniqlash mumkin?
38. Ziravorlar sifatini qanday yo'llar bilan aniqlash mumkin?
39. Maxsulot sifatini baxolashda organoleptik usullar qanday ahamiyatga ega.
40. Organoleptik usulda mahsulot sifatini baholashda qaysi sezgi organlari ishtirok etadi?
41. Degustatsiya qilish qoidalari va sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?
42. Mahsulotning rangi deganda qanday xulosaga egasiz?
43. Konservalangan meva sharbatlaridagi mag'iz qismi, cho'kindi qismini aniqlash haqida tushuncha bering?

44. Konserva mahsulotlari uzoq vaqt saqlanganda yoki termik jihatdan ishlanganda qanday o'zgarishlar ro'y beradi?
45. Oziq-ovqat mahsulotlarining aromatikligi ular tarkibidagi qanday moddalar borligiga bog'liq?
46. Nima uchun po'sti archilgan kartoshka qorayadi?
47. Antotsianlar rangini o'zgarishi qanday omillarga bog'liq?
48. SHarbatlarning muxit reaktsiyasini qanday aniqlash mumkin?
49. YOg'ning eruvchanligi qanday baholanadi?
50. YOg'ning zichligi qanday aniqlanadi?
51. YOg'ning sovunlanish soni qanday aniqlanadi?
52. YOg'ning yod soni qanday aniqlanadi?
53. YOg'ning kislota soni qanday aniqlanadi?
54. S vitamini qanday aniqlanadi?
55. V<sub>1</sub> vitaminini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
56. V<sub>2</sub> vitaminini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
57. R guruhi vitaminlarini aniqlash usullarini ayting, bitta usulini izohlab bering.
58. Sulfit angidridni aniqlashning qaysi usullarini bilasiz?
59. Sulfit angidrid qanday formula asosida aniqlanadi?
60. Sorbin kislotasini aniqlovchi usullarga tavsif bering.
61. Sorbin kislotasi qanday formula asosida aniqlanadi?
62. Konservalashda rezina halqaning plastik va elastik xolatlarining qanday ahamiyati bor?
63. Rezina halqaning kislotalar ta'siriga chidamliligi qanday aniqlash mumkin?
64. SHisha taralarning mexanik mustaxkamligini va termik barqarorligi deganda nimani tushunasiz?
65. Texnik normativ xujjalarda taralar qanday talablar qo'yiladi?  
SHisha taralar yoki bankalariing kislota ta'siriga chidamliligi  
qanday aniqlanadi?

## **INFORMATSION-USLUBIY TA'MINOT**

### **Asosiy adabiyotlar**

1. "Texno-kimyoviy nazorat" uquv-uslubiy majmua. TTKI-2014y. [Elektron nusxa]
2. Juravskaya N.K. Texnoximicheskiy kontrol proizvodstva myasa i myasoproduktov. Uchebnik. -M.:1986.
3. G.N. Krus. Texnologiya moloka i molochno'x produktov. Uchebnik. Moskva«KolosS», 2007.
4. Butikov L.P. Go'sht-sanoat asosida. Darslik. -T.:2001.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Ismoilov T.A., Fatxullaev A., Raximjonov M.A., Muxitdinova M.U. Go'sht-sut biokimyosi. Darslik. Toshkent "Cho'lpon" nashriyoti, 2014. – 256 b.
2. T.H.Ikromov «Chorvachilik mahsulotlarini qaytaishlash texnologiyasi». O'quv qo'llanma. T. «O'qituvchi» 1997.
3. Ismoilov T.A. Sut mahsulotlari ishlabchigarish texnologiyasi va texnikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent, TKTlbosmaxonasi, 2013. – 300 b.
4. Choriyev A.J, Dodayev Q.O. Konserva ishlab chiqarishda texnik-kimyoviy nazorat. OTM bakalavriatura talabalari uchun o'quv qo'llanma. TTKI, 2014. –122b.
5. Fatxullaev A.A. Texnik-kimyoviy nazorat.Ma'ruzalar matni. TTKI, 2007.
5. Fatxullaev A.A., Ismoilov T.A. Texnik-kimyoviynazorat. Amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy qo'llanma. TTKI, 2007.

